11. Мирзаев А.Т. Ўзбекистонда туристик-рекреация хизматларини бошқариш жараёнига омиллар таъсирини баҳолаш. Хитойда саноатлашувни жадаллаштиришда кластерлаш модели хусусиятлари. Бизнес-Daily медиа. -2020, №6. -57-61-б.

12. Мирзаев А.Т. Туристик-рекреация кластерларини бошқаришда инновацион салоҳиятнинг ресурс компонентини баҳолаш услубиёти // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. -2020, №4. 4/2020 (№ 00048). 390-401 б. http://iqtisodiyot.tsue.uz
13. Мирзаев А.Т. Туристик-рекреация хизматлар бозорида бошқарув тизимини ривожлантириш истиқболлари// Иқтисодиёт ва таълим. -2020, №4. 247-252-б.
14. Мирзаев А.Т. Рекреацион – туризм кластерларини яратиш ёхуд улар орқали ҳудудларда сайёҳлик тизимини ривожлантириш истиқболлари // Бизнес-эксперт. Фонд бозорлари фаолияти самараси ва унга тижорат банклари фаолияти таъсири. Бизнес-Daily медиа. -2017, №12. -21-24-б.
15. Мирзаев А.Т. Туристик-рекреация объектлари кластерларини шакллантириш механизмларини баҳолаш // Иқтисодиёт ва таълим. -2018, №6. -207-213-б.
16. Мирзаев А.Т. Туристик хизматлар бозорида рекреацион туризм хизматларига талабнинг ўзгаришлар таҳлили // Иқтисодиёт ва таълим. -2019, №1. 214-219-б.
17. Мирзаев А.Т. Оценка использования рекреационных возможностей на рынке туристических услуг // Региональная экономика: теория и практика - 2019. №5 (464). Россия. С.990-1002.
18. Мирзаев А.Т. Совершенствование интегральной оценки механизма рекреационно-туристических объектов // Бюллетень науки и практики. 2019. Т. 5. №2. https://doi.org/10.33619/2414-2948/39. Нижневартовск, Россия. С.127-134.
19. Mirzaev A.T. Туристик-рекреация кластерларини бошқаришда инновацион салоҳиятнинг ресурс компонентини баҳолаш услубиёти “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020 yil. 390-401 б.
20. Мирзаев А.Т. Методологические основы развития и повышения конкурентоспособности туристско-рекреационной деятельности// Бюллетень науки и практики. 2021. Т. 7. №10. https://doi.org/10.33619/2414-2948/71/33. Нижневартовск, Россия. С.283-293.

**UDK: 338+339/338.1**

## MAMLAKATIMIZDA BIZNES KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

## ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМА ФИНАНСИРОВАНИЯ БИЗНЕС ПРЕДПРИЯТИЙ В НАШЕЙ СТРАНЕ

## PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF THE FINANCING MECHANISM FOR BUSINESS ENTERPRISES IN OUR COUNTRY

**Olimova N.X. FDU, i.f.n., dots.**

### Annotatsiya

Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari korxonalararo kooperatsiya va integratsion jarayonlarni rivojlantirish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish taqozo etilishi xususida fikr yuritiladi. Shu asosda mazkur ishda mamlakatimiz biznes va tadbirkorlik sub’yektlari o‘rtasida integratsiya va kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan hamda biznesni yuritish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, biznes yuritish strategiyasini aniqlash va bunda kooperatsiya-integratsiya aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** biznes, korxona, sanoat, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, tadbirkorlik, integratsiya, kooperatsiya, investitsiya, strategiya, investitsion faollik, boshqaruv, rivojlanish.

В статье рассматривается вопрос о необходимости научного исследования вопросов развития кооперации и интеграционных процессов субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства. На этой основе в данной работе раскрыты специфические аспекты развития интеграционных и кооперативных отношений между субъектами бизнеса и предпринимательства нашей страны, разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на определение приоритетных направлений ведения и развития бизнеса, стратегии ведения бизнеса и развитие при этом кооперативно-интеграционных отношений.

**Ключевые слова:** бизнес, предприятие, промышленность, производство, сервис, предпринимательство, интеграция, кооперация, инвестиции, стратегия, инвестиционная активность, управление, развитие.

The article considers the need for scientific research on the development of cooperation and integration processes of small businesses and private entrepreneurship. On this basis, this work reveals the specific aspects of the development of integration and cooperative relations between business entities and entrepreneurship in our country, scientific proposals and practical recommendations aimed at identifying priority areas of business and business development, business strategies and the development of cooperative and integration relations.

**Key words:** business, enterprise, industry, production, service, entrepreneurship, integration, cooperation, investment, strategy, investment activity, management, development.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakat milliy iqtisodiyotining barqaror taraqqiy etishida muhim o‘rin tutadi. Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh.Mirziyoev aytganlaridek, “Bizning yana bir muhim vazifamiz - kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat” [1].

O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror sur’atlarda rivojlantirish omillaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotini ta’minlash hisoblanadi. Ushbu soha bozor kon’yunkturasi o‘zgarishlariga tez moslasha olish, yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta’minlash va daromad manbalarini yaratish, o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish kabi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o‘zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta’minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kreditlar, xom ashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Keltirilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda kichik biznes sub’yektlari va korxonalarida o‘rta va uzoq muddatlarga mo‘ljallangan moliyaviy barqarorlikni ta’minlash dasturini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes sub’yektlarining iqtisodiy salohiyati va undan foydalanish imkoniyatlarini belgilab beruvchi me’yoriy hujjatlar dasturini amalga oshirishda korxonaning moliyaviy barqarorligini resurslar bilan ta’minlovchi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kichik biznes sub’yektlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash dasturi tadbirlari maqsadlar, sharoitlar va resurslar bo‘yicha o‘zaro bog‘langan. Dastur tadbirlari korxonani rivojlantirish strategiyasining maqsadiga erishish uchun korxonaning foydalanilmayotgan qirralari, moliyaviy taqchillikka sabab bo‘layotgan omillarni aniqlash va qo‘yilgan strategik vazifani hal etishni ta’minlovchi variantli hisob-kitoblarni amalga oshirish zaruriyatini belgilab beradi.

Davlatimiz tahbari Sh.Mirziyoev 2021 yil 20 avgust kuni tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash borasida quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishlarni keltirib o‘tdi:

1.Tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasi va kreditlarning maqbul foiz stavkalarini shakllantirish yo‘nalishida:




**1-rasm. Kichik biznes sub’yektlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash dasturi [3]**

Kreditlar bo‘yicha stavkalar pasayadi, valyuta xatarlari sug‘urtalanadi. Banklarning kapitalini oshirish maqsadida 2022 yilda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan bozor tamoyillari asosida qo‘shimcha 600 mln. dollar ajratiladi. Bu mablag‘lar tanlov asosida ham davlat, ham xususiy banklarga joylashtiriladi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan mablag‘larni jalb qilmoqchi bo‘lgan bank tashqi va ichki moliya bozorlaridan kamida 30% qo‘shimcha resurslar jalb qiladi. Jumladan, banklar tomonidan 2022 yilda xalqaro moliya bozorlarida milliy valyutada 5 trln. so‘mlik evrobondlar chiqariladi [9].

Banklar chetdan resursni qaysi valyutada jalb qilishidan qat’iy nazar, tadbirkorlarga kreditni milliy valyuta - so‘mda va biznes vakillari uchun maqbul foizlarda berish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. «Ushbu kompaniya banklar tomonidan chet el valyutasida jalb qilinayotgan mablag‘larni so‘mga o‘girib, kreditni ichki bozorda faqat milliy valyutada berish uchun zarur sharoit yaratadi» [10].

1 oktyabrdan boshlab, ilgari 1 mln. dollargacha xorijiy valyutada olingan 6 mingga yaqin tadbirkorning jami 1 mlrd. dollarga yaqin kreditlari, tadbirkor va tijorat banklari o‘rtasidagi kelishuvga asosan, milliy valyutaga o‘tkazib beriladi.

Taklif etilayotgan mexanizmlar hisobiga, tijorat banklarida har yili o‘rtacha 30-40 trln. so‘mlik milliy valyutadagi, uzoq muddatli qo‘shimcha resurslar shakllanadi. Bular hisobiga, tadbirkorlar milliy valyutadagi kreditlarni uzoq muddatga va hozirgi stavkalardan kamida 5% arzon olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [11].

Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida onlayn platforma yaratiladi. Kreditni rasmiylashtirishdan tortib, mahsulotni olish-sotishgacha bo‘lgan barcha jarayonlar elektron tarzda,

onlayn hal etiladi. O‘z navbatida, ushbu platforma ta’minotchi korxonalar uchun ham kamida 10 trln. so‘mlik bozor yaratadi.

Mikromoliya tashkilotlarini litsenziyalash bekor qilinadi. Biznesni moliyalashtirish manbalarini yanada ko‘paytirish maqsadida nobank kredit tashkilotlarini ochish va yuritishga qo‘yiladigan mavjud talablar engillashtiriladi. Shu bilan birga, mikromoliya tashkilotlariga boshqa tashkilotlardan mablag‘lar jalb qilish, obligatsiyalar chiqarish huquqlari hamda banklar kabi to‘lovlarni qabul qilish vakolati beriladi. Ushbu yangi imkoniyatlar hisobidan kredit bozorida tadbirkorlar uchun yiliga qo‘shimcha 10 trln. so‘m mablag‘ shakllanadi.

2.Soliq tizimini takomillashtirish, biznesga soliq yukini imkon qadar kamaytirish yo‘nalishida [9]:

2020 yil fevral oyida «Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilingunga qadar iqtisodiy zonalarda ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlarga berilgan imtiyozlar saqlab qolinadi. Shuningdek, ichki bozorda teng raqobat bo‘lishi uchun eksport mahsulotlari ishlab chiqarishga olib kelingan xom ashyo import bojidan ozod etiladi.

Noruda qazilmalarga (qum-shag‘al, ohaktosh, gips, dolomit kabi) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 2 barobarga kamaytiriladi. Buning hisobiga, 1,5 mingga yaqin korxonalar ixtiyorida yiliga 500 mlrd. so‘m mablag‘ qoladi. Jami 13 mingta umumiy ovqatlanish korxonasi yil yakuniga qadar yer va mulk solig‘idan ozod qilinadi. Bu qo‘shimcha 30 mlrd. so‘m korxonalar ixtiyorida qolishini anglatadi. Shu bilan birga, turizm kompaniyalari va mehmonxonalarni turistik yig‘imlardan 2 yil muddatga ozod qilinadi. Buning natijasida 2 ming nafar tadbirkor ixtiyorida 150 mlrd. so‘m qoladi.

2022 yildan QQSni qo‘shimcha hujjatsiz qaytarish tartibi amaliyotga joriy etiladi. 2022 yildan boshlab, qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olishda soliq va bojxona idoralarining elektron bazalari o‘zaro bog‘lanadi, ya’ni soliq idoralarida mavjud qo‘shilgan qiymat solig‘i ortiqcha to‘lovlar bojxona to‘lovlarini amalga oshirayotganda ham inobatga olinadi. Ushbu engillikdan 10 mingdan ziyod tadbirkor foydalanishi mumkin bo‘ladi [8].

Tadbirkorlarga o‘z korxonasi joylashgan yer maydoni mulk qilib egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqi asosida rasmiylashtirib beriladi. Bu yerni xususiylashtirishga faqat yer egasining o‘zi haqli bo‘ladi. Bunda, erning turiga qarab, uning joylashgan hududidan kelib chiqib, yerlar imtiyozli shartlar asosida ushbu korxonalarga xususiylashtirib beriladi. Bundan keyin tadbirkorlar erdan yuqori likvidli aktiv va garov ob’yekti sifatida foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bundan buyon davlat mulki ob’yektlari, ular joylashgan yer bilan birga yagona mulkiy majmua sifatida auktsion orqali sotiladi.

Tasdiqlangan dasturga qo‘shimcha ravishda yil yakuniga qadar yana 500 ta davlat aktivlari ochiq savdoga chiqariladi. Bundan keyin yangi yer maydonlarini auktsionga chiqarishdan oldin, hudud rivojlanishining aniq rejasi tuzib olinadi. Har bir viloyatda maxsus jamg‘armalar tashkil etiladi va yer maydonlarini sotishdan tushgan mablag‘ to‘liq tuman va shaharlar ixtiyorida qoldirilib, tadbirkorlar uchun infratuzilma yaratish va rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

4.Tadbirkorlik faoliyatini infratuzilma bilan ta’minlash yo‘nalishida:

2022 yil 1 yanvardan boshlab, qiymati 200 mlrd. so‘mga teng loyihalar bo‘yicha elektr, tabiiy gaz, suv tarmoqlari va yo‘l infratuzilmasini yetkazib berish to‘liq davlatning zimmasida bo‘ladi. Kelgusi 2 yilda respublika bo‘yicha qo‘shimcha 200 ta sanoat zonalari tashkil etiladi. Ularning har biriga kamida 15 ta korxonani joylashtirish mo‘ljallanib, elektr, tabiiy gaz, suv tarmoqlari va yo‘l infratuzilmasi yetkazib berish to‘liq davlatning zimmasida bo‘ladi [12]. Ushbu maqsadlar uchun, 2022 yilda budjetdan 2 trln. so‘m mablag‘ ajratiladi.

2023 yilga qadar elektr energiyasi bo‘yicha qo‘shimcha ishlab chiqarish quvvatlari 4 ming 400 Megavattga oshiriladi. 2022 yil boshidan Energetika vazirligi tomonidan elektr tarmoqlariga ulanishning yangi, qulay tizim joriy etiladi. Bunda elektr tarmog‘iga ulanish to‘liq elektron platformaga o‘tkaziladi va barcha jarayonlar bir bosqichga tushiriladi.

5.Eksportyor korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, kichik biznesni eksport faoliyatiga keng jalb qilish yo‘nalishida [8]:

2021 yil 1 oktyabrdan eksportdan valyuta tushumini kutmasdan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarib berish tartibi barcha tarmoqlarning halol va intizomli eksportyorlariga nisbatan tatbiq etiladi.

6.Transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish yo‘nalishida [8]:

Yuk avtomobillarini olib kirish uchun berilgan bojxona imtiyozlari yana 3 yilga uzaytirildi.

Temir yo‘l tariflarini qayta ko‘rib chiqiladi. Bunda, tadbirkorlarga mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan xom ashyo importi uchun amaldagi tariflar kamida 25% arzon bo‘ladi.

Transport vazirligi 2022 yil 1 yanvardan boshlab har bir xizmatning tannarxi va uning tarkibini keng jamoatchilikka e’lon qilib boradi.

2022 yilda o‘z vagoni va konteyneriga ega bo‘lgan xususiy logistika operatorlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi va tariflar ikkiga ajratiladi. Bunda, davlat tomonidan faqatgina temir yo‘l infratuzilmasi hamda lokomotiv xizmatlari tartibga solinadi, yuk vagonlari xizmati esa bozor tamoyillari asosida tashkil qilinadi.

Shuning uchun, xususiy tadbirkorlarga temir yo‘l vagonlarini olib kelishga berilgan imtiyozlar 2025 yil 1 yanvargacha uzaytiriladi va b.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini kreditlash bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi muammolar mavjud:

- kichik biznes sub’yektlarini mikrokreditlash amaliyotini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning mavjudligi;
- bozor infratuzilmasi, shu jumladan, mikromoliyaviy infratuzilmaning to‘liq shakllanmaganligi va yetarli darajada rivojlanmaganligi, ushbu xizmat bozorining hududlar bo‘yicha notekis joylashganligi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan investitsiya, boshlang‘ich va aylanma kapitalni to‘ldirish uchun katta hajmdagi kreditlarga ehtiyoj mavjudligi;
- xorijiy moliyaviy fondlar tomonidan ajratilayotgan kreditlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, jumladan tadbirkor ayollar ish faoliyatiga jalb etish jarayonlarining sustligi;
- tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini yanada kengaytirishda xorijiy mamlakatlar xalqaro moliya institutlari va hukumatlari imtiyozli kredit liniyalari va grantlarini jalb etish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmaslik va b.

Fikrimizcha, kichik biznes va tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida kooperatsion-integratsion aloqalarni hamda ularning faoliyatini moliyalashtirishning moliya-kredit mexanizmini rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir [8]:

- mamlakatimiz va uning hududlarida yanada qulay biznes muhiti yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo‘naltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- xususiy tadbirkorlikka ko‘proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funktsiyalari va belgilangan me’yorlarni qisqartirish;
- kichik biznes sub’yektlarini qurish va ularni muxandislik kommunikatsiya tarmoqlari - energiya va gaz ta’minoti, suv va issiqlik ta’minoti hamda boshqa tarmoqlarga ulanishi bo‘yicha shart-sharoitlarni yaxshilash va muddatlarini qisqartirish;
- kichik biznes sub’yektlarining moliya-kredit va xom ashyo resurslaridan, ular ishlab chiqargan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishni ta’minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tatbiq etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to‘lovlar bo‘yicha yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, imtiyoz va preferentsiyalar berish, hisobotlar tizimi hamda moliya, soliq va statistika organlariga hisobotlar topshirish mexanizmini takomillashtirish va unifikatsiyalash;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlariga tijorat banklari tomonidan kreditlar berish mexanizmini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish;
- kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish va yo‘naltirish;

- sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish masalalarini tubdan hal etish, ularning eksport salohiyatini oshirishga ko‘maklashish va b.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini kreditlash mexanizmini rivojlantirish chora-tadbirlarining samarali amalga oshirilishi: yangi ish o‘rinlarini barpo etish asosida ishsizlar sonini qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashga; respublikaning barcha mintaqalaridagi mikromoliyaviy xizmatlarga muhtoj aholini to‘liq qamrab oluvchi mikromoliyalashning zamonaviy tizimini yaratishga; kam ta’minlangan, biroq iqtisodiy faol aholi qatlamini va yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali istiqbolda o‘rta mulkdorlar keng qatlamining shakllanishiga; tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini mikromoliyalash hajmlarini ko‘paytirishga va barqaror iqtisodiy o‘sishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib ta’kidlash lozimki, kichik biznes sub’yektlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining yanada takomillashtirilishi va ularning barqaror rivojlanishini ta’minlash borasidagi yangi samarali chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi respublikaning iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta’minlashga va uning tashqi bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kichik biznesni moliyalashtirishni takomillashtirish avvalambor, shu soha vakillari faoliyatidagi to‘siqlarni bartaraf qilish, tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish, xorijiy kredit liniyalarini jalb etish, tijorat banklariga ular faoliyatini kreditlash bilan bog‘liq imtiyozlar yaratish, aniq axborotlar bazasini shakllantirish, garov bilan bog‘liq muammolarni bartaraf qilishdan iboratdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. / Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-sonli Farmoni
3. Рахимова О. Корхоналар кооперацияси ва интеграцион жараёнларнинг шаклланиши. иқт.фан.номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: 2017й.
4. Олимова, Н. Х., & Каримов, Ш. Х. (2020). Реал сектор корхоналарида инновацион янгиликларни жорий қилишнинг ташкилийиқтисодий механизмини такомиллаштириш. In Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари (pp. 423-427).
5. Akhunova, O. E., Kh, O. N., & Kh, E. A. (2019). Role of innovative technologies in ensuring competitiveness of export products in Uzbekistan. Process management and scientific developments.
6. Олимова, Н. Х., & Эргашев, А. Х. (2017). Особенности оценки инвестиционной привлекательности реального сектора экономики. www. issledo. ru Редакционная коллегия, 120.
7. Олимова, Н. Х., & Юлдашев, Д. Т. (2016). The role of small business and private entrepreneurship in the economic activities. Молодой ученый, (9), 682-683.
8. http://elibrary.ziyonet.uz
9. http://el.tfi.uz
10. https://isfi.uz/markaziy-osiyodagi-integratsion-jarayonlar-muhokama-qilinadi/
11. http://vestnik_2018_4
12. http://norma.uz

**UDK: 338.486**

## TURIZM SOHASIDA TURISTIK XIZMATLARGA BO‘LGAN TALAB MAVSUMIYLIGI VA UNI KELTIRIB CHIQRUVCHI OMILLAR

## СЕЗОННОСТЬ СПРОСА НА ТУРИСТСКИЕ УСЛУГИ В СФЕРЕ ТУРИЗМА И ЕГО ВЫЗЫВАЮЩИЕ ФАКТОРЫ

## SEASONALITY OF DEMAND FOR TOURIST SERVICES IN THE FIELD OF TOURISM AND ITS CAUSATIVE FACTORS

**Asraqulov Abduraxmon Sultonovich**
**Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi, i.f.f.d., PhD,**
**“Buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil” kafedrasi katta o‘qituvchisi**

Maqolada turistik xizmatlarga bo‘lgan talab mavsumiyligining mohiyati, mavsumiylikning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi omillar nazariy jihatdan o‘rganilgan holda mavsumiy tebranishlar intensivligi darajasiga ta’sir etuvchi omillar tizimlashtirilgan. Shu bilan birga maqolada turistik xizmatlarga bo‘lgan talab mavsumiyligi tebranishlarini barqarorlashtirish bo‘yicha yo‘nalishlar aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** mavsumiylik, mavsumiylik omillari, mavsumiy tebranishlar, talab yuqori mavsum, talab past mavsum, "o‘lik" mavsum, mavsumiylik tebranishlarini barqarorlashtirish.

В статье систематизированы факторы, влияющие на уровень интенсивности сезонных колебаний, с теоретическим изучением сущности сезонности спроса на туристские услуги, факторов, влияющих на возникновение сезонности. При этом в статье определены направления стабилизации колебаний сезонности спроса на туристские услуги.

**Ключевые слова:** сезонность, факторы сезонности, сезонные колебания, высокий спрос, низкий спрос, "мертвый" сезон, стабилизация сезонных колебаний.

The article systematizes the factors influencing the intensity of seasonal fluctuations, with a theoretical study of the essence of the seasonality of demand for tourist services, factors influencing the occurrence of seasonality. At the same time, the article defines the directions of stabilization of fluctuations in the seasonality of demand for tourist services.

**Keywords:** seasonality, seasonal factors, seasonal fluctuations, high demand, low demand, "dead" season, stabilization of seasonal fluctuations.

Bugungi kunda turizm sohasida ham milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalarida bo‘lgani kabi bir qator tadqiq etilishi va salbiy jihatlar baratараf etilishi lozim bo‘lgan masalalar mavjud bo‘lib, ushbu muammolarning hal etilishi sohaning barqaror rivojlanish darajasini oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Mamlakatimiz turizm sohasidagi asosiy muammolardan biri bu – turistik oqimlarning yil mavsumlari bo‘yicha katta diapazon oralig‘ida tebranishi hisoblanib, mamlakat darajasida turizm sohasini barqarorlashtirish borasidagi chora-tadbirlar doirasida ham ushbu masala zaruriy darajada o‘z yechimini topmayapti.

Turistik mavsumni uzaytirish va sohadagi mavsumiy tebranishlarni tekislash muammosini hal qilish hududlarda aholini to‘liq ish bilan ta’minlash imkonini kengaytiradi, turistik obyektlarining moddiy komponentidan foydalanish darajasini oshiradi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi, turistik xizmatlarga talabning mavsumiy tebranishlarga bog‘liqligini kamaytiradi va, natijada, turistik xizmatlarga bo‘lgan talabni barqarorlashtiradi.

Tadqiqotning maqsadi mavsumiylik omilini hisobga olgan holda turistik xizmatlarga bo‘lgan talabni boshqarishning nazariy jihatlarini tizimlashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan

iborat. Tadqiqotni amalga oshirishda turistik oqimlar harakatidagi masvsumiy tebranishlarning eng muhim omillarni o‘rgangan holda, turistik xizmatlarga bo‘lgan talab mavsumiy tebranishlarini barqarorlashtirish borasidagi tadqiqot uslubiyotlari nazariy jihatdan o‘rganib chiqildi.

Ushbu jarayonda talab mavsumiy tebranishlariga omillar ta’sirini baholash uslubiyotlaridan monografik tadqiqot, taqqoslash, tizimli tahlil hamda empirik tadqiqot kabi usullardan foydalanildi.

Bugungi kungacha turistik xizmatlarga bo‘lgan talabning mavsumiyligi bilan bog‘liq izlanishlar bir qator tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Turizm sohasidagi mavsumiylik hamda sohada xizmatlarga bo‘lgan talabning mavsumiylik xususiyatlari V.Antonets tomonidan nazariy tadqiq etilgan bo‘lib, tadqiqotchi o‘z izlanishlarida asosiy e’tiborni mavsumiy lik omilini hisobga olgan holda turistik korxonalarda xizmatlarga bo‘lgan talabni boshqarishga qaratgan [1, 10-17]. YE.Pecheritsa va S.Sexlalarning tadqiqotlarida turizm sohasida mavsumiylik omilining yuzaga kelishi hamda uni keltirib chiqaruvchi omillar nazariy jihatdan o‘rganilgan [2, 164-167; 3, 122-128]. Yana bir qator tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida mavsumiylik omilining turistik xizmatlarga bo‘lgan talabga ta’siri tadqiq etilgan. Jumladan, M.Voloshinova va A Oollar tomonidan turizm sohasida mavsumiy tebranishlar muammosining tahlili va mavsumiylik omilini bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish masalalari tadqiq etilgan [4, 107-114].

Biroq ushbu tadqiqotlar Rossiya Federatsiyasi va boshqa Hamdo‘stlik mamlakatlari doirasidagi hududlar uchun amalga oshirilgan va mamlakatimizda turistik hizmatlarga bo‘lgan talab mavsumiyligi hamda mavsumiylik darajasini tekislash masalalari zaruriy darajada o‘rganilmagan.

Turistik mahsulotlarga bo‘lgan talabning keskin mavsumiy tebranishlarga ta’sirchanligi turizm sohasidagi faoliyatning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. “Mavsumiylik” va “turizmda mavsumiylik” tushunchalariga yondashuvlar bir qator tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan (1-jadval).

**1-jadval**

**“Mavsumiylik”, “turizmda mavsumiylik” tushunchalariga yondashuvlar**

| Manbaa | Tushuncha mazmuni |
|---|---|
| **“Mavsumiylik” tushunchasi** | |
| S.V.Nikolayev [5] | Turli xil iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning o‘sish va pasayish davrlarini belgilaydigan dinamik tebranish jarayonlari |
| I.P.Faminskiy [6] | Iqlim o‘zgarishi, bayramlar va ta’tillar natijasida muntazam ravishda yuzaga keladigan tijorat yoki iqtisodiy faoliyatning o‘zgarishi |
| I.T.Balabanov, A.I.Balabanov [7] | Bir necha yillar davomida ma’lum bir ko‘rsatkich darajasining yillik o‘sishi yoki pasayishida namoyon bo‘ladigan hodisaning yillik dinamikasining barqaror holati |
| I.V.Jukova [8] | Iqtisodiy hodisalarning rivojlanishida barqaror bo‘lgan hamda vaqt oraliqlarida davomida takrorlanadigan davriylik |
| **“Turizmda mavsumiylik” tushunchasi** | |
| I.T.Balabanov, A.I.Balabanov [7] | Barqaror (yildan-yilga) takrorlanadigan, ma’lum bir joyga xos bo‘lgan, rekreatsion sharoitlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq turistik faoliyatning siklik tabiati |
| YE.V.Pecheritsa [2] | Vaqtinchalik beqarorlik, bu dam olish maqsadida kelganlar sonining o‘zgarishi, turistik xarajatlar va boshqalar bilan tavsiflanadi |
| V.G.Antonets [1] | Bu turistik oqimlarning qisqa vaqt ichida ma’lum joylarda to‘planish xususiyati bo‘lib, bu talab va taklifni muvozanatlashda bozor mexanizmining namoyon bo‘lishi va ma’lum bir hudud uchun yildan yilga takrorlanishidir |
| YE.YE.Sharafanova [9] | Turistik faoliyatning siklik tabiati barqaror (yildan-yilga) takrorlanib turadi, bu ma’lum bir joyga xosdir va rekreatsion sharoitlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq |
| S.Y.Sexla [3] | Mavsumiylik – o‘zgaruvchan cho‘qqilar va pasayishlar bilan talabning takrorlanadigan tebranishi |

Yuqorida aytib o‘tilgan “mavsumiylik” va “turizmdagi mavsumiylik” tushunchalarining talqinlarini umumlashtirib, ushbu hodisaning asosiy xususiyatlarini aniqlash mumkin:

- joyga bog‘lanish – “ma’lum bir joy uchun”, “ma’lum joylarda”, “ma’lum bir joy uchun”, “ma’lum bir hudud”;
- dam olish sharoitidagi o‘zgarishlar – “dam olish sharoitidagi o‘zgarishlarga bog‘liq”, “dam olish sharoitidagi o‘zgarishlar bilan bog‘langan”;
- barqarorlik – “barqaror qonuniyat”, “barqaror takrorlanadigan”, “muntazam ravishda”, “barqaror”, “barqaror takrorlanadigan”;
- siklik – “bir necha yillar davomida o‘zini namoyon qiladi”, “takroriy davriylik”, “takrorlanadigan davriylik”, “yildan-yilga takrorlanadi”, “takrorlanadigan tebranishlar”.

Turistik sayohatlarni amalga oshirish intensivligi darajasiga ko‘ra turistik faoliyatni 5 ta mavsumga ajratiladi. Masalan, L.V.Semyonova tomonidan turistik faollikning alohida bosqichlarida turizm ob’ektlaridan foydalanish mavsumiyligi uning xususiyatlariga asosan farqlanadi (2-jadval).

**2-jadval**

**Turistik faoliyatning intensivlik mavsumlari [10, 56-60]**

| Mavsum nomi | Mavsum tavsifi | Turistik destinatsiyadan foydalanish xususiyatlari |
|---|---|---|
| “Pik” yoki “qaynoq” mavsum | Turistik hududlardagi eng yuqori turistik zichlik davri, bu turistlarning katta oqimi bilan tavsiflanadi. Bu davr ko‘pincha davlat va diniy bayramlar, madaniy tadbirlar, ta’lim muassasalaridagi ta’tillar va boshqalarga to‘g‘ri keladi. | Turistlar oqimining kattaligi sababli destinatsiyalardagi sig‘im talabga nisbatan past bo‘lib, tig‘izlikni yuzaga keltiradi. |
| “Yuqori” mavsum | Xizmatlarga yuqori narxlar qo‘llanilganda ham turizm bozorida talabning yuqoridarajada bo‘lish davri (dunyoning turli burchaklarida ob-havo sharoitlariga bog‘liq). | Turistik obyektlarning yuqori darajada band bo‘lishi. |
| Mavsumlararo davr | “Yuqori” va “past” mavsum orasidagi davr bo‘lib, turistik oqimning keskin ortishi yoki pasayishi aniq seziladi. | “Yuqori” mavsumga o‘tish: destinatsiyalarni yuqori sig‘imga tayyorlash, xodimlarni o‘qitish, turistik faoliyatni faol targ‘ib qilish. “Past” mavsum ga o‘tish: tig‘izlik pasayishiga tayyorlanish, xodimlarni vaqtinchalik ozod qilish. |
| “Past” mavsum | Bu mavsum turistik xizmatlarga talabning pasayishi bilan tavsiflanadi. Xizmatlar uchun tariflar pasayadi, ammo boshqa tomondan, aynan shu davrda budjet ta’tilini o‘tkazish imkoniyati mavjud. | Turistik destinatsiyalarda yuklamaning kam bo‘lishi. |
| “O‘lik” mavsum | Odatda, bu mavsum salbiy iqlim sharoiti bilan bog‘liq holda kelib chiqadi (tropik zonadagi yomg‘irli mavsum, plyaj kurortlarida salqin mavsum va boshqalar.) | Turistik destinatsiyalardagi faoliyat juda past ko‘rsatkichlar bilan kuzatiladi. |

Mavsumiylik aksariyat mamlakatlarda talab va taklif tomonida turizm bozorlarining shakllanishi va faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Biroq turli xil yashash joylari mavsumiy tengsizlikning o‘ziga xos shakllariga ega. Bu esa ma’lum bir hududda, mamlakatda va mintaqviy miqyosda notekis talabning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Har bir turistik destinatsiya yil davomida sayyohlar bilan butunlay boshqacha tarzda to‘ldirilishi mumkin va shu

sababli ma’lum bir hududda, mamlakatda va mintaqa miqyosida turistik xizmatlarga talab bir biridan farqlanadi. Turistik xizmatlarga bo‘lgan talab mavsumiyligi turistik faoliyat turi va uning qamrab olgan hududiga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkin (3-jadval).

**3-jadval**

**Mavsumiylikka nisbatan turistik faoliyat turlari**

| Mavsumiylikka bog‘liqlik | Turistik faoliyat turlari |
|---|---|
| Mavsumiy tebranishlarga bog‘liqlik | Sog‘lomlashtirish turizmi, plyaj turizmi, tog‘-chang‘i turizmi, ov turizmi |
| Mavsumiy tebranishlarga past darajada bog‘liq | Madaniyat turizmi, fototurizm, hodisa turizmi, ijtimoiy turizm, ta’lim turizmi, ziyorat turizmi, gastronomik turizm |

O‘ziga xos mavsumiylik xususiyatiga ega bo‘lgan turistik faoliyat turlarining uyg‘unligi hudud uchun turistik jarayonlarni tartibga solish, infratuzilma korxonalariga yanada samarali ishlash va hududning turistik imkoniyatlaridan to‘liqroq foydalanish imkonini beradi.

Turistik faoliyat mavsumiyligining kelib chiqishi yoki intensivlik darajasiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarni muhimlilik darajasiga ko‘ra birlamchi va ikkilamchi omillarga ajratish mumkin (4-jadval).

**4-jadval**

**Turizmda mavsumiylik darajasiga ta’sir etuvchi omillar**

| Omil guruhlari nomi | Omil guruhlarining tavsifi |
|---|---|
| **Birlamchi omillar** | |
| Tabiiy-iqlim omillari | Sport, sog‘lomlashtirish, ta’lim va turizmning boshqa turlarini rivojlantirish uchun noyob rekreatsion resurslarning uyg‘unlashuvi |
| **Ikkilamchi omillar** | |
| Iqtisodiy omillar | Turistik mahsulotlar iste’moli tarkibi, taklif orqali talabning to‘lovga qobilligi shakllanishi |
| Ijtimoiy omillar | Bo‘sh vaqtning mavjudligi (mehnat ta’tillari, ta’lim muassasalaridagi ta’tillar) |
| Demografik omillar | Yosh va jinsga oid belgilar bo‘yicha talabning tabaqalanishi |
| Moddiy-texnik omillar | Ovqatlanish, joylashtirish, transport, madaniy va sog‘lomlashtirish xizmati tarmoqlarining rivojlanganlik darajasi |
| Texnologik omillar | Sifatli xizmatlarni taqdim yetishga kompleks yondashuv |
| Siyosiy vaziyat va xalqaro muhit | Sanksiyalar, harakatlanishning cheklanishi |

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, turizm xizmatlariga bo‘lgan talab mavsumiyligiga geografik omil, aniqroq aytganda iqlim omili ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi [11, 182-184]. Ko‘pgina hollarda, yoz oylarida, dam olish faoliyati uchun eng qulay, eng yuqori va yuqori mavsumlar kuzatiladi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan omil guruhlari tarkibiga kiruvchi omillar turizm xizmatlari mavsumiyligi darajasi va intensivligiga ikki yo‘nalishda – ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Quyida alohida omillarning talab mavsumiyligiga ta’sirining har ikki jihatini ko‘rib chiqamiz.

I. Iqtisodiy omillar.

1. Salbiy ta’sir:

- ✓ mavsumiy daromad olish hisobiga faoliyatning past iqtisodiy samaradorligi;
- ✓ kapital qo‘yilmalarning past rentabellik darajasi;
- ✓ budjetning samarasiz boshqarilishi;
- ✓ yillik doimiy xarajatlarni kamaytirish bilan bog‘liq muammolar;
- ✓ investorlarni jalb qilishda qiyinchiliklar;
- ✓ eng yuqori mavsumda imkoniyatlarning yetishmasligi;

- ✓ past mavsumda obyektlardan yetarli darajada foydalanmaslik.

2. Ijobiy ta’sir:

- ✓ bo‘sh turgan mablag‘larni binolarni ta’mirlash uchun ajratish imkoniyati.

II. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar.

1. Salbiy ta’sir:

- ✓ xodimlar professionallik darajasining pastligi;
- ✓ sohada malakali kadrlarni saqlab qolish va ularning malaka darajasini saqlab qolish muammosi;
- ✓ erta o‘qitish zarurati tufayli mavsumiy asosda jalb qilingan ishchi kuchini o‘qitish narxining ortishi;
- ✓ yuqori mavsumda kadrlarga talab yuqori bo‘lganligi sababli ish haqining ortishi;
- ✓ karera imkoniyatlarining yetishmasligi;
- ✓ mavsumdan tashqari ishlarga talabning yetishmasligi.

2. Ijobiy ta’sir:

- ✓ talabalar va uy bekalari kabi ijtimoiy klasterni ishga joylashtirish imkoniyati;
- ✓ mahalliy aholi uchun qo‘shimcha daromad sifatida to‘liqsiz ish.

III. Ekologik omillar.

1. Salbiy ta’sir:

- ✓ yovvoyi tabiatni muhofaza qilish rejimining buzilishi;
- ✓ ekologik vaziyatning yomonlashishi: havoning ifloslanishi, oqava suvlarni yo‘q qilish muammolari va boshqalar;
- ✓ eng yuqori mavsumda tabiiy majmualar va muhandislik infratuzilmasiga haddan tashqari antropogen va texnogen yuklar tushadi, bu ularning holatiga salbiy ta’sir qiladi;
- ✓ tabiiy resurslarning kamayishi xavfi.

IV. Ijtimoiy-madaniy omillar.

1. Salbiy ta’sir:

- ✓ yilning ma’lum bir vaqtida va aniq manzilda tadbirlarda qatnashishga undovchi jamoatchilikning ta’siri.

2. Ijobiy ta’sir:

- ✓ turli fasllarda mehmonlarning turli guruhlarini jalb qilish imkoniyati (shu jumladan to‘lov qobiliyati darajasi va boshqalar).

Кўриб ўтилган омилларнинг ижобий таъсири салбий таъсирга нисбатан камлиги мавсумийлик омилларининг туристик хизматларга бўлган талаб ўзгаришини кўп ҳолларда салбий томонга буришини кўрсатади.

Turizm sohasida yaratilayotgan xizmatlarga bo‘lgan talabga mavsumiylik omillari ta’sirini o‘rganish asosida mavsumiylikning talabga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish lozimligi aniqlandi:

1. Turistik xizmatlarni diversifikasiyalash orqali yil mavsumlarining barchasida ko‘rsatiladigan turistik xizmatlarni taklif etish.
2. Turistik xizmatlarga bo‘lgan tariflarda mavsumiy o‘zgaruvchan baholarni qo‘llash.
3. "Turistik keshbek" dasturi yoki hodisali tadbirlarni amalga oshirish kabi motivasion dasturlarni amalga oshirish.
4. Hududlararo hamkorlik dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xodimlar uchun xarajatlarni qisqartirish kabi tashkiliy jarayonlar vositasida mavsumiy omillarning salbiy ta’sirini pasaytirish.

Yuqorida taklif etilayotgan choralar vositasida turistik xizmatlarga bo‘lgan talabga mavsumiylik omil guruhlarining salbiy ta’sirini pasaytirish, turistik hududlarda diversifikasiyalangan barqaror talabni shakllantirish imkonini kengaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Антонец, В. Г. Управление спросом на туристическом предприятии с учётом фактора сезонности // Проблемы и перспективы развития туризма в Российской Федерации:

Сборник научных трудов / Севастопольский экономико-гуманитарный институт (филиал), ФГАОУ ВО «Крымский федеральный университет им. В.И. Вернадского». Симферополь: Крымский федеральный университет им. В.И. Вернадского, 2020. С. 10-17.

2. Печерица, Е. В. Понятие сезонности в туристической индустрии / Е. В. Печерица // Актуальные проблемы развития индустрии гостеприимства : сборник трудов, Санкт-Петербург, 27 апреля 2016 года / Под редакцией О. Н. Кострюковой, О. А. Никитиной, Е. В. Печерица. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный экономический университет, 2016. – С. 164-167.
3. Цехла С.Ю. Признаки сезонности в туризме / С.Ю. Цехла, А.С. Окуловский // Менеджмент предпринимательской деятельности: материалы десятой научнопрактической конференции студентов, аспирантов и докторантов. – Симферополь: ДИАЙПИ, 2012. - С. 122-128.
4. Волошинова М. В., Ооль А. М. Анализ проблемы сезонных колебаний спроса в туризме и стратегий по решению сезонности // Актуальные проблемы развития сферы услуг : Сборник научных трудов. Под редакцией Ю.В. Долматеня, В.А. Ткачева. Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный экономический университет, 2019. С. 107-114.
5. Николаев, С.В. Особенности фактора сезонности на деятельность субъекта индустрии туризма / С.В. Николаев // ТДР. – 2015. – №2. С. 117-121.
6. Внешнеэкономический толковый словарь / Фаминский И.П. [и др.]; под ред. И.П.Фаминского. М.: ИНФРА-М, 2000. 502 с.
7. Балабанов И. Т., Балабанов А. И. Экономика туризма: Учеб. пособие. М.: Финансы и статистика, 1999. 176 с.
8. Жукова И. В. Влияние фактора сезонности на процесс управления финансами предприятия // Управленческие науки в современной России. 2014. Т. 1. №1. С. 333-335.
9. Шарафанова, Е.Е. Стратегическое планирование развития туристских организаций и гостиничных комплексов: монография / Е.Е. Шарафанова; научный редактор И.Н.Гаврильчак; Санкт-Петербургский государственный университет сервиса и экономики. – СПб., 2015. – 180 с.
10. Семенова Л. В., Новгородова Т. А. Влияние сезонности на развитие гостиничного бизнеса / Л.В. Семенова, Т.А. Новгородова // Туризм и трансграничное сотрудничество: гастрономический туризм и его роль в диверсификации экономической деятельности региона. – 2017. – С. 56-60.
11. Отто, О. В. Роль географического фактора в сезонности туризма / О. В. Отто, А. Г.Редькин // Возможности развития краеведения и туризма Сибирского региона и сопредельных территорий: Сборник материалов XVIII Международной научнопрактической конференции, посвященной 415-летию города Томска, Томск, 31 октября – 01 2019 года. – Томск: [б.и.], 2019. – С. 182-184.

**УДК:3.33.336**

**ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ МОДДИЙ-ТЕХНИК БАЗАСИНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ДАВЛАТ ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИГИНИНГ ЎРНИ**

**РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В УКРЕПЛЕНИИ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ БАЗЫ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ**

**ROLE OF PUBLIC PRIVATE PARTNERSHIP IN STRENGTHENING THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

**Жумақулов З.И. ФарДУ доценти, и.ф.н.**

Мақолада олий таълим муассасалари моддий-техникаа базасини мустаҳкамлашга давлат-хусусий шериклик асосида инвестицияларни жалб қилиниши мумкин бўлган сохалар, жумладан, талабалар турар жойларини барпо этиш бўйича таҳлиллар келтирилган ва тегишли хулосалар баён этилган.

**Калит сўзлар:** олий таълимни модернизация қилиш,давлат бюджети, бюджетдан ташқари маблағлар, ривожлантириш жамғармаси, инвестиция, хорижий инвестиция, давлат-хусусий шерикчилиги.

В статье представлен анализ направлений, в которые могут быть привлечены инвестиции на основе государственно-частного партнерства для укрепления материально-технической базы высших учебных заведений, в том числе создания студенческих общежитий, и соответствующие выводы.

**Ключевые слова:** модернизация высшего образования, государственный бюджет, внебюджетные фонды, фонд развития, инвестиции, иностранные инвестиции, государственно-частное партнерство.

In the article, the analysis of the areas in which investments can be attracted on the basis of public-private partnership to strengthen the material and technical base of higher education institutions, including the establishment of student residences, and relevant conclusions are presented.

**Key words:** modernization of higher education, state budget, extra-budgetary funds, development fund, investment, foreign investment, public-private partnership.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармонида Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш... вазифалари белгиланди[1].

Бугунги кунда республикамиздаги барча олий таълим муассасаларига турли соҳаларда бюджетдан ташқари фаолият билан шуғулланиш ва ушбу фаолиятлардан олий таълим муассасаларининг ривожлантириш жамғармаларига тушурилган маблағлардан мустақил фойдаланишга рухсат берилган. Лекин ушбу маблағларнинг олий таълим муассасаларининг умумий даромадларидаги улуши унча катта эмас.

Ғарб олимларининг кўпчилиги олий таълим муаммоларини ҳал қилишнинг энг самарали усули сифатида молиялаштиришнинг аралаш усулини кўрсатадилар. Бу ўринда давлат ва хусусий молиялаштириш манбаларидан фойдаланиш

мухим ахамият касб этади. Шу сабабли олий таълим муассасаларида талабалар турар жойлари, кутубхона, ўқув устахоналари, лабораториялар, спорт соғломлаштириш ва ижтимоий инфратузилма объектларига нисбатан ўсиб бораётган эҳтиёжни ўз вақтида таъминлаш ва замон талаблари асосида уларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш мақсадлари учун инвестицияларни жалб қилишда давлат—хусусий шериклик соҳаси мухим ахамият касб этади.

Бугунги кунда олий таълим муассасаларида давлат-хусусий шериклик муносабатлари Ўзбекистон республикасининг 2019 йил 10 майда қабул қилинган “Давлат-хусусий шериклик тўғрисида”ги қонуни , Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 26 апрелдаги 259-сон қарори билан тасдиқланган «Давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини амалга ошириш тартиби тўғрисида Низом», “Давлат-хусусий шериклик тўғрисидаги қонунчилик такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек айрим қонун ҳужжатларини ўз кучини йўқотган деб топиш ҳақида” 2021 йил 22 январдаги Ўзбекистон республикасининг қонуни асосида тартибга солинмоқда.

Давлат-хусусий шериклик — давлат шериги ва хусусий шерикнинг муайян муддатга юридик жиҳатдан расмийлаштирилган, давлат-хусусий шериклик лойиҳасини амалга ошириш учун ўз ресурсларини бирлаштиришига асосланган ҳамкорлиги[2].

Давлат ва хусусий секторнинг (тадбиркорлик субъектлари) ҳамкорлигида ижтимоий, иқтисодий ва инфратузилмавий соҳаларда амалга оширилган лойиҳалар, ишлаб чиқариладиган товарлар ва ишлар, кўрсатилаётган хизматларнинг турлари ва сифатининг ошишига, янги иш ўринларининг яратилишида муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Олий таълим муассасаларида давлат-хусусий шериклик муносабатларини амалга ошириш Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2019 йил 26 июлдаги “Вазирлик тизимида давлат-хусусий шериклик муносабатларини ташкил этиш тўғрисида»ги 571-сонли , 2020 йил 5 мартдаги “Тасарруфдаги олий ва ўрта махсус таълим муассасаларида давлат-хусусий шериклик муносабатларини тизимли ташкил этиш тўғрисида»ги 161-сонли буйруғлари асосида ташкил этилади. 2022-2023 ўқув йилида республикамизда олий таълим муассасаларининг жами сони – 211 тани ташкил этиб, шундан давлат олий таълим муассасалари 116 та,хорижий олий таълим муассасалари ва уларнинг филиаллари 30 та ва нодавлат олий таълим муасасалари 65 тани ташкил этган. Олий таълим билан қамраб олиш даражаси 2026 йилга 50 фоиз этиб белгиланган.Бу эса талабалар турар жойида яшаш истагини билдирган талабаларнинг ётоқхона билан таъминланиш даражасини ҳам ошириб боришни талаб этмоқда(1-жадвал).

**1-жадвал**

**Талабалар турар жойида яшаш истагини билдирган талабаларнинг ётоқхона билан таъминланиш даражаси [1]**

| Йиллар | Ётоқхона билан таъминланиш даражаси,% |
|---|---|
| 2016 | 42 |
| 2020 | 28 |
| 2021 | 41 |
| 2022 | 47 |
| 2023-2025 | 68 |

Мазкур эҳтиёжни бартараф этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 9 сентябрдаги 563-сон қарорга мувофиқ 2022-2025 йилларда давлат-хусусий шериклик асосида 86 та олий таълим муассасаларида 91,2 минг ўринли 228 та талабалар турар жойлари барпо этиш белгиланди.

Шу билан бирга “Талабалар турар жойларини давлат-хусусий шериклик шартлари асосида қуриш учун Ўзбекистон республикаси давлат бюджетидан субсидия ажратиш

тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Ўзбекистон республикаси вазирлар маҳкамасининг 2022 йил 6 май 239-сон қарори қабул қилинди.

Талабалар турар жойларини давлат-хусусий шериклик шартлари асосида қуриш учун Давлат бюджетидан субсидия ажратиш тартиби тўғрисидаги низомга кўра, талабалар турар жойларини қуриш лойиҳаларини амалга ошириш учун хусусий шерикка бериладиган субсидия талабалар турар жойларини қуриш лойиҳа-смета ҳужжатлари бўйича бир ўринга тўғри келадиган қийматнинг 50 фоизи, бироқ базавий хисоблаш миқдорининг 100 бараваридан ортиқ бўлмаган миқдорда ажратилади. Бунда лойиҳаларни амалга ошириш учун тадбиркорлар ўртасида тендер ўтказилади.Низомга кўра, давлат-хусусий шериклик тўғрисидаги битим давлат-хусусий шериклик лойиҳаларининг реестрига киритилганидан сўнг хусусий шерик давлат шеригига субсидия ажратиш тўғрисида ариза билан мурожаат қилади.

Давлат шериги аризани 3 иш куни ичида (қўшимча ўрганиш учун – 10 иш куни ичида) ўрганиб чиқиб, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигига юборади.Вазирлик тақдим этилган аризани 5 иш кунида ўрганиб чиқиб, субсидия бериш учун давлат шериги билан субсидия ажратиш юзасидан шартнома имзолайди. Хусусий шерикка талабалар турар жойлари қуриш учун 2 иш куни ичида давлат шериги томонидан биринчи босқичда талабалар турар жойларини умумий қийматининг 15 фоизи миқдорида субсидия ажратилади.

Кейинги босқичларда бажарилган ишлар далолатномаси имзоланган кундан 3 иш куни ичида бажарилган ишнинг 50 фоизи миқдорида, биринчи босқичда ажратилган маблағларни инобатга олган ҳолда субсидия ажратилади.

**2-жадвал**

**Талабалар турар жойлари қувватларининг ошиб бориши [2]**

| Йиллар | Ётоқхона лар қуввати, киши |
|---|---|
| 2016 | 49188 |
| 2020 | 59912 |
| 2021 | 91416 |
| 2022 | 110216 |
| 2023-2025 | 201095 |

Амалга оширилган тадбирлар натижасида талабалар турар жойлари қувватлари 2016 йилдаги 49188 тадан 2022 йилда 110216 тага ёки 224 фоизга оширилди. (2-жадвал)

Ўзбекистон республикаси Олий таълим фан ва инновациялар вазирлиги маълумотларига кўра Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 6 июлдаги 276-сон қарори билан Тошкент шаҳрида жойлашган олий таълим муассасаларида барпо этилиши белгиланган 30 400 ўринли 76 та талабалар турар жойларилар сони 45 679 ўринли 81 тага оширилди. Шунингдек, ушбу қарор билан Тошкент шаҳридаги 12 та олийгоҳларга 16 597 ўринли 28 та талабалар турар жойларини қуриш учун ер майдонлари ажратиб берилди

Ўзбекистон республикаси Олий таълим фан ва инновациялар вазирлиги давлат-хусусий шериклик асосида барпо этиладиган ётоқхоналарни молиялаштириш 4 та шаклда амалга оширилмоқда:

давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини эркин келишиладиган шартларасосида молиялаштириш: 400 ўринли ётоқхона тўлиқ тадбиркор маблағлари ҳисобидан барпо этилади. Бунда, 1 нафар талаба учун бир йилга базавий хисоблаш миқдорининг 25 баробарида млн 250 минг сўм) субсидия ажратилади. Шундан,олий таълим муассасалари ҳисобидан кафолатли тарзда базавий ҳисоблаш миқдорининг 10 баробари ва бюджет ҳисобидан БҲМнинг 15 баробари қоплаб берилади. Сақлаш харажатлари 100 фоиз тадбиркор томонидан амалга оширилади. Бу шаклда тадбиркор 1 йилда 3,3 млрд сўм ва 20 йилда ўртача 66,0 млрд сўмга яқин даромад олади.

2-шаклда давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини аралаш молиялаштириш: 400 ўринли ётоқхона барпо этиш қийматнинг 50 фоизи, бироқ БҲМнинг 100 бараваридан ортиқ бўлмаган миқдорда яъни 13,2 млрд сўмгача қисми ва сақлаш харажатларининг 50 фоизи субсидия ҳисобидан қопланади.

Бу шаклда тадбиркор талаба тўлови ҳисобидан йилига жами 800 млн сўм ва 20 йилда ўртача 16,0 млрд сўмга яқин даромад олади.

3-шаклда давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини белгиланган шартлар асосида молиялаштириш: Ётоқхона тўлиқ тадбиркор маблағлари ҳисобидан барпо этилади. Бунда, 1 нафар талаба учун бир йилга базавий хисоблаш миқдорининг 20 баробарида (6 млн 660 минг сўм) субсидия ажратилади ҳамда талабалардан қўшимча йилига 2 млн сўм йиғилади жами 8 млн 660 минг сўм тўлаб берлади. Сақлаш харажатлари 100 фоиз тадбиркор томонидан амалга оширилади. Бу шаклда тадбиркор 1 йилда 3,5 млрд сўм ва 20 йилда ўртача 70,0 млрд сўмга яқин даромад олади.

4-шаклда тадбиркорларга тегишли биноларда лойиҳаларни молиялаштириш: Камида ўринли ётоқхона тадбиркорга тегишли ер майдони ва мулкида ташкил этилади. Бунда, 1 нафар талаб учун бир йилга базавий хисоблаш миқдорининг 15 баробарида (4 млн 950 минг сўм) субсидия ажратилади ҳамда талабалардан қўшимча йилига 2 млн сўм йиғилади жами 6 млн 950 минг сўм тўлаб берилади. Бу шаклда тадбиркор 1 йилда 2,8 млрд сўмга яқин даромад олади.

Давлат-хусусий шериклик лойиҳаларининг I ва III шакллар учун ётоқхоналарни ўз маблағлари ҳисобидан қурган маҳаллий тадбиркорларга бино умумий майдонининг 20 фоиздан ошмаган қисмига бўлган мулк ҳуқуқини тадбиркорга ўтказилади.

Умуман олий таълим муассасаларида давлат-хусусий шериклик муносабатларининг жорий этилиши улардаги нафақат талабалар турар жойлари, балки кутубхона, ўқув устахоналари, лабораториялар, спорт соғломлаштириш ва ижтимоий инфратузилма объектларига нисбатан ўсиб бораётган эҳтиёжни ўз вақтида таъминлаш ва замон талаблари асосида уларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш мақсадлари учун инвестицияларни жалб қилишда хамда олий таълим муассасаларига тобора кенгайиб бораётган таълим хизматлари бозорида самарали рақобатлаша олишлари учун кенг имконият яратишда мухим рол ўйнайди.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847- сонли "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги фармони. www.lex.uz
2. Ўзбекистон республикасининг 2019 йил 10 майда қабул қилинган "Давлат-хусусий шериклик тўғрисида"ги қонуни. www.lex.uz
3."Талабалар турар жойларини давлат-хусусий шериклик шартлари асосида қуриш учун Ўзбекистон республикаси давлат бюджетидан субсидия ажратиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги Ўзбекистон республикаси вазирлар маҳкамасининг 2022 йил 6 май 239-сон қарори. www.lex.uz
4. Ш.Мустафақулов. Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларига инвестицияларни жалб қилишнинг долзарб масалалари.Т., 2019й.
5. UniCEN.Cetntral asia uniuersite partnersmps program. АҚШ олий таълим тизимигакириш.https://unicen.americancouncilsord.

**UDK: 658.01:6P9.8 (575.1)**

# YOG‘-MOY KORXONALARIDA XOMASHYO RESURSLARIDAN UNUMLI FOYDALANISH DARAJASINI OSHIRISHDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ УПРАВЛЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ УРОВНЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ В НЕФТИ И НЕФТЯНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

# IMPROVING MANAGEMENT PROCESSES TO INCREASE THE LEVEL OF EFFECTIVE USE OF RAW MATERIAL RESOURCES IN OIL AND OIL ENTERPRISES

**Jo‘rayeva Nodiraxon Qurbonovna**
**FarDU, katta o‘qituvchi, (PhD)**

**Annotatsiya**

Maqolada globallashuv va iqtisodiy jarayonlarning beqarorligi sharoitida korxonaning boshqaruv faoliyatini resurs bilan ta’minlash orqali takomillashtirish uchun korxona boshqaruvining funksiyalari, korxonada xomashyo yetkazib berishning vazifalari va korxona xomashyo zaxirasini boshqarish jarayonining “marketing”, “innovatsiyalarni boshqarish” va “ishlab chiqarishni rejalashtirish” funksiyalari kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** samarali boshqaruv, ishlab chiqarishni rejalashtirish, menejment, xomashyo funksiyasi, prognozlash, marketing, innovatsiyalarni boshqarish

В условиях глобализации и нестабильности экономических процессов такие вопросы, как «маркетинг», «инновационный менеджмент» и «планирование производства», функции процесса управления сырьевым обеспечением предприятия, функции управления предприятием, задачи сырьевого обеспечения в предприятие, а также функции управления предприятием по совершенствованию управленческой деятельности предприятия за счет обеспечения ресурсами.

**Ключевые слова:** эффективное управление, планирование производства, управление, сырьевая функция, прогнозирование, маркетинг, управление инновациями.

In the conditions of globalization and instability of economic processes, issues such as "marketing", "innovation management" and "production planning" functions of the enterprise’s raw material supply management process, the functions of enterprise management, the tasks of raw material supply in the enterprise, and the functions of enterprise management to improve the enterprise’s management activities by providing resources are covered in the article.

**Key words**: effective management, production planning, management, raw function, forecasting, marketing, innovation management.

Zamonaviy sanoat korxonalarining faoliyati globallashuv, dinamik bozor muhiti, raqobatning yuqori darajasi, iqtisodiy jarayonlarning beqarorligi, hozirgi kunda iqtisodiy hayotga axborot texnologiyalarini faol joriy etish sharoitida amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda korxonaning boshqaruv faoliyatini takomillashtirish va eng avvalo, uni resurs bilan ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Xarid qilish jarayonini rivojlantirishning dolzarbligi sanoat korxonasi uchun xom ashyo sohasida bo‘lganligi, tadbirkorlik subyektining samaradorligini oshirishning muhim zaxiralari mavjudligi bilan bog‘liq.

Korxonalarni boshqarish tizimini takomillashtirish zarurati jarayonni chuqur o‘rganish uchun yangi vositalarni, boshqaruvning yangi usullarini izlash, iqtisodiy fanni konseptual asoslarini va tahlil doirasini kengaytirishga yo‘naltirish hamda resurslar nazariyasining asosiy tamoyillarini

tadbiq etishni taqazo etadi. Hozirgi, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida alohida korxonaning ayniqsa, oziq-ovqat korxonalarining iqtisodiy obyekti sifatida roli sezilarli darajada namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy islohotlar sharoitida ilgari ma’lum bo‘lmagan noma’lum muammolar paydo bo‘lib, korxonani samarali boshqarishni, mavjud muammoni oqilona hal qilishni talab qiladi.

Genri Fayollning fikriga ko‘ra “Boshqarish - bu korxonani maqsad sari yetaklash” menejmentning asosiy yo‘nalishi maqsadlarni aniqlashdir . Bunday sharoitda korxonani boshqarishning maqsadi - bu nafaqat hozirgi, balki kelajakda ham xavf-xatarli vaziyatlarni doimiy ravishda engib o‘tish, ular uchun tezkor choralar ko‘rish va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish uchun iqtisodiy faoliyatda ma’lum zaxiralar va ma’lum bir mustaqillik talab qilinadi.

Korxona menejmentining foydasi korxonaning mavjudligi uchun emas, balki uning faoliyati natijasi bo‘lib, korxonaning kelgusida muvaffaqiyatli ishlashi uchun shart-sharoitlarni yaratishga mo‘ljallangan kafolatdir. Chunki, faqatgina foyda korxonaning keyingi faoliyati uchun korxonada to‘planishi mumkin bo‘lgan turli xil zaxira fondlarini tashkil topishi, korxona faoliyati bilan bog‘liq xatarlarni cheklash va yengishga imkon beradi. Umumiy shaklda menejmentning maqsad va vazifalari yuqorida keltirilgan 1-rasmda ifodalangan.




**1-rasm. Korxona boshqaruvining funksiyalari**

Boshqarish tizimlarining samaradorligiga erishishni ta’minlaydigan eng muhim omil bu korxonani xomashyo bilan samarali ta’minlashdir. Ishlab chiqarishning har qanday sohasida yagona iqtisodiy subyektning va umuman iqtisodiyotning normal ishlashi uchun xomashyo bilan ta’minlash muammolarini hal qilish zarur.

Xomashyo bilan ta’minlash muammolarini hal qilish uchun avvalambor, asosiy vazifa va funksiyalarni aniq ta’riflash va aniqlash talab etiladi. Xomashyo ta’minoti deganda korxonaning tashkiliy tuzilishi va boshqaruv modellari, xarid jarayoni subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, axborot va texnik ta’minot, korxonaning resursga bo‘lgan ehtiyojini samarali qondira oladigan inventarizatsiya boshqaruv modellaridan foydalanish tushuniladi. Bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda resursni yetkazib berishning asosiy maqsadi eng yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega materiallarga bo‘lgan ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishdir.




**2-rasm. Korxonada xomashyo yetkazib berishning vazifalari va funksiyalari [1]**

Biroq, ushbu maqsadga erishish bir qator muammolarni hal qilishga bog‘liq. Ushbu vazifalarning bizningcha quyidagicha umumlashtirilgan tasnifini keltirish o‘rinli.

Yuqorida keltirilgan 2-rasmda korxonada xomashyo etkazib berishning vazifalari va funktsiyalari korxonaga resurs etkazib berishning o‘ziga xos muammolari mavjud bo‘lib, ushbu muammolarning asosiy sinflarini quyidagicha ta’riflash mumkin:

Birinchidan, vaqtlilik – resurs va butlovchi buyumlarni sotib olishning oqilona muddatlarini saqlash. Belgilangan muddatdan oldin sotib olingan materiallar korxonalarning aylanma mablag‘lariga qo‘shimcha yukni yuklaydi va sotib olishning kechikishi ishlab chiqarish dasturini buzishi yoki uning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, korxona ehtiyojlari uchun kerakli resurs miqdori o‘rtasidagi aniq moslikni ta’minlash. Etkazib berilgan xomashyo miqdorining ortiqcha yoki etarli emasligi aylanma mablag‘lar balansi hamda ishlab chiqarish barqarorligiga salbiy ta’sir qiladi va qo‘shimcha ravishda balansning maqbul holatini tiklashda ortiqcha xarajatlarga olib keladi.

Uchinchidan, resurs sifatini ishlab chiqarish talablariga muvofiqligi.




**3-rasm. Korxona xomashyo zaxirasini boshqarish jarayonining “marketing” “innovatsiyalarni boshqarish” va “ishlab chiqarishni rejalashtirish” funksiyalari [2]**

3-rasmda korxona xomashyo zaxirasini boshqarish jarayonining “marketing” “innovatsiyalarni boshqarish” va “ishlab chiqarishni rejalashtirish” funksiyalari keltirilgan.

Marketing funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

• Marketing ma’lumotlarini to‘plash va qayta ishlashni tashkil etish;

• Mahsulot uchun marketing echimlarini qo‘llash va mahsulotni reklama qilish;

• Maqsadli bozorlarni tanlash va ularni segmentatsiyalash;

• Tarqatish kanallarini tanlash va o‘zaro ta’sir qilish hamda narx siyosatini tanlash va amalga oshirish.

Innovatsiyalarda boshqaruv funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

- Innovatsion jarayonni tashkil etish;
- Tadqiqot va rivojlanish strategiyasini tanlash va amalga oshirish;
- Ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini amalga oshirish;
- Tadqiqot va rivojlanish strategiyasini tanlash va amalga oshirish.

Ishlab chiqarishni rejalashtirish funktsiyalari quyidagilar kiradi:

- Jarayonni tanlash va ishlab chiqarish dasturini rejalashtirish;
- Ishlab chiqarish tizimlarining shakllanishi;
- Ketma-ketlikni rejalashtirish va logistikani tashkil etish;
- Uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish va ulardan foydalanish.

Korxona xomashyo zaxirasini boshqarish jarayonining “marketing” “innovatsiyalarni boshqarish” va “ishlab chiqarishni rejalashtirish” funktsiyalari uning tizim tarkibiy qismlari sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Menejmentning asosiy tarkibiy qismlaridan biri kerakli va sifatli xomashyoni ajratish bo‘lib, boshqaruv funktsiyalarini xomashyolarga muvofiqligini mos kelishini ta’minlashdan iborat.

Quyidagi 1-jadvalda boshqaruv funktsiyalari va xomashyolar muvofiqligi keltirilib, unda boshqaruvning umumiy xususiyatlari bilan xomashyo funktsiyalari o‘zaro chambarchas bog‘liqligi keltirib o‘tilgan.

**1-jadval.**

**Boshqaruv funksiyalari va xomashyo funksiyalarilarini muvofiqligi [3]**

| Boshqaruvning umumiy xususiyatlari | • Xomashyo funksiyalari |
|---|---|
| Prognozlash | • Xomashyoga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash; xomashyo zaxiralari narxini bashorat qilish |
| Rejalashtirish | • Korxona strategiyasini ishlab chiqish; ishlab chiqarish rejasini tuzish; inventarizasiyani rejalashtirish |
| Tashkiliy | • Ishlab chiqarishni zarur xomashyo bilan ta'minlash; xomashyoni tejash; |
| Boshqaruv | • Korxonalarni boshqarish tizimini optimallashtirish; ishlab chiqarishni avtomatlashtirish; |
| Muvofiqlashtirish va tartibga solish | • Maqsadlar va strategiyalarni tanlash; axborot bilan ta'minlash; aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish; xarajatlarni kamaytirish; |
| Nazorat, buxgalteriya hisobi, tahlil | • Kerakli xomashyoni tanlash |

Ushbu muammolarni hal qilish etkazib berish boshqaruvi doirasida amalga oshiriladi. Korxonani xomashyo bilan ta’minlashning asosiy masalalaridan biri etkazib berilayotgan xomashyo va butlovchi qismlarning sifati hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, ichki va xalqaro bozorda potentsial etkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobatga qaramay, moddiy resurslar sifati muammosi juda dolzarbdir. Bu borada rivojlangan davlatlarda jumladan, G‘arbiy Evropa, Amerika va Yaponiyaning eng yirik kompaniyalari, shuningdek, Rossiya bozorlaridagi kompaniyalar o‘zlarining mahsulotlarini saqlash va sifatini oshirish dasturlarini ishlab chiqadilar va reja asosida puxta bajaradilar [4].

Sotib olingan butlovchi qismlar va xomashyo sifatini ta’minlash bo‘yicha dasturlar puxta o‘ylangan, hattoki tegishli mahsulotlarni etkazib beruvchilar xodimlarini o‘qitishni tashkil etish ham hisobga olingan. O‘qitishning vazifasi, qoida tariqasida, mashinalar va qurilmalarga texnik

xizmat ko'rsatishni malakali hamda samarali qilish uchun eng yangi texnologiyalar va jarayonlar to'g'risida xabardor bo'lgan xodimlarning bilim darajasini oshirishdir.

Xomashyo etkazib berish amaliyotida o'rta va past sifatli tovarlarni etkazib berish holatlari mavjud. Shu munosabat bilan past sifatli tovarlarni etkazib berishni kamaytirish uchun turli xil iqtisodiy choralar ko'rilmoqda. Ko'pgina hollarda nostandart tovarlar aybdor tomonga qaytariladi va ular uchun to'lov amalga oshirilmaydi. Shu bois, so'nggi yillarda hamkorlikning yangi tashkiliy shakllari paydo bo'ldi, ularning maqsadi mahsulot sifatini yaxshilash, shartnomalar tuzish va ularning bajarilishini nazorat qilishdan iborat bo'lib, bu borada Evropa Ittifoqi mamlakatlarida turli hajmdagi bir qator kompaniyalar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashni yaxshilash uchun assotsiatsiyaga qo'shilishdi. Ushbu kompaniyalar guruhi sanoat robotlarini, moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlarini boshqarish bo'yicha yangi tizimlarni ishlab chiqarish tarmoqlarini hamda texnologik tizimlar uchun periferik uskunalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Uzoq muddatli ishlab chiqarishni rejalashtirish, zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqish, yangi bozorlarga kirishni ta'minlashni oldiga qo'yilgan vazifalar majmuasi bilan bir qatorda ishlab chiqarish korxonani xomashyo bilan ta'minlashni asosiy muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Keltirilgan muammoni bartaraf etishda ushbu guruhdagi kichik va o'rta korxonalar yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan murakkab tizimlarning yangi yuqori texnologiyali qismlarini ishlab chiqadilar va amaliyotga joriy etadilar. Shunday qilib, ular nafaqat yirik kompaniyalar uchun etkazib berishni amalga oshiradilar, balki texnik va marketing siyosatiga faol ta'sir qiladilar.

Tadqiqotlar natijasidan kelib chiqib ta'kidlash joizki, xomashyo ta'minoti samaradorligini oshirish asosida korxona boshqaruvini takomillashtirishning asosiy maqsadi eng yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lgan materiallarga nisbatan ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish va korxona faoliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Shu munosabat bilan ta'minot bo'limining etkazib beruvchilarning o'xshash funktsiyalari bilan taqqoslashni loyihalashtirish, ishlab chiqarish va etkazib berish; ichki va tashqi korxonalarni boshqarish jarayonlarining imkoniyatlari va maqsadlari o'rtasidagi munosabatlarni tizimli tahlil qilish kabi mutlaqo yangi vazifalari yuzaga keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Henri Fayol's 14 Principles of Management. (2008, Aug 29). Retrieved 01 2020, from www.12 manage.com: http: G'G'www. 12manage.com G'methods _fayol_14_ principles_of_management.html.
2. Krishna G. Palepu "Strategies That Fit Emerging Markets" (June 2005). https:G'G'hbr.orgG'2005G'06G'strategies-that-fit-emerging-markets
3. Kurbanovna, J. N. (2023, August). Effectiveness Of Introduction of Raw Material Management In Oil Enterprises. In The Role of Sciences in the Formation of Unusual Thinking Skills in Young Students: International Scientific-Practical Conference (Czech). (pp. 33-38).
4. Kurbanovna, J. N. (2023). The Experience of Foreign Countries In The Provision Of Raw Materials In The Effective Management Of Oil Enterprises. Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III, 114-121.
5. Juraeva, N. Q. (2023). Foreign experiences of organizing and developing activities of the housing and communal sector. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(5), 144-149
6. Kurbonovna, D. N. (2022). Priority directions for improving the level of international marketing in foreign economic activities of enterprises. Gospodarka i Innowacje., 30, 232-239.
7. Juraeva, N. (2023). Formation of housing and communal sector activities in uzbekistan and theoretical and methodological aspects of their management. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 1228-1233.

**UDK:338.467.5**

## O ‘ZBEKISTONDA MEHMONDO‘STLIK SOHASIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH VA KADRLAR TAYYORLASH ORQALI PERSONALNI TAKOMILLASHTIRISH

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРСОНАЛА ЧЕРЕЗ УПРАВЛЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ И ОБУЧЕНИЕ В СФЕРЕ ГОСТЕПРИИМСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

## PERSONAL IMPROVEMENT THROUGH HUMAN RESOURCE MANAGEMENT AND TRAINING IN THE HOSPITALITY INDUSTRY IN UZBEKISTAN

**To‘xtasinova Dildoraxon Raxmonberdiyevna**
**Farg‘ona davlat universiteti**
**Iqtisodiyot va servis kafedrasi dotsenti, PhD**

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada inson resurslarini boshqarish, mehmonxona xodimlarini o‘qitishning nazariy asoslari, shuningdek, O‘zbekistondagi har bir mehmonxona amal qilishi kerak bo‘lgan asosiy global standartlar haqida qisqacha ma’lumot va tahlil amalga oshirilgan.

**Kalit so‘zlar.** malakali ishchi, inson resurslari, inson resurslarini boshqarish, funktsional mutaxassis, mijozlarning ijobiy mulohazalari.

В этой статье представлен краткий обзор и анализ управления человеческими ресурсами, теоретических основ обучения гостиничного персонала, а также основных глобальных стандартов, которым должен следовать каждый отель в Узбекистане.

**Ключевые слова.** квалифицированный работник, специалист по персоналу, управление человеческими ресурсами, функциональный специалист, положительные отзывы клиентов.

This article contains a summary and analysis of the theoretical framework for Human Resource Management, Training of hotel employees, as well as the basic global standards that every hotel in Uzbekistan should follow.

**Keywords.** qualified worker, Human Resources, Human Resource Management, functional specialist, positive customer feedback.

Zamonaviy mehmonxona biznesi g‘oyasi mehmonlarga turar joy va ulardan foydalanish uchun turli xizmatlarni taqdim etadigan turizmning barcha jihatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu komponentlar xaridorning (mijozning) ehtiyojlari va istaklarini qondirish, oldindan belgilangan moliyaviy maqsadlarga erishish va biznesning eng yaxshi natijalarini ishlab chiqarish uchun hamkorlik qiladigan turli tashkilotlardan iborat. Xodimlar almashinuvining yuqori darajasi bilan mehmondo‘stlik sektori dunyodagi eng qiyin sohalardan biri hisoblanadi. Bu esa ishonchli xizmat turlarini joriy etish va tashkilotning inson kapitalini saqlash uchun mustahkam tizimlarni yaratish zarurligini ta’kidlaydi.

Shu kunlarda mehmondo‘stlik sohasida bir xil yulduz toifasidagi mehmonxonalarni muhokama qilayotganda, xona va yotoq o‘lchamlari, interyer dizayni, hammom, yoritish va nonushta va boshqa qulayliklar haqida gap ketganda, ular deyarli bir xil standartlarga amal qilishlarini bilib olamiz. Uysal Uilyams (2003), Cline (1997) ga asoslanib, eng muvaffaqiyatli tashkilotlar mijozlarning samarali o‘zaro ta’siri, axborotni boshqarish va odamlarni boshqarish uchun ajralib turishini to‘g‘ri kutgan. Mehmonxona xodimlarining qanchalik yaxshi o‘qitilgan, yaxshi muomala qilingan va mazmunli bo‘lishiga asoslangan xizmat ko‘rsatish sifati bir mehmonxonani boshqasidan ajratib turadi. Iste’molchilarning xulq-atvori bo‘yicha doimiy

tadqiqotlar o‘tkazish biznesning muammosiz ishlashi uchun juda muhimdir. Avvalo, iste’molchilarning xatti-harakatlarini o‘rganishda ikkita asosiy omilni hisobga olish kerak: istak va istaklar qondirilishi kerak. Mahalliy mehmonxonalarda malakali ishchilarni tegishli lavozimlarga tayinlash uchun har bir ishning mohiyatini va uning old shartlarini tushunish juda muhimdir. Ishni tahlil qilish-bu HR menejeri ma’lum bir ish rolining xususiyatlarini aniqlash jarayonidir. Ish tahlilidan so‘ng, oxir-oqibat ikkita hujjat ishlab chiqariladi: a) bilim, ko‘nikma, qobiliyat va boshqa xususiyatlarni o‘z ichiga olgan ish tarkibi va b) vazifalar, vazifalar va majburiyatlar ro‘yxati. Kadrlar menejerlari uchun ishni tahlil qilish juda muhimdir, chunki ma’lumotlar ishni qayta loyihalash, rejalashtirish, xodimlarni tanlash, o‘qitish, baholash, ishni baholash va martaba rivojlanishi uchun ishlatiladi. Shuningdek, mehnat kodeksi qoidalariga rioya qilish va adolatli ish bilan ta’minlash amaliyotiga rioya qilish qonuniy jihatdan juda muhimdir. Ish dizayni, ayniqsa mehmonxona yangi filiallarni kengaytirishni yoki umuman o‘z takliflari standartini oshirishga urinayotganda HR menejeri roli kattadir. Keyingi qadam ishni turli xil yondashuvlardan foydalangan holda loyihalashtirishdir, masalan: samaradorlik uchun dizayn sanoat muhandisligi deb ham ataladi; imotivatsiya uchun dizayn ishni kengaytirish, boyitish va moslashuvchanlikni o‘z ichiga oladi; xavfsizlik va sog‘liq uchun dizayn ergonomika deb ham ataladi; aqliy qobiliyat uchun dizayn axborotni qayta ishlash, aniq ko‘rsatmalar, monitorlar, displeylar va xotira vositalarini o‘z ichiga oladi. Professionallar ish tavsiflari va texnik xususiyatlarini ishlab chiqadilar. Buni respublikamiz mehmonxonalarida qanday qo‘llash mumkin? Avvalo, ma’lum bir mehmonxonada ochilgan har bir lavozim uchun ish tavsiflari va faoliyatlari joriy, to‘g‘ri va internetdan “ko‘chirilmagan” bo‘lishi kerak. Keyinchalik, xodimlarning umumiy faolligini oshirish uchun foydalaniladigan motivatsion usuldan foydalangan holda bandlikni rivojlantirish uchun yaqin atrofdagi mehmonxonalarda ishni kengaytirish, ishni boyitish va moslashuvchanlik xususiyatlari qo‘shilishi kerak. Kelajakdagi potentsial mehnat etishmovchiligi yoki ortiqcha ish haqini oldindan bilish uchun kadrlar menejerlari dastlab tashkilot ichidagi ichki mehnat faoliyati orqali aniqlashlari kerak. Trend tahlili, bu kelajakdagi mehnat talabini bashorat qilish uchun statistik modellarni qo‘llashga imkon beradi. Keyinchalik, ular maqsadlarni belgilashlari va strategik rejalashtirish bilan shug‘ullanishlari, dasturni qo‘llashlari va natijalarni baholashlari kerak. Agar biz biron bir mehmonxonani olib, uning HR ma’lumotlarini o‘rganib chiqsak, nazariy jihatdan—mahalliy farrosh lavozimlarga muntazam ravishda ish joylarini hisobga olgan holda, ma’lum bir ish toifasida tanqislik bo‘lishini aniqlashimiz mumkin. Bunday holda, mehmonxona quyidagilar orqali ishchi kuchi etishmasligining oldini olish uchun ish faoliyati strategiyasini strategiyasini amalga oshirish haqida o‘ylashi kerak edi:

a) shartnoma yoki vaqtinchalik tozalash vositalarini ishlatish;

b) tozalash xizmatlarini boshqarishda mahalliy biznes bilan shartnoma tuzish;

d) farroshlarning aylanish tezligini pasaytirish;

e) yangi farroshlarni tayinlash; yoki

f) joriy farroshlarga ko‘proq soat qo‘yish va qo‘shimcha olishga ruxsat berish.

Bundan tashqari, hozirgi kunda talab yuqori bo‘lishi mumkin bo‘lgan ofitsiant kabi ayrim ish o‘rinlari uchun ishchi kuchi talabi bo‘lishi aniq. Boshqa idoralar uchun qayta tayyorlash va transfer bu vaziyatda foydali bo‘lishi mumkin. Mehmonxona xizmatining yuqori standartlarini saqlab qolish uchun O‘zbekistondagi kadrlar menejerlari mehnat taqchilligining oldini olish usullariga e’tibor qaratishlari kerak:

-ishga qabul qilish;

- tanlash.

Kadrlar menejerining maqsadi - lavozimlarni egallash uchun malakali xodimlarni yollash va jalb qilishdan iboratdir. HR menejerlari uchun mehmonxona ichidan ham, tashqaridan ham yollash odatiy holdir. Biroq, kichik mehmonxonalar uchun kadrlar bo‘yicha menejerlarga tashqi nomzodlarni yollashga e’tibor qaratish va eng muhimi, ularni yollash manbalarini tahlil qilish tavsiya etiladi. Shunday qilib, HR menejeri ma’lum lavozimlarga malakali va tez orada ketishni xoxlamaydigan nomzodlarni yaxshiroq aniqlay oladi. Manbalarni taqqoslash kelajakda rejalashtirish uchun yollash uchun eng yaxshi manbalarni va u bilan bog‘liq xarajatlarni baholashga

imkon beradi, chunki yollash xarajatlari kadrlar menejerlari uchun hisobga olinadigan yana bir muhim omil hisoblanadi. Tanlov jarayoni ishga qabul qilish jarayonidagi navbatdagi qadamdir. Tanlov jarayoni quyidagi xarakatlarni tashkil etadi: test sinovlari, intervyu, ma’lumot va ma’lumotnomalarni tekshirish, arizalar va rezyumelarni skrining va qisqa ro‘yxati va eng yaxshi murojaat etuvchini tanlash. Boshqaruv lavozimlariga onlayn arizalar yaqin atrofdagi mehmonxonalar tomonidan ishlatilishi kerak va kamida uch kishidan iborat xodimlar intervyu panelini tuzishlari kerak. Ta’limni rivojlanishi mehmonxona boshqaruvi va operatsiyalari uchun muhim tarkibiy qismlar va muhim muvaffaqiyat omillari xisoblanadi. Iste’molchilar odatda yana eng yaxshi tajribaga ega bo‘lgan mehmonxonani tavsiya qiladilar.

Xozirda bir qator mehmonxonalarda yangi ishga qabul qilingan xodimlar uchun dastlabki uch oy davomida puxta joriy etish dasturi taqdim etilgan. Bu shubhasiz foydadir. Ayni paytda, hozirgi xodimlarining ta’limi va rivojlanishiga katta e’tibor qaratadiganlar kam. Shuning uchun o‘quv dasturi har bir xodimning o‘qitish talablari aniqlanadigan o‘quv ehtiyojlarini tahlil qilishdan boshlanishi kerak. Shundan so‘ng, o‘quv dasturini ishlab chiqish kerak. Shu jumladan maqsadlar treningni o‘tkazishning eng yaxshi usuli va uni amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan murabbiylar taklif etish lozimdir. Treningni o‘tkazish uchun to‘g‘ri murabbiy tanlanganligiga ishonch hosil qilish odatiy holdir, chunki HR menejeri turli sohalarda xodimlarga ko‘rsatma berish uchun zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lmasligi mumkin. Trening tugagandan so‘ng, HR menejeri uch va olti oydan keyin uning natijalarini baholay oladi. Magistr darajasida o‘qish uchun to‘lov kabi rasmiy ta’lim mehmonxonada eng yaxshi ishchilarni saqlash uchun xodimlarning o‘sishi nuqtai nazaridan xavfsizlik tarmog‘i sifatida ishlatilishi mumkin. Har qanday tashkilot, ayniqsa mehmonxonalar, yuqori ijrochilarni kashf etish va tan olish uchun xodimlarning ish faoliyatini baholashi kerak. Buning sababi shundaki, mehmonxona sektori xizmatga yo‘naltirilgan va korxonaning rentabelligi uning xodimlarining o‘z homiylariga qanchalik yaxshi munosabatda bo‘lishiga bog‘liq. Natijada, ko‘p bosqichlarni o‘z ichiga olgan samarali ishlashni boshqarish tizimini ishlab chiqish uchun muhim tarkibiy qismlar mavjud: birinchi qadam-yuqori menejmentning yordami bilan mehmonxona maqsadlarini belgilash; ikkinchisi-mehmonxona maqsadlari bilan bog‘liq bo‘lgan idoraviy va individual xodimlarning maqsadlarini yaratish; uchinchisi-yordam taklif qilish va doimiy ishlash sharhlarini o‘tkazish; to‘rtinchisi - ishlashni baholash; beshinchisi-nimani yaxshilash kerakligini aniqlash; oltinchi qadam ishlash natijalarini ta’minlash uchun choralar ko‘rishni o‘z ichiga oladi. Ilgari, mehmonxonalar bir qator sabablarga ko‘ra ishlashni boshqarish tizimlarini joriy qilgan va qo‘llab-quvvatlagan.

Xodimlarning ish faoliyatini turli xil texnikalar, jumladan, xulq-atvorga asoslangan reyting o‘lchovlari, birlashtirilgan standartlar o‘lchovlari, majburiy taqsimlash, juftlashtirilgan taqqoslashlar, muhim hodisa usullari, grafik reyting o‘lchovlari va ob’ektiv boshqaruv yordamida baholash mumkin. Avvalo, kadrlar menejerlari tashkilotning umumiy strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan xodimlarning ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirishlari kutilmoqda. Ba’zi HR vazifalari texnologiyadan foydalangan holda avtomatlashtirilishi mumkin. Misol uchun, nomzodlar onlayn ariza topshirishlari va testlardan o‘tishlari mumkin, ba’zi korxonalar hatto xodimlarga o‘zlarining nafaqa rejalarini boshqarishga ruxsat berishadi va HR menejerlarining ko‘proq strategik vazifalar ustida ishlash vaqtini bo‘shatadilar, Xodimlarning ish faoliyatini o‘lchash uchun HR menejerlari global raqobat tomonidan ma’lumotlar va tegishli o‘lchovlardan foydalanishni talab qiladi.

Uchinchidan, xodimlarning ish faoliyatini o‘lchash uchun HR menejerlari endi global raqobat tomonidan ma’lumotlar va tegishli o‘lchovlardan foydalanishni talab qiladi. HR direktorlari ishchilarni jalb qilishni nazorat qilishlari kerak.

Deyv Ulrichning ta’kidlashicha, HR menejeri quyidagi rollarni bajarish va bo‘lish uchun bilim, qobiliyat va malakaga ega bo‘lsa, professional hisoblanadi:

- xodimlar va tashkilot ijobiy munosabatlarga ega ekanligiga ishonch hosil qiladigan xodimlarning advokati;

- kelajakdagi iste’dodni rivojlantira oladigan inson kapitali ishlab chiqaruvchisi tashkilot ichida;

- funktsional mutaxassis: umumiy tashkiliy maqsadlarga erishish uchun HR protseduralarini rejalashtirish, yaratish va amalga oshirish qobiliyatiga ega;
- funktsional menejerlarga idoraviy maqsadlarga erishishda yordam beradigan strategik sherik;
- o‘zlarining ishonchliligini o‘rnatadigan va boshqalarning hurmatini, hayratini va itoatkorligini qozonadigan turli xil vakolatlar va etakchilik qobiliyatlarini namoyish eta oladigan rahbar

Ushbu maqolaning maqsadi mahalliy mehmonxonalarda amalga oshiriladigan kadrlar bilan bog‘liq asosiy vazifalar va vazifalarni sanab o‘tish hamda kadrlar bilan bog‘liq muammolarni yoritishdan iborat edi. Eng keng tarqalgan omillarga ish xavfsizligi, ish muhiti, qo‘shimcha ish haqi, xodimlarning ish haqi va xizmat darajasi kabi narsalar kiradi. Bu omillar, birinchi navbatda, mehmonxonaning kadrlar bo‘limining noto‘g‘ri ishlashi bilan bog‘liq bu rahbariyatning xodimlarga va umuman mehmonxona ma’muriyatiga bo‘lgan munosabati natijasi bo‘lishi mumkin. Shu sababli, yuqori boshqaruvni HRM amaliyotini amalda qo‘llash qiymatiga ishontira oladigan malakali HR menejeriga ega bo‘lish juda muhimdir. Biroq, mahalliy mehmonxonalardagi HR menejerlari qattiq HR tizimlarini yaratish va HR funktsiyasini rejalashtirish, tanlash, ishni tahlil qilish va kabi HR amaliyotlariga “tez yollash” dan kengaytirish orqali aylanma stavkalarini pasaytirish orqali mehnat tanqisligini oldini olish texnikasiga e’tibor qaratish haqida o‘ylashlari kerak. HR amaliyotini samarali amalga oshirish, ayniqsa, mehmonxonalarni boshqarish natijalarini tezda ko‘rish uchun juda muhimdir. Mehmonxona ichida HRM amaliyotlari muvaffaqiyatli amalga oshirilgandan so‘ng, sifatli xizmatlar, mustaqil va sodiq xodimlar, mijozlarning ijobiy mulohazalari va mehmonxonalarni bron qilish imkoniyatlarini oshirish kabi bir qancha omillarni kuzatish mumkin. Ushbu omillar yuqori rahbariyatning xodimlarga bo‘lgan munosabatiga va ularning umumiy farovonligiga ham ta’sir qilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Dessler, G. (2014) inson resurslarini boshqarish asoslari, 3-nashr. Pearson yangi xalqaro edition Pearson ta’lim Limited.
2. Inoyatova va Xamidov (2018) O‘zbekiston turizmida AKT: mijozlarning onlayn sharhlarini tahlil qilish. Konferensiya: "O‘zRTXB" da: Samarqand, O‘zbekiston dekabr, 2018.

**UDK:332.14**

## THE ROLE OF CLUSTERS IN THE TERRITORIAL ORGANIZATION OF THE ECONOMY

## IQTISODIYOTNI HUDUDIY TASHKIL ETISHDA KLASTERLARNING O‘RNI

## РОЛЬ КЛАСТЕРОВ В ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ

**Khalmatjanova Gulchexra Djurabaevna,**
**Ferghana State University,**
**Candidate of Economic Sciences, Associate professor**

**Annotation.**

The article focuses on the cluster concept – a new approach to the territorial organization of the economic system, to the relationship between firms, the existence of clusters of interconnected sectors, in which the idea of achieving the effectiveness of cluster formation in various sectors of the economy through geographical localization of interconnected companies and joint efforts is realized.

**Keywords:** regional clusters, regional organization of the economy, labor productivity, increase in production efficiency, reduction of transaction costs, increase in the level of stability

Мақолада кластер концепцияси – иқтисодий тизимни ҳудудий ташкил этишга янгича ёндашув, фирмалар ўртасидаги муносабатлар, ўзаро боғлиқ тармоқлар кластерларининг мавжудлиги, бунда ўзаро боғлиқ компанияларни географик локализация қилиш ва биргаликдаги саъй-ҳаракатлар орқали иқтисодиётнинг турли соҳаларида кластерларни шакллантириш самарадорлигига эришиш тўғрисида фикр юритилади.

**Калит сўзлар:** минтақавий кластерлар, иқтисодиётни минтақавий ташкил этиш, меҳнат унумдорлиги, ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, транзакцион харажатларни камайтириш, барқарорлик даражасини ошириш.

В статье основное внимание уделяется кластерной концепции – новому подходу к территориальной организации экономической системы, к взаимоотношениям между фирмами, существованию кластеров взаимосвязанных секторов, в котором реализуется идея достижения эффективности формирования кластеров в различных секторах экономики за счет географической локализации взаимосвязанных компаний и совместных усилий осознается.

**Ключевые слова:** региональные кластеры, региональная организация экономики, производительность труда, повышение эффективности производства, снижение трансакционных издержек, повышение уровня стабильности

In the context of increased competition in the national markets of goods, labor and capital, the economic priority is to increase the competitiveness of regional farms. The relevance of the development of effective forms of territorial organization of the economy and theoretical concepts that allow the justification and implementation of Competitive Strategies for the socio-economic development of territories is growing. Cluster concept is a new approach to the territorial organization of the economic system, aimed at connections between firms, the presence of clusters of interconnected networks. The effectiveness of the formation of clusters in various sectors of the economy is achieved with the help of geographical localization of interconnected companies and joint efforts of business, state and science. Practice has shown that the cluster form of territorial organization of the economy allows you to increase labor productivity and production efficiency, reduce transactional costs and stimulate innovation.

The world experience of recent decades gives many examples of the formation and development of clusters in various segments of the regional economy. In the United States, for example, there are 380 clusters in the fields of high technology, consumer goods production and service. In Germany, the main industrial clusters were formed in the chemical industry, mechanical engineering and other industries. Finland largely integrated the country's economy and formed nine leading clusters. The experience of cluster development in foreign countries has shown their priority role in promoting regional development, increasing population employment, increasing budget revenues, attracting investments and, ultimately, the growth of gross regional product.

In the 21st century, cluster principles of organizing industrial cooperation began to be used in the development of regional development strategies in Uzbekistan. Given the need to increase the level of stability of their regions in the national and international markets, to maximize the use of the competitive advantages of the regions, the study and improvement of scientific ideas about the application of a cluster approach to regional development remained relevant. The relevance of the study is determined by the need to improve the forms of territorial organization of the regional economy.

Foundations of the modern economic theory of cluster development A.Dating back to Marshall's works, he first looked at the problems of regional development and identified the phenomena of regions with special industrial development.

Later M.In Porter's works, cluster theory was developed, introducing the concept of cluster as the main stimulus for the development of regional economies, providing definitions and providing a comprehensive historical analysis of the relationship between clusters and the competitiveness of countries and regions.

Despite the wide coverage of the cluster approach in regional economic research by domestic and foreign scientists, the theoretical and organizational foundations for the formation of regional clusters of industrial and infrastructure networks remain insufficiently developed. In the scientific literature, the mechanism of formation of a regional cluster and the methodology for assessing the socio-economic effectiveness of their activities are little studied. As for Uzbekistan, the development of regional clusters in the most important sectors of the economy allows you to solve the problem of increasing the competitiveness of the economy of Uzbekistan and implement it on the basis of the principles of competitiveness, openness, efficiency, standardization of the integrated regions of the Eurasian Economic Space.

On the basis of the goal, the following tasks are set: systematization of the theoretical foundations of the cluster approach in regional economic development, disclosure of the economic essence of the regional cluster as a form of territorial organization of the economy; classification of regional clusters by type; identification of competitive advantages and economic effects development of a methodology for assessing the effectiveness.

The main scientific results obtained personally by the author: theoretical rules for studying the approach of cluster typology in regional economic development are systematized, which made it possible to reveal the economic essence of the regional cluster and determine the principles of its functioning as a form of territorial organization of the economy; regional clusters are classified by Type based on systematization of methodological approaches and classification characteristics, taking into account the main characteristics of clusters as a form of territorial organization: the system and methodology of indicators for assessing the effectiveness of the development of a regional cluster was developed based on the distribution of competitive advantages and the economic impact of cluster formation in

1. The essence of the concept of" regional cluster " is defined as a group of interconnected companies and organizations that interact with each other in the process of production and sale of goods and services within the framework of a single value chain to achieve a certain economic effect and realize the competitive advantages of this area, and the principles of its functioning as a

2. Classification of regional clusters by type as a form of territorial organization of the regional economy is proposed on the basis of systematization of methodological approaches and classification features, taking into account the main features of clusters: geographical concentration,

specialization, innovation, plurality of participants, interaction between them, competition and cooperation, stages of development were studied.

3. M. In order to increase the efficiency of territorial organization of the regional economy. The competitive advantages of Porter are based on the economic feasibility and mechanism of creating a regional transport and logistics cluster in the Fergana region using the methodology of romby.

Summarizing the results of the study, we can conclude:

In the context of a market economy and globalization, there is an increasing need to increase the competitiveness of the country, individual regions and organizations. At the same time, clusters of economic entities that are connected by close economic relations and complement each other can be reserves for the growth of competitiveness at the regional level. In the process of placing production and developing the regional economy, various forms of territorial organization developed. Traditionally, industrial areas, agglomerations, industrial centers, regional production complexes are distinguished. Clusters are a modern, rapidly spreading form of territorial organization of the region’s economy. M.Porter defines a cluster and focuses on its three characteristics: Geographic Localization, enterprise relations, and the technological interconnection of networks.

The analysis of the main approaches to the definition of clusters showed that in the scientific literature, as a rule, two points are reflected in this concept: the territorial localization of interconnected companies and their possession of competitive advantages, which are carried out within the framework of the cluster model of territorial organization of the economy. It understands a group of interconnected companies and organizations localized in a region that interacts with each other in the process of production and sale of goods and services within a single value chain in order to achieve a certain economic effect by a regional cluster and realize the competitive advantages of this area. Unlike other forms of territorial organization of the economy, the cluster is characterized by market relations between participants in Cluster assimilation based on competition and cooperation, the ability to adapt to changing environmental conditions. Clusters are formed in a market economy when businesses are interested in consolidating their competitive advantage and making more profit from joint activities in a given area. At the same time, the regional cluster as a form of territorial organization of the economy isdeveloping not only in industry, but also in the service sector.

**List of used literature:**


1.Khalmatjanova, G. D., Yuldasheva, G. A., Rayimdjanova, G. K. (2022). Features of Criteria of Profitability of Cotton–Textile Cluster. In E. G. Popkova, & B. S. Sergi (Eds.), *Sustainable Agriculture.* Singapore: Springer. https://doi.org/ 10.1007/978-981-19-1125-5_12

2.Халматжанова Г.Д. Локомотив аграрного сектора экономики. Ж.: Образование и наука в России и за рубежом. : Москва. №3, 2020.

3.Халматжанова, Г. Д., & Райимджанова, Г. Х. (2020). Кластерный механизм-способ модернизации текстильной отрасли Узбекистана. Межвузовский научный конгресс:" Высшая школа: научные исследования". Научные исследования.28

4. Халматжанова, Г. Д. (2020). Основные направления инвестиционной политики. In Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари (pp. 26-34).

5.Халматжанова, Г. Д., & Мирзаахмадова, З. М. (2021). " Хлопково-текстильный кластер"- приоритетное направление развития нашей страны. Евразийский Союз Ученых, (3-3 (84)), 20-21.

6. Халматжанова, Г. Д., & Бахрамов, А. Х. (2020). Обеспечение устойчивого и сбалансированного развития регионов. In Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари (pp. 219-225).

7. Халматжанова, Г. Д., & Маннопова, М. С. (2020). Развитие национальной экономики с учётом тенденций развития мировой экономики. In Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари (pp. 238-244).

8. Халматжанова, Г. Д., & Мадаминов, Ж. (2008). Инвестиции-стимулятор устойчивого роста. Вопросы экономических наук, (4), 80-81.
9. Халматжанова, Г. Д. (2021). Развитие текстильной промышленности республики Узбекистан.

**УДК:368.**

## “СУҒУРТА НАЗАРИЯСИ ВА АМАЛИЁТИ” ФАНИ – ДОЛЗАРБ МАВЗУЛАРИДАН БИРИДИР

## ПРЕДМЕТ "ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СТРАХОВАНИЯ" ЯВЛЯЕТСЯ ОДНОЙ ИЗ НАИБОЛЕЕ АКТУАЛЬНЫХ ТЕМ

## THE SUBJECT "THEORY AND PRACTICE OF INSURANCE" IS ONE OF THE MOST RELEVANT TOPICS

**Хошимжон Хайдаров Молия кафедраси доценти,**
**иқтисод фанлари номзоди**

**Аннотация**

Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётида тобора жадаллашиб бораётган рақобатбардошлик хусусиятига эга бўлган бозор муносабатлари янги иқтисодий зарурат деб ҳисобланган суғурта фаолиятини ташкил этиш, уларнинг ҳуқуқий базасини янада мустаҳкамлаш ва уларнинг услубиётини такомиллаштиришни талаб этмоқда.

**Қалит сўзлар:** суғурта бозори, суғуртада инновация, суғурта бозори инфратузилмаси субъектлари, суғурталанувчи, сугурта килдирувчи, модуль, интерофаол, иннавацион таълим.

Рыночные отношения со все более конкурентным характером в экономике Республики Узбекистан требуют организации страховой деятельности, дальнейшего укрепления ее правовой базы и совершенствования методологии, что считается новой экономической необходимостью.

**Ключевые слова:** страховой рынок, инновация в страховании, субъекты инфраструктуры страхового рынка, страхователь, страховщик, модуль, интерактив, инновационные знания.

Market relations with an increasingly competitive nature in the economy of the Republic of Uzbekistan require the organization of insurance activities, further strengthening their legal base and improving their methodology, which are considered a new economic necessity.

**Key words:** insurance market, innovation in insurance, insurance market infrastructure entities, insurer, insurer, module, Interactive, Innovation Training.

“Суғурта назарияси ва амалиёти” фанини жумладан, “Ўзбекистон суғурта бозори ривожланишининг замонавий тенденциялари” мавзусини ўргатишда педагог – ўқитувчи олдида авваламбор ушбу мавзу бўйича юксак билим, кўникма ва малака талаб қилиниши билан бир қаторда фанга, мавзуга янгича, инновацион ёндошувни талаб этади. Шу асосда, бугунги кунда олий таълим муассасаларида таълим сифатини оширишга, таълим босқичларининг ўзаро узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлаш бўйича қатор чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Мана шундай чора-тадбирлар қаторида Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон ҳамда “2022-2026 йилларда мулжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим”да амалга оширишга оид давлат дастури

тўғрисида” 2023 йил 13 апрель ПФ-51-сон фармони қабул қилинган. Ҳозирги даврда таълим самарадорлигини ошириш педагог кадрларни инновацион фаолиятга йўналтириш, олий таълим муассасаларидаги ўқув жараёнига инновацион таълим ва ахборот-коммуникация технологияларини татбиқ этиш, илғор хорижий тажрибаларни ўзлаштириш ва мақсадли йўналтириш олий таълим тизимини модернизациялашдаги долзарб вазифалар сифатида белгиланди. Инсон табиатан шундай яратилган экан, у бирон бир нарсани ўрганиши учун уни тасаввурда жонлантира билиши лозим. Шунинг учун ҳам фанни ўрганишда турли воситалар, тасвир, макет, расм, чизма ва бошқа шу каби воситалардан фойдаланиш, таълимни кўргазмали ташкил этиш ҳозирги куннинг долзарблигини ифодалайди. Иқтисодий фанларнинг бошқа фанлардан ажралиб турадиган томони шундаки, у далиллар, маълумотлар, аниқ рақамлар билан иш кўради. Айнан шулар “модуль” ёндашув тизимлар яратиш тақазо этишини инобатга олган ҳолатда “Суғуртанинг ривожланиш тенденциялари ва истиқболи” мавзусида талабаларга дарс беришда зарур бўлган материаллар зарур бўлади.

Модулли ўқитиш юзасидан ишлаб чиқилган илмий тавсиялардан Олий таълим муассаларида “Суғурта назарияси ва амалиёти” фанини ўқитишни самарали ташкил этишда кенг фойдаланиш мумкин. Шунингдек, тадқиқот жараёнида олинган назарий ва амалий натижаларни “Суғурта иши”, “Суғурта бизнеси”, “Умумий суғурта”, “Ҳаёт суғуртаси” фанларини ўқитишда ҳам қўллаш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича қабул қилинган Ҳаракатлар Стратегиясининг 3.1. банди макроиқтисодий барқарорликни янада мустаҳкамлаш ва юқори иқтисодий ўсиш суръатларини сақлаб қолишга бағишланган бўлиб, унда асосий эътибор суғурта, лизинг ва бошқа молиявий хизматларнинг ҳажмини уларнинг янги турларини жорий қилиш ва сифатини ошириш ҳисобига кенгайтириш, шунингдек капиталнi жалб қилиш ҳамда корхона, молиявий институтлар ва аҳолининг эркин ресурсларини жойлаштиришдаги муқобил манба сифатида фонд бозорини ривожлантиришга қаратилган [1].

Бугунги кунда инновация ҳар қандай фаолиятнинг, шу жумладан, суғурта тизимининг ажралмас бўғини ҳисобланмоқда. Суғурта соҳасига инновацияларнинг киритилиши суғурта хизматлари бозорини ривожлантириш ва суғурта бизнесини сифатли ташкил этишга кўмак беради. Умуман олганда, суғурта соҳасидаги инновацияга янги суғурта маҳсулоти ва хизматларини ишлаб чиқиш, шунингдек, ахборот технологиялари асосида жами фаолият тизимини такомиллаштириш сифатида қараш мумкин, бу эса ўз навбатида суғурта хизматлари бозори субъектлари ўртасидаги муносабатлар тизимини ва суғурта маҳсулотининг ҳаётий циклини таъминлайди. Суғурта хизматларининг кўрсатилиши суғурталовчи ва суғурталанувчи ўртасидаги доимий ҳамкорлик муносабатларининг қарор топишини англатади ва бу сўзсиз сифатли суғурта маҳсулоти ишлаб чиқилишига боғлиқ бўлади. Суғурталанувчилар билан ҳамкорликни сақлаб қолиш учун зарур бўлган сифатга эришиш суғурта шартномаси даврида инновацияларнинг мавжуд бўлишини талаб қилади.

Ҳозирда миллий суғурта компанияларида замонавий ахборот технологияларини жалб этиш бўйича кенг кўламдаги тадбирлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 3 апрелдаги 2158-сонли “Иқтисодиётнинг реал тармоқларига ахборот технологияларини киритиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги [2] қарори ижросини таъминлаш бўйича тадбирлар мажмуаси амалга оширилмоқда. Бунда асосий эътибор ҳужжатлар алмашиш тизимига, молия-хўжалик фаолиятига, ишлаб чиқаришни ташкил этиш жараёнларига ахборот–коммуникация технологиялари ва дастурий маҳсулотларни кенг жалб қилишга қаратилган. Айни пайтда хизматлар сифатини ошириш, моддий-техника ресурсларидан фойдаланиш, мижозлар билан ўзаро муносабатларни йўлга қўйиш бўйича замонавий ахборот тизими ва дастурий маҳсулотларни соҳага кенг жалб этиш натижасида суғурта хизматларининг таннархини пасайтириш юзасидан кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, суғурта компанияларида “Молиявий ҳисоб ва ҳисоботларни, мижозлар билан ишлаш, суғуртанинг ишлаб чиқариш ва техник фаолиятини

компютерлаштириш бўйича ахборот тизимини комплекс равишда жалб этиш” лойиҳаси кенг қўлланилмоқда.

Мазкур лойиҳа доирасида суғурта бизнесини автоматлаштириш босқичма-босқич амалга оширилмоқда. Хусусан, транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғуртаси бўйича суғурта полисини расмийлаштирган ва ўз мобил телефон рақамини тақдим этган компаниянинг ҳар бир мижози СМС-хабарга эга бўлади, унда транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғуртаси полисининг рақами, унинг амал қилиш даври ва тўланган сумма акс этган бўлади. Ушбу тадбир суғурта хизматлари истеъмолчиларининг полис ҳақиқийлиги ва унинг таннархи тўғри ҳисоблаб чиқилганлигига ишонч ҳосил қилишига ёрдам беради. Бунинг негизида компаниянинг барча мижозларига полисни расмийлаштириш санаси ва унинг телефон рақамлари мавжудлигидан қатъий назар транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғуртаси полисининг муддати тугашидан 5 ва 1 кун олдин мазкур полиснинг муддати охирлаётгани ва янги муддат учун полисни расмийлаштириш таклифи акс этган СМС-хабар жўнатилади. Ушбу тадбир мижозларнинг муддати тугаган суғурта полислари натижасида жарималар тўлаши каби ноқулай ҳолатларнинг олдини олишга қаратилган.

Анъанавий таълим билан модулли таълимнинг фарқи қуйидаги жадвалда келтирилган:

**1-жадвал**

**Анъанавий таълим билан модулли таълимнинг фарқи**

| **Анъанавий ўқитиш технологиясига асосланган** | **Модулли ўқитиш технологиясига асосланган** |
|---|---|
| Бир томонга йўналтирилган ахборот<br>Бир томонлама мулоқот (дарслик, Ўқитувчи, ўқувчи)<br>-Ахборот олиш<br>-Хотирада сақлаш<br>-Маъносини тушунмаган ҳолда механик тарзда ёдлаш<br>-Йил давомида ўқув режаларининг бир хилда бўлиши ва уларнинг ўзгармаслиги<br>-Инновацион жараёнларнинг йўқлиги<br>-Талабалар учун дарс зерикарли кечади | Фикрлаш ва амалий фаолият орқали таҳсил олишда фаол иштирок этишни рағбатлантириш<br>-Икки томонлама мулоқот<br>-Таҳлил қилиш орқали маълумотни эслаб қолиш<br>-Шахсий билим ва кўникмаларни намойиш этиш<br>-Мазмунни тушуниш ва ҳаётга боғлаш<br>-Ўз дунёқараши ва тафаккурининг вужудга келиши<br>-Талабаларда ўз билимлари, хулосалари ва фаолиятини қайта қуриш имкониятининг яратилиши<br>-Энг асосийси, дарс жараёнида муаммоларни ўрганиш ва вазиятларни аниқлашда талабаларнинг фаол иштирокини таъминлаш |

Лекин юқорида айтиб ўтилган олимлар ўз илмий ишларида бевосита Ўзбекистон суғурта бозоридаги муаммоларни ўрганиб, уларни ечимларини топиб, мамлакатимизда суғурта фаолиятини такомиллаштириш бўйича амалий тавсиялар ишлаб чиқишни ўз олдиларига мақсад қилиб қўймаганлигини таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон суғурта бозорини ривожлантириш ва бошқариш муаммолари етарли даражада ўрганилмаганлиги, мамлакатимизда суғурта фаолиятини ўзига хос хусусиятларини ўрганиш, шунингдек уни ривожланишига доир таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишни тақозо этади.

Мамлакатимизнинг барча соҳалари каби олий таълим тизимини ҳам модернизациялаш бугунги куннинг энг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолмоқда. Инновацион таълим муҳитини яратиш, унинг халқаро андозаларга тўлиқ мослигини таъминлаш ёшларимизни бугунги тез ўзгарувчан ижтимоий ҳаётга муваффақиятли ижтимоийлаштиришнинг муҳим омилидир. “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”ни амалга ошириш узлуксиз таълим тизимининг тузилмаси ҳамда мазмунини замонавий фан ютуқлари ва ижтимоий тажриба асосида такомиллаштиришни кўзда тутади. Бунинг учун, аввало, барча таълим муассасаларидаги дарс жараёнларини илғор, илмий-услубий жиҳатдан асосланган замонавий услубиёт билан таъминлаш лозим. Ёш авлодга таълим-тарбия беришнинг мақсади, вазифалари, мазмунини янгилаш тизими олдида турган долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.

Шу боис, ҳозирги даврда олий таълим самарадорлигини ошириш, мутахассисларнинг касбий компетентлик даражасини ривожлантириш, педагог кадрларни инновацион фаолиятга йўналтириш, олий таълим муассасаларидаги ўқув жараёнига инновацион таълим ва ахборот-коммуникация технологияларини татбиқ этиш, илғор хорижий тажрибаларни ўзлаштириш ва мақсадли йўналтириш олий таълим тизимини модернизациялашнинг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади.

Мамлакатимизда ривожланган давлатлар сафидан ўрин олиш мақсадида халқ хўжалигининг барча тармоқлари каби таълим соҳасида ҳам илғор технологияларни жорий этиш ва шу орқали таълим мазмунини жаҳон андозалари даражасига олиб чиқишга ҳаракат қилинмоқда. Модулли ўқитиш - ўқитишнинг истиқболли тизимларидан бири бўлиб, у таълим олувчиларнинг билим имкониятларини ва ижодий қобилиятларини ривожлантириш тизимига энг яхши мослашгандир.

Анъанавий таълимда ўқув мақсадлари педагог фаолияти орқали ифодаланган, яъни билим беришга йўналтирилган бўлса, модулли ўқитишда таълим олувчилар фаолияти орқали ифодаланиб, касбий фаолиятга йўналтирилган бўлади. Суғурта назарияси ва амалиётини модулли ўқитиш технологиясига асосланган тарзда ўрганиш натижасида талабаларнинг илмий дунёқараши ўзгаради, уларнинг интеллектуал ривожланишини рағбатлантиради, ҳар бир дарс қизиқарли машғулотга айланади.

“Суғурта назарияси ва амалиёти” фани бўйича “Ўзбекистон суғурта бозори ривожланишининг замонавий тенденциялари” мавзусини ўқитишда тараққиётнинг устувор йўналишлари асос бўлиб, фанни модулли ўзлаштиришда талабаларни таҳлилий мушоҳада, хулоса чиқаришга ўргатиш – кейс стади, топшириқлар, тестлар ва лойиҳа топшириқлари инновацион ва илғор хорижий тажрибалар асосида таълим бериш таълим сифатини янада оширади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар Стратегияси. 2017 йил 7 февралдаги Ўзбекистон Президентининг Фармони.
2. “Иқтисодиётнинг реал тармоқларига ахборот технологияларини киритиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2158-сонли Қарори. 2014 йил 3 апрел.

**UDK: 658.01. (575.1)**

**MAXSUS IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINING XORIJ TAJRIBASI**

**ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОСОБЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН**

**FOREIGN EXPERIENCE OF SPECIAL ECONOMIC ZONES**

**B.Xolmatov FarDU moliya kafedrasi dotsenti**

**Annotatsiya**

Maqolada maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatiga doir xorij tajribalaridan ayrim misollar keltirilgan bo‘lib, unda grinfild va brainfild kabi maxsus zonalar amal qilishi ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** maxsus iqtisodiy zona, industrial park, grinfild, braunfild.

В статье представлены некоторые примеры зарубежного опыта функционирования особых экономических зон, в которых показано, что применяются такие специальные зоны, как гринфилд и браунфилд.

**Ключевые слова:** особая экономическая зона, индустриальный парк, гринфилд, браунфилд.

The article presents some examples of foreign experiences on the operation of special economic zones, in which it is shown that special zones such as greenfield and brownfield apply.

**Key words:** special economic zone, industrial park, greenfield, brownfield.

Hozirgi vaqtda biznesni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali yo‘llaridan biri bo‘lib maxsus zonalar hisoblanadi. Ular joylashgan hududlarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratadi. Xususan, sanoat ishlab chiqarishni jadallashtiradi, hududlarning tadbirkorlik uchun investitsion jozibadorligini oshiradi, yangi investitsiya va yangi texnologiyalarni jalb qilishga, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga va ularning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib beradi, jamiyat uchun o‘lik yuk bo‘lib yotgan bo‘sh maydonlardan real iqtisodiy sektorni rivojlantirish orqali ulardan samarali foydalanishga, aholi uchun ish joylarini yaratishga, kambag‘allikni qisqartirish hamda yangi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga olib keladi.

Sotish bozorlarini egallashdagi raqobatning ortib borishi sharoitida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlashning asosiy yo‘li industrial park, zona va sanoat zonalari bo‘lib qolmoqda. Bularning umumiy tomonlaridan biri, xorijiy tajribadan ma’lumki, ularda ishlab chiqarish ilmiy-tadqiqot muassasalari va tajriba-konstruktiv ishlanmalar bilan bog‘liq holda amalga oshirilmoqda. Malakali kadrlar bilan ta’minlash masalasi ham kadrlar tayyorlash agentliklari va oliy o‘quv yurtlari bilan qat’iy aloqalarning o‘rnatilishi orqali to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan.

Yuqorida keltirilgan tuzilmalar tashkil etilishidagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan respublikamizda barpo etilayotgan maxsus iqtisodiy zonalardan mutlaq ajralib turadi. Lekin rivojlangan xorijiy davlatlarda ushbu tuzilmalarni barpo etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tajribasi, davlat va xususiy sektor sherikchiligi tajribasini respublikamizda hududiy sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish va maxsus iqtisodiy zonalarni barpo etish va rivojlantirishda, sharoitga moslashtirilgan holda foydalanilsa, foydadan holi bo‘lmasdi.

Industrial parklar xalqaro tasnifga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:[1]

- Grinfild – hech narsa qurilmagan yer maydoni;
- Braunfild – muhandislik va transport kommunikatsiyalari, infratuzilma obyektlari, ishlab chiqarish binolari qurilgan yer maydoni.

Grinfildlar ham uch turga bo‘linadi: davlat grinfildi, xususiy grinfild va aralash grinfild. Grinfild loyihasiga ko‘ra, park yangi, ilgari hech qanday ishlab chiqarish joylashmagan yer

maydonida tashkil qilinadi. Ustun tomoni: bino, inshootlar buyurtmachi talabiga mos holda quriladi.

Braunfildlar esa davlat braunfildi va xususiy braunfild turlariga bo‘linadi.

Grinfild va braunfildlarni moliyalashtirish mexanizmlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**Industrial parklarni moliyalashtirish mexanizmlari [2]**

| Industrial park turlari | Yer, mulk egasi | Infratuzilma |
|---|---|---|
| Davlat grinfildi | Yer maydoni davlat yoki munitsipal mulki | Infratuzilma davlat budjeti tomonidan moliyalashtiriladi |
| Xususiy grinfild | Yer maydoni xususiy mulk yoki loyihani amalga oshiruvchi tomonidan yer, yer egasidan ijaraga olingan | Infratuzilma xususiy mablag‘ hisobidan moliyalashtiriladi, lekin davlat subsidiyasidan foydalanish mumkin |
| Aralash grinfild | Yer maydoni, aksionerlik jamiyati mulki. Aksiyalar davlat va xususiy sektor tomonidan bo‘lib olingan. Obyektlar davlat-xususiy sektor mablag‘i hisobidan sherikchilik asosida barpo etiladi | Infratuzilma obyektlari davlat-xususiy sektor sherikchiligida moliyalashtiriladi. Obyektlarning bir qismi xususiy sektor tomonidan moliyalashtiriladi |
| Davlat braunfildi | Yer maydoni, infratuzilma obyektlari, binolar, inshootlar davlat mulki hisoblanadi | Industrial parkni rivojlantirish, obyekt larni qayta tiklash, infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish davlat budjeti mablag‘i hisobidan amalga oshiriladi |
| Xususiy braunfild | Yer maydoni va undagi barcha obyektlar xususiy mulk hisoblana | Infratuzilma xususiy mablag‘ hisobidan moliyalashtiriladi, davlat subsidiyasidan foydalanish mumkin |

Industrial parklarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, nafaqat federal darajada, balki mintaqa darajasida ham faol amalga oshirilmoqda. Park hududi infratuzilmasini shakllantirish, energetika ob’yektlarini barpo etish, muhandislik tarmog‘i, suv ta’minoti va oqava suv tarmoqlarini barpo etish mintaqalar tomonidan (munitsipal organlar) moliyalashtiriladi.

Industrial parklarning barpo etilishi mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydi, mintaqadagi ijtimoiy masalalarni hal etishga olib keladi. Industrial parklarning barpo etilishini mintaqaga investitsiyani jalb etish va sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning eng yaxshi usuli sifatida o‘rganish mumkin.

Industrial parklarning grinfild va braunfild turlari bilan respublikamizdagi maxsus iqtisodiy zona (MIZ)larning ustun va zaif tomonlarini ko‘rib chiqamiz.

Mintaqadagi davlat organlari industrial park orqali mintaqaga katta investitsion loyiha olib kiruvchi yirik kompaniyalarni jalb etishga harakat qiladi. Industrial park barpo etishning o‘zi juda katta investitsiya talab etadi, bundan tashqari, park hududi infratuzilmasini shakllantirishga to‘g‘ri keladi. Industrial parklar barpo etilishi mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydi, mintaqadagi ijtimoiy masalalarni hal etishga olib keladi. Shu sababli, investorlar investitsiya kiritishdan oldin barpo etiladigan industrial parklarning holatiga e’tibor beradilar.

Industrial parklarning yirik investorlarni jalb etish bo‘yicha raqobat ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi: malakali mehnat resurslari va moliyaviy institutlar mavjudligi; transport va boshqa infratuzilmalarning rivojlanganlik darajasi; energetik resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi va sotish bozorlari yaqinligi.

**2-jadval**

**Industrial parklarning grinfild va braunfild turlari bilan MIZlarning ustun va zaif tomonlari [3]**

| Park turlari | Grinfild | Braunfild | MIZ |
|---|---|---|---|
| Tavsifi | Ishlab chiqarishga mo‘ljallangan, buyurtmachi talabiga mos holda quriladigan bino, inshootlar uchun ajratilgan yer maydoni | Rezidentlarga sotish yoki ijaraga berish uchun tayyorlangan yer maydoni va binolar | Zona qatnashchilariga ijaraga beriladigan tayyor yer maydoni. |
| Ustun tomoni | O‘z ishlab chiqarishiga mos holda loyihalashtirish va shu loyihaga ko‘ra bino-inshootlarni quradigan yer maydoni | Loyihani ishga tushirish muddati qisqaradi, kommunikatsiyalarni loyihalashtirish, qurish va zonaga olib kelish xarajatlarini moliyalashtirish qisqaradi | Loyihani ishga tushirish muddati qisqaradi. Kommunikatsiyalarni loyihalashtirish, qurish, olib kelish xarajatlari qisqaradi. |
| Kamchiligi | Kommunikatsiyalarni loyihalashtirish, qurish, olib kelish moliyaviy xarajatlarining qo‘shimcha sarfi va loyihani ishga tushirish muddatining cho‘zilishi. Mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash muammosi ijtimoiy infratuzilma | Ishlab chiqarishga mos kelmagan obyektlarni buzish, qayta qurish, hududlarni tozalash bilan bog‘liq ortiqcha moliyaviy xarajatlar | Ishlab chiqarishga qisman moslashtirish xarajatlarining paydo bo‘lishi |

Industrial parklarni barpo etishdan manfaatdor tomonlar: mintaqa hokimiyat organlari, park ixtisosligini belgilovchi yirik investor, rezidentlar va boshqaruv kompaniyasi hisoblanadi.

Industrial parklarni barpo etishga bo‘lgan asosiy to‘siq: qatnashchilarda moliya resurslarining yetishmasligi. Shuning uchun ham bu muammoni hal etishda federal va mintaqa hokimiyat organlari parkda joylashuvchi kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlashiga zarurat tug‘iladi hamda bu yerda davlat va biznes birgalikda samarali harakat qilishiga to‘g‘ri keladi.

Industrial parklarning “yadro”si sifatida yirik ixtisoslashgan ishlab chiqarish kompaniyalarining joylashuvi, infratuzilma ob’yektlari, ishlab chiqarish bino va inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilishga to‘g‘ri keladi va bu jarayon juda katta mablag‘ talab etadi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, har qanday mamlakatda ham maxsus iqtisodiy zonalar uchun birinchi qo‘yiladigan talab – bu mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va xalqaro integratsiyalashuvning yuqori darajada ekanligi, elektr-energiya bilan yetarli ta’minlanganlik, transport kommunikatsiyalari bilan yetarli ta’minlanganlik kabi jarayonlarning xalqaro andozalarga mos kelishidir.

Izlanishlarimiz natijasida va yuqoridagi xorijiy tajribalardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Maxsus iqtisodiy zona tushunchasini – mahalliy mineral xom ashyo resurslarini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega jahon bozorida raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlaydigan zamonaviy korxonalar tashkil etuvchi maxsus hududdir, deb yuritish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish uchun va davr talablarida tashkil etish uchun uning nazariyadagi belgilarini muntazam ravishda kengaytirib borish kerak. Masalan, mavjud sanoat bazasini kengaytirish yoki servis xizmati, konsalting xizmatlari va boshqalar.

Jahon bozorida maxsus iqtisodiy zonani tezroq va shaffof tarzda tanitish uchun yuqori saviyadagi iqtisodiy siyosatni olib borish lozimdir. Har bir maxsus iqtisodiy zonaning o‘z

konsepsiyalari bo‘lishi va uni xalqaro andozalarga mos, investorlarga sodda va qulay tarzda, ya’ni tushunarli holda yetkazish choralarini ko‘rish lozim, degan fikrdamiz.

Xulosa qilib aytganda, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda va uning samaradorligini oshirishda, jahon bozoriga tobora integratsiyalashuviga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni rag‘batlantirishning o‘ziga xos va betakror mexanizmini joriy qilishda muhim soha bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Ахмадеева О. А., Любова О. В. Индустриалние парки как основа развития регионов на примере Чистополского муниципалного района Республики Татарстан. // Стратегия устойчивого развития регионов России, 2013. № 18. С. 8-20.
2. Чувардинский И.В. Формирование индустриалних парков. www.keyportner.ru
3. www.stat.uz//O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlar faoliyati (2021 yil yanvar-dekabr). –T.:B.5


**UDK:330.47**

## RAQAMLI IQTISODIYOTDA KOGNITIV TEXNOLOGIYALAR

## КОГНИТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

## COGNITIVE TECHNOLOGIES IN DIGITAL ECONOMICS

**Qurbonov Dilbar Qurbonovich**
**Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, i.f.n.**

**Annotatsiya**

Maqolada kognitiv texnologiyalarning rivojlanishi tahlil qilinadi. Kognitiv fanda dasturiy ta’minot: matnlar va boshqa materiallarni tahlil qilish uchun ilovalar, qidiruv, mashinani o‘rganish, tasniflash, gipoteza yaratish, navigatsiya, shuningdek, intellektual dasturlarni ishlab chiqish uchun bilim platformalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt, mashinasozlik va robototexnika, bulutli texnologiyalar va virtual haqiqatga oid ma’lumotlar tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** Kognitiv texnologiyalar, sun’iy intellekt, modellashtirish, mashinasozlik va robototexnika, bulutli texnologiyalar, virtual haqiqat, raqamli texnologiyalar, uchinchi sanoat inqilobi.

В статье анализируется развитие когнитивных технологий. Программное обеспечение в когнитологии: рассмотрены приложения для анализа текстов и других материалов, поиска, машинного обучения, классификации, генерации гипотез, навигации, а также платформы знаний для разработки интеллектуальных программ. Также была проанализирована информация по искусственному интеллекту, машиностроению и робототехнике, облачным технологиям и виртуальной реальности.

**Ключевые слова:** Когнитивные технологии, искусственный интеллект, моделирование, машиностроение и робототехника, облачные технологии, виртуальная реальность, цифровые технологии, третья промышленная революция.

The article analyzes the development of cognitive technologies. Software in cognitology: applications for analysis of texts and other materials, search, machine learning, classification, hypothesis generation, navigation (guidance), as well as knowledge platforms for the development

of intelligent programs are considered. Also, information on artificial intelligence, mechanical engineering and robotics, cloud technologies, and virtual reality was analyzed.

**Key words:** Cognitive technologies, artificial intelligence, modeling, mechanical engineering and robotics, cloud technologies, virtual reality, digital technologies, the third industrial revolution.

So‘nggi yillarda kognitiv jarayonlarni o‘rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. XX asrning 50-yillari boshlariga qadar falsafa va mantiq bo‘yicha asarlarda bilimlar nazariyasiga oid masalalar ko‘rib chiqilgan. XX asrning 50 yillarning boshlarida o‘rganish mexanizmlarini psixologiya mutaxassislar tomonidan tadqiq qilingan. Birinchi tadqiqotlar idrok mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlandi. Hozirgi vaqtda yanada murakkab kognitiv mexanizmlar o‘rganilmoqda, masalan: qarorlarni qabul qilish mexanizmi, o‘rganish, xotira va boshqalar.

Kognitiv texnologiyalar bilim, tajriba, aloqa va qarorlarni ishlab chiqish uchun va faollashtirish uchun aqlli tizimlarni ratsionalizatsiya qilish va shakllantirish uchun keng ko‘lamdagi texnologiyalar tushuniladi. Kognitiv texnologiyalar tabiiy va sun’iy intellektual tizimlarning tashkil etilishi va ishlash tamoyillarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Kognitiv texnologiyalarning mohiyati - odam olingan ma’lumotni qanday qabul qilishi va ishlov berishni, qaysi shakllarni (kognitiv sxemalar)ni yarata olishini topishdan iborat.

Institute of Development Studies (IDS) ning baholari boyicha yaqin yillarda kognitiv texnologiyalar jahon bozori har yili 55% o‘rtacha o‘sadi va XXI asrning 20-chi yillarda $ 31,3 milliardga yetadi. Bundan tashqari, bozorning 40% dan ko‘prog‘ini dasturiy ta’minot egallaydi: matnlarni va boshqa materiallarni tahlil qilish uchun ilovalar, qidirish, mashinani o‘rganish, toifalashtirish, gipoteza (faraz) ni yaratish, navigatsiya (yo‘l qursatish), shuningdek, aqlli dasturlarni ishlab chiqishga mo‘ljallangan bilim platformalari. Kognitiv tizimlarning global xaridlarining qariyb 20 foizi bank sektoriga to‘g‘ri keladi. Banklarda bu tizimlar firibgarlikni aniqlash, tahlil qilish va tahdidlarni avtomatlashtirish, shuningdek, tavsiyalar berish uchun ishlatiladi. Xarid qilish bo‘yicha ikkinchi va uchinchi o‘rinlarni savdo tashkil etadi, bu erda kognitiv tizimlar mijozlarga xizmat ko‘rsatish, savdo va sog‘liqni saqlashning avtomatlashtirilgan agentlari ishini ta’minlaydi, bu yerda diagnostika va davolash tizimlarida qo‘llaniladi.Tizimga xos bo‘lgan muammolar va qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon beradi.Modellashtirishning maqsadi alohida, ammo o‘zaro bog‘liq elementlar va quyi tizimlardan tashkil topgan murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqilgan o‘rganilayotgan obyektning ishlashi haqidagi gipotezani shakllantirish va aniqlashtirishdir.

2017-yilda raqamli inqilob hal qiluvchi bosqichga kirdi – dunyoning har ikkinchi aholisi Internetga ulandi. McKinsey Global Instituti (MGI) ma’lumotlariga ko‘ra, keyingi 20 yil ichida ish operatsiyalarining 50% gacha dunyoda avtomatlashtirilishi mumkin va bu jarayonni 18-19-asrdagi sanoat inqilobi bilan taqqoslash mumkin. Sanoat inqilobi alohida mamlakatlarga iqtisodiy o‘sishning ajoyib sur’atlarini ta’minlashga imkon berdi va bir necha o‘n yillar davomida ular global iqtisodiyotning yetakchilariga aylandilar. Hozirgi vaqtda, iqtisodiyotning globallashuvi va axborotkommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi davrida ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyotlari yangi raqamli shakliga o‘tmoqda. Raqamli iqtisodiyot mamlakatlar va butun mintaqalar iqtisodiyotining qiyofasini va tuzilishini o‘zgartirmoqda. Tarmoq ichidagi raqobat kuchaymoqda, bozorlar kengaymoqda, ayrim mamlakatlar sanoatlarining jahon bozorlarida raqobatbardoshligi oshmoqda. Natijada milliy iqtisodiyotlarning o‘sishi kuzatilmoqda. Raqamli iqtisodiyot kompaniyaning, sanoat va umuman milliy iqtisodiyotning o‘sish istiqbollarini belgilaydi. Raqamli pleyerlarning paydo bo‘lishi allaqachon barcha sohalar - turizm, telekommunikatsiya, matbaa, yo‘lovchi tashish sohasini o‘zgartirdi. Raqamli transformatsiya dunyo iqtisodiy o‘sishining asosiy omillaridan biridir. Global instituti M.Kinseyning hisobkitoblarga ko‘ra 2025 - yilda yalpi ichki mahsulot o‘sishi Xitoyda 22% Internet-texnologiyalar hisobidan amalga oshirilishi mumkin. AQSHda esa raqamli texnologiyalar hisobiga iqtisodiyotning o‘sishi 2025-yilda $1,6 – 2,2 trln. teng bo‘lishi mumkin. Bu iqtisodiy bashoratlarini avtomatlashtirish ta’siri bilan emas, balki faqat bog‘liq mavjud jarayonlarning, balki mutlaqo yangi olamshumul ish joriy etish bilan - modellar va texnologiyalar. Ular orasida - raqamli platformalar, raqamli ekotizimlar yilda chuqur tahlilchi katta ma’lumotlar guruhlar, masalan, 3D sifatida Sanoat 4.0 texnologiyalari - chop,

robototexnika, buyumlar Interneti. Sanoatning qisqacha tarixi Chet elda Sanoat nomi bilan tanilgan To‘rtinchi sanoat inqilobi dastlab G‘arb mamlakatlarida paydo bo‘ldi. 2011-yilda Gannoverdagi (Germaniya ) sanoat ko‘rgazmalaridan birida Germaniya hukumati ishlab chiqarishda axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish zarurligi to‘g‘risida gapirdi. Mahsus tashkil etilgan mansabdor shaxslar va mutaxassislar guruhi mamlakatdagi ishlab chiqarish korxonalarini “aqlli” korxonalarga aylantirish strategiyasini ishlab chiqdilar. Yangi texnologiyalarni faol rivojlantirayotgan boshqa davlatlar ham ushbu fikrga ergashdilar. Sanoat atamasining sinonimi sifatida to‘rtinchi sanoat inqilobi qo‘llana boshlandi. Ishlab chiqarishdagi to‘rtinchi sanoat inqilobi iqtisodiy o‘sishning yangi omilidir, bu ilgari bo‘lmagan o‘qitish imkoniyatlari va qadriyatlarni qabulqilish bilan bog‘liq. Atrofdagi dunyoni yaxshilashga yo‘naltirilgan keng qamrovli g‘oyaga muvofiq texnologiyalarni joriy etish global iqtisodiyotni mustahkamlashga va sayyoramizning ekologik holatini yaxshilashga yordam beradi. Ishlab chiqarishni o‘zgartirishning asosiy yo‘nalishlari uchta global texnologik tendentsiyalar bilan belgilanadi: tarmoq integratsiyasi, intellektualizatsiya va moslashuvchan avtomatlashtirish. Mutaxassislar kiberfizik tizimlar deganini yoki internetga ulangan avtomatlashtirilgan mashinalari va ishlov beradigan markazlari sanoat jarayonlarga integratsiya qilishni taklif qilgan (moddiy dunyoni virtual dunyo bilan birlashtiradigan tizimlar, CPS). Ishlab chiqarishqoliplarni mustaqil ravishda zaruriyat bo‘lganda mashinalarni o‘zgartira oladigan tizimlarni yaratish maqsadi qo‘yilgan.

Bulutli texnologiyalar. Ba’zi kompaniyalar o‘zlarining ishlarida qisman bulutli dasturlardan foydalanmoqdalar, ammo Sanoat rivojlanishi bilan ushbu texnologiya ko‘prlab muammolarni hal qilishda foydalaniladi. Vaqt o‘tishi bilan bulutli saqlash texnologiyasiningsifati yaxshilanadi, javob vaqti millisekundlarga qisqaradi va kelajakda ishlab chiqarish jarayonini boshqarish tizimlarining ishlashi ham bulut texnologiyalariga asoslanadi.

Majburiy bulutli hisoblash xususiyatlari

1. Talabga binoan o‘z - o‘ziga xizmatko‘rsatish - iste’molchi server vaqtni, ma’lumotlarni olish va qayta ishlov berish tezligini, saqlanadigan ma’lumotlar miqdorini xizmat ko‘rsatuvchi provayder vakili bilan aloqada bo‘lmagan holda mustaqil ravishda belgilaydi va o‘zgartiradi;

2. Tarmoq orqali universal kirish – xizmatlardan foydalaniladigan terminal qurilmasidan qat’iy nazar, ma’lumotlar tarmog‘i orqali iste’molchilar foydalanishlari mumkin;

3. Resurslarni birlashtirish – xizmat ko‘rsatuvchi provayderlarning ko‘plariga xizmat ko‘rsatish uchun iste’molchilar o‘rtasida quvvatlarni dinamik ravishda qayta ishash maqsadida resurslarniyagona pulga (pool) birlashtiradi;

4. Elastiklik – xizmatlar istalgan vaqtda taqdim etilishi, kengaytirilishi, torayishi, yetkazib beruvchi bilan o‘zaro aloqada bo‘lmagan holda, qo‘shimcha xarajatlarsiz avtomatik rejimda taqdim etilishi mumkin;

5. Iste’mol hisobi – xizmat ko‘rsatuvchi provayder iste’molqilingan resurslarni avtomatik ravishda ma’lum bir abstraktsiya darajasida avtomatik ravishda hisoblab chiqadi (masalan, saqlangan ma’lumotlar miqdori, o‘tkazish qobiliyati, foydalanuvchilar soni, tranzaksiyalar soni) va shu ma’lumot asosida iste’molchilarga taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini hisoblab chiqadi.

Xususiy bulut (private cloud). Bular ichki bulut infratuzilmasi va korxona xizmatlari. Ushbu bulutlar korporativ tarmoq ichida joylashadi. Ommaviy bulut (public cloud). Bu provayder tomonidan taqdim etilgan bulutli xizmatlar. Bulutlar korporativ tarmoqdan tashqarida joylashgan. Foydalanuvchilar ushbu bulutni boshqarish yoki unga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega emaslar - barcha javobgarlik bulut egasiga yuklatiladi. Bu modelda turli kompaniyalar foydalanuvchilari umumiy hisoblash resurslari va dasturiy mahsulotlarni ishlatadi (masalan, mijozlar ma’lumotlari turli ma’lumotlar bazalarida saqlansada bitta serverda joylashgan bo‘ladi). Turli xil mijozlar o‘rtasida kirishni farqlash jarayoni xavfsizlik siyosati yordamida amalga oshiriladi va shaxsiy bulut modelini amalga oshirishda bo‘lgani kabi chuqur himoyani ta’minla ololmaydi. Bunday amalga oshirish jarayoni xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin, ammo shu bilan birga yuqori yuklama paytida ishlashda muammolar bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu model katta moslashuvchanlikka ega emas. Gibridli bulut (hybrid cloud). Infratuzilmani qurishning bir nechta variantlarini ishlatadigan bulut turi – masalan, xizmatlarning bir qismi jismoniy infratuzilmada, bir

qismi xususiy bulutda va boshqalari kirish qismida joylashgan bo‘ladi. Gibrid bulutlar ommaviy va xususiy bulutlarni birlashtiradi. Odatda ular korxona tomonidan yaratiladi va ularning boshqaruv majburiyatlari korxona va ommaviy bulut provayderi o‘rtasida taqsimlanadi. Xususiy bulut har doim ham geografik jihatdan mijoz davlatida joylashtirilmaydi. Shaxsiy bulut ma’lum bir joyni, resurslarga egalikni yoki o‘zini boshqarishni emas, balki maxfiylikni anglatadi.

Umumiy qilib aytganda bu yangicha va texnologik sohani joriy etishda e’tiborli va barcha holatlarda kutilishi mumkin bo‘lgan ehtimolliklarni oldindan pragnozlash kerak.Bizning O‘zbekistonda ham bosqichma bosqich raqamli iqtisodiyotni imkoniyatlaridan oqilona va samarali ffoydalanish ayni damda maqsadga muvofiq bo‘ladi.Albatta,zamon o‘zgargan sari insonlarning fikrlash doirasi ham kengayib boradi.Bu esa o‘z navbatida iqtisodiyotning shu kabi yaangida yangi sohalarini vujudga kelishiga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Kelly K. New Rules for the New Economy: 10 radical strategies for a connected world /K. Kelly. – New York: Viking, 1998.
2. Amrhein D., Quint S. Cloud computing for the enterprise: Part 1: Capturing the cloud.
3. British Computer Society, 2014: The Digital Economy.
4. Brynjolfsson E. and KahinB. (editors), Understanding the Digital Economy, The MIT Press, Cambridge, Massachusetts, and London, England, 2000, – 408p.

**UDK:338.49**

## A SYSTEMIC APPROACH TO SCIENCE, EDUCATION AND INNOVATION POLICY IN UZBEKISTAN

## ЎЗБЕКИСТОНДА ФАН, ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН СИЁСАТГА ТИЗИМЛИ ЁНДАШУВ

## СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД В ОБЛАСТИ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И ИННОВАЦИОННОЙ ПОЛИТИКЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Yunusov Alisher**
**Associate Professor of the Department of Global and Regional Economy**

**Annotation**

The article is devoted to the formation and development of the innovation system of the Republic of Uzbekistan. The article analyzes and describes the inevitability of combining three previously independent complex systems "science", "education" and "innovation", the causes and factors influencing the formation and development of the innovation system, problems and solutions, points out that universities can provide competitive advantages of enterprises in the short and long term, the innovation process in the economy and are one of the drivers of innovation in the country. Uzbek model of building NIS is analyzed.

**Key words:** "science", "education" and "innovation", "knowledge triangle", basic functions of universities, knowledge transfer system, National Innovation System.

Мақола Ўзбекистон Республикасининг инновацион тизимини шакллантириш ва ривожлантиришга бағишланган. Мақолада илгари мустақил бўлган учта "фан", "таълим" ва "инновация" комплекс тизимларини бирлаштиришнинг муқаррарлиги, инновацион тизимнинг шаклланиши ва ривожланишига таъсир этувчи сабаблар,омиллар, муаммолар ва уларни ҳал қилиш йўллари таҳлил қилинади ва тавсифланади, университетлар ушбу соҳадаги корхоналаргни қисқа ва узоқ муддатли рақобатдош афзалликларни билан

таъминдаши мумкинлиги таъкидланган.. , Миллий инновацион тизим(МИТ) ярятилишининг ўзбек модели таҳлил қилинди.

**Калит сўзлар:** "фан", "таълим" ва "инновациялар", "билимлар учбурчаги", университетларнинг асосий вазифалари, билимларни узатиш тизими, Миллий инновацион тизим(НИС)

Статья посвящена формированию и развитию инновационной системы Республики Узбекистан. В статье анализируется и описывается неизбежность объединения трех ранее самостоятельных сложных систем "наука", "образование" и "инновации", причины и факторы, влияющие на формирование и развитие инновационной системы, проблемы и пути их решения, отмечается, что университеты могут обеспечить конкурентные преимущества предприятий в краткосрочной и долгосрочной перспективе, инновационный процесс в экономике и являются одним из драйверов инноваций в стране. Анализируется узбекская модель построения НИС.

**Ключевые слова:** "наука", "образование" и "инновации", "треугольник знаний", основные функции университетов, система передачи знаний, Национальная инновационная система. (НИС)

Problem: The Innovative University - the key to a knowledge-based economy?

The main reason for the deep transformation processes that most countries are undergoing today is the sharply accelerated, especially during the second half of the twentieth century, progress of knowledge, the increase in its volume, the volume of information, and the consequent gradual transition to a new paradigm of social development. The globalization of the economy, as well as constant technological changes, the revolution in information and communication technologies and the rapid pace of social change caused by them, are accompanied by an increase in the mobility of labor and capital and the creation of a society in which knowledge is of particular value.

This makes the merger of the three previously independent complex systems of "science," "education," and "innovation" inevitable. The unification is based on system principles, taking into account the uniqueness of each system and in their close interaction.

The high degree of complexity of the new formation of "science - education - innovation" or "Knowledge Triangle" makes us think about the ways of interaction between its constituent subsystems, among which universities play an important role. The increase in their role during the formation of a knowledge-based economy has been noted by many researchers [1].

Universities are unique in that they are producers, distributors, keepers and users of knowledge and information, i.e. they hold the key to knowledge-based economy. The "knowledge triangle" model implies not only strengthening the educational, scientific and innovative components, but also strengthening the links between them, as well as scaling the associated positive externalities. Therefore, the traditional notion of knowledge production in universities as a linear and sequential process should be abandoned in favor of a systematic approach to scientific, educational and innovation policy. The "knowledge triangle" concept formalizes the links between the traditional "basic" functions of universities - teaching, research and public activities. In this model, by implementing educational programs and research projects, universities generate knowledge, and multifaceted interaction with the general public helps them find application in creating new products, processes and services. The "knowledge triangle" is formed as a result of the interaction of the three mentioned functions of universities through the bidirectional circulation of knowledge flows between them. [2]

How to link knowledge creation with innovation activity?

Because of its inclusiveness, the concept of the "knowledge triangle" is seen as an attractive framework for policies that aim to link knowledge creation to innovative activity. However, it provides limited insight into the specific ways in which such interactions can be deployed and managed, due to differences in the economic structure of countries and the functions of universities.

In developed countries, universities and education in general are important for finding solutions to common problems of adapting to a market economy and for the development of scientific and technological progress.

Universities in Uzbekistan have yet to find their place in this process. Sustainable economic growth and living standards of the country’s population depend on the ability of society to produce new knowledge and implement economic strategy with its help. The missions of such leading educational institutions of Uzbekistan as the National University of Uzbekistan, Fergana State University, Fergana Polytechnic Institute, Gulistan State University, Samarkand State University are based on the knowledge triangle concept and are aimed at preserving and strengthening their role as the leading research-based institutions of higher education in Uzbekistan, which train highly qualified specialists in the sphere of higher education. By now, they have formed the necessary institutional prerequisites for creating a system of knowledge transfer[3].

Universities, following the experience of other countries, can provide a competitive advantage for enterprises in the short and long term by catalyzing innovation in the economy. For this purpose, the education system should play a leading role in the process of transformation, and innovation, creation of new enterprises, transfer and dissemination of knowledge should become the priority tasks of higher education.  Uzbek universities need to carry out the advanced development of education and science: to use new forms, mechanisms that allow the university to predict the needs of enterprises, to train specialists taking into account these needs and patterns of development of the enterprise, to encourage competition on the way to excellence, to develop research infrastructure. These are urgent problems today, because cooperation between universities and industrial enterprises in Uzbekistan traditionally remains insufficiently effective, despite the dynamic development of both parties. The main reasons preventing the correction of the existing situation are as follows:- disinterest on the part of university faculty;- different timelines for product research: short and definite for industry, long and flexible for the university;- different objectives of activities: industry is looking for practical applications, solving existing problems, improving quality and productivity; university is looking for new knowledge, new theories- confidentiality considerations on the part of industry, clashing with the university’s desires to publish and disseminate knowledge;- the lack of laboratory and specialized equipment in universities, which is already obsolete.

Based on the existing world practice and many decades of formation and development of the system of fundamental and applied research, the Uzbek model of formation of NIS should represent something in between the traditional Euro-Atlantic and East Asian model, where universities play less important role in the innovation process than for example in countries of the mentioned regions. There is a need for serious state support for development and implementation of researches of semiconductor materials and use of scientific groundwork in the sphere of nanotechnology, taking into account perspectivity of researches in this direction. According to experts, the development of nanotechnology based on integration of a number of disciplines: chemistry, physics, mechanics, material science, electronics, etc. will affect almost all areas of human activity in the coming decades.

In other directions the development has the character of imitation type of development or features of an alternative model of formation of NIS, such as the innovative development of Turkey and Chile. These countries in their innovative development emphasize training of highly skilled personnel and development of light industry, creative industry; i.e. a complex of "creative" technologies, uniting more than 10 sub-branches of industry and services, connected with industrial and artistic design. In these countries great attention has always been paid to textile industry, production of building materials and high-hume industries (fashion, national cuisine, international and domestic tourism, medieval architectural constructions in Samarkand, Bukhara, Khiva and Shakhrisyabz, etc.). Today, these sectors are the driving force of the economic growth.

Creation of innovative infrastructure as the main link in the chain of interaction between the sphere of knowledge generation and production.

Since 2005, expenditures on scientific and technological research in the republic have increased significantly, but in terms of R&D funding, the republic lags far behind the global average. Most of the research, as has already been noted, is financed by the state. The private sector does not actually participate in the innovation process. Venture capital funds are not widely developed in the republic, and small and medium-sized businesses are not very willing to invest in innovation due to the high riskiness of innovative projects and lack of financial resources.

This demonstrates that although Uzbekistan has the basic components of the national research and development system, the urgent task is to form an innovative infrastructure as the main link in the chain of interaction between the sphere of knowledge generation and production.

Over the past few years, Uzbekistan has been creating conditions for the development of the National Innovation System and is actively trying to enter the orbit of the knowledge economy. Ensuring effective interaction between science, education and production is the most important condition for increasing the competitiveness of Uzbekistan on the world stage.

In the Decree of the President from 06.07.2022 №UP-165 "About the approval of strategy of nnovative development of the Republic of Uzbekistan for 2022-2026" is approved:-Innovation Development Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2022-2026;-Targets for the implementation of the Strategy for Innovative Development of the Republic of Uzbekistan for 2022-2026;-Targets for the implementation of the Strategy for Innovative Development of the Republic of Uzbekistan for 2022-2026 by regions and Decree of the President dated 06.07.2022 "On organizational measures for the implementation of the Strategy for Innovative Development of the Republic of Uzbekistan for 2022-2026" indicates

The main directions of the Strategy:- Supporting start-up initiatives by forming a network of innovation infrastructure entities (innovation technopark, technology transfer center, innovation cluster, venture capital organization, innovation center, start-up ,spin-off, acceleration center, incubator), as well as the organization of large-scale production (capital creation);- increasing the share of innovation-active organizations by improving the institutional mechanisms of state support of innovation activity;- ensuring accelerated socio-economic growth of the regions by increasing the innovative activity of small businesses;- stimulation of demand for innovation by providing a comprehensive system of creating new types of products and innovative technologies from the idea to the end consumer;- development of human capital in the management of innovative activity by developing the skills of creation, innovative entrepreneurship and rationalization at all stages of education [ 4]

1-January 2021 in Uzbekistan there were 254 organizations that carried out scientific research and experimental design developments. Including the state sector - 108, the entrepreneurial - 79, in the system of higher education - 65, private non-profit sector - 2.

As a result of implementation of the Strategy for Innovative Development of the Republic of Uzbekistan for 2019-2022, great success was achieved in ensuring and stimulating innovative and technological progress in the sectors of the economy and the social sphere, including agriculture, energy, construction, education and health care.

Conclusion. The tasks of innovative development of the state: -establishment of human innovative potential, the basis of which will be highly educated citizens;

- Increasing the investment activity of modern technological modes; - modernization of the state economy; - Creation of a competitive research and development sector and conditions for its expanded reproduction; - attraction of investments for development of innovative area of the republic; -development of indicators of innovative activity and development of its monitoring system; -attraction of scientists and young people to science of the republic

Thus, Uzbekistan, which uses an alternative model of innovative development, is based on historical, national features of the country. In innovative development it is focused not only on development, but on borrowing of new innovative technologies, their improvement, distribution and introduction into production. Innovation economy of the state is formed evolutionarily on the basis of conceptual foundations of design, development, creation and implementation of innovative technologies by economic entities.

**List of used literature:**

1.Unger M., Polt W. (2017) The Knowledge Triangle between Research, Education and Innovation - A Conceptual Discussion. Foresight and STI Governance, vol. 11, no 2, pp. 10-26.
2.https://eit.europa.eu ‘ collaborate ‘ documents ‘... CATALYSING INNOVATION IN THE KNOWLEDGE TRIANGLE. Practices from the EIT Knowledge and Innovation Communities. -Knowledge Triangle Configurations at three Swedish Universities. Research Policy Group, Lund University, Lund, Sweden. Lund University School of Economics and Management, Lund, Sweden.2021
3 U. Salomov. Spin-off enterprises increase the economy and social status of higher education institutions. Higher Education in Uzbekistan,2022, #2, pp- 21-29.
4. https://lex.uz/uz/docs/6102464?otherlang=

**УДК:338.486**

## РЕСПУБЛИКАНИНГ ТУРИЗМ САЛОҲИЯТИНИ ЖАДАЛ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТИББИЙ-СОҒЛОМЛАШТИРИШ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

## НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОГО И ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ СТРЕМИТЕЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕСПУБЛИКИ

## DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF MEDICAL AND HEALTH TOURISM IN THE RAPID DEVELOPMENT OF THE TOURISM POTENTIAL OF THE REPUBLIC

**Ғофуров Азизбек Умаржонович**
**Фарғона давлат универститети мустақил тадқиқотчиси**

**Аннотация**

Ушбу мақолада соғлиқни сақлаш туризмини барқарор ривожлантириш ва соғломлаштириш хизматларига асосланган туристик бозорни шакиллантиришда замонавий шароитлар яратиш, турли хил имкониятлар ва курорт шаҳарларини замонавий бошқариш муаммолари билан боғлиқ эканлиги асослаб берилган. Бутун дунёдаги мутахассисларнинг соҳа фаолиятини ривожлантиришга билдирган фикр-мулоҳазалари, бугунги кунда тиббий ва соғломлаштириш туризмининг ўсиши каби масалалрга бағишланган.

**Калит сўзлар:** Соғломлаштириш туризми, туристик талаб, туристик оқимлар, санаторий-курорт хизматлар, соғлиқни сақлаш туризми, соғломлаштириш.

Данная статья основана на том факте, что создание современных условий при формировании туристического рынка, основанного на устойчивом развитии оздоровительного туризма и велнес-услуг, связано с различными возможностями и проблемами современного управления курортными городами. Отзывы экспертов со всего мира о развитии выездной деятельности посвящены таким вопросам, как рост медицинского и оздоровительного туризма сегодня.

**Ключевые слова:** Оздоровительный туризм, туристский спрос, туристские потоки, санаторно-курортные услуги, оздоровительный туризм, велнес.

This article is based on the fact that the creation of modern conditions in the formation of a tourist market based on the sustainable development of health tourism and wellness services is associated with various opportunities and problems of modern management of resort cities.

Feedback from experts from all over the world on the development of field activities is devoted to such issues as the growth of medical and wellness tourism today.

**Key words:** Wellness tourism, tourist demand, tourist flows, sanatorium-resort services, health tourism, wellness.

Жаҳон туризмининг жадал ривожланиши шароитида нафақат туристик оқимларнинг сезиларли ўсиши, балки туристик йўналишлар, туризм турлари ва туристик профиллар сонининг сезиларли даражада кенгайиши кузатилмоқда, бу эса туристик бозорнинг доимий сегментациясини акс эттиради. Ушбу жараёнлар туристик талабнинг тобора диверсификация қилинишини ва туристик таъминотнинг тегишли диверсификациясини кўрсатмоқда. Баъзи йўналишлар кўп тармоқли бўлиб бормоқда, бошқалари ўз маҳсулотларини янги мақсадли бозорларга йўналтирмоқда, бошқалари еса йўқолган брендларни тикламоқда. Ушбу жараёнлар бутун дунё бўйлаб курорт йўналишларини тўлиқ қамраб олади.

S.G‘ulomov ushbu masalaga “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunga asoslanib, quyidagicha ta’rif beradi: “Tadbirkorlik fuqorolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga yo‘naltirilgan mustaqil, tashabbuskor faoliyati bo‘lib, u fuqaroning o‘z nomidan, o‘zining tavakkalchiligi bilan hamda o‘zining yoki yuridik shaxsning mulkiy javobgarligi asosida amalga oshiriladi”[11].

Korxonani saqlab qolish va rivojlantirish masalalari tadqiq etilganida chiziqli yondoshuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Korxonaning rivojlanish tendentsiyalari tahlilida esa chiziqli yondoshuvdan foydalanish uning maqsadiga mos kelmaydi. Bizning tadqiqotlarimizga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyati mohiyatini to‘la yoritishda, uning samaradorligiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi muhit bilan o‘zaro aloqalarini ifoda etuvchi dialektik yondoshuv zarur.

Amaliyotning ko‘rsatishicha, ko‘p hollarda tadbirkorlik faoliyatining natijasi bo‘lib yangi ishlab chiqarilgan mahsulot hisoblanadi. Bugungi kunda iqtisodiy sohada raqobat muhitini shakllantirish, yangi ish faoliyatini boshlayotgan tadbirkorlarning o‘z ishidan yuqori tijorat foyda olishga intilishi, jamiyatning o‘sib borayotgan ehtiyoji va boshqalarni talab etadi. Jahonda keng rivojlangan innovatsion tadbirkorlikning mazmuni fan sig‘imi yuqori bo‘lgan mahsulot va yuqori texnologiyalarni yaratishda ifodalanadi. Rivojlangan davlatlarda innovatsion faoliyatni olib boruvchi firmalarning mamlakat eksportdagi ulushi 30 % dan ko‘proqni tashkil etmoqda.

Texnologik qayta qurish mulk munosabatlari evolyutsiyasida keskin burilish yasadi. G‘arb mamlakatlari uchun bugungi kunda mulk va ho‘jalik yuritish shakllarida plyuralizm xosdir. Yirik koorporatsiya tizimi o‘rta va kichik tadbirkorlik bilan integratsiyasi rivojlanmoqda. XX asrning 70-yillari o‘rtalariga va 80-yillar boshlariga kelib moddiy ishlab chiqarish sohasidagi ishchilar sonining amayishi va aksincha ijtimoiy sohadagi ishchilari sonining o‘sib borishi jarayoni boshlandi[12].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan eksport qilinadigan mahsulotlarning katta qismi chuqur qayta ishlanmagan va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lmagan xomashyolar hisoblanadi. Bunday vaziyat mamlakatda eksportga yuqori texnologiyali mahsulotlarni sotishga yo‘naltirishga qaratilgan keskin choralar ishlab chiqishni talab etadi. Hozirgi kunda “Eksport salohiyati” kategoriyasini belgilashda turlicha yondashuvlar mavjud. Eksport salohiyati tushunchasi ostida biz mavjud resurlarni yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport qilish imkoniyatini tushunamiz. Eksport salohiyatini zamonaviy uslublar asosida o‘rganib, sinflarga bo‘lish mumkin. Bizning fikrimizcha, eksport salohiyatini 2 sinfga ajratish mumkin:

1) Tarkibiy - eksport salohiyatining tarkibiy elementlarini o‘rganib, olingan natijalarga ko‘ra;

2) Qiyosiy - raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarning ish faoliyatini baholab, eksport salohiyatini taqqoslash asosida olingan natijalarga ko‘ra. Har bir sohaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining eksport salohiyati darajasi turlicha namoyon bo‘ladi[13].

Jahon amaliyoti rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik biznes ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o‘rinlarini barpo qilishda, bozor o‘zgarishlariga qaraganda tez moslashuvchanlikda va mulkdorlar qatlamini shakllantirishda muhim ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanligi tasdiqlanmoqda. Ko‘pchilik mamlakatlarda kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o‘rniga, uning tadbirkorlikni yuksaltirishdagi va bozor mexanizmlarini shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor berilmoqda. Shu nuqtai-nazardan bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning kichik biznesni moliyalashtirish yuzasidan tajribalarini atroflisha o‘rganish va samarali bo‘lgan usullarni milliy iqtisodiyotning xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy qilish bosh masaladir. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekistonda kichik biznes loyihalarini moliyalashni takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

**1-jadval**

**Iqtisodiyoti yuqori darajada mamlakatlarida kichik biznes rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari[14], (foizda)**

| Davlatlar | Kichik biznesning yalri ichki mahsulotdagi ulushi | Kichik biznesning umumiy bandlikdagi ulushi | Jami korxonalar tarkibida kichik biznes korxonalari ulushi |
|---|---|---|---|
| AQSh | 52 | 50,1 | 97,6 |
| Kanada | 43 | 47 | 99,8 |
| Yaponiya | 51,6 | 69,5 | 99,2 |
| Germaniya | 57 | 69,3 | 99,3 |
| Frantsiya | 49,8 | 56,6 | 97,6 |
| Italiya | 55 | 71 | 99,2 |
| Angliya | 52 | 55,5 | 99,1 |

1-jadval ma’lumotlaridan shuni qayd etish joizki, kichik biznesning yalri ichki mahsulotdagi ulushi Germaniyada 57%, AQShda 52%, Italiyada 55% ni tashkil etib yuqori ko‘rsatkichga

erishgan. Xorij mamlakatlarida kichik biznes har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning rivojlangan tizimi mavjud bo‘lib, bu hol raqobatning kuchayishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy muhitning barqaror taraqqiy etishini ta’minlaydi hamda mamlakatda kichik biznesni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning rivojlangan tizimi mavjudligini bildiradi.

AQShda kichik biznes korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, asosan, hukumat organi bo‘lmish «Kichik biznes ma’muriyati» (KBM) orqali amalga oshiriladi, vaholanki, dunyoning ko‘p mamlakatlarida bu kabi mahkama yo‘q. KBM tomonidan ko‘rsatilayotgan kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shakllari va usullari turlishadir. Ular berul axborot xizmatlari ko‘rsatish, kreditorlarga davlat kafolati berish, kichik korxonalar uchun samarali bo‘lgan ishlab chiqarish sohalarini aniqlash va shu kabi ko‘rlab zarur yordamlar ko‘rsatishdan iborat. KBM tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy yordam tizimi qator kredit dasturlariga ega. Shunday qilib AQSh da kichik biznes korxonalari asosan qarz va aktsiyadorlik kapitali evaziga moliyalashtiriladi.

AQSh tizimida yirik kompaniyalardan farqli qilgan holda kichik biznes sub’yektlari qarz mablag‘idan ko‘ra balki, o‘zining mablag‘iga suyanadi. Shunday bo‘lsada, tez rivojlanayotgan firmalar jalb qilinadigan mablag‘lar hisobiga qisman moliyalanishga ehtiyoj sezadi. Bu holda kredit kartoshkalari muhim moliyalash manbai bo‘lib xizmat qiladi. 1993 yilda kichik firmalarning 29% i ulardan foydalangan. Biroq shunday sharoitlarda ham banklarning to‘tgan o‘rni rasaymaydi. Xuddi o‘sha 1993 yilda kichik korxonalarning 26% i kredit liniyasi, 9 foizi moliyaviy lizing, 6 foizi iroteka krediti, 14 foizi uskunalar uchun kreditdan, 24 foizi transport vositalari uchun kreditdan foydalanishgan bo‘lsa, 1996 yil iyunida 1998 yil boshiga qadar 37 foiz xuddi shunday korxona tijorat banklari xizmatidan foydalandi. Ularga berilgan bank kreditlari umumiy so‘mmasi esa 172 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan.

Buyuk Britaniyada jismoniy shaxslarning jamg‘armasi va bank krediti kichik biznesni moliyalashtirishning asosiy manbalari bo‘lib xizmat qiladi. Jami kichik korxonalarning 20 foizdan ortig‘i Savdo va sanoat korxonalarini moliyalashtirish korporatsiyasidan kreditlar oladi. Kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning asosiy hukumat dasturlari Loon Quarantie Sheme hisoblanadi. U tijorat banklari uchun mustaqil ravishda kredit ololmaydigan tadbirkorlik turlariga kredit berish imkonini beradi. Bunda hukumat 70 foizgacha, xatar mavjud bo‘lgan joylarda esa 85 foizgacha mablag‘ qaydmasligini kafolatlaydi. Bunday kafolatda foiz stavkasi yiliga 2,5 foizni, xatar mavjud bo‘lgan joylarda esa 2 foizni tashkil etadi.

Shu tariqa, banklar tomonidan kichik tadbirkorlikga taqdim etadigan kreditlarni 70-80 foizi hukumat tomonidan kafotlanadi. Bu kafolatlarni qorlash uchun har yili budjetdan taxminan 50 mln. funt sterling ajratiladi.

Germaniyada kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning davlat dasturi ishlab chiqilgan va amalga oshiriladi. Bunga muvofiq tadbirkorga faoliyatning dastlabki ikki yilida foizsiz kredit beriladi. Keyingi yillarda esa juda rast stavkalarda yillik foizlar undiriladi. Shu tariqa, deyarli berul boshlang‘ish sarmoya bilan ta’minlanadi. Imtiyozlar davlat tashkiloti tomonidan ruxta ishlab chiqilgan biznes rejaga asosan beriladi. Keyinchalik bu tashkilot kreditdan maqsadli foydalanayotganligini jiddiy nazorat qiladi va barcha xarajatlar tegishli hisobvaraqlar bilan tasdiqlanishini talab etadi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar arzon narxlarda qurilish uchun ijaraga uchastkalar oladi[15].

Yaponiyada kichik korxonalarni davlat tomonidan rag‘batlantirish, uning barcha bosqichlarida olib boriladi. Ushbu maqsadda turli xil iqtisodiy dastaklar tizimi qo‘llaniladi: imtiyozli qarz va kreditlar, soliq imtiyozlari, texnik va maslahat yordamlari, axborot-komryuter xizmatlari, kadr tayyorlash va boshqalar. Hozirgi kunda Yaponiyada kichik korxonalar soni barcha korxonalar sonining 99% ni tashkil etib, ularning soni 6,5 mln. ta. Ularda band axoli soni esa 54 mln. kishi bulib, Yaponiyadagi barcha ishshi kuchining 80% dir.

Kichik korxonalarning YaIM tagi ulushi esa 55% tashkil etadi. Yaponiyada kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash tizimining muhim elementi sifatida qonunchilik ta’minoti tizimi hisoblanadi. U o‘z ishiga keyingi davrdagi va bir vaqtning o‘zida emas, balki bosqichma-bosqich qabul qilingan butun qonunlar kompleksini jamlagan: “Kichik innovatsion korxonalarni qo‘llab quvvatlash davlat boshqarmasini ta’sis etish to‘g‘risida”gi, “Kichik innovatsion korxonalarni

moliyalashtirish bo'yicha davlat korporatsiyasini tashkil etish to'g'risida"gi qonunlar va b. Yapon qonunchiligining o'ziga xos xususiyati sifatida, qonunning ta'sir etish sohasini aniq belgilash va ular tuzilishini aniq tavsiflash, amalga oshirish mexanizmlarini va ijroshilar o'zaro ta'siri sxemasini, ta'sir etish choralari ro'yxatini ishlab chiqish hisoblanadi[16].

Yaponiya hukumati tadbirkorlik sektorining yangilanishiga g'amxo'rlik qilib, yangi korxonalarning tashkil etilishini osonlashtirish choralarini ko'radi. 2003 yildagi qabul qilingan qonunchilikga o'zgarish asosida kichik korxonani dastlabki kapitalsiz, ya'ni faqat 1 iyena bilan oshish mumkin. Natijada 32 mingdan ortiq korxonalar shu yo'l bilan tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun 180 mlrd. iyena miqdoridagi budjet mablag'lari keng qo'llaniladi. Davlat mablag'larini taqsimlash Yaponiya hukumati tomonidan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik korporatsiyasi kabi tijorat tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi. Kichik korxonalarga davlat imtiyozli kreditlarni taqdim etish korporatsiya faoliyatinig asosiy yo'nalishlaridan biridir. U har yili 20 mlrd. iena miqdorida yordam ko'rsatadi.

Janubiy Koreyada davlat kichik korxonalar uchun eskirgan uskunalarni almashtirish va yangilarini o'rnatishda imtiyozli shartlar beradi. Bu yerda yirik korxona 1,5 mlrd. vongacha, kichik korxonalar esa 3 mlrd. vongacha miqdordagi kredit liniyasi olishi mumkin. Bunday kichik korxonalar yiliga 1 foizgacha, yirik korxonalar esa 1,5 foizgacha vositashilik yig'imi to'laydi. Bundan tashqari, kichik korxonalar tomonidan asosiy fondlarga sarflangan bank kreditlarining 1,5 mlrd. vongacha so'mmasi 70 foizgacha miqdorda sug'urtalanadi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarining kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmining taqqoslama tahlili alohida qiziqish uyg'otadi.

Raqamlardan ko'rinib turibdiki, kichik biznes korxonalarni kreditlash bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Yaponiya, Germaniya, Kanada va AQSh davlatlarida kuzatiladi. Buyuk Britaniya va Fransiya eng ko'p miqdorda kafolat berishi bilan farq qiladi. Bunday yuqori ko'rsatkichlar mazkur davlatlarda kichik korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning rivojlangan va mukammal tizimi amal qilishini ko'rsatadi.

Kichik biznes korxonalarni kreditlash bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Yaponiyada 39.9, Germaniyada 61.9, Kanadada 22.8 mlrd. AQSh dollar kuzatiladi. Buyuk Britaniya va Frantsiya eng ko'p miqdorda kafolat berishi bilan farq qiladi. Bunday yuqori ko'rsatkichlar mazkur davlatlarda kichik korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning rivojlangan va mukammal tizimi amal qilishini ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasi tasdiqlashisha, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasidagi tadbirlari bir-biri bilan o'xshashib ketadi, ayrimlari esa farq qiladi.

O'zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlikning shakllanishi va amal qilishi o'ziga xos xususiyatlariga ega. Biz xususiy korxonalarning shakllanishi va rivojlanishida mavjud bo'lgan muammolar xususida to'xtalib o'tmoqchimiz. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikning yetarli darajada rivojlanmayotganligiga quyidagilarga bog'liq:

1. O'zgarib borayotgan bozor munosabatlariga yetarli darajada moslasha olmayotganligi. Ishchilarni moddiy rag'batlantirishning yetarli darajada emasligi, malakali kadrlarni tanlash va ularni o'qitish imkoniyatlarining cheklanganligi, bozorning o'zgarib boruvchi sharoitlarida xomashyo va materiallarni sotib olish uchun kerakli bo'lgan mablag'larning cheklanganligi.
2. Zamonaviy marketing va menejment texnologiyalarining tanqisligi;
3. Kichik korxonalarning o'z mulklari va kreditga olingan resurslar o'rtasidagi nisbatining qoniqarli holatda emasligi, katta hajmda debitor va kreditor qarzlarining mavjudligi yoki bankrotlik muolajasini amalga oshiradigan korxonalarning quyi darajadagi to'lov qobilyati.
4. Korxonani tugatish va pulni qimmatli qog'ozlarga qo'yish.
5. Bir korxonani tugatish va bu korxona mulkini sotish hisobidan vujudga kelgan erkin kapital va daromadlar asosida yangi korxonani tashkil etish.

Xususiy korxonalar amal qilishining muhim belgisi sifatida ularning samaradorligi ko'rsatkichini keltirish mumkin. Ko'pgina tadqiqotchilar xususiy korxonalarning samaradorligi muammosini o'rganishda chet el tajribasiga alohida e'tibor beradilar. Masalan, Q.Muftaydinov [17] ta'kidlab o'tadiki, kichik korxonalarning samaradorlik ko'rsatkichlari odatda bir xil emas.

O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rnini tadqiq etishda, birinchidan, korxonalarning to‘lov qobiliyati, ikkinchidan ularning moliyaviy barqarorligi, uchinchidan, esa korxonalarning moliyaviy va iqtisodiy tanazzulga uchragan vaqtlarida kichik tadbirkorlik sub’yektlarining barqaror iqtisodiy faoliyat olib borishlari muhim ahamiyatga ega.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim xususiyati bu - ularning iqtisodiy tanazzul davrida nisbatan yuqori barqarorligidir. Kichik xususiy korxonalar quyi darajadagi alohida moliyaviy ko‘rsatkichlariga egalar. Shu bilan birga ularda tashqi kredit resurslariga ehtiyoj yuqori darajada bo‘ladi. Bu korxonalarning resurs samaradorligi ko‘rsatkichi ularning xususiy moliyalashtirish manbalariga tayanish imkoniyatini bermaydi. Lekin kreditlash tizimini tadbirkorlikni rivojlantirish manfaatlariga yo‘naltirish iqtisodiyotning real sektorida kredit tashkilotlari va tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan ko‘pgina muammolarni hal etishni talab etadi. O‘zbekistonda Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish jarayonida xususiy tadbirkorlikni ustuvor darajada rivojlantirish uchun kredit tashkilotlari quyidagi tadbirlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir:

- banklarning kredit operatsiyalari qiymatini pasaytiruvchi standartlashtirilgan muolajalarini o‘tkazishlari;
- qisqa muddatli bank passivlarini oshirish hisobiga bank aktivlari va passivlarining likvidligini oshirish;
- respublika va hududlar miqyosida kichik korxonalarni kreditlar bilan ta’minlashda kredit tavakalchiligini pasaytirish mexanizmini shakllantiradigan turli xil kafolatlarni yuzaga keltirish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning amal qilishi va rivojlanishi ko‘p jihatdan uning yirik tadbirkorlik bilan bog‘liqligi va hamkorligiga bog‘liq. Bu o‘rinda kichik va yirik korxonalar o‘rtasidagi munosabatlar qanday shakllarda amalga oshirilishi va bu hamkorlik kichik tadbirkorlikni qanday oqibatlarga olib kelishing aniqlash muhim bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, kichik va yirik tadbirkorlik sub’yektlarining hamkorligi asosan to‘rt shaklda amalga oshiriladi:

1.Ichki pudrat munosabatlari;
2.Franchayzing;
3.Venchurli moliyalashtirish;
4.Lizing.

Ma’lumki, ichki pudrat munosabatlari AQSh, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya va Osiyo - Tinch okeani hududlarining ba’zi bir davlatlarida keng rivojlangan. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va boshqa MDH mamlakatlarida ham bu munosabatlar mavjud. Biroq, mazkur davlatlarda ichki pudrat munosabatlari yuqori darajada rivojlanmagan. Bugungi kunda yirik va kichik korxonalar o‘rtasidagi keng hamkorlikni savdo va turli tijorat xizmatlari sohalarida kuzatish mumkin. Sanoatda esa bunday integratsion hamkorlik ichki pudrat munosabatlari ko‘rinishida yuqori darajada shakllanmagan.

Lizing munosabatlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ular mamlakatimiz iqtisodiyotining hayotiy muhim ba’zi tarmoqlaridagina (aviatsiya transportida, qishloq ho‘jaligida) keng rivojlangan, lekin umuman olganda bu shakaldagi xamkorlik milliy iqtisodiyot miqyosida bor yo‘g‘i 1% atrofidagi aosiy kapitalning shakllanishiga xizmat qilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotida vinchurli moliyalashtirish munosabatlari yuqori darajada rivojlanmagan, chunki ularda innovatsion tadbirkorlikning ulushi nisbatan katta emas.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1 Doniyor, Y., & Doniyor, N. (2022). Content and Main Components of the Economic Mechanism of Family Business Development. Miasto Przyszłości, 28, 411-418.

2 Doniyor, Y., & Doniyor, N. (2022). Competitiveness of a family business ways to improve. international journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 175-183.

3 Тешабаева, О. Н., & Нишонбоев, Д. Э. Ў. (2021). Корхоналарнинг маркетинг салоҳиятини бахолаш омиллари. Scientific progress, 2(7), 657-661.

4 Nishonboyev, D. (2023). The importance of small business and entrepreneurship in the economy of Uzbekistan. Current approaches and new research in modern sciences, 2(11), 78-86.
5 Nishonboyev Doniyor Erkinjon o‘g‘li. (2023). The Character of the Development of International Economic Relations. Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777), 1(8), 29–33.
6 Nishonboyev, D. (2023). Impact of small business and entrepreneurship on the country’s export potential and efficiency. International Conference On Higher Education Teaching, 1(6), 129–132.
7 Nishonboyev Doniyor Erkinjon o‘g‘li. (2024). Opportunities for the use of foreign experience in export activities of small business and business entities in uzbekistan. International Journal of Scientific Trends, 3(1), 57–64.
8 Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. - М.: 1976. - 332 с.
9 Шумпетер Й. Теория экономическога развития. - М.: 1984. - С.48.
10 https://president.uz/uz/lists/view/4057
11 «O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida. - T.: “O‘zbekiston”, 2000.
12 Мартин Г.П., Шуман Х. Западная глобализации. Атака процветания - М.: ИД Альпина 2001. - С. 20
13 Mirzayev X. Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish yo‘llari. “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy onlayn konferentsiya materiallari., https://doi.org/10.5281/zenodo.7972678
14 http://malbusiness.com/malyiy-biznes-v-razvityih-stranah-chast1/
15 http://uz.denemetr.com
16 Ilkka Ylhäinen. Life-cycle effects in small business finance. Journal of Banking & Finance. Volume 77, April 2017, Pages 176-196.
17 Muftaydinov Q. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. Dok. dis. avtoreferat. - T.: 2004. - B.45.

**UDK:331.91**

## MEHNAT RESURSLARINING ICHKI VA TASHQI MIGRATSIYASIDAN O‘ZGARISHLAR TAHLILI

## АНАЛИЗ ИЗМЕНЕНИЙ ОТ ВНУТРЕННЕЙ И ВНЕШНЕЙ МИГРАЦИИ ТРУДОВЫХ РЕСУРСОВ

## ANALYSIS OF EXTERNAL AND INTERNAL MIGRATION CHANGES

**Xamidov Elyorjon Tursunali o‘g‘li**
**Farg‘ona davlat universiteti stajyor-tadqiqotchisi**

**Annotatsiya**

O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida dunyo mamlakatlari bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlar o‘rnatishi o‘z o‘rnida jahon mehnat bozorida ham faol bo‘lishni taqozo etadi. Shu sababli ham mamlakatimizdagi migratsiya jarayonlarni o‘rganmoq, uning hududiy tarqalishini tadqiq qilmoq maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqolada mehnat resurslarining O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘yicha taqsimlanishi hamda ichki va tashqi migratsiyadan o‘zgarishlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** immigratsiya, emmigratsiya, mehnat bozori, ishchi kuchi, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, ishsizlik darajasi, ichki migratsiya, tashqi migratsiya.

Как независимая страна Узбекистан должен проявлять активность на мировом рынке труда с целью установления международных экономических связей с другими странами мира. По этой причине целесообразно изучить миграционные процессы в нашей стране, изучить ее территориальное распределение. В данной статье анализируется распределение трудовых ресурсов на территории Республики Узбекистан и факторы, влияющие на внутреннюю и внешнюю миграцию.

**Ключевые слова:** иммиграция, эмиграция, рынок труда, рабочая сила, трудовые ресурсы, экономически активное население, уровень безработицы, внутренняя миграция, внешняя миграция.

The establishment of international economic relations of Uzbekistan as an independent country requires active participation in the global labor market with the countries of the world. For this reason, it is appropriate to study migration processes and its territorial distribution in our country. This article analyzes the distribution of labor resources on the territory of the Republic of Uzbekistan and changes from internal and external migration.

**Key words:** immigration, emigration, labor market, labor force, labor resources, economically active population, unemployment rate, internal migration, external migration.

O'zbekistonda migratsiya jarayonlari bir qator sabablar bilan bog'liq. Tashqi migratsiya vujudga kelishiga respublika ichidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillar sabab bo'lmoqda. Mamlakatdagi migratsiya jarayonlarning, ayniqsa tashqi migratsiyaning keskin o'zgarishiga sabab bo'luvchi eng katta omil – bu siyosiy mustaqillikka erishishidir. Sobiq Ittifoqning qulashi iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ayrim tub burilishlar yasadi. Ishlab chiqarishning pasayishi, inflyatsiya darajasining o'sishi, ishsizlik darjasining oshishi, aholining turmush darajasining pasayishi kabi bir qator muammolarga olib keldi. Boshqa MDH mamlakatlari singari O'zbekistonda aholining ma'lum bir qismi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida mehnat migranti sifatida boshqa mamlakatlarga ketishga majbur bo'lishgan.

Har qanday mamlakatdagi migratsiya jarayonlari ushbu mamlakatdagi migratsiya oqimlarini harakatga keltiruvchi bir qator xususiyatlar va omillar ta'sirida yuzaga keladi. Ushbu xususiyatlar va omillarning eng asosiylari mamlakatdagi demografik omillar hisoblanib, ularning o'zgarish chegaralari ta'sirida mamlakatdagi ichki va tashqi migratsiya jarayonlari yuzaga keladi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasida aniq vaqt oralig'ida, ya'ni 2010-2022 yillar davomida migratsiya jarayonlarining kelib chiqishida eng muhim omillardan hisoblangan demografik ko'rsatkichlarning tahlili asosida migratsiya jarayonlari o'zgarishidagi tendensiyalarni makro va hududiy kesimda tahlil qilishga harakat qilindi.

Quyida O'zbekiston Respublikasi mehnat resurslarining ichki va tashi mehnat bozorlaridagi o'zgarishlarini O'zbekiston Respubllikasining demografik va migratsion ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali ko'rib chiqamiz.

Doimiy aholi ma'lum hududda ro'yxatga olish vaqtida doimiy yashovchi aholi. Shu bilan birga, vaqtinchalik safarga ketganlar ham doimiy aholiga kiritiladi. Doimiy yashash mezoni sifatida olti oyga teng davr olinadi.

2010-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasi doimiy aholi sonini muntazam o'sishini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, doimiy aholi soni 2010-yilda 28001,4 ming kishini, 2022-yilga kelib esa 35271,3 ming kishini tashkil qilgan. O'sish ko'rsatkichi tahlil etilayotgan yillarning bazis davriga nisbatan 1,26 barobar o'sgan (1-jadval).

O'rganilayotgan yilning bazis davrida O'zbekiston Respublikasi doimiy aholi sonida eng yuqori ulush Samarqand ( 11,1 %), Farg'ona ( 11%), Qashqadaryo (9,3%), viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan va aholi soni mos ravishda Samarqand viloyatida 3119,0 ming kishi, Farg'ona viloyatida 3074,6 ming kishi, Qashqadaryo viloyatida 2616,1 ming kishini tashkil qilgan. O'tgan 12 yil davomida doimiy aholi soni bo'yicha yetakchilik o'zgarmagan va Samarqand ( 11,4 %), Farg'ona ( 11,0 %), Qashqadaryo (9,7 %) viloyatlari o'rinlarini saqlab qolgan va mos ravishda aholi

soni Samarqand viloyatida 4031,3 ming kishi, Farg‘ona viloyatida 3896,4 ming kishi, Qashqadaryo viloyatida 3408,3 ming kishilik ko‘rsatkichga yetgan.

**1-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholi soni[1]**

(yil boshiga; ming kishi)

| Hududlar | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2022-yilda 2010-yilga nisbatan ozgarish, % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **O`zbekiston Respublikasi** | **28001,4** | **29123,4** | **29555,4** | **29993,5** | **30492,8** | **31022,5** | **31575,3** | **32120,5** | **32656,7** | **33255,5** | **33905,2** | **34558,9** | **35271,3** | **126,0** |
| **Ulushi,% da** | **100,0** | **100,0** | **100,0** | **100,0** | **100,0** | **100,0** | **100,0** | **100,0** | **100,0** | **100,0** | **100,0** | **100,0** | **100,0** | **x** |
| Qoraqalpog`iston Respublikasi | 1632,0 | 1680,9 | 1692,8 | 1711,8 | 1736,5 | 1763,1 | 1791,1 | 1817,5 | 1842,3 | 1869,8 | 1898,3 | 1923,7 | 1948,5 | 119,4 |
| Ulushi,% da | 5,8 | 5,8 | 5,7 | 5,7 | 5,7 | 5,7 | 5,7 | 5,7 | 5,6 | 5,6 | 5,6 | 5,6 | 5,5 | -0,3 |
| Andijon | 2549,1 | 2672,3 | 2714,2 | 2756,4 | 2805,5 | 2857,3 | 2910,5 | 2962,5 | 3011,7 | 3066,9 | 3127,7 | 3188,1 | 3253,5 | 127,6 |
| Ulushi,% da | 9,1 | 9,2 | 9,2 | 9,2 | 9,2 | 9,2 | 9,2 | 9,2 | 9,2 | 9,2 | 9,2 | 9,2 | 9,2 | 0,1 |
| Buxoro | 1612,5 | 1683,8 | 1707,4 | 1729,7 | 1756,4 | 1785,4 | 1815,2 | 1843,5 | 1870,2 | 1894,8 | 1923,9 | 1947,1 | 1976,8 | 122,6 |
| Ulushi,% da | 5,8 | 5,8 | 5,8 | 5,8 | 5,8 | 5,8 | 5,7 | 5,7 | 5,7 | 5,7 | 5,7 | 5,6 | 5,6 | -0,2 |
| Jizzax | 1116,8 | 1166,7 | 1186,6 | 1205,0 | 1226,8 | 1250,1 | 1276,1 | 1301,0 | 1325,0 | 1352,4 | 1382,1 | 1410,5 | 1443,4 | 129,2 |
| Ulushi,% da | 4,0 | 4,0 | 4,0 | 4,0 | 4,0 | 4,0 | 4,0 | 4,1 | 4,1 | 4,1 | 4,1 | 4,1 | 4,1 | 0,1 |
| Qashqadaryo | 2616,1 | 2722,9 | 2777,8 | 2831,3 | 2895,3 | 2958,9 | 3025,6 | 3088,8 | 3148,4 | 3213,1 | 3280,4 | 3335,4 | 3408,3 | 130,3 |
| Ulushi,% da | 9,3 | 9,3 | 9,4 | 9,4 | 9,5 | 9,5 | 9,6 | 9,6 | 9,6 | 9,7 | 9,7 | 9,7 | 9,7 | 0,3 |
| Navoiy | 851,6 | 873,0 | 881,2 | 888,4 | 901,1 | 913,2 | 927,9 | 942,8 | 958,0 | 979,5 | 997,1 | 1013,6 | 1033,9 | 121,4 |
| Ulushi,% da | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 2,9 | 2,9 | 2,9 | 2,9 | 2,9 | 2,9 | 2,9 | 2,9 | -0,1 |
| Namangan | 2258,5 | 2379,5 | 2420,6 | 2458,7 | 2504,1 | 2554,2 | 2603,4 | 2652,4 | 2699,6 | 2752,9 | 2810,8 | 2867,5 | 2931,1 | 129,8 |
| Ulushi,% da | 8,1 | 8,2 | 8,2 | 8,2 | 8,2 | 8,2 | 8,2 | 8,3 | 8,3 | 8,3 | 8,3 | 8,3 | 8,3 | 0,2 |
| Samarqand | 3119,0 | 3270,8 | 3326,2 | 3380,9 | 3445,6 | 3514,8 | 3583,9 | 3651,7 | 3720,1 | 3798,9 | 3877,4 | 3947,7 | 4031,3 | 129,2 |
| Ulushi,% da | 11,1 | 11,2 | 11,3 | 11,3 | 11,3 | 11,3 | 11,4 | 11,4 | 11,4 | 11,4 | 11,4 | 11,4 | 11,4 | 0,3 |
| Surxondaryo | 2075,0 | 2175,1 | 2218,9 | 2260,6 | 2308,3 | 2358,3 | 2411,5 | 2462,3 | 2514,2 | 2569,9 | 2629,1 | 2680,8 | 2743,2 | 132,2 |
| Ulushi,% da | 7,4 | 7,5 | 7,5 | 7,5 | 7,6 | 7,6 | 7,6 | 7,7 | 7,7 | 7,7 | 7,8 | 7,8 | 7,8 | 0,4 |
| Sirdaryo | 714,4 | 727,2 | 739,5 | 750,6 | 763,8 | 777,1 | 790,6 | 803,1 | 815,9 | 829,9 | 846,3 | 860,9 | 878,6 | 123,0 |
| Ulushi,% da | 2,6 | 2,5 | 2,5 | 2,5 | 2,5 | 2,5 | 2,5 | 2,5 | 2,5 | 2,5 | 2,5 | 2,5 | 2,5 | -0,1 |
| Toshkent | 2585,9 | 2644,4 | 2671,0 | 2695,7 | 2725,9 | 2758,3 | 2794,1 | 2829,3 | 2861,2 | 2898,5 | 2941,9 | 2975,9 | 2939,7 | 113,7 |
| Ulushi,% da | 9,2 | 9,1 | 9,0 | 9,0 | 8,9 | 8,9 | 8,8 | 8,8 | 8,8 | 8,7 | 8,7 | 8,6 | 8,3 | -0,9 |
| Farg`ona | 3074,6 | 3229,2 | 3280,8 | 3329,7 | 3386,5 | 3444,9 | 3505,3 | 3564,8 | 3620,2 | 3683,3 | 3752,0 | 3820,0 | 3896,4 | 126,7 |
| Ulushi,% da | 11,0 | 11,1 | 11,1 | 11,1 | 11,1 | 11,1 | 11,1 | 11,1 | 11,1 | 11,1 | 11,1 | 11,1 | 11,0 | 0,1 |
| Xorazm | 1561,6 | 1601,1 | 1629,1 | 1653,8 | 1684,1 | 1715,6 | 1746,9 | 1776,7 | 1805,0 | 1835,7 | 1866,5 | 1893,3 | 1924,2 | 123,2 |
| Ulushi,% da | 5,6 | 5,5 | 5,5 | 5,5 | 5,5 | 5,5 | 5,5 | 5,5 | 5,5 | 5,5 | 5,5 | 5,5 | 5,5 | -0,1 |
| Toshkent sh. | 2234,3 | 2296,5 | 2309,3 | 2340,9 | 2352,9 | 2371,3 | 2393,2 | 2424,1 | 2464,9 | 2509,9 | 2571,7 | 2694,4 | 2862,4 | 128,1 |
| Ulushi,% da | 8,0 | 7,9 | 7,8 | 7,8 | 7,7 | 7,6 | 7,6 | 7,5 | 7,5 | 7,5 | 7,6 | 7,8 | 8,1 | 0,1 |

2010-yilda O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholi soni bo‘yicha eng kam ulush Sirdaryo ( 2,6 %), Navoiy (3,0 %) va Jizzax ( 4,0 %) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan va mos ravishda aholi soni

Sirdaryoda 714,4, Navoiyda 851,6, Jizzax viloyatida esa 1116,8 ming kishini tashkil etgan. 2022-yilda doimiy aholi sonidagai eng kam ulush bo‘yicha ham o‘rinlar o‘zgarishsiz qoldi va mos ravishda Sirdaryo vilyati 878,6 ming kishi, Navoiy viloyati 1033,9 ming kishi, Jizzax viloyati 1443,4 ming kishi bilan oxirgi o‘rinlarda turibdi.

O‘rganilgan davr oralig‘ida O‘zbekiston Respulikasi doimiy aholi soni muntazam o‘sib brogan va aholi sonidagi ulushi yuqori va past bo‘lgan viloyatlarning o‘rinlari 2010-2022-yilda o‘zgarishsiz qolgan. Eng yuqori ulushlar Samarqand, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlariga, eng past ulushlar esa Sirdaryo, Navoiy va Jizzax viloyatlari hisobiga to‘g‘ri kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollardan tashkil topadi. (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yoshdan katta erkaklar va 55 yoshdan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi).

O‘zbekiston Respublikasining mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni 2022-yil da 20402,4 ming kishini tashkil etdi va Respublika doimiy aholisining (35271,3 ming kishi) 57,8 % ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich o‘rganilayotgan yillarning bazis davriga (17379,2 ming kishi) nisbatan 17,4 % ga oshgan.

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonidagi eng yuqori ulushlar 2010-yilda Farg‘ona ( 11,1 %) 1931,5 ming kishi, Samarqand ( 10,9 %) 1254,5 ming kishi, Toshkent viloyatida (9,3 %) 1615,9 ming kishini tashkil etgan. 2022-yilda Samarqand ( 11,2 %) 2285,7 ming kishi, Farg‘ona (11,0 %) 2254,2 ming kishi va Qashqadaryo viloyati (9,6 %) 1950,3 ming kishi bilan mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonida eng yuqori ulushlarni qayd etti. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, Samarqand viloyati 2019-yildan boshlab ushbu ko‘ratkich bo‘yicha eng yuqori ulushni qayd etib kelmoqda.

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonida eng kam ulushlar 2010-yilda Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlariga to‘g‘ri kelgan va mos ravishda Sirdaryo 2,6 % bilan 444,4 ming kishi, Navoiy 3,1 % bilan 541,7 ming kishi va Jizzax 3,9 % bilan 671,5 ming kishini tashkil etgan. 2022-yilda ham Sirdaryo, Navoiy va Jizzax viloyatlari eng kam ulushni qayd etgan va mos ravishda mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonidan 523,3 ming kishi Sirdaryo viloyatiga, 605,7 ming kishi Navoiy viloyatiga, 825,2 ming kishi Jizzax viloyati hisobiga tro‘g‘ri kelgan.

2010-2022-yillar oralig‘idagi mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni tahlil qilinganda ko‘rishimiz mumkinki, eng ko‘p ulush Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo viloyatlariga, eng kam ulush Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlari hisobiga to‘g‘ri kelgan. 2.1-jadval ma’lumotlari tahlilidan bilishimiz mumkinki, mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni Respublika doimiy aholi sini bilan to‘g‘ri bog‘lanishda bo‘ladi. [1]

Mamlakatning doimiy aholisi iqtisodiy faol va nofaol aholi guruhlariga ajratiladi. Iqtisodiy faol aholi o‘z ishchi kuchini mehnat bozoriga taqdim etadi va ish beruvchilar uni sotib oladilar. Iqtisodiy nofaol aholi esa obyektiv sabablar bilan mehnat bozorida ishtirok eta olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nofaol aholisi 2022-yil hisobida 19517,5 ming kishini tashkil etgan va 2010-yilga nisbatan 16 ,7 % ga oshgan. 2022-yilda jami mehnat ressurslari tarkibida shahr joylarda istiqomat qiluvchilar ( 53,3 %) 10394,1 ming kishini, qishloq joylarda yashovchilar ( 46,7 %) 9123,4 ming kishini tashkil etgan (2-jadval).

Jami mehnat resurslari soni 2010-yilda 16726,0 ming kishini tashkil etgan bo‘lib shundan, shahar joylarda istiqomat qiluvchilar (54,6 %) 9134,1 ming kishini, qishloqlarda yashovchilar (45,4 %) 7591,9 ming kishini tashkil etgan. Shundan, iqtisodiy faol aholi 73,5 % bilan 12286,6 ming kishini, iqtisodiy nofaol aholi soni esa 26,5 % bilan 4439,4 ming kishini tashkil etgan. Qishloq va shaharlar ulushini tahlil qladigan bo‘lsak, iqtisodiy faol aholi ulushida shahrliklar 55,7 % ni, qishloqliklar esa 44,3 % ni tashkil qilgan. Iqtisodiy nofaol aholi tarkibida sharliklar 51,7 % ni, qishloqliklar 48,3 % ulushga egaligini ko‘rishimiz mumkin.

2022-yilga kelib 2010-yildagi tendsiyada kata o‘zgarish bo‘lmagan holda, jami mehnat resurslarining tarkibida iqtisodiy faol aholi soni 77,1 % bilan 15038,9 ming kishini, iqtisodiy

nofaol aholi soni 22,1 % bilan 4478,6 ming kishini tashkil etgan. Iqtisodiy faol aholi tarkibida shahar aholisi 52,8 % bilan 7945,3 ming kishini, qishloq aholisi 47,2 % bilan 7093,6 ming kishini tashkil etgan. Iqtisodiy nofaol aholi tarkibida shaharliklar 54,7 % bilan 2448,8 ming kishini, qishloqliklar esa 45,3 % bilan 2029,8 ming kishini tashkil etgan.

**2-jadval**

**Mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nofaol aholi bo‘yicha taqsimlanishi[1]**

(ming kishi)

| Ko‘rsatkichlar | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2022-yilda 2010-yilga nisbatan o‘zgarish, % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Jami mehnat resurslari** | 16726,0 | 17286,4 | 17564,3 | 17814,1 | 18048,0 | 18276,1 | 18488,9 | 18666,3 | 18829,6 | 18949,0 | 19158,2 | 19334,9 | 19517,5 | 116,6896 |
| **ulushi, % da** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** | **x** |
| shahar | 9134,1 | 9307,6 | 9468,1 | 9599,5 | 9681,5 | 9768,4 | 9843,3 | 9949,5 | 10032,5 | 10052,7 | 10471,7 | 10252,6 | 10394,1 | 113,7945 |
| ulushi, % da | 54,6 | 53,8 | 53,9 | 53,9 | 53,6 | 53,4 | 53,2 | 53,3 | 53,3 | 53,1 | 54,7 | 53,0 | 53,3 | -1,4 |
| qishloq | 7591,9 | 7978,8 | 8096,2 | 8214,6 | 8366,5 | 8507,7 | 8645,6 | 8716,8 | 8797,1 | 8896,3 | 8686,5 | 9082,3 | 9123,4 | 120,1728 |
| ulushi, % da | 45,4 | 46,2 | 46,1 | 46,1 | 46,4 | 46,6 | 46,8 | 46,7 | 46,7 | 46,9 | 45,3 | 47,0 | 46,7 | 1,4 |
| **iqtisodiy faol aholi** | 12286,6 | 12541,5 | 12850,1 | 13163,0 | 13505,4 | 13767,7 | 14022,4 | 14357,3 | 14641,7 | 14876,4 | 14797,4 | 14980,7 | 15038,9 | 122,4008 |
| shahar | 6840,8 | 6728,2 | 6851,7 | 7098,7 | 7327,0 | 7442,8 | 7565,5 | 7474,4 | 7682,0 | 7838,2 | 8189,8 | 7979,3 | 7945,3 | 116,1458 |
| ulushi, % da | 55,7 | 53,6 | 53,3 | 53,9 | 54,3 | 54,1 | 54,0 | 52,1 | 52,5 | 52,7 | 55,3 | 53,3 | 52,8 | -2,8 |
| qishloq | 5445,8 | 5813,3 | 5998,4 | 6064,3 | 6178,4 | 6324,9 | 6456,9 | 6882,9 | 6959,7 | 7038,2 | 6607,6 | 7001,4 | 7093,6 | 130,2582 |
| ulushi, % da | 44,3 | 46,4 | 46,7 | 46,1 | 45,7 | 45,9 | 46,0 | 47,9 | 47,5 | 47,3 | 44,7 | 46,7 | 47,2 | 2,8 |
| **iqtisodiy nofaol aholi** | 4439,4 | 4744,9 | 4714,2 | 4651,1 | 4542,6 | 4508,4 | 4466,5 | 4309,0 | 4187,9 | 4072,6 | 4360,8 | 4354,2 | 4478,6 | 100,883 |
| shahar | 2293,3 | 2579,4 | 2616,4 | 2500,8 | 2354,5 | 2325,6 | 2277,8 | 2475,1 | 2350,5 | 2214,5 | 2281,9 | 2273,3 | 2448,8 | 106,7806 |
| ulushi, % da | 51,7 | 54,4 | 55,5 | 53,8 | 51,8 | 51,6 | 51,0 | 57,4 | 56,1 | 54,4 | 52,3 | 52,2 | 54,7 | 3,0 |
| qishloq | 2146,1 | 2165,5 | 2097,8 | 2150,3 | 2188,1 | 2182,8 | 2188,7 | 1833,9 | 1837,4 | 1858,1 | 2078,9 | 2080,9 | 2029,8 | 94,58087 |
| ulushi, % da | 48,3 | 45,6 | 44,5 | 46,2 | 48,2 | 48,4 | 49,0 | 42,6 | 43,9 | 45,6 | 47,7 | 47,8 | 45,3 | -3,0 |

Tahlil natijalaridan ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi jami mehnat resurslari soni shahar joylarda qishloqlarga qaraganda ko‘proq qismi tashkil qilgan va tahlil qilinayotgan 12 yil davomida shaharliklarning ulushi qishloq hududiga qaraganda ham iqtisodiy faol, ham iqtisodiy nofaol aholi soni bo‘yicha kichik ustunlikka ega. 2022- yilda o‘rganilayotgan yillarning bazis davriga nisbatan jami mehnat resurslarining iqtisodiy faol qismi 3,6 % ga oshgan va mos ravishda iqtisodiy nofaol aholi esa 3,6 % ga kamaygan. Shuningdek, jami mehnat resurslari tarkibida shahar joylarda yashovchilarning ulushi 1,4 % ga kamaygan va mos ravishda qishloqliklarning ulushi 1,4 % ga oshgan. Iqtisodiy faol aholi tarkibida shaharliklarning ulushi 2,8 % ga kamayib iqtisodiy nofaol aholi tarkibidagi ulushi 3,0 % ga oshgan. [1]

Ish bilan bandlik – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq, ularga ish haqi yoki mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir. Hozirgi vaqtda ish bilan band aholiga barcha yollanib ishlayotgan xodimlar, o‘quvchilar, harbiy xizmatchilar bilan bir qatorda o‘zini o‘zi mustaqil ravishda ish bilan ta’minlaydigan fuqarolar va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan fuqarolar kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasida 2022-yildagi iqtisodiyotda band bo‘lgan aholi soni 13706,2 ming kishini tashkil etgan va Respublikaning iqtisodiy faol aholisining 91,1 % qismiga to‘g‘ri kelgan. 2010-yilga nisbatan taqqoslanganda 17,9 % ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

2010-yilda iqtisodiyotda bandlar soni bo‘yicha eng yuqori ulush Farg‘ona (11,5 % bilan 1340,4 ming kishi ), Samarqand (10,6 % bilan 1229,9 ming kishi ) viloyatlari va Toshkent ( 9,9 % bilan 1153,8 ming kishi ) shahri hisobiga to‘g‘ri kelgan. Faqatgina 2018-yilda Samarqand 11,0 % ulush bilan iqtisodiyotda bandlar bo‘yicha 1-o‘ringa chiqqan. 2022-yilda bazis davrdagi tendensiya saqlanib qolgan va eng yuqori ulushlar Farg‘ona (11,0 % bilan 1511,7 ming kishi ), Samarqand ( 10,8 % bilan 1479,8 ming kishi ) viloyatlari va Toshkent ( 10,0 % bilan 1371,1 ming kishi ) shahri hisobiga to‘g‘ri kelgan.

Iqtisodiyotda bandlar soni bo‘yicha eng kam ulushlar 2010-yilda Sirdaryo, Jizzax, Navoiy viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan va ko‘rsatkichlar mos ravishda Sirdaryo viloyati 2,8 % ulush bilan 319,9 mig kishini, Jizzax viloyati 3,3 % bilan 381,6 ming kishini, Navoiy viloyati 3,5 % bilan 407,9 ming kishini tashkil etgan. Eng kam ulush bo‘yicha 2022-yilgi ko‘rsatkich, 2010-yildagi tendensiya o‘zgarmagan holda, Sirdaryo 2,4 % bilan 335,0 ming kishini, Navoiy 3.0 % bilan 310,1 ming kishini va Jizzax viloyati 4 % bilan 546,4 ming kishini tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyotda band bo‘lgan aholisi viloyatlar kesimida tahlil qilinganda ko‘rishimiz mumkinki o‘rganilayotgan davr oralig‘ida eng kam ulushlar Sirdaryo, Navoiy va Jizzax viloyatlariga, eng ko‘p ulushlar esa Farg‘ona va Samarqand viloyatlari va Toshkent shahri hisobiga to‘g‘ri kelgan. 2022-yilda Farg‘ona viloyati ulushi bazis davrga nisbatan 0,5 % ga kamaygan bo‘lsa, Samarqand viloyati va Toshkent shari mos ravishda 0,2 % va 0,1 % ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.[1]

Ishsizlik - bir qism iqtisodiy faol aholining o‘ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishidir. O‘zbekistonda ishsizlik tushunchasi rasman 1992-yil “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi bilan me’yoriy kuchga ega bo‘ldi.

Ishsizlar - mehnatga layoqatli, ishi va daromadi bo‘lmagan, bandlik xizmatida ro‘yxatdan o‘tgan, ishlashni xohlaydigan, ishlashga layoqatli va ishlashga tayyor, lekin mehnat bozorida o‘z kasbiy qobiliyatlariga tegishli talabni topa olmaydigan mehnatga layoqatli fuqarolar.

O‘zbekisron Respublikasida ishsizlar soni 2022-yilda 1332,7 ming kishini tashkil etgan va Respublika iqtisodiy faol aholisining 8,9 % iga teng bo‘lgan. 2010-yilda ishsizlik darajasi 5,4 % ga teng bo‘lgan va keyingi 6 yil ichida nisbatan past bo‘lgan. O‘rganilayotgan davr oralig‘ida eng yuqori ko‘rsatkich 2020- yilda 10,5 % ga teng bo‘lgan va 2022-yilda bazis davrga nisbatan 3,5 % ga oshgan.

**3-jadval**

**Ishsizlar soni** ( ming kishi ) **va ishsizlik darajasi[1]** (foizda)

| **Hududlar** | **2010** | **2011** | **2012** | **2013** | **2014** | **2015** | **2016** | **2017** | **2018** | **2019** | **2020** | **2021** | **2022** | **2022-yilda 2010-yilga nisbatan o'zgarish, %** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **O'zbekiston Respublikasi** | **658,2** | **622,4** | **626,3** | **639,7** | **687,0** | **709,4** | **724,0** | **837,0** | **1368,6** | **1335** | **1561,0** | **1441,8** | **1332,7** | 202,5 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 5,4 | 5,0 | 4,9 | 4,9 | 5,1 | 5,2 | 5,2 | 5,8 | 9,3 | 9,0 | 10,5 | 9,6 | 8,9 | 3,5 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 46,6 | 41,7 | 41,3 | 40,3 | 35,7 | 35,4 | 36,5 | 41,6 | 74,3 | 70,9 | 82,6 | 78,9 | 71,9 | 154,3 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 7,4 | 6,6 | 6,4 | 6,2 | 5,4 | 5,3 | 5,4 | 6,0 | 9,5 | 9,1 | 10,5 | 10,1 | 9,1 | 1,7 |
| Andijon | 68,2 | 64,6 | 66,3 | 68,5 | 73,7 | 75,6 | 77,5 | 84,9 | 134,8 | 129,4 | 150,6 | 138,8 | 130,5 | 191,3 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 5,8 | 5,3 | 5,3 | 5,4 | 5,6 | 5,6 | 5,6 | 6,0 | 9,6 | 9,2 | 10,9 | 9,9 | 9,1 | 3,3 |
| Buxoro | 41,9 | 40,3 | 40,1 | 40,9 | 45,3 | 48,2 | 47,1 | 48,1 | 77,6 | 78,3 | 93,9 | 84,9 | 75,8 | 180,9 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 5,2 | 4,9 | 4,7 | 4,8 | 5,2 | 5,5 | 5,4 | 5,5 | 8,7 | 8,9 | 10,6 | 9,8 | 8,8 | 3,6 |
| Jizzax | 23,0 | 21,5 | 21,2 | 22,2 | 24,6 | 24,0 | 26,0 | 24,4 | 52,8 | 54,1 | 65,8 | 61,9 | 56,3 | 244,8 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 5,7 | 5,2 | 5,0 | 5,1 | 5,4 | 5,2 | 5,4 | 5,0 | 9,8 | 9,2 | 11,0 | 10,1 | 9,3 | 3,6 |
| Qashqadaryo | 59,3 | 56,2 | 58,3 | 58,3 | 64,0 | 66,1 | 66,1 | 78,6 | 131,3 | 125,3 | 146,9 | 137,0 | 124,2 | 209,4 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 5,8 | 5,3 | 5,3 | 5,2 | 5,5 | 5,5 | 5,3 | 6,1 | 9,7 | 9,3 | 11,1 | 10,2 | 9,3 | 3,5 |
| Navoiy | 21,1 | 20,5 | 21,5 | 22,8 | 23,1 | 22,4 | 22,4 | 23,3 | 38,6 | 38,2 | 41,5 | 39,8 | 35,7 | 169,2 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 4,9 | 4,7 | 4,9 | 5,2 | 5,2 | 5,0 | 5,0 | 5,2 | 8,7 | 8,5 | 9,4 | 8,8 | 8,0 | 3,1 |
| Namangan | 50,7 | 48,5 | 49,0 | 49,6 | 52,2 | 53,3 | 56,5 | 64,1 | 111,1 | 110,1 | 128,5 | 119,3 | 107,9 | 212,8 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 5,9 | 5,4 | 5,3 | 5,2 | 5,3 | 5,2 | 5,3 | 5,8 | 9,6 | 9,1 | 10,6 | 9,7 | 8,9 | 3,0 |
| Samarqand | 78,4 | 74,2 | 74,6 | 76,2 | 82,6 | 86,7 | 90,6 | 106,7 | 157,3 | 148,4 | 174,6 | 158,4 | 152,5 | 194,5 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 6,0 | 5,5 | 5,4 | 5,3 | 5,6 | 5,7 | 5,7 | 6,5 | 9,7 | 9,3 | 11,0 | 9,9 | 9,3 | 3,3 |
| Surxondaryo | 48,3 | 46,3 | 46,6 | 47,6 | 52,0 | 53,7 | 56,8 | 71,0 | 105,3 | 104,6 | 122,8 | 113,9 | 103,6 | 214,5 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 5,8 | 5,4 | 5,2 | 5,2 | 5,5 | 5,5 | 5,6 | 6,7 | 9,7 | 9,3 | 11,1 | 10,2 | 9,3 | 3,5 |
| Sirdaryo | 15,1 | 14,6 | 13,9 | 15,2 | 17,0 | 18,2 | 16,1 | 18,8 | 36,5 | 35,8 | 41,2 | 38,0 | 34,5 | 228,5 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 4,5 | 4,3 | 4,0 | 4,3 | 4,6 | 4,9 | 4,4 | 5,1 | 9,3 | 9,3 | 11,0 | 10,2 | 9,3 | 4,8 |
| Toshkent | 49,7 | 47,3 | 45,4 | 46,8 | 51,1 | 54,2 | 54,8 | 71,3 | 122,1 | 120,6 | 138,6 | 126,5 | 116,9 | 235,2 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 4,1 | 3,8 | 3,6 | 3,6 | 3,9 | 4,1 | 4,1 | 5,2 | 9,0 | 8,9 | 10,5 | 9,4 | 8,8 | 4,7 |
| Farg'ona | 80,8 | 71,5 | 73,2 | 72,9 | 82,9 | 85,6 | 88,3 | 104,8 | 155,6 | 152,2 | 177,1 | 165,5 | 153,9 | 190,5 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 5,7 | 5,0 | 5,0 | 4,8 | 5,4 | 5,4 | 5,5 | 6,4 | 9,7 | 9,3 | 10,9 | 10,0 | 9,2 | 3,5 |
| Xorazm | 35,3 | 34,6 | 35,7 | 37,1 | 39,2 | 39,5 | 41,4 | 44,0 | 74,2 | 73,5 | 88,1 | 80,0 | 73,7 | 208,8 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 5,5 | 5,2 | 5,3 | 5,3 | 5,5 | 5,4 | 5,5 | 5,7 | 9,4 | 9,1 | 10,9 | 9,9 | 9,0 | 3,5 |
| Toshkent sh. | 39,8 | 40,6 | 39,2 | 41,3 | 43,6 | 46,5 | 43,9 | 55,4 | 97,1 | 93,9 | 108,8 | 98,9 | 95,3 | 239,4 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 3,3 | 3,4 | 3,3 | 3,4 | 3,6 | 3,8 | 3,6 | 4,5 | 7,9 | 7,4 | 8,0 | 7,0 | 6,5 | 3,2 |

2010-yilda ishsizlik darajasi eng past bo‘lgan hududlar Toshkent shahri (3.3%), Toshkent viloyati (4.1 %) va Sirdaryo viloyati (4.5%) hisobiga to‘g‘ri kelgan. Ishsizlik darajasidagi bu tendensiyalarni bevosita Toshkent shahri va Toshkent viloyatining iqtisodiyoti yuqori va ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sektorlarining miqdori ko‘pligi bilan bog‘lasak, Sirdaryo viloyatida esa aholi soni nisbatan kamroq ekanligi bilan bog‘lash mumkin.

2022-yilda ishsizlik darajasi eng past ko‘rsatkich Toshkent shahri (6.5%), Navoiy viloyati (8.0%) hamda Buxoro va Toshkent viloyatlariga (8.8%) to‘g‘ri kelgan. 2022-yilda ishsizlik darajasi eng yuqori bo‘lgan hududlar Sirdaryo, Surxondaryo, Samarqand, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlari hisoblanadi va ushbu viloyatlarning barchasida ishsizlik darajasi 9.3% ni tashkil qilgan. Samarqand viloyatida turizm sanoati va iqtisodiyoti ancha rivojlangan bo‘lsada, ishsizlik darajasi yuqori ko‘rsatkichni qayd etgan va buni bevosita aholi soni bo‘yicha Respublikada 1-o‘rinda ekanligi bilan bog‘lash mumkin.

Respublika bo‘yicha tahlil qilinganda o‘rganilayotgan yillar davomida o‘rtacha ishsizlik darajasi 6,8% ga teng bo‘lgan. Tahlil qilinayotgan 13 yil oralig‘ida ishsizlik darajasining eng past ko‘rsatkichi 2012-2013-yillarda qayd etilgan (4,9 %). 2020-yilda Respublikadagi ishsizlar soni 1561,0 ming kishini tashkil etgan va ishsizlik darajasi o‘rganilayotgan davrdagi eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni, 10,5% ni tashkil qilgan. Ishsizlikning bunday yuqori darajasini bevosita pandemiya bilan bog‘lash mumkin chunki bizga ma’lumki pandemiya davrida ko‘plab korxonalar va ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sektorlari faoliyatini to‘xtatgan va chegaralar yopilgan. Bu esa mehnat resurslarining mintaqada, mintaqalararo hamda davlatlararo erkin harakatini sezilarli darajada cheklagan va global miqyosda ishsizlikning oshishiga olib kelgan.

O‘zbekiston Respublikasi mehnat resurslari bilan yuqori darajada ta’minlangan mamlakat hisoblanadi. Respublikada yoshlar ko‘p bo‘lganligi sababli, ular mehnat yoshiga yetgan sari mehnat resurslari soni yildan – yilga oshib bormoqda. Respublika mehnat resurslarining tarkibida ko‘chib kelganlar ham sezilarli salmoqqa ega.

2010-2022-yillar orlig‘ida O‘zbekiston Respublikasidagi ichki migratsiya 53,7% ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin (2010-yil 139775 kishi, 2022-yil 214821 kishi). [1]

2010-yilda Respublikada viloyatlarga ko‘chib kelganlar ulushida Buxoro (3 %) viloyati eng past ko‘rsatkichni qayd etgan. Eng yuqori ko‘rsatkich esa Toshkent shahriga to‘g‘ri kelgan (11,1 %). Viloyatlar kesimida tahlil qilinganda 2010-yildan 2022-yilgacha ko‘chib kelganlar soni kamayib borganligini ko‘rishimiz mumkin. 2010-2022-yillardagi ko‘rsatkichlar asosida ko‘rishimiz mukinki viloyatlarga ko‘chib kelish darajasi 2022-yilda 2010-yilga nisbatan 2,49 % ga kamaygan. Faqatgina Toshkent viloyati va Toshlent shahridagina ko‘chib kelganlar soni bo‘yicha o‘sish kuzatilgan va bu Respublikadagi umumiy migratsion oqimning 53,7 % o‘shishga olib kelgan.

2010-yil Toshkent viloyatiga ko‘chib kelganlar 15 467 kishini tashkil etgan bo‘lsa 2022-yilda bu ko‘rsatkich 27 350 kishiga yetgan va Respublikadagi umumiy harakatning 12,7 % ni tashkil qilgan. O‘rganilayotgan davr oralig‘ida Respublika hududiga ko‘chib kelganlarning kata ulushi Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelgan. Respublikaga ko‘chib kelganlar ulushi bo‘yicha Toshkent shahri 2010-yilga nisbatan 35 % ga oshgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, viloyatlar aholisi asosan Toshkent shariga ko‘chib ketishmoqda. Ayniqsa o‘rganilayotgan davrning so‘nggi 3 yilida Toshkent shahriga ko‘chib o‘tish sezilarli darajada oshgan va buni bevosita potaxtning iqtisodiy tomondan rivojlanib borayotganligi va ish topish osonlashib borayotganligi bilan bog‘lashiniz mumkin. Mintaqa hududidagi migratsion harakat Respublika mehnat resusrslari soniga ta’sir qilmasada, viloyatlar bo‘yicha tahlil qilinganda ko‘chib ketayotgan aholi viloyat nehbat resurslarining jamayishiga olib keladi va aksincha Toshkent shahrining mehnat resurslarini oshishiga olib keladi.

Mintaqa ichidagi migratsion harakat Republika mehnat resurslari soniga va tarkibiga ta’sir ko‘rsatmasada mamlakatga xorijdan ko‘chib keluvchilar Respublika mehnat resurslarining sonini va tarkibini o‘zgartiradigan asosiy omil hisoblanadi. Xorijdan ko‘chib keluvchilar mehnat resurslarini faqatgina soni va tarkibiga ta’sir o‘tkazmasdan balki, mrhnat resurslarining sifat jihatdan ham oshishiga olib keladi. Chunki, xorijdan keluvchilar o‘zlari bilan birgalikda innovatsion g‘oyalar, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqaruvda yangicha usullarni olib keladilar va bu tajribalari

bilan o‘rtoqlashadi. Va bu g‘oyalar mehnat bozoridagi yangicha yo‘nalishlar va trendlarning shakillanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘rganilayotgan davr tahlil qilinganda ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasiga xorijdan ko‘chib keluvchilar kamayib bormoqda. 2010-2022-yillar oralig‘ida Respublikaga ko‘chib keluvchilar soni deyarli 50% ga kamaygan. Lekin, mehnat resurslari soni o‘sib bormoqda. Mehnat resurslarining ortishi hamda xorijdan ko‘chib keluvchilar soni kamayishi o‘rtasida teskari bog‘lanishni ko‘rishimiz mumkin va Respublika aholisining tabiy ko‘payishi hisobiga mehnat resurslari soni ortib bormoqda.

2010-yilda Respublikaga xorijdan ko‘chib keluvchilarni qabul qilish darajasi eng past bo‘lagan viloyatlar Namangan (0.8%), Buxoro (0.9%) va Xorazm bo‘lgan.

2020-yilda Resoublikaga ko‘chib kelgan sonida eng past ko‘rsatkich kuzatilgan va 1105 nafarni qayd etgan. Bu oasayishni bevosita butun dunyoda karantin bo‘lganligi va chegaralar yopilganligi bilan izohlash mumkin. 2021-yildan boshlab ko‘hib kelganlar soni oshib bormoqda va 2022-yilda 2291 nafarni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi ichidagi migratsion harakat o‘rta darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin ya’ni, 2010-yilda Respublika ichida o‘z yashash hududini o‘zgartirganlar 183 858 nafarni tashkil etgan bo‘lsa 2022-yilda bu ko‘rsatkich 221 319 nafarga yetdi va o‘rganilayotgan davr oralig‘ida migratsion harakat 20 % ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. 2010-yilda mehnat resurslarining ichki harakati past bo‘lgan hududlar Andijon (Respublika mehnat resurslari ichki harakatining 3.4 % ini), Buxoro (Respublika mehnat resurslari ichki harakatining 3.8% ini) va Xorazm (Respublika mehnat resurslari ichki harakatining 4.5 % ini) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Respublika ichida yashash hududini o‘zgartirganlarni eng yuqori ulushlari Toshkent viloyati ( 15%), Qoraqalpog‘iston (14.7%) va Toshkent shahri ( 8.7%) hissasiga to‘g‘ri kelgan. [1]

2022-yilda migrantlarning ichki harakatidagi tendensiyalarda o‘zgarish yuz berdi va eng past ulushlar Namangan (2.2%), Sirdaryo (3.6%) va Xorazm (3.7%) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Toshkent viloyati ulushi deyarli o‘zgarishsiz qolgan va 14.6 % ni tashkil qilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa deyarli 50 % ga kamaygan va 2022-yilda Respublikadagi migrantlarning ichki harakatidagi ulushi 7.4 % ga teng bo‘lgan. Toshkent shahrida esa migrantlarning ichki harakati deyarli 3 barobarga oshgan va 28.3 % ga teng bo‘lgan. Respublika ichki migratsion harakati umumiy tahlil qilinganda ko‘rishimiz mumkinki, Toshkent shahri, Andijon, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlaridagi ichki migratsion harakatda o‘sish kuzatilgan va qolgan hududlarda mehnat resurslarining harakatida pasayish kuzatilgan.

Mehnat resurslarining soniga va malaka tarkibiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri fuqarolarning xorijga ko‘chib ketishidir. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasidan ko‘chib ketish holati 2010-yilga 80.2 % ga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. 2010-yilda O‘zbekiston Respublikasidan jami 44 420 kishi ko‘chib ketgan va 2022-yilda esa bu ko‘rsatkich 8 790 kishini tashkil etgan. 2010-yilda O‘bekiston Respublikasidan xorijga ko‘chib ketish darajasi eng past ulushlar Suxondaryo ( 0.4 %), Qashqadaryo ( 0.7 %) va Namangan ( 0.7 %) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ko‘chib ketishning eng yuqori darajasi esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi (29.1 %), Toshkent viloyati ( 28.2 %) va Toshkent shahri ( 15.7 %) da kuzatilgan. [1]

2022-yilda 2010-yilgi tendensiya deyarli o‘zgarishsiz qolgan va ko‘chib ketish darajasi eng past bo‘lgan hududlar Qashqadaryo (0.6%), Andijon (0.8 %) va Buxoro (0.9 %) viloyatlari hisoblanadi. 2022-yilda emigratsiya darajasi eng yuqori bo‘lgan hududlar 2010-yilga nisbatan o‘zgarishsiz qolgan va asosiy ko‘chib ketish ulushi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent viloyati va Toshkent shahri hisobiga to‘g‘ri kelgan hamda Respublika jami emigratsiya darajasining 82 % ni tashkil etgan.

O‘rganilayotgan yillar tahlil qilinganda migrantlar harakati va iqtisodiy ko‘rsatkichlar orasida bir qancha o‘ziga xos o‘zgarish tendensiyalari mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Bu ushbu tendensiyalarning ayrimlari asosiy migratsiya ko‘rsatkichlariga nisbatan tog‘ri bog‘lanishda, ba’zilari esa teskari bog‘lanishda yuz bermoqda.

Jumladan, 2010-yildan beri O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni muntazam oshib bormoqda, lekin mamlakatga ko‘chib keluvchilar soni (immigratsiya darajasi) kamayib bormoqda bu esa mamlakat doimiy aholisi soni bilan mamlakatga xorijdan ko‘chib keluvchilar orasida teskari bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz doimiy aholisi sonining o‘sishi bir qancha ko‘rsatkichlarga bevosita ta’sir qiladi.

Birinchidan, doimiy aholi sonining ortishi mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonining o‘sishiga to‘g‘idan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. 2010-2022-yillar oralig‘ida doimiy aholi sonining 19,4 % ga ortishi natiasida mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni 17,4 % ga oshgan. Bundan tashqari doimiy aholi sonining o‘sishi jami mehnat resurslarining soni va iqtisodiy faol aholi sonining oshishiga ham ta’sir qiladi. Doimiy aholi sonining 19,4 % ga oshishi natijasida 2022-yilda mehnat resurslari soni 2010-yilga nisbatan 16,7 % ga, iqtisodiy faol aholi soni esa 2022-yilda 2010-yilga nisbatan 22,4 % ga oshgan.

Ikkinchidan, doimiy aholi sonining muntazam o‘sishi ma’lum vaqt oralig‘idan so‘ng ishsizlik darajasining oshishiga olib kelgan. O‘z navbatida ishsizlik darajasining oshishi ichki va tashqi migratsiyani harakatga keltiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

2010-yilda mamlakatimiz hududida ishsizlik darajasi 5,4 % ni tashkil etgan va 2022-yilda bu ko‘rsatkich 8,9 % ga yetgan va 2010-yilga nisbatan 64,10 % ga ortgan. Ishsizlik darjasi eng yuqori bo‘lgan yillar 2020-yil (10,5 %) va 2021-yillarga (9,6 %) ga to‘g‘ri kelgan.

Ishsizlik darajasining bunday yuqori bo‘lishi mamlakat ichidagi ichki migratsiyani harakatga keltirdi va boshqa hududlardan ichki migratsiya miqdori 2020-yilda 2010-yilga nisbatan 36,7 % ga, 2021-yilda esa 2010-yilga nisbatan 83,7 % ga oshishiga olib keldi. Bundan tashqari ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan 2020-2021-yillarda mamlakatga xorijdan ko‘chib keluvchilar soni ham 2020-yilda 2010-yilga nisbatan 77,4 % ga, 2021-yilda esa 50,9 % ga kamaygan.

Bundan tashqari mamlakatning bir hududidan boshqa hududiga ko‘chib ketganlar sonida ham keskin o‘sish kuzatildi, ya’ni, 2020-yil 2010-yilga nisbatan ko‘chib ketganlar soni 75,0 % ga oshgan bo‘lsa, 2010-yilda bu ko‘rsatkich 40.,6 % ga oshgan. Ishsizlik darajasi oshishigacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida 2014-yildan beri mamlakat ichida yashash joyidan ko‘chib ketganlar soni kamayish tendensiyasi ketayotgan edi. Tahlil natijalaridan bilishimiz mumkinki, mamlakat doimiy aholisi sonining o‘sishi yuqorida sanab o‘tilgan bir qancha omillarning o‘zgarishiga hamda ishsizlik darajasining ortishiga olib keladi va bu omillar natijasida migratsiya harakatida jonlanish kuzatiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi statistika agentligi ma’lumoti.
2. Madaminov, A., & Khamidov, E. (2023). Personnel management methods in industrial enterprises and affecting factors to human resource management. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 982-985.
3. Sufiyev, R., & Khamidov, E. (2023). Ways of using foreign experience to solve labor shortage problems by managing migration processes. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(5), 150-153.
4. Urinov, D. A. (2023). Analysis of uzbekistan’s participation in international labor migration. Publishing House “Baltija Publishing”.
5. Khamidov, E. T. U. (2022). Impact of high-skilled migration on the economy. Gospodarka i Innowacje., 29, 101-107.
6. Khakimov, D. R., Khamidov, E. T., & Qurbonov, D. (2023). Mechanism of economies of the scale of educational activities. Publishing House “Baltija Publishing”.
7. Khamidov, E. T. U. (2022). Nature of labor migration and characteristics of its emergence. American journal of economics and business management, 5(11), 86-90.

**UDK:334.021**

**ENERGETIKA SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI BARQARORLASHTIRISHNING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI**

**НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА СТАБИЛИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**REGULATORY AND LEGAL BASIS OF STABILIZATION OF THE ACTIVITY OF ENERGY INDUSTRY ENTERPRISES**

**Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich**
**i.f.f.d., (PhD) Farg‘ona politexnika instituti**

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekistonda eletroenergetika korxonalari rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari, energetika sanoati korxonalari faoliyatini barqarorlashtirishning me’yoriy-huquqiy asoslari hamda yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlanishining zaruriyati va ahamiyati kabi masalalar o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** energetika sanoati, barqaror rivojlantirish, elektroenergetika korxonalari, me’yoriy-huquqiy hujjat.

В данной статье рассмотрены такие вопросы, как организационно-экономические особенности развития предприятий электроэнергетики в Узбекистане, нормативно-правовые основы стабилизации деятельности предприятий энергетической промышленности, а также необходимость и значение устойчивого развития зеленой экономики.

**Ключевые слова:** энергетическая промышленность, устойчивое развитие, электроэнергетические предприятия, нормативно-правовой акт.

This article explores issues such as the organizational and economic characteristics of the development of eletroenergetics enterprises in Uzbekistan, the regulatory framework for stabilizing the activities of energy industry enterprises, and the need and importance of sustainable development of the green economy.

**Keywords:** energy industry, sustainable development, electroenergetics enterprises, regulatory legal act.

Jahonda va mamlakatimizda energiya resurslari taqchilligi sharoitida, resurslarni tejash yoki qayta tiklanuvchi energiya manbalarini almashtirish muammosi dolzarb sanaladi. Rivojlangan Yevropa mamlakatlarida bu energiya resurslarining energiya balansidagi foizi 20 foizga yaqinni tashkil etadi, ammo O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich anchayin kam. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda elektroenergetika sohasini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar zarur hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi elektroenergetikasini tashkiliy-iqtisodiy barqaror rivojlantirish tendensiyalari va uning faoliyatining ayrim jihatlarini o‘rganadi. Ushbu tadqiqotlar O‘zbekiston elektroenergetikasi korxonalarini barqaror rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini yanada shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida energetika tizimining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri, tarmoqning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishdan iborat bo‘lib, O‘zbekistonda, jumladan, elektroenergetika sohasida yuqori energiya xavfsizligiga erishish imkonini beradi. Bu bosqichda elektroenergetika sohasida energetika siyosatini amalga oshirishga xos bo‘lgan maxsus mexanizm va vositalarni ishlab chiqish va takomillashtirishga alohida ahamiyat kasb etadi. Elektroenergetika sanoatidagi strategik yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish kelgusida yirik energetika loyihalarini amalga oshirish uchun asos

bo‘lmoqda. O‘zbekistonda energetika sanoatiga aloqador korxonalarning iqtisodiy, moliyaviy va ekologik tomondan barqarorlashtirish uchun so‘nggi 3 yilda ko‘plab me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlarning qabul qilinishi tarmoqdagi korxonalarning faoliyatini tartibga solishda va boshqa tarmoqdagi ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish korxonalari bilan o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash uchun zamin yaratdi. Lekin bu me’yoriy hujjatlarda ham ba’zi tuzatishlarni kiritish talab etiladigan yo‘nalishlar mavjud.

Energetika tarmog‘idagi korxonalar faoliyatini muvozanatlashtirishda muhim rol o‘ynagan ilk me’yoriy-huquqiy hujjat bu 2009-yil 30-sentabrda qabul qilingan “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-225-sonli qonunidir. Ushbu qonun 8 bob va 35 moddadan tashkil topgan bo‘lib energetika tizimida faoliyat yuritayotgan barcha korxonalarning bosh me’yoriy huquqiy hujjatidir. Qonunning 3-moddasida “Elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalar - yagona elektr energetika tizimiga ulangan statsionar elektr stansiyalari (issiqlik elektr stansiyalari, issiqlik elektr markazlari, gidroelektrostansiyalar, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadigan boshqa elektr stansiyalari)” deyilgan. Bu orqali issiqlik elektr stansiyalarining mavqei va o‘rni belgilab berilgan. Shu bilan birga qonunning 10-moddasida “Yagona elektr energetikasi tizimiga ulangan issiqlik elektr stansiyalari, issiqlik elektr markazlari, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadigan elektr stansiyalari davlat mulki yoki xususiy mulk bo‘lishi mumkin” deb keltirib o‘tilgan. Bundan shunday xulosa chiqadiki: issiqlik elektr stansiyalari ustidan olib boriladigan nazoratni qisman davlat organlariga berish, qisman esa xususiylashtirish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-oktabrdagi “Elektr energetikasi tarmog‘ini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3981-sonli Qaroriga ko‘ra Energetika vazirligi va Moliya vazirligi huzuridagi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi bilan birgalikda 2019-yildan boshlab xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda issiqlik elektr stansiyalaridan birida bug‘-gaz qurilmasini qurish, shuningdek, Andijon, Namangan, Farg‘ona shaharlaridagi elektr energiyasi tarqatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish tajriba loyihasini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirishni ta’minlash vazifasi qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-martdagi PQ-4249-sonli “O‘zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog‘ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra elektr energetika tarmog‘ining ishonchli faoliyat yuritishini ta’minlash iqtisodiyotning turli tarmoqlari va respublikaning sanoatlashganlik darajasini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag‘batlantirish, aholi farovonligini barqarorlashtirish va hayot sifatini yaxshilashga qaratilishi kerak. Mavjud sharoitlarda zamonaviy energetika tarmog‘ida raqobatbardoshlikni oshirish va investitsion faoliyatni elektr energiyasini ishlab chiqarish hamda yetkazib berish sohasidagi tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirildi. Buning natijasida “O‘zbekenergo” AJni qayta tashkil etish va uning negizida uchta “Issiqlik elektr stansiyalari”, “Hududiy elektr tarmoqlari”, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish, “O‘zbekenergo” AJning mol-mulkini balans qiymatida, shuningdek, huquqlari hamda majburiyatlarini o‘tkazish hisobiga ularning ustav kapitallarini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari keltirib o‘tilgan.

Qarorning eng asosiy bandlaridan biri bo‘lib bu “Issiqlik elektr stansiyalari hamda elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqaruvchi elektr markazlarini boshqaruvchi “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish” xususida band bo‘ldi. Bunga asosan “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyati mamlakatimizdagi jami issiqlik elektr stansiyalari hamda issiqlik elektr markazlarining boshqaruvchi-nazorat qiluvchi organiga aylanganligini bildiradi. 2019-yil 21-mayda qabul qilingan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-539-sonli qonunning 4-moddasida “Mamlakatning energetika xavfsizligini mustahkamlash, yoqilg‘i-energetika balansining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda elektr, issiqlik energiyasi va biogaz ishlab chiqarishga doir qismini diversifikatsiyalash” yo‘nalishi belgilab berilgan.

Elektroenergetika korxonalarini rivojlantirishning eng muhim muammolari quyidagilardan iborat: milliy energetika tizimlarida tuzilmalarni joylashtirish va ularning faoliyatini tartibga solish yoki rag‘batlantirish usullari hamda vositalarini tanlash, bu iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni

ta’minlash, mamlakat elektroenergetikasini rivojlantirish, uning raqobatbardoshligi va milliy xavfsizligini ta’minlashda alohida rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda energetika sohasini isloh qilish natijasida sohani tashkil etish va iqtisodiy rivojlantirish modelida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, ya’ni energiya va quvvatlar bozorining ulgurji va chakana savdosi ishtirokchilari o‘rtasida bozor narxlarini davlat tomonidan tartibga solish amalga oshirilmoqda. Elektroenergetika sohasini barqaror rivojlantirish tizimi boshqa rivojlanish tizimlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, sanoat holatining umumiy darajasi, ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan parametrlar soni, ushbu parametrlarning holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning noaniqlik darajasi uni murakkab ko‘p parametrli tizim sifatida tasniflash imkonini beradi. Asosiysi o‘zaro bog‘liq va barqaror rivojlanish parametrlari elektroenergetika sanoatining iqtisodiy, texnologik, moliyaviy va ekologik jihatlari hisoblanadi.

Ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lgan elektroenergetika sohasi ham tijorat, ham davlat tuzilmasi bo‘lib, daromad olish va milliy iqtisodiyotning mamlakat energetikasiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Ushbu ikki tomonlama sanoatni rivojlantirishdagi yondashuvlarni shakllantirishi sezilarli darajada murakkablashtiradi, ular tashkiliy, iqtisodiy va jamoat manfaatlari muvozanatini saqlashga to‘liq yo‘naltirilishi, energiya samaradorligini oshirish va energiya tejash strategiyasini ishlab chiqish uchun muhim rag‘batlarni o‘z ichiga olishi kerak.

O‘zbekistonda energetika strategiyasining asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bozor munosabatlarining raqobatbardosh modelini joriy etish, tovar-xizmatlar bozorini yaratish va hokazolarga qaratilgan umum iqtisodiy strategiyaga muvofiq amalga oshirildi. Biroq, shu bilan birga, “2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiyasi” shakllantirilgandan boshlab davlat, birinchi navbatda, bozor munosabatlarini tartibga soluvchi sifatida qaraladi, bundan tashqari, bu boradagi roli ham muhim ahamiyat kasb etishi zarurligi mustahkamlangan. Lekin xo‘jalik yurituvchi subyekt nuqtai nazaridan u o‘z funksiyalarini cheklaydi.

Ikkinchisi, davlat o‘zining energetika strategiyasida energetika sohasida tabiiy monopoliyalarni xususiylashtirishni isloh qilish g‘oyasiga uyg‘unlashganligini anglatadi.

“2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiyasi”ni amalga oshirish jarayonida O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan yangi vazifalari va ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq kengaytirilishi ta’minlanadi.

Energetika strategiyasini tahlil qilish asosida raqamli iqtisodiyotning hozirgi sharoitida energetika siyosatining quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Elektroenergetika sohasini barqaror rivojlanishini saqlash – energetika sanoatining barcha sohalari uchun raqobatbardosh modelni shakllantirish, bozorni yaratish, innovatsion bozor mexanizmlarini joriy etish.

2. Asosiy fondlar, resurslar bazasi va investitsiyalarni jalb qilish amortizasiyasi muammolarini hal qilish.

3. Energetikaga ichki iqtisodiyotning lokomotivi, byudjet donori va sanoatni qo‘llab-quvvatlovchi sifatida munosabatni shakllantirish.

4. Haqiqiy amaliyot va energiya siyosatining e’lon qilingan tamoyillari o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish.

Elektroenergetika sanoatining bugungi samaradorligi haqida gapirganda, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ishlab chiqarish va energiya tejash samaradorligi bo‘yicha yo‘qotilgan pozitsiyalarga nisbatan ancha yuqoriga ko‘tarilganini ta’kidlash mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G.Sh.Xonkeldiyeva. Globallashuv sharoitida elektroenergetika tarmog‘ida strategik boshqaruv usullaridan samarali foydalanish“ Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil 1-11 b.
2. Saidov M.S. Elektr energetika sohasini tartibga solish va boshqarishda olib borilayotgan islohotlar “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2021 yil 133-142b.

**UDK: 338.45(46)**

## MAMLAKATIMIZ XIZMATLAR BOZORIDA MARKETING TAMOYILLARI VA STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH OMILLARI

## ФАКТОРЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИНЦИПОВ И СТРАТЕГИЙ МАРКЕТИНГА НА РЫНКЕ УСЛУГ СТРАНЫ

## FACTORS OF USING MARKETING PRINCIPLES AND STRATEGIES IN THE COUNTRY'S SERVICE MARKET

**Karimov Sh.X. FDU, o'qituvchi**

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmatlarni ishlab chiqarish va taqdim etish sifatini oshirish hamda bu tizimga davlat tomonidan mablag'larni yo'naltirishda samaradorlikka erishish masalalarining nazariy asoslarini tadqiq etish zarurati mazkur monografiya mavzusining dolzarbligidan dalolat berishi xususida fikr yuritiladi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur ishda xizmatlar bozorida marketing strategiyalari va tamoyillaridan foydalanish masalalariga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** marketing, biznes, xizmat, xizmalar bozorit, tadbirkorlik, marketing tamoyillari, marketing strategiyalari, omillar.

В данной статье рассматривается необходимость исследования теоретических основ вопросов повышения качества производства и предоставления услуг в условиях развивающейся рыночной экономики, а также эффективности направления государственных средств в эту систему, что свидетельствует об актуальности темы данной монографии. Исходя из этого, в данной работе разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на вопросы использования маркетинговых стратегий и принципов на рынке услуг.

**Ключевые слова:** маркетинг, бизнес, сервис, рынок услуг, предпринимательство, принципы маркетинга, маркетинговые стратегии, факторы.

This article discusses the need to study the theoretical foundations of improving the quality of production and service provision in a developing market economy, as well as the effectiveness of channeling public funds into this system, which indicates the relevance of the topic of this monograph. Based on this, scientific proposals and practical recommendations aimed at the use of marketing strategies and principles in the service market have been developed in this work.

**Key words:** marketing, business, service, service market, entrepreneurship, marketing principles, marketing strategies, factors.

O'zbekistonda rivojlanishning zamonaviy bosqichlari jahon bozorlarida raqobatbardoshlikni oshirish, shuningdek barqaror iqtisodiy o'sish darajasini ta'minlash strategiyalarini amalga oshirish bilan ta'riflanadi. O'zbekistonning jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlari qatoriga yorqin ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgan, aholi farovonligini va hayot turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish sohasini ko'rsatishimiz mumkin.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «Tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish: uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish ulushini kengaytirish hisobiga milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish» zarurligi ta'kidlangan [1]. Xizmatlar sohasi hozirgi kunda jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirib, bunda

biznesni yuritish bo‘yicha an’anaviy usullar o‘rniga yangi, ya’ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, turizm, konsalting va rekruting singari usullar qo‘llanilmoqda.

Xizmat ko‘rsatish jarayonlariga yanada mukammal texnologiyalar va iste’molchilar talablariga javob beruvchi puxta ishlab chiqilgan servis tizimlarining joriy etilishi korxonalarning yangi tarmoq va mintaqa xizmatlar bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Xizmatlar marketingi kontseptsiyalarining tahlili quyidagi fikrlarni kelib chiqishiga yordam beradi: mazkur modellar turli tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilganligi va turli yondashuvlar asosida tuzilganligidan qat’iy nazar, ular ikkita umumiy nazariy asoslanishga ega [2].

**1-jadval**

**Xizmatlar marketingi modellarining qiyosiy tahlili [2]**

| Mezonlar / X/M modellari | Xizmatlar xususiyatining namoyon bo‘lishi | Xizmatlar marketingini aniq boshqaruv algoritmining mavjudligi | Model-ning majmua-viyligi | Marketing majmuasi-ning ichki tuzilmasini o‘rganilishi | Modelning amaliyligi | Ma’lumot-larning sxematik ko‘rsatil-ganligi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| J.Ratmel | + (ishlab chiqarish va xizmatlar iste’moli jarayonlari bir davrli talabida namoyon bo‘ladi) | - | - | - | - | + |
| P.Eygliye va E. Lanjear | + (ko‘rsatilgan xizmatlarning ko‘rinmas tuzilmasi va sezilmasligining namoyon bo‘lishi) | +/- (algoritm mavjud emas, ammo yondashuv va usulning qo‘llanilish sohalari ko‘rsatilgan | - | - | +/- (xizmat ko‘rsatish xodimlari malakasini oshirish tizimini boshqarish va boshqaruvning tashqi qiyofasini shakllantirish zaruriyatini keltiradi) | - |
| M.Bitner | + (an’anaviy “4P” modelini xizmatlar sohasiga moslashtirishi) | - | + | + | +/- (faqat marketing harakatlari sohasi taklif qilingan, ammo asosiy strategiyalar asoslanmagan) | + |
| F.Kotler | + (ishlab chiqarish va xizmatlar iste’moli jarayonlari bir davrli va iste’molchilar bilan o‘zaro munosabatlar tizimini shakllantirish zaruriyati | +/- (faqat marketing harakatlari qo‘llanilishi sohalari ko‘rsatilgan) | - | - | Modelning o‘zida marketing-miks tarkiblari va usullari aniq yoritilmagan bo‘lsa-da, muallif boshqa olimlarning modellariga ularning ta’riflari orqali izoh beradi | + |

Birinchidan, barcha kontseptsiyalar xizmatlar xususiyatini tovar sifatida namoyon bo‘lishini uzoqlashtiradi. Turli darajada xizmatlarni sezilmas xizmat ko‘rsatish manbasidan ajralmas xususiyatini, nomuqobil va doimiy bo‘lmagan sifatliligini ta’kidalashadi.

Ikkinchidan, o‘rganilgan xizmatlar marketingi yondashuvlari tashkilotda xizmatlar marketingini boshqarishda qo‘shimcha strategiyalar yoki nazoratdagi omillar zaruriyatliligini ta’kidlashadi va yo‘naltirishadi.

Mamlakatimiz ilmiy tadqiqot sohasida hozirgacha xalqaro marketing tadqiqotlarida tan olingan xizmatlar marketingi modeli mavjud emas.

An’anaviy ravishda, mamlakatimiz mutaxassislari “4P” kontseptsiyasi negizida alohida xizmatlar ko‘rsatish usullarini ishlab chiqarish bilan cheklanib qolmoqdalar. Shunday qilib, turli xil xizmatlar marketingi modellarini tahlili asosida quyidagi xizmatlar marketingi modeli taklif etiladi (1-rasm).




**1-rasm. “Korporativ korxona ichidagi xizmatlar marketingi modeli” [3]**

Bunda:

⟶ - iste’molchilarga ko‘rinadigan omillar va jarayonlar

┈┈› - iste’molchilarga ko‘rinmaydigan omillar va jarayonlar

Mazkur model quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- tashkilotning barcha jarayonlari iste’molchilar uchun ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan sohalarga bo‘linadi.

- ko‘rinmaydigan jarayonlar mohiyati shundan iboratki, ular tashkilot xarakterini keltirib chiqaradi. Tashkilot boshqaruvi ko‘rinmaydigan jarayonlar ma’lumotlari asosida ichki marketingni tashkil ettiradi. Ular standartlashtirish, jarayonlarni algoritmlash, yuqori xizmat ko‘rsatish madaniyatini shakllantirish, xodimlarni rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqarishdan iborat.

- iste’molchilik harakati ko‘rsatilgan xizmatlar negizida chetdagi iste’molchilar, mijozlar fikrlarini shakllantirish va boshqaruv tizimidagi marketing-miks majmuasi orqali tashkil etiladi.

- marketing-miks majmuasi aniq xususiyatga ega. Barcha unsurlar o‘zaro bog‘liqlikga ega, marketingning umumiy samaradorligi barcha unsurlarning alohida samaradorligiga bog‘liq.

Ommaviy axborot vositalarida mahsulot va xizmatlarni harakatga keltirishda foydalaniluvchi asosiy SMM dastaklarini 2-rasm orqali ifodalash mumkin.




**2-rasm. Ijtimoiy media marketing dastaklari [2]**

Xizmatlar xususiyati hamda ta’minot jarayonlarini oqilona tashkillashtirish ko‘rsatilgan xizmatlar sifatini standartlashtirishga yordam beradi, holbuki bu boshqaruv tizimining mavqeyi va

tashqi ko‘rinishi hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, marketing vositalarining ikki davri shakllanadi:

- birinchisi, an’anaviy, xizmatlar ko‘rsatish davrigacha amalga oshiriladi.
- ikkinchisi, bevosita xizmatlarni iste’mol qilish va ishlab chiqarish davrida. Mazkur xizmatlar marketingi modeli boshqaruv tizimining samarali resurslardan foydalanish jarayoni sifatida taklif qilinadi.

O‘zbekistonning xizmatlar ichki bozoridagi raqobat o‘sishining asosiy omillari orasida quyidagilar ajratiladi (2-jadval).

**2-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasi xizmatlar bozorida raqobat omillari tasnifi [3]**

| № | Nomlanishi | Mazmuni |
|---|---|---|
| 1. | Xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar sonining ortishi | Bank, sug‘urta, savdo sohasida xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar soni ortishi o‘zaro raqobatlashuvchi xizmatlar sohasida mahsulot taklifini kengaytirishga ob’yektiv ravishda olib keladi |
| 2. | Narxlarni erkinlashtirish va iqtisodiyot transformatsiyasi | Ulgurji va chakana narxlardagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri narx cheklovlarining bekor qilinishi narx raqobatini kuchaytiruvchi vositaga aylandi. Ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish biznesning rentabelligini barqarorlashtirishga ta’sir etadi, bu esa, o‘z navbatida raqobatni kuchaytiradi |
| 3. | Tashqi iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish | Bu mahalliy bozorda raqobat kurashi borasida katta tajriba va bilimga ega xorijlik yangi raqobatchilar paydo bo‘lishiga olib keladi |
| 4. | Tarmoq bozorlarini tarkibiy qayta qurish | Xizmatlar sohasi, shuningdek savdo va moliyaviy operatsiyalarning daromadliligi jadal o‘sishi raqobat kuchayishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi |
| 5. | So‘mning konvertatsiyalanishini ta’minlash | So‘mning konvertatsiyalashga o‘tishi raqobat jarayonini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. So‘mning konvertatsiyalanishi asosan tashqi bozorga ishlovchi xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar, shuningdek taklif etayotgan tovar va xizmatlari sifati nisbatan yuqori bo‘lgan xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalar sezilarli darajada foyda ko‘radi |
| 6. | Iqtisodiyotning nodavlat sektorini shakllantirish | Iqtisodiyotning nodavlat sektori raqobatni rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratadi va xizmatlar sohasining ko‘plab tarmoqlarida ustuvorlik kasb eta boshlaydi (savdo, mobil aloqa, sug‘urtalash, turizm va b.). |
| 7. | Iqtisodiyoti monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish | Davlat tashkilotlarini xususiylashtirish, tarmoq va mintaqaviy monopoliyadan chiqarish dasturlari, tabiiy monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solinishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag‘batlantirish va boshqa chora-tadbirlar xizmatlar bozorida raqobatning kuchayishiga olib keladi |
| 8. | Institutsional islohotlar | Birja, bank, sug‘urta kompaniyalari, IT-kompaniylar va boshqa tashkilotlarning bozor institutlarini yaratish va rivojlantirish - bozor infratuzilmasini shakllantirishga ko‘maklashadi va xizmatlar sektorida raqobatni kuchaytiradi |

Mamlakatimizda AKTning jadal rivojlanishi nafaqat yangi biznes modellarining vujudga kelishi, balki iste’molchilarga tovar va xizmatlarni taqdim etish shakllarining o‘zgarishiga ham olib keldi. AKT va internet ta’sirida an’anaviy marketingning rivojlanish evolyutsiyasi, muallif tomonidan besh bosqichga bo‘lib tizimlashtirilishi, sohadagi rivojlanayotgan innovatsion marketing strategiyalarini taqqoslash imkonini beradi. Fikrimizcha, xizmatlar firmasida marketingni samarali boshqarish uchun menejer uch bo‘g‘inga qaratilgan uchta strategiyani rivojlantirishi zarur:

1. An’anaviy marketing strategiyasi narx shakllanishi, kommunikatsiyalar va tarqatish kanallari masalalari bilan bog‘liq;
2. Ichki marketing strategiyasi «tashkilot - xodim» bo‘g‘iniga qaratilgan va xodimlarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq;
3. Interfaol marketing strategiyasi «xodim - iste’molchi» bo‘g‘iniga mo‘ljallangan va xizmat ko‘rsatish sifatini nazorat qilish bilan bog‘liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. http://strategy.regulation.gov.uz/
2. Джанибекова Ш. Хизматлар бозорини ривожлантиришда маркетинг стратегиясининг хусусиятлари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2018 йил, 2-10 б.
3. Джанибекова Ш. Хизматлар бозорини ривожлантиришда маркетинг стратегиясининг хусусиятлари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2018 йил, 2-10 б.
4. Khamrakulovna, O. N., Khojimamatovich, E. A., & Nasridinovna, T. O. (2021). Description of organizational and economic activity of the society in the Republic of Uzbekistan and marketing activity in its foreign economic relations. Psychology and Education Journal, 58(2), 5014.
5. Олимова, Н. Х., Эргашев, А. Х., & Тешабаева, О. Н. (2020). Некоторые аспекты развития маркетинга коммуникационных связей на предприятиях Узбекистана. In наука и инновации-современные концепции (pp. 40-47).
6. Олимова, Н., Хазраткулов, С., Каримов, Ш., & Сотволдиев, Н. (2020, November). Информатизация системы и методология внедрения информационно-коммуникативных технологий в процесс непрерывного образования. In Информационные системы и коммуникативные технологии в современном образовательном процессе (pp. 60-65).
7. Олимова, Н. Х., & Каримов, Ш. Х. (2020). Реал сектор корхоналарида инновацион янгиликларни жорий қилишнинг ташкилийиқтисодий механизмини такомиллаштириш. In Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари (pp. 423-427).
8. Khamrakulovna, O. N., Khojimamatovich, E. A., & Nasridinovna, T. O. (2021). Description of organizational and economic activity of the society in the Republic of Uzbekistan and marketing activity in its foreign economic relations. Psychology and Education Journal, 58(2), 5014.
9. Kh, O. N., & Kh, E. A. (2021). Prospects for effective use of marketing strategies to increase investment activity of Fergana region. Ceteris Paribus, (2), 11-14.

**UDK: 685(575.1)**

## MAMLAKATIMIZDA KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

## ПУТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ОРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИИ МАЛЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ЗОН В СТРАНЕ

## WAYS TO USE FOREIGN EXPERIENCE IN THE ORGANIZATION AND DEVELOPMENT OF SMALL INDUSTRIAL ZONES IN COUNTRY

**Ortiqov A.B. - FDU, doktorant**

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada jahon mamlakatlarida kam rivojlangan va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etmagan hududlarda industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalarini tashkil etish orqali rivojlantirish, bu orqali iqtisodiy salohiyat va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, yirik va kichik ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, kichik sanoat zonalari joylashgan hududlardagi investitsion jozibadorlikni oshirish, shu asosda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hamda aholi bandligini oshirish masalalarining ilmiy tadqiqotiga alohida e’tibor qaratilayotganligi xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** biznes, korxona, sanoat, ishlab chiqarish, texnopolislar, integratsiya, kooperatsiya, investitsiya, kichik sanoat zonalari, investitsion faollik, boshqaruv, rivojlanish.

В данной статье рассматривается развитие в странах мира через создание индустриальных парков, технополисов и промышленных зон в слаборазвитых и экономически неразвитых регионах, повышение эффективности использования экономического потенциала и ресурсов, углубление промышленной кооперации между крупными и мелкими производственными предприятиями, повышение инвестиционной привлекательности в регионах с малыми промышленными зонами, на этой основе особое внимание уделяется научному исследованию вопросов производства конкурентоспособной продукции и повышения занятости населения.

**Ключевые слова:** бизнес, предприятие, промышленность, производство, технополисы, интеграция, кооперация, инвестиции, малые промышленные зоны, инвестиционная активность, управление, развитие.

This article examines the development in the countries of the world through the creation of industrial parks, technopolises and industrial zones in underdeveloped and economically undeveloped regions, increasing the efficiency of using economic potential and resources, deepening industrial cooperation between large and small manufacturing enterprises, increasing investment attractiveness in regions with small industrial zones, on this basis, special attention is paid to scientific research issues of producing competitive products and increasing employment.

**Key words:** business, enterprise, industry, production, technopolises, integration, cooperation, investments, small industrial zones, investment activity, management, development.

Hozirgi kunda sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni ilg‘or texnologiya va innovatsiyalar asosida rivojlantirish va ilmsig‘imli, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishda industrial zona, park, sanoat zonalarining ahamiyati, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasiga ko‘ra, yildan-yilga ortib bormoqda. Bunday sanoat ishlab chiqarish tuzilmalari AQShda va Yevropa Ittifoqi davlatlarida, Rossiya Federatsiyasida industrial parklar va sanoat zonalari, Italiyada sanoat okruglari, klasterlar, Xitoy Xalq Respublikasida sanoat rayonlari va zonalari sifatida keng tarqalgan. Sotish bozorlarini egallashdagi raqobatning ortib borishi

sharoitida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlashning asosiy yo‘li industrial park, zona va sanoat zonalari bo‘lib qolmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni samarali rivojlantirishda innovatsion biznes, ya’ni texnopark va biznes inkubatorlarga ham katta e’tibor berilmoqda. Umumiy tomoni, ularni tashkil etish va rivojlantirish davlat va mahalliy hokimiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Industrial parklarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, nafaqat federal darajada, balki mintaqa darajasida ham faol qo‘llab- quvvatlanmoqda. Park hududi infratuzilmasini shakllantirish, energetika ob’yektlarini barpo etish, muhandislik tarmog‘i, suv ta’minoti va oqava suv tarmoqlarini barpo etish mintaqalar tomonidan (munitsipal organlar) moliyalashtiriladi (1-jadval).

**1-jadval**

**Industrial parklarni moliyalashtirish mexanizmlari [10]**

| Industrial park turlari | Yer, mulk egasi | Infratuzilma |
|---|---|---|
| **Davlat grinfildi** | Yer maydoni davlat yoki munitsipal mulki | Infratuzilma davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi |
| **Xususiy grinfild** | Yer maydoni xususiy mulk yoki loyihani amalga oshiruvchi tomonidan yer, yer egasidan ijaraga olingan | Infratuzilma xususiy mablag‘ hisobidan moliyalashtiriladi, lekin davlat subsidiyasidan foydalanish mumkin |
| **Aralash grinfild** | Yer maydoni, aktsionerlik jamiyati mulki. Aktsiyalar davlat va xususiy sektor tomonidan bo‘lib olingan. Ob’yektlar davlat-xususiy sektor mablag‘i hisobidan sherikchilik asosida barpo etiladi | Infratuzilma ob’yektlari davlat-xususiy sektor sherikchiligida moliyalashtiriladi. Ob’yektlarning bir qismi xususiy sektor tomonidan moliyalashtiriladi |
| **Davlat braunfildi** | Yer maydoni, infratuzilma ob’yektlari, binolar, inshootlar davlat mulki hisoblanadi | Industrial parkni rivojlantirish, ob’yektlarni qayta tiklash, infratuzilma ob’yektlarini modernizatsiya qilish davlat byudjeti mablag‘i hisobidan amalga oshiriladi |
| **Xususiy braunfild** | Yer maydoni va undagi barcha ob’yektlar xususiy mulk hisoblanadi | Infratuzilma xususiy mablag‘ hisobidan moliyalashtiriladi, davlat subsidiyasidan foydalanish mumkin |

Industrial parklarning barpo etilishi mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydi, mintaqadagi ijtimoiy masalalarni hal etishga olib keladi. Industrial parklarning barpo etilishi mintaqaga investitsiyani jalb etish va sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning eng yaxshi usuli sifatida o‘rganish mumkin.

Mintaqadagi davlat organlari industrial park orqali mintaqaga katta investitsion loyiha olib kiruvchi yirik kompaniyalarni jalb etishga harakat qiladi. Industrial parklar xalqaro tasnifga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

Grinfild - hech narsa qurilmagan yer maydoni;

Braunfild - muhandislik va transport kommunikatsiyalari, infratuzilma ob’yektlari, ishlab chiqarish binolari qurilgan yer maydoni.

Grinfildlar ham uch turga bo‘linadi: davlat grinfildi, xususiy grinfild va aralash grinfild. Grinfild loyihasiga ko‘ra, park yangi, ilgari hech qanday ishlab chiqarish joylashmagan yer maydonida tashkil qilinadi. Ustun tomoni: bino, inshootlar buyurtmachi talabiga mos holda quriladi. Braunfildlar esa davlat braunfildi va xususiy braunfild turlariga bo‘linadi. Grinfild va braunfildlarni moliyalashtirish mexanizmlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval**

**Industrial parklarni federal va mintaqa darajasida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash [11]**

| Qo‘llab-quvvatlash shakli | Federal darajada | Mintaqa darajasida |
|---|---|---|
| 1. Byudjet hisobidan qo‘llab-quvvatlash | | |
| • Kredit foiz stavkasini subsidiyalash | | + |
| • Investorlar majburiyati bo‘yicha davlat va munitsipal tomonidan kafolatlash | | + |
| 2. Investitsion dasturlar | | |
| Transport va energetik infratuzilmalarni rivojlantirish dasturlari | + | + |
| 3. Investorlarni qo‘llab-quvvatlash | | |
| Soliq imtiyozlari: foyda solig‘i stavkasini pasaytirish; yer va transport solig‘idan ozod qilish | | + |
| 4. Korxonalar ehtiyojidan kelib chiqib mutaxassis kadrlar tayyorlash | + | |
| 5. Parklarni barpo etish va rivojlanishini axborot va maslahat berish orqali qo‘llab-quvvatlash | | + |

Industrial parklarning yirik investorlarni jalb etish bo‘yicha raqobat ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi: malakali mehnat resurslari va moliyaviy institutlar mavjudligi, transport va boshqa infratuzilmalarning rivojlanganlik darajasi, energetik resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi va sotish bozorlari yaqinligi. Industrial parklarni barpo etishdan manfaatdor tomonlar: mintaqa hokimiyat organlari, park ixtisosligini belgilovchi yirik investor, rezidentlar va boshqaruv kompaniyasi hisoblanadi. Industrial parklarni barpo etishga bo‘lgan asosiy to‘siq: qatnashchilarda moliya resurslarining yetishmasligi.

Rossiya Federatsiyasida o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, park infratuzilma bilan ta’minlangan bo‘lsa, korxonalar 20 foizgacha infratuzilma ob’yektlariga sarflanuvchi xarajatlarni tejaydi. Investorlar ko‘p hollarda zona infratuzilma bilan ta’minlangan bo‘lmasa, boshqa infratuzilma ob’yektlari qurilgan mintaqaga ketishi mumkin. Bunday holat mintaqa hokimiyat organlarini zona hududini kerakli qurilmalar bilan ta’minlashda faol harakat qilishga undaydi. Industrial zonalarni barpo etishning samarali usullaridan biri - davlat-xususiy sektor sherikchiligi. Davlat-xususiy sektor sherikchiligi (DXSSh, ingliz tilida: PPP - Publik Private Partnership) bu davlat bilan xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik qilish shakli bo‘lib, u muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishga qaratilgan.

DXSShning institutlari sifatida banklar, investitsion fondlar, davlat kompaniyalari o‘rganiladi. DXSShning instrumentlariga quyidagilarni kiritish mumkin: kontsession kelishuv, byudjetdan foydalanish bo‘yicha investitsion kelishuv. DXSShning kontsessiya shaklidan ko‘proq infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda foydalaniladi. Masalan, ijtimoiy, kommunal, transport va energetika sohalarida. Kontsessiya xususiy mablag‘ni loyihaga tortish orqali byudjet mablag‘ining qisqarishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy, ilg‘or, qimmat texnologiyani loyihaga kiritish orqali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Boshqa tomondan, shartnoma xususiy sektor va davlatning o‘zaro vazifalari, mas’uliyatini aniq belgilaydi, shu bilan birga, xususiy investitsiyani himoya qilishni ta’minlaydi.

Turkiyada sanoat zonalari - tashkil etilgan sanoat zonalari deb yuritiladi. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida yuzlab kichik biznes sub’yektlari yagona sanoat zonasiga birlashtiriladi, lekin ularning yuridik va iqtisodiy mustaqilligi saqlanib qolinadi. Tashkil etilgan sanoat zonalarini barpo etish bo‘yicha qarorni davlat organlari tarmoq uyushmalari va mahalliy tadbirkor uyushmasi bilan birgalikda qabul qiladi. Loyihalar davlat tomonidan moddiy qo‘llab-quvvatlanadi, moliyaviy ta’minoti davlat mablag‘i yoki xususiy mablag‘ hisobidan amalga oshiriladi. Bo‘lajak bino, inshootlar va tsex xonalarini qurish maxsus firmalar tomonidan amalga

oshiriladi, qurilib bitgan bino va xonalar kichik korxonalarga sotiladi. Turkiyada birinchilar qatorida tashkil etilgan sanoat zonasiga misol sifatida Istanbul shahriga yaqin joylashgan Tuzla zonasini keltirish mumkin.

2020 yil turistlarga 261 million dollar turistik xizmat ko‘rsatilgan bo‘lib, 2019 yil yakuniy hisobotlariga ko‘ra mamlakatimizga 6,7 million chet ellik sayyoh tashrif buyurgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, koronavirus ta’siri tufayli mamlakatimizga tashrif buyuradigan sayyohlar soni 63 foizga kamaygan va turizm sohasi jiddiy zarar ko‘rgan.

2020 yilda O‘zbekistonda turizm sohasida o‘zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy miqdori 4 trln so‘mni tashkil qilib 188 ta loyihalar amalga oshirildi.

Murakkab pandemiya sharoitlariga qaramasdan, hududlarda yirik investitsiya loyihalari, hususan Namangan viloyatida Hindistonning “Premium Invest” kompaniyasi tomonidan 50 mln dollar bo‘lgan mehmonxona va biznes markazi, Samarqand viloyatida “Mironkul Group Tower” MCHJ tomonidan qiymati 109 mlrd bo‘lgan zamonaviy mehmonxona, Toshkent shahrida “Lake city Township” kompaniyasi tomonidan qiymati 150 mln dollar bo‘lgan zamonaviy ko‘ngilochar maskan, Turkiyaning “Calik Energy” kompaniyasi tomonidan qiymati 330 mln dollar bo‘lgan zamonaviy mehmonxona va tijorat markazini qurish loyihalariga investitsiyalar ajratildi. Bundan tashqari, hududiy dasturlar doirasida Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida qiymati 100 mln dollar bo‘lgan “Amirsoy Mountain Resort” tog‘-chang‘i qurort loyihasi ishga tushirildi.Shu bilan birgalikda Buxoro viloyatida “Bukhara Desert Oasis& SPA” tematik turizm maskani, Navoiy viloyatida To‘dako‘l ko‘li bo‘yida “Silk Road Family Resort” yangi qurort zonasi, Toshkent shahrida Marriot brendi tizimidagi 131 xonali “Countryard by Marriot Tashkent” mehmonxonasi kabi loyihalar amalga oshirildi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi.Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.- 174 b.
2. Xalqaro savdo tashkiloti ma’lumotlari.https://www.wto.org/english/res_e/statis_e/statis_e.htm

3. Ўзбекистон Республикасининг 2035-йилгача ривожланиш Стратегиясининг концепцияси. Расмий сайт: uzbekistan2035.uz/uz.
4. Homidov, K. (2023). Conceptual approaches to the formation of a model for the sustainable development of tourist complexes. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(7), 33-38.
5. Homidov, K. (2023). Organizational and economic foundations of the organization of tourist complexes in the development of tourism in the regions. Journal of Agriculture & Horticulture, *3*(7), 44-50.
6. Хомидов, К. (2023). O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqaruv samaradorligi oshirish yo‘llari. Economics and Innovative Technologies, 11(3), 154-160.
7. Хомидов, Х. (2023). Ҳудудларда туристик мажмуалар фаолиятини шакиллантириш ва тизимли бошқариш асосида ҳудудлар туристик салохиятидан самарали фойдаланиш масалалари. " Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami., 412-415.

**УДК:338.242**

## KORXONANI BOSHQARISHDA KADRLAR SALOHIYATIDAN MAQSADLI FOYDALANISH

## ЦЕЛЕВОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КАДРОВОГО ПОЛНОМОЧИЯ В УПРАВЛЕНИИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ

## PURPOSEFUL USE OF PERSONNEL AUTHORITY IN ENTERPRISE MANAGEMENT

**Zarnigor A’zamova**
**Farg‘ona davlat universiteti, tadqiqotchi**

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada tashkilot va korxonalarda xodimlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish maqsadida ilg‘or texnologiyalardan foydalanish masalalari muhokama qilinadi. Korxonalarni korporativ boshqarish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish asosida aktsiyadorlik jamiyatlarining yangi namunaviy tuzilmasi ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** korxona, boshqaruv mexanizmi, boshqaruv, xodimlarni rag‘batlantirish, motivatsiya, inson potensiali,innovatsion tavsif.

В данной статье рассматривается использование передовых технологий с целью совершенствования механизма управления персоналом в организациях и предприятиях. На основе изучения передового международного опыта корпоративного управления предприятиями разработана новая модель структуры акционерных обществ.

**Ключевые слова:** предприятие, механизм управления, менеджмент, мотивация сотрудников, мотивация, человеческий потенциал, инновационная характеристика.

This article discusses the use of advanced technologies in order to improve the personnel management mechanism in organizations and enterprises. A new model structure of joint-stock companies was developed based on the study of international best practice in corporate management of enterprises.

**Key words:** enterprise, management mechanism, management, employee motivation, motivation, human potential, innovative description

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning innovatsion tavsifi, uni yuqori darajadagi fan sig‘imi, mahsulot sifati masalalarining muhimligi, xodimlarga bo‘lgan talabni o‘zgartirib,mehnatga ijodiy munosabatning va yuqori kasbiy mahorat ahamiyatini oshirib yubordi. Bu xodimlarni boshqarishni ijtimoiy — ruhiy masalalarida, uslub va tamoyillarida tubdan o‘zgarishni taqozo qilib qoldi. Mehnat resurslarini boshqarish tamoyillaridagi o‘zgarishlar, zamonaviy sharoitda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan motivlashtirish siyosatini amalga oshirishga yo‘naltirilgan. Motivlashtirish siyosati mulkchilikning jamoa shakllarini rivojlantirish (aksionerlik va sheriklik kompaniyalari, kooperativlar) sharoitida xodimlarni boshqarishga jalb qilish umumiy maqsadlarga erishish uchun ma’muriyatni xodimlar bilan hamkorligini kengaytirishga qaratilgan. Bu o‘z navbatida xodimlar potensial qobiliyatlarini rivojlantirishga, intensiv va mahsuldor mehnat qilishga, mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lishiga undaydi. Xodimlarni boshqaruvchilarning bosh maqsadi ishlab chiqarish, ijodiy mahsuldorlikni oshirishni boshqarish xodimlar sonini kamaytirishga qaratilgan bo‘ladi; xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqish; xodimlarni ishga qabul qilish va bo‘shatish qoidalarini ishlab chiqish, xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish bilan bog‘liq masalalar mutaxassis menejerlarning mustaqil kasb turidir. Z. Xayer menejerlar kasbiy vazifalarini aks ettiruvchi quyidagi umumlashgan tavsiyani keltiradi: Menejerning vazifasi:

- agar muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, unda bo‘ysunuvchilarni ayblamay shaxsiy mas’uliyatni o‘ziga olishi;
- xodimlar talantini va kasbiy malakasini yanada o‘sishiga imkoniyat yaratish;
- belgilangan maqsadga erishish natijalarini tekshirishi, ammo buyruq berish orqali xodimlar tafakkuriga tazyiq o‘tkazmasligi;
- xodimlar kamchiliklari va muvaffaqiyatsizliklariga xolislik bilan yondashish;
- xodimlarni individual xususiyatlarini hisobga olish: har biriga o‘ziga xos yondashish;
- xodimlar oldida o‘z mas’uliyatini his qilish, ularning o‘rtog‘i bo‘lmay boshlig‘i bo‘lish;
- xodimlar mehnat sharoitini yaxshilash, o‘zaro harakatga omillash orqali belgilangan maqsadlarga erishish;
- har bir xodimga uning mehnat natijalarini his qilishiga yordam berish;
- xodimlarni birgalikda harakatga qobiliyatli qilish, ular harakatiga natijali va samarali tus berish, individual xususiyatlarini yuzaga chiqarishga imkoniyat tug‘dirish.

Menejerlarga ma’lum darajada mas’uliyat ham yuklanadi: xodimlar ishini baholash, so‘nggi natijalar bo‘yicha zaruriy rag‘batlantirishni belgilash, ishchinbrigadalar, maqsadli guruhlar faoliyatini tashkil qilish va nazorat, konfliktli vaziyatlarni yechish va ular faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha qarorlar qabulqilish. Xodimlarni boshqarish har bir formada qabul qilingan va ishlab chiqilgan turli choralarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Umumiy choralar quyidagilardan iborat:

—bo‘ysunuvchilarning o‘z rahbarlariga bajaradigan ishlar hamda kelajak rejalar bo‘yicha hisobotlarni taqdim qilishi, bunday hisobotlar boshqarishning barcha darajadagi xodimlari tomonidan kun, oy, kvartal, yil yakuni bo‘yicha taqdim etiladi;

—boshqarishning yuqori darajasida ishlab chiqarish bo‘linmalari va markaziy xizmat rahbarlari ishtirokida haftalik operativ yig‘ilishlar o‘tkazish. Bundayyig‘ilishlarda joriy davrning dolzarb masalalari bo‘yicha ishlab chiqarishbo‘linmalari rahbarlarining hisobotlari eshitiladi, qabul qilingan qarorlar bo‘yicha aniq choralar muhokamasi o‘tkaziladi, ular yig‘ilishda ma’qullangandan so‘ng ijro etish uchun qabul qilinadi. Operativ yig‘ilishlarning o‘tkazilishi firma prezidenti yoki bosh ma’muriga firma ishlarining joriy holati bilan tanishish va uning xo‘jalik faoliyatiga to‘xtovsiz tuzatishlar kiritish imkoniyatini beradi.

Menejerlar o‘z navbatida yuqori darajadagi rahbarlar oldida hisob beradilar;

— joriy davrda kadrlar qo‘nimsizligi turli kasb kadrlariga ehtiyojini taxmin qilish haqida doimo axborotlar olib turadi. Kadrlar siyosatini ishlab chiqishda ishga qabul qilinayotgan xodimlarga qo‘llaniladigan talablar va tamoyillar muhim ahamiyatga ega.Masalan:Yapon firmalarida rahbar alohida vazifalar bo‘yicha emas, balki firmaning har qanday uchastkasida ishlab

ketadigan mutaxassis bo‘lishi kerak degan fikrga asoslanadi. Shuning uchun malaka oshirishda bo‘lim rahbari avval ishlamaganyangi faoliyat doirasini o‘zlashtirishiga e’tibor qaratiladi.

Yapon firmalarida mezon sifatida kasblarni qo‘shish, jamoada ishlash qobiliyati: ishlab chiqarish muammolarini hal qilishni bilish, turli vazifalarni hal qilishni o‘zaro qo‘shib olib borish, yozuv savodxonligi va grafiklarni o‘zi chizish xususiyatlari qabul qilingan. Odatda potensial nomzodlar yarim avtonom jamoalarda ishlash qobiliyatini aniqlash bo‘yicha dastlabki tekshiruvdan o‘tadilar. Amerika firmalarida asosiy e’tibor ixtisoslashgan bilimlar va kasbiy ko‘nikmalar kabi asosiy an’anaviy tamoyillarga qaratiladi. Ularda asosan injener va olimlarni qabul qilishga qaratilgan tor ixtisoslashuv uslubiga ahamiyat beriladi. Amerika firmalarida potensial nomzodlar ishga kirishda kasbiy tayyorgarligini aniqlash uchun testdan o‘tadilar, undan so‘ng ishga qabul qilinib yo‘riqnomaga muvofiq tor ixtisoslashgan vazifalari bilan tanishtiriladi, ammo firmaning butun faoliyati va uning tashkiliy madaniyati bilan tanishtirilmaydi. Har bir firma xodimlarni yollash bo‘yicha o‘z mezonlarini ishlab chiqadi. Amerika firmalarida ishga qabul qilish quyidagi etaplardan o‘tishni taqozo qiladi:

— xodimga taqdim etilayotgan ishchi funksiyasi, huquqi va mas’uliyati tavsifi bilan tanishtirish;

—agar ma’lum ish bo‘yicha xodim qabul qilish yillik rejaga kiritilmagan bo‘lsa amaldagi ish haqi tizimiga qo‘shish uchun uni asoslash kerak: tanlash yangi lavozimni oliy rahbar tasdiqlagandan so‘ng boshlanadi;

— tashqaridan nomzod qabul qilish reklama, shaxsiy aloqalari, elektron ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lgan yollash firmalari orqali amalga oshiriladi;

— ro‘yxatga kiritilgan nomzodlar bo‘lajak rahbarlari tomonidan bir necha suhbatdan o‘tadi, agar zarur bo‘lsa bo‘ysunuvchilar bilan ham suhbatlashadi. So‘nggi tanlov bevosita rahbar tomonidan amalga oshiriladi. Amerika firmalarida xodimni ishdan bo‘shatish uzoq muddatli baholash va tarbiyalash usullaridan so‘ng amalga oshiriladi. O‘tkazilgan baholash natijasi xodim va uning rahbari bilan muhokama qilinadi va tomonlar imzolaydilar.

Mehnat resurslari korxona oldiga qo‘yilgan maqsadlarni aniq natijalarga aylantirishda personal imkoniyatlarining majmui bo‘lib, o‘z ichiga xodimning professional va kvalifikatsion tarkibini jamlaydi va unumdor mehnat orqali samarali natijaga erishiladi.

Inson omiliga insonning shaxsiy xususiyatlar majmuining yuzaga chiqishi sifatida qaralishi lozim. Bu esa uning mehnat jarayonidagi faoliyatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tushuncha insonning ishlab chiqarish jarayonidagi hal qiluvchi rolini ko‘rsatib beradi.

**1-jadval**

**Xodimlarni boshqarish sxemasi**

| **Kadrlar siyosatini ishlab chiqarish** | **Mehnatga haq to‘lash va rag‘batlantirish** | **Guruh boshqaruvi, jamoadagi va kasaba uyushmasi bilan munosabatlar** | **Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik jihatlari** |
|---|---|---|---|
| Xodimlarga ehtiyojni aniqlash va ular sonini rejalashtirish | Mehnatga haq to‘lash shakllari | Xodimlarni quyi darajada boshqaruvga jalb qilish | Xodimlar mehnat motivatsiyasi va ijodiy tashabbuslari |
| Xodimlarni yollash, tanlash va ishdan bo‘shatish shartlari | Mehnat unumdorligini oshirish yo‘llari | Ishchi birgadirlar va ularning vazifalari | Korxonaning tashkiliy madaniyati |
| Xodimlar malakasini oshirish va o‘qitish yo‘llari | Mehnatga haq to‘lashning rag‘batlantirish tizimi | Jamoadagi o‘zaro munosabatlar | Boshqaruv xodimlarining korxona faoliyatiga ko‘rsatuvchi ta’siri |

Texnologiyalar va kapital tezkorligining oshishi bilan raqobatbardoshlik faqatgina mehnat resurslarining sifati, ularning ishlab chiqarish qobiliyati va egiluvchanligiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bu bevosita menejmentning inson omilini faollashtirishga, ishchilardan nafaqat moddiy, balki ma’naviy jihatdan ham foydalanishga, ya’ni faqatgina uning ish bajarish qobiliyatidan emas, balki ijodiy, tashkilotchilik qobiliyatlaridan ham unumli foydalanishga e’tiborni kuchaytirish zarur bo‘lib borayotganligidan dalolat beradi.

Korhonalarda xodimlarni boshqaruv tizimi- davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshiruvchi kishilik jamiyati hayot faoliyatining sohasi. Bu siyosat jamiyat hayotining hamma tomonlari taraqqiyotini ta’minlovchi moddiy va ma’naviy ne’matlarni taqsimlash, har bir insonning hayot tarzini yaxshilashga yo‘naltirilgan. Ijtimoiy jihatdan uning mazmuni - bu ijtimoiy guruhlar, individlar o‘rtasida ularning holati, jamiyatdagi o‘rni va roli, hayot tarzi yuzasidan chambarchas munosabatlar yig‘indisidir.

Milliy boshqaruv tizimiga xorij mamlakatlari tajribasini tatbiq etishda mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlari, xalqning kelib chiqishi va intilishlarini hisobga olish va bosqichma-bosqich o‘zgarishlar kiritib borish mamlakat mehnat resurslari o‘zgarishlarni ijobiy qabul qilinishi hamda ulardan kutilayotgan ijobiy samaraga erishilishi bilan namoyon bo‘ladi. Xorijiy mamlakatlar tomonidan qo‘llanib kelinayotgan xodimlarni boshqarishning samarali usullarini mamlakatimiz korxonalarida keng tadbiq etish foydadan holi bo‘lmaydi.

Xodimlarni boshqarish tuzilmasi quyidagi faoliyat yo‘nalishlarini qamrab oladi resurslarni rejalashtirish, inson resurslariga bo‘lgan ehtiyoj va buning uchun zarur xarajatlarni qondirish rejasini ishlab chiqish, xodimlarni ishga olish barcha lavozimlar bo‘yicha potentsial nomzodlar zahirasini yaratish, nomzodlarning ish joyiga mosligini baholash, ulardan eng yaxshilarini zahiradan tanlab olish, oylik ish haqi va tovon pullarini belgilash: xodimlarni jalb qilish, ishga yollash va ushlab qolish maqsadida oylik ish haqi va imtiyozlar tuzilmasini ishlab chiqish, kasbga yo‘naltirish va moslashuv: yollangan xodimlarni tashkilot va bo‘linmalarga kiritish, xodimlarga tashkilot ulardan nimani kutayotganligi va qanday mehnat munosib baholanishini tushuntirish, xodimlar mehnati samaradorligini oshirish maqsadida ularni o‘qitish dasturlarini ishlab chiqish; mehnat faoliyatini baholash: mehnat faoliyatini baholash uslubiyatini ishlab chiqish va uni xodimlarga yetkazish, lavozimini oshirish, pasaytirish, boshqa ishga o‘tkazish, ishdan bo‘shatish: xodimlarni javobgarlik darajasi ko‘proq yoki kamroq bo‘lgan boshqa ishga o‘tkazish usullarini ishlab chiqish, boshqa lavozim yoki ish joyiga o‘tkazish yo‘li bilan xodimlar tajribasini oshirish, shuningdek, ishga yollash shartnomasini bekor qilish rahbar kadrlarni tayyorlash, xizmat pillapoyasi bo‘ylab harakatlanishni boshqarish: rahbar kadrlar qobiliyatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish; mehnat munosabatlari: jamoa shartnomalarini imzolash bo‘yicha muzokaralar olib boriladi.




**2-rasm. Xodimlarni rejalashtirish**

Xodimlarni rejalashtirish - bu inson omiliga bo‘lgan ehtiyojni oldindan aniqlashdir. Bu jarayon uch bosqichdan iborat. Mavjud xodimlarni baholashda, eng avvalo ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi tashqi omillarga, xususan mehnat bozoridagi vaziyatga e’tiborni qaratmoq lozim.

-aholi soni, yoshi, jinsi salmog‘idagi o‘zgarishlar; tarmoq va hududiy bandlikdagi o‘zgarishlarga qo‘shimcha ishchi kuchini yollash darajasiga;

-Ichki omillarni baholash uchun quyidagi ma’lumotlar tahlilini bajarmoq zarur: doimiy band bo‘lgan xodimlar soni, familiyasi, yashash joyi, ishga qabul qilingan vaqti va xodimlarning tarkibi.

-ish haqi, uning tarkibi, qo‘shimcha ish haqi, ta’rif yoki ta’rifdan yuqori to‘lov;

-davlat yoki huquqiy tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy-maishiy xizmat (ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladigan mablag‘)lar.

Qayd qilingan tashqi va ichki omillarning ta’sirida mehnat bozoridagi vaziyat o‘zgarib turadi va shunga mos ravishda mehnat resurslariga bo‘lgan talab va taklif ko‘lami aniqlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. M. Mahkamova, S. Yuldasheva , Sh. Holmatova Menejment darslik –T.: Sharq, 2011 -200 b.

**УДК:338.48**

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНЫХ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В РАЗВИТИИ ИНДУСТРИИ ТУРИЗМА

## ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНИШИДА ҲУДУДИЙ МАРКЕТИНГ СТАТЕГИЯЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

## THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF REGIONAL MARKETING STATEGIAS IN THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM INDUSTRY

**Салимов Дилшодбек Давронович**
**Ферганский государственный университет, независимый исследователь**

**Аннотация**

В этой статье пойдет речь о целях, методах, формах, задачах маркетинга в развитии индустрии туризма. Авторы проанализировали мотивы субъектов рынка сайехлик к использованию маркетинговых технологий и аргументировали, что маркетинговая деятельность становится источником конкурентных преимуществ туристических организаций, исходя из того, что коммуникация между производителями и потребителями туристических услуг - это форма, которая нуждается в постоянном совершенствовании.

**Ключевые слова.** туристический рынок, индустрия туризма, маркетинговые цели, методы маркетинга, формы маркетинга, маркетинговые задачи, туристская деятельность, содержание туристского продукта.

Ушбу мақолада туризм соҳасида ривожлантиришда маркетингнинг мақсадлари, усуллари, шакллари, вазифалари ҳақида сўз боради. Муаллифлар сайёҳлик бозори субъэктларининг маркетинг технологиялардан фойдаланиш мотивлари таҳлил қилинди ва маркетинг фаолияти туристик хизматларнинг ишлаб чиқарувчилари ва истеъмолчилари ўртасидаги алоқанинг доимий равишда такомиллаштириб борилиши керак бўлган шакли эканлиги асосланиб, туристик ташкилотларнинг рақобатдош устунликлари манбаига айланиши таъкидланган.

**Калит сўзлар.** сайёҳлик бозори, туризм соҳаси, маркетинг мақсадлари, маркетинг усуллари, маркетинг шакллари, маркетинг вазифалари, туристик фаолият, туристик маҳсулот таркиби.

This article will talk about the goals, methods, forms, tasks of marketing in the development of the tourism industry. The authors analyzed the motives of the subjects of the sayèhlik market for

the use of marketing technologies and argued that marketing activities become a source of competitive advantages of tourist organizations, based on the fact that communication between producers and consumers of tourist services is a form that needs to be constantly improved.

**Keywords.** tourism market, tourism industry, marketing purposes, marketing methods, marketing forms, marketing tasks, tourist activities, tourist product content.

Современное развитие человечества характеризуется усилением влияния глобальных явлений природного, экономического, социального, политического, техногенного характера. Одним из таких явлений является сфера туризма, которая считается "феноменом" 20-го века с точки зрения темпов развития и возросшего влияния на важнейшие сферы общественной жизни.

Регионы республики обладают значительным туристическим потенциалом, но туристический сектор в регионах пока не стал важным фактором территориального развития. Во многом это результат недостаточно эффективного функционирования регионального туристического рынка. Тот факт, что регулирующие органы регионального туристического сектора недостаточно используют услуги и современные маркетинговые технологии.

В зависимости от уровня экономической системы цели, методы, формы, задачи маркетинга в сфере туризма различаются, но между этими уровнями существует тесная взаимосвязь:

- маркетинговые концепции на национальном уровне, с одной стороны, должны основываться на международных концепциях развития туризма, а с другой стороны, учитывать национальные особенности деятельности туристического рынка. На национальном уровне методология формирования маркетинговой информационной базы должна быть сопоставлена с ее международной информационной базой и обеспечивать ее целостность;
- маркетинговые концепции на региональном уровне должны основываться на национальной маркетинговой концепции развития туристического сектора и в то же время предоставлять наибольшие возможности для реализации территориальных конкурентных преимуществ. При формировании информационной базы регионального маркетинга необходимо учитывать его особенности, отражать роль туризма в социально-экономическом развитии регионального туристического рынка, региона;
- маркетинг субъектов регионального рынка туристических услуг должен предоставлять возможность учитывать вклад туризма в ВВП, анализировать проблемы развития регионального туристического сектора и направлять участников рынка на наиболее перспективные и эффективные направления.

Современный туристический сектор представляет собой сложную, многоструктурированную, многоуровневую, иерархическую, гибкую, открытую, управляемую, непрерывно действующую, самоорганизующуюся социально-экономическую систему. Комплекс туризма на национальном и региональном уровнях с таким подходом в маркетинге еще не развился.

Формирование туристической деятельности как "деятельности туроператора, туристического агентства и других туристических организаций" требует уточнения состава "других" видов предпринимательства для маркетинга в этой сфере. Таким образом, несмотря на изучение и описания национального туристического сектора, считается важным идентифицировать его как объект научного исследования, что существенно влияет на уровень управления (регулирования) его развитием.

Повышение качества маркетинга туристического сектора зависит от методов учета особенностей предпринимательской деятельности в туристическом секторе. Рынок туристических услуг обладает следующими характеристиками, влияющими на маркетинговые характеристики в этой сфере:

Общие черты:

- высокий динамизм в развитии рынка туристических услуг и повышение его роли в социально-экономическом развитии территории. За столетие туристический сектор стал важнейшим из элитных видов досуга и характеризуется быстро развивающимися секторами мировой экономики и высоким уровнем международной интеграции и индустриализации. В условиях глобализации туризм стал инструментом экономики.

- с точки зрения ее влияния на важнейшие сферы человеческой жизни индустрию туризма называют "феноменом" 20-го века. Практически нет ни одной сферы человеческой деятельности, которая не влияла бы на туризм, но, с другой стороны, на развитие туризма влияют различные внешние факторы: климатические, санитарно-эпидемиологические, технические, экономические, культурные, политические и т.д. При планировании развития туристической отрасли необходимо учитывать влияние этих факторов;

- существует множество субъектов туризма, которые участвуют в формировании туристского продукта и имеют определенную нормативно-правовую базу, технологию производства услуг, порядок формирования финансовых и отчетных показателей, что требует координации методов проведения статистических исследований предприятий в сфере туризма;

- высокий уровень интеграционных процессов в современном туризме, требует развития международного маркетинга в сфере туризма;

- высокий мультипликативный эффект туристской деятельности, который приводит к динамичной диверсификации экономики.

Черты национального характера:

- учет потенциала и конкурентных преимуществ для развития туристического сектора;
- роль туризма в социально-экономическом развитии страны;
- суть факторов, ограничивающих развитие туризма;
- уровень интеграции страны в мировой туристический рынок;
- уровень развития неформальной предпринимательской деятельности в сфере туризма;
-государственное регулирование туристской деятельности и качество научно-методического обеспечения.

Региональные особенности:

- наличие потенциала и конкурентных преимуществ региона для развития индустрии туризма;
- роль туристического сектора в социально-экономическом развитии региона;
- уровень вхождения региона на национальный и мировой туристические рынки;
- уровень развития неформального предпринимательства в сфере туризма;
- качество государственного регулирования туристской деятельности в регионе.

Особенности организации маркетинга в сфере туризма предполагают учет экономической сущности туристского продукта, его отраслевых и территориальных особенностей:

Отличительной особенностью туристского продукта в экономике является следующее:

- наличие материальных и нематериальных компонентов туристского продукта;
- ценовые и неценовые факторы, влияющие на конкурентоспособность туристского продукта;
- изменчивость качества;
- невозможность хранения и сбора;
- ограниченное потребление.

Это основные свойства туристического продукта:

- несоответствие состава и компонентов туристского продукта;
- неразрывность производства и потребления;
- сложность производства и потребления;
- влияние сезонности;

- качественная однородность элементов, составляющих потребительскую ценность туристского продукта;
- высокая субъективность в восприятии результата туристской деятельности потребителями;
- высокая степень влияния внешних факторов, не связанных напрямую с производством туристских продуктов, на процесс восприятия результата туристской деятельности;
- возможность потребления результата туристической деятельности только во время его производства;
- возможность потребления результата деятельности только в определенном месте и в определенное время;
- высокая эластичность спроса, зависящая от внешних факторов;
- необходимость перемещения к месту потребления;
- гибкость производства основных компонентов процесса организации мероприятий (транспорт, размещение и т.д.).
- высокий уровень воздействия форс-мажорных обстоятельств;
- территориальное разделение потребителя-производителя на туристическом рынке;
- процесс продажи туристического продукта включает в себя преимущества и за плату (услугу), которые туристы также потребляют бесплатно (гостеприимство, воздух, ландшафт, экзотическая природа;
- в процессе потребления услуги туристы могут влиять на процесс производства услуги;
- наличие особых требований по обеспечению безопасности потребителей.

Территориальные особенности формирования туристского продукта:

- сильное влияние сезонности на организацию туристической деятельности;
- высокая доля транспортного обслуживания в стоимости туристических услуг;
- разница между качеством услуг, предоставляемых предприятиями досуга и туризма, и стоимостью этих услуг;
- Недостаточно высокий уровень развития инфраструктуры сервиса и гостеприимства по сравнению с развитыми странами существующих услуг в регионе;
- низкий уровень вовлечения природного и рекреационного потенциала в туристическую деятельность.

Анализ организации маркетинга в сфере туризма Республики позволяет сделать вывод о том, что: маркетинг осуществляется не на основе маркетинговых функций по развитию национальных и региональных рынков туристических услуг и текущего обмена информацией между участниками рынка:

- методология проведения статистических исследований в сфере туризма в Республике не в полной мере соответствует рекомендациям UNVTO (Всемирной туристской организации;
- статистические исследования территориальных органов Республиканской службы государственной статистики (далее – stat.uz) без учета влияния сезонности на региональный рынок туристических услуг.
- специфика туристского рынка, маркетинговая информация "разрознена", туристская "доля" в деятельности туристических промышленных предприятий не выделена, что не создает возможности оценить туристический потенциал регионов.

Департамент развития туризма на территории и составленная им информационная база не позволяют оценить состояние туристического потенциала региона.

Рост этих негативных факторов во многом обусловлен несовершенством территориального маркетинга в сфере туризма. Государственные органы по регулированию туристического сектора региона недостаточно используют современные маркетинговые технологии, в результате чего на разработанные и реализуемые программы развития туризма это сильно не влияет.

**Список использованной литературы:**


1. Колесникова Л. Предпринимательство: от «максимизации прибыли» к синергии социально-экономических систем // Вопросы экономики. №10. 2001
2. Бунеева Р.И. Коммерческая деятельность: организация и управление: учебник / Р.И. Бунеева. — Ростов н/Д.:Феникс, 2009. — 365с.
3. Мирзаев А.Т. Методологические основы развития и повышения конкурентоспособности туристско-рекреационной деятельности// Бюллетень науки и практики. 2021. Т. 7. №10. https://doi.org/10.33619/2414-2948/71/33. Нижневартовск, Россия. С.283-293.
4. Mirzaev Abdullajon Topilovich. (2021). Economic evaluation of multiplicative efficiency on the basis of generalized indicators of resource components in tourist recreation activities. European Journal of Research Development and Sustainability, 2(6), 107-114. Retrieved from https://scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/1004
5. Мирзаев А.Т. Туризм-рекреацияси хизматлар бозорида рақамлаштиришнинг ялпи талаб ўзгаришига таъсири таҳлили // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. -2021, №3. 3/2021 (№ 00053). 386-397 б. http://iqtisodiyot.tsue.uz.
6. Мирзаев, А. Т. (2020). Управление туристско-рекреационной деятельностью как фактор формирования стратегического планирования предпринимательства. In Наука сегодня: теория и практика: Материалы международной научно-практической конференции. Вологда (p. 21).
7. Мирзаев, А. Т. (2020). Эффективные методы управления и государственной поддержки туристско-рекреационной сферы в узбекистане. Наука сегодня: опыт, традиции, инновации [Текст]: материалы, 41.


**УДК:339.9**

## XORIJIY MAMLAKATLARDA TO‘QIMACHILIK SANOATI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

## ТЕКСТИЛЬНАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ

## TEXTILE INDUSTRY IN FOREIGN COUNTRIES AND ITS SPECIFIC CHARACTERISTICS

**Mo‘ydinova Gulnozaxon Qahramon qizi**,
**Farg‘ona politexnika instituti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada jahon miqyosida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil etilgan bo‘lib, sohadagi vaziyatni o‘rganish va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlari:** Yengil sanoat, to‘qimachilik sanoati, eksport, to‘qimachilik ishlab chiqarish, xodimlarni boshqarish, xodimlar.

Данная статья анализирует работу, которая ведется в мировом масштабе, и служит изучению ситуации на местах и разработке мер по устранению недостатков.

**Ключевые слова:** Легкая промышленность, текстильная промышленность, экспорт, текстильное производство, управление персоналом, персонал.

This article analyzes the work that is being carried out on a global scale, and serves to study the situation in the field and develop measures to eliminate the shortcomings.

**Keywords:** Light industry, textile industry, export, textile production, personnel management, employees.

Jahon savdo tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, yengil sanoat jahon sanoat tarmoqlari ichida yetakchi tarmoqlardan biri bo‘lib, jahon mahsulotining 5,7 foizini [illegible] (CAGR) 7,6 foizga [illegible] bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023 yilda 1,08 barobarga ko‘paydi.

Respublikamizda iqtisodiyotni tubdan o‘zgartirish jarayonida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini tashkil etish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, [illegible] hajmi va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholi bandligini ta’minlash ishlari amalga oshirilmoqda.




**1-rasm. Jahon miqyosida to‘qimachilik sanoatida faoliyat olib borayotgan korxonalar soni[9]**

2022-yilda Xitoy taxminan 148 milliard AQSh dollari qiymati bilan dunyodagi yetakchi to‘qimachilik eksportchisiga aylandi. Xitoyning eksport hajmi butun dunyo bo‘ylab to‘qimachilik eksport bozorining qariyb 41,4 foizini tashkil qiladi. 2015 yildan beri Xitoyning tikuvchilik sanoati chuqur o‘zgarishlarga duch keldi. Ishchi kuchi narxining oshishi tarmoqni kamroq mehnat talab qiladigan va yuqori darajada avtomatlashtirilgan sohalarga o‘tkazdi. Geografik jihatdan ko‘plab kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi korxonalar G‘arbiy va O‘rta Xitoy kabi mehnat xarajatlari past bo‘lgan mintaqalarga ko‘chib o‘tdi.

Texnologiya modernizatsiyasi kiyim-kechak korxonalari tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlarni oshirdi. 2020 yilda Xitoyning to‘qimachilik va tikuvchilik sanoatida 26 000 dan ortiq tadqiqot va ishlanma loyihalarini amalga oshirildi. Biroq, iqtisodiyotni transformatsiya qilish va tarkibiy o‘zgarishlar jarayonida tikuvchilik sanoati korxonalari soni ortib bormoqda.

Hindiston to‘qimachilik sanoati qadimgi davrlarda vujudga kelgan bo‘lib, besh ming yillik tarixga ega. Tola ishlab chiqarish, yigirish, to‘qimachilik, to‘qimachilikni bo‘yash va matbaa qilish, to‘qimachilik ishlab chiqarish Hindistonning keng to‘qimachilik tarmog‘ining bir qismidir. Sanoat ichki va xalqaro bozorlar uchun turli xil mahsulotlar ishlab chiqaradi.




**2-rasm. Jahondagi to‘qimachilik mahsulotlarini export qiluvchi yetakchi davlatlar (mlrd AQSH dollari)[9]**

Hindiston to‘qimachilik sanoati bugungi kunda 223 milliard dollarga baholanadi va mamlakat yalpi ichki mahsulotining ikki foizini tashkil qiladi. To‘qimachilik sanoati Hindiston iqtisodiyotiga 35% hissa qo‘shadi, bu boshqa barcha tarmoqlar umumiy hissasining kamida uchdan bir qismini tashkil etadi, ya’ni Hindiston to‘qimachilik sanoati mamlakatning tayanchi bo‘lib xizmat qiladi.

Hindiston 100 dan ortiq mamlakatlarga to‘qimachilik va kiyim-kechak eksport qiladi. Bundan tashqari, Hindiston to‘qimachilik eksporti global savdo tizimlarini yaratishga yordam beradi. Hindiston Xitoydan keyin dunyodagi ikkinchi yirik to‘qimachilik ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi.

Turkiya xalqaro to‘qimachilik va tikuvchilik sanoatida muhim o‘ringa ega bo‘lib qolmoqda. 2022 yilda mamlakat to‘qimachilik eksporti bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi o‘rinni egalladi, bu umumiy eksportning to‘rt foizdan ortig‘ini tashkil etdi. Sanoat ham o‘sish belgilarini ko‘rsatishda davom etmoqda, eksport qilinadigan to‘qimachilik va kiyim-kechak qiymati 2000 yildan beri uch baravar oshdi. Turkiya paxta yetishtirish bo‘yicha dunyoda yetakchi mamalakatlar orasida 6 chi o‘rinni egallaydi.

Jahon to‘qimachilik va tikuvchilik sohasida AQSh asosiy importyor, undan keying o‘rinlarni Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya va Xitoy mamlakatlari egallaydi.

AQSh paxta xomashyosining yetakchi ishlab chiqaruvchisi va eksportchisi hamda to‘qimachilik va kiyim-kechak xom ashyosining eng yirik importchisi hisoblanadi. Jumladan, AQSH ning 2022 yildagi import qiymati 42,27 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, Germaniya esa 16,7 milliard dollarlik to‘qimachilik va kiyim-kechak importi bilan ikkinchi o‘rinni egallagan.




**3-rasm. Jahondagi to‘qimachilik mahsulotlarini import qiluvchi yetakchi davlatlar (mln AQSH dollari)[9]**

Jahon miqyosida 2018 yil xolatiga ko‘ra to‘qimachilik sanoatida faoliyat olib borayotgan xodimlar soni 9,06 mln kishini tashkil qilgan. Lekin Covid-19 ta’sirida 2019 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 8,96 mln kishiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, u to‘qimachilik sanoati mahsulotlariga talabni tobora ortib borishi natijasida iste’molchilar talabini qondirishga intilish oqibatida 2023 yil soha xodimlari soni jahonda 9,18 mln nafarga yetdi.




**4-rasm. Jahon miqyosida to‘qimachilik sanoatida faoliyat olib borayotgan xodimlar soni dinamikasi[9]**

Xususan, sohaga jalb qilingan 1 mln AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalar evaziga qo‘shimcha 45-50 ta ish o‘rinlari sonini yaratish mumkin bo‘lib, ushbu investitsiya miqdori yoqilg‘i-energetika sohasiga yo‘naltirilganda atigi 8-10 ta, mashinasozlik sohasiga yo‘naltirilganda esa 12-15 tagacha ish o‘rni yaratish imkonini beradi[2]. Shu sababdan ham sohada yuqori malakali kadrlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Buning uchun esa to‘qimachilik sanoatini investitsion jozibadorligini yanada oshirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bugungi kun talabiga aylangan.

To‘qimachilik, kiyim-kechak va poyabzal sanoatida ishlab chiqarishning geografik taqsimoti so‘nggi 25 yil ichida keskin o‘zgarishlar bilan boy bo‘ldi. Bu esa Yevropa va Shimoliy Amerikada ish bilan bandlik ko‘rsatkichini ma’lum darajada pasayishiga olib keldi. Osiyo va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish kengayishi va sohada olib borilayotgan innovatsion islohotlarni ushbu holatga sabab sifatida ko‘rsatishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Довлетова А., & Какалыева А. (2023). Текстильная промышленность в экономике. Символ науки, (3-1), 64-66.
2. Сатторкулов, О. Т. Развитие текстильной промышленности в условиях модернизации экономики / О. Т. Сатторкулов, Г. Р. Махмудова, Г. О. Турдикулова. — Текст: непосредственный // Вопросы экономики и управления. — 2018. — № 1 (12). — С. 11-14. — URL: https://moluch.ru/th/5/archive/78/3041/ (дата обращения: 31.01.2024).
3. Muydinova, G. (2023). The state of development of textile industry enterprises in Uzbekistan. American Journal of Business Management, Economics and Banking, 17, 144-149.
4. Муйдинова Г.К. (2021) Сущность и значение развития промышленных предприятий на основе инновационных стратегий. Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст: сборник статей I Международной научно-практической конференции.169-173 стр.
5. Муйдинова, Г. К. Усиление инновационной активности промышленных предприятий узбекистана в условиях пандемии(COVID-19) / Г. К. Муйдинова // Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы: материалы международной научно-практической конференции, Вологда, 30 июня 2021 года / Научный центр «Диспут». – Вологда: ООО «Маркер», 2021. – С. 13-15. – EDN GNOICQ.

6. Ashurov, M., Kurpayanidi, K., Oripov, D., Shakirova, Y., Muydinova, G. (2023). Strategies for Improvement and Evaluation of the Quality Management System of Uzbekistan Manufacturers. In: Beskopylny, A., Shamtsyan, M., Artiukh, V. (eds) XV International Scientific Conference “Interagromash 2022”. Interagromash 2022. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 574. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-21432-5_167
7. Muydinova, Q. (2024). State of development of textile enterprises in Uzbekistan. Science and innovation, 3(A1), 80-84.
8. https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/global-textile-industry---growth-trends-and -prognoz -2019---2024
9. https://www.statista.com

**UDK:338.46**

# HUDUDIY OLIY TA’LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BOSHQARISH STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MEXANIZM VA MODELLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

# ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ И МОДЕЛЕЙ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАТЕГИЙ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬЮ РЕГИОНАЛЬНЫХ ВУЗОВ

# PROSPECTS FOR THE USE OF MECHANISMS AND MODELS IN IMPROVING STRATEGIES FOR MANAGING THE COMPETITIVENESS OF REGIONAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

**Ibragimov Navro‘zbek Kimsanbayevich**
**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali, O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti,**
**inavruzbek@bk.ru**

**Annotatsiya**

Maqolada oliy ta’lim tizimida marketing strategiyalarini ishlab chiqish hamda ularni raqobatbardoshligini oshirish to‘g‘risida, oliy ta’lim tizimi raqobatbardoshligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hamda oliy ta’lim tizimi raqobatbardoshligini oshirish uchun ta’lim dasturlari o‘rni haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Oliy ta’lim, PhD, DSc, ta’lim tizimi, kadrlar tayyorlash, ta’limni xalqarolashtirish.

В статье речь идет о разработке маркетинговых стратегий в системе высшего образования и повышении их конкурентоспособности, факторах, влияющих на конкурентоспособность системы высшего образования и роли образовательных программ в повышении конкурентоспособности системы высшего образования.

**Ключевые слова:** Высшее образование, PhD, DSc, система образования, подготовка кадров, интернационализация образования

**Abstract:** This article is about the development of marketing strategies in the higher education system and increasing their competitiveness, the factors affecting the competitiveness of the higher education system and the role of educational programs to increase the competitiveness of the higher education system. it’s about.

**Key words:** Higher education, PhD, DSc, education system, personnel training, internationalization of education.

Mamlakatning taraqqiyoti o‘sib rivojlanishini, xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni yuqorilashini albatta malakali mutaxasislar belgilab beradi. Zamonaviy texnologiyalarning bilimlarini egallab olgan kadrlarsiz mamalakatni bunday darajaga olib chiqib bo‘lmaydi. Shu jumladan 2020-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida tashkil etilgan uzluksiz ta’lim tizimi, har tomonlama bilimli, intellektual salohiyati, ma’naviyati yuksak, barkamol avlodni shakllantirish mexanizmi mamlakatimizda kuchli demokratik davlat barpo etish va rivojlantirishning muhim omili bo‘lib xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillar ichida oliy ta’lim muassasalari katta global o‘zgarishlarga duch keldi. Shu borada kredit modul tizimi joriy etilgani, qabul kvotalari 3 barobar oshirilgani, kirish imtixonlari hamda oliy ta’limni tanlash imkoniyatlari kengaytirilgani, yangi oliy ta’lim muassasalari tashkil etilib 141 taga yetkazilgani hamda bitiruvchilarninig oliy ta’lim bilan qamrab olinishi 28% ga yetkazilgani ham shular jumlasidandur.

Yurtimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, nodavlat oliy ta’lim muassasalarida talabalarning davlat granti asosida ta’lim olishlari uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalariga xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan kredit-modul tizimini joriy etish, ta’lim dasturlari va talabalar bilimini baholash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, shuningdek, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga o‘tish bo‘yicha vazifalarni amalga oshirish talab etilmoqda. Davlat oliy ta’lim muassasalarining ta’lim jarayoniga kredit-modul tizimini *European Credit Transfer and Accumulation System-ECTS* joriy etishda Toshkent shahridagi Turin Politexnika universitetining tajribasidan foydalanildi[1].

Jumladan, Toshkent shahridagi Turin Politexnika universitetida Italiyalik professor o‘qituvchilar bilan birgalikda ko‘plab magistr va PhD darajasini olgan professor-o‘qituvchilar tayyorlandi, natijada mavjud ta’lim dasturlarini 68 foizi maxalliylashtirishga erishildi. Ma’lumki, ta’lim sohasidagi islohotlar mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning uzviy va hal qiluvchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Oliy ta’lim ilm-fan ishlab chiqarish o‘rtasida uzilishlar mavjud, integratsiya ta’minlanmagan. Ilmiy-tadqiqot institutlari oliy ta’limda kadrlar tayyorlash jarayoniga zarur darajada jalb etilmagan, ularda ilmiy izlanishlar iqtisodiyot sohalarining real ehtiyojlaridan kelib chiqmasdan amalga oshirilmoqda. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning tizimli tayyorlanmasligi afsuski oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda[2].

Oliy ta’limning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategiyalar nafaqat kadrlarni tayyorlash, balki innovatsion ta’lim berish usullari ham qamrab olishi lozim. Bu borada individual choralarni ta’minlaydigan o‘rta yoki uzoq muddatli qarorlar Ye.Dixtl, X.Xershgen tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda bayon etilgan[3].

E.Wagner va J.M. Ferreira tadqiqotlari oliy ta’lim muassasasida raqobatdosh ustunliklarni aniqlash jarayonini tushuntiruvchi konseptual modelni taklif qilingan. Unda ta’lim muassasalarini boshqaruvchi tashkilotlarning raqobatdosh ustunlikni yaratadigan ichki va tashqi omillarni aniqlangan. Ushbu tadqiqotning asosiy hissasi biznes strategiyasi sohasidagi uchta nazariy yondashuvni oliy ta’lim tizimiga moslashtirilgan Asosiy ilmiy yangiligi esa OTM hudud va manfaatdor tomonlar o‘rtasida kuchliroq aloqaga ega bo‘lgandagina raqobatda ustunlik qilishi aniqlangan[4].

Mazzarol, Tim, Geoffrey tadqiqotlarida xalqaro bozorlarda ta’lim xizmatlari korxonalari uchun barqaror raqobat ustunligini yaratish va qo‘llab-quvvatlash uchun muhim bo‘lgan omillar modeli taklif etiladi. U sanoat iqtisodiyoti va menejment nazariyasi tomonidan ishlab chiqilgan raqobatdosh ustunlik nazariyalarini, xizmatlar marketingiga oid adabiyotlarni o‘rganish asosida aniqlanadi. Model ta’limda strategik qarorlar qabul qilish muhitini va raqobatdosh ustunlikka yerishish uchun ideal natijani tushuntirishga qaratiladi. Globallashuv, reytinglar va davlatning OTMlar uchun moliyalashtirish xajmini kamayishi raqobat muhitini yaratadi. Bu esa ta’limda marketing strategiyalarini ishlab chiqishni rag‘batlantiradi. Natijada OTMlar marketing strategiyalarini ishlab chiqish uchun aniq bo‘lgan strategik yo‘nalishlarni tanlashi lozim. Raqobatda ustunlikka erishiga qaratilgan strategik yo‘nalishlar G.Miotto va boshqa mualliflar tadqiqolarida tizimlashtirilgan. Tadqiqotda davlat universitetlari uchun barqaror raqobatdosh ustunlikni qanday yaratishi mumkinligini aniqlashga qaratilib, unda Ispaniyaning 47 ta turli universitetlaridan 509 nafar professoro‘qituvchilarni o‘rganish orqali raqobatda ustunliklar aniqlangan[5].

Oliy ta’lim oliy ma’lumot - bu maktabni tugatgandan keyin uchinchi darajali ta’lim. U universitetlar va qo‘shimcha ta’lim kollejlarida bo‘lib o‘tadi va odatda bakalavriat va aspiranturani

o‘z ichiga oladi. oliy o‘quv yurtlari tomonidan xalq xo‘jaligi, fan va madaniyatning turli sohalari bo‘yicha oliy malakali mutaxassis bo‘lishni istagan va tegishli talablarni bajargan o‘rta maxsus yoki kasb-hunar ta’li-mini olgan kishilarga ilmiy-nazariy bilim berish hamda muayyan ko‘nikmalar shakllantirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.Oliy ta’lim jarayonida talabaga oliy ma’lumot beriladi. Oliy ma’lumot tushunchasi muayyan ixtisoslik bo‘yicha mutaxassis oldida turgan nazariy va amaliy muammolarni mustaqil hal qilish imkonini beradigan darajadagi bilim va malakalar yig‘indisini anglatadi. O‘zbekistonda Oliy ta’lim davlat qaramog‘idadir. Mamlakatda universitet Oliy ta’limi ustuvor maqomga ega. Bu tayyorlanayotgan mutaxassislarning jahon darajasida nazariy bilim va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lish imkonini beradi. Oliy ta’lim rasmiy davlat hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Bunda ta’limning davlat standartlari, o‘quv rejalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ularda o‘rganilishi majburiy va ixtiyoriy bo‘lgan fanlar, ixtisoslik kurelari, ularning o‘qitilish tartibi, miqdori, vaqti, nazariy va amaliy ta’lim o‘rtasidagi nisbat, nazariy mashg‘ulotlar, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari, reyting davri, ta’til, bakalavrlarning malakaviy bitiruv ishlari, magistrlarning dissertatsiyalarni yoqlash muddati asosiy pedago-gik hujjat — o‘quv rejasida belgilab beriladi. O‘quv rejasida o‘rganiladigan fanlar gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy, ixtisoslik fanlari va ta’limning qo‘shimcha turlari singari qismlarga bo‘linadi. O‘quv rejasidagi fanlar majburiy, maxsus, tanlov va fakultativ ko‘rinishlarida olib borilishi ko‘zda tutilgan.

Talabalarga ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma’lumot berish ta’limning sirtqi shakli orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta’lim tizimida bir qancha ixtisoslik bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Kunduzgi Oliy ta’limda o‘qish kurs tizimida olib boriladi: talaba barcha o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishi majburiy. Sirtqi Oliy ta’limda ta’limning fan-kurs tizimi joriy etilgan. Bunga ko‘ra, talaba imtihon sessiyasidagina mashg‘u-lotlarga kelishga majbur. Sirtqi Oliy ta’limning imtihon sessiyalari har bir o‘quv yurtining imkoniyatiga qarab, bir yilda ikki martadan ortiq bo‘lmagan yo‘sinda tashkil etiladi. Sirtqi Oliy ta’lim muddati kunduzgi o‘qishdagi tegishli mutaxassislikka qaraganda yarim yoki bir yil ortiq davom etadi[6].

Hududiy oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligi uchun bir nechta umumiy strategiyalar va modellarni takomillashtirish mumkin. Bu strategiyalar va modellar, oliy ta’lim muassasalarining o‘zining maqsadlari, o‘zini mustahkamlash va rivojlantirish uchun doimiy amalga oshirilishi kerak bo‘lgan jihatlarini o‘z ichiga oladi.

Quyidagi bir nechta umumiy istiqbol va mohiyatlar bu bo‘yicha mavjud:

1. Ilmiy-metodologik rivojlanish: Oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish uchun ilmiy va metodologik asoslar ustida tuzilgan strategiyalar qo‘llanish kerak. Yangi texnologiyalar va metodlar joriy etilishi, tadqiqotlarni rivojlantirish va yangi o‘qituvchi-talabalar bilan ishlash bo‘yicha dasturlar tuzilishi muhimdir.

2. Raqobatbardosh ta’lim tizimi:Oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda, ilmiy-sanoat ishlab chiqarish sohasidagi talabalar va soha mutaxassislarini tayyorlash uchun raqobatbardosh ta’lim tizimini rivojlantirish zarur. Bu tizimda amaliyotni yaxshi o‘rganish, sifatli malakali mutaxassislar tayyorlash, va soha bo‘yicha yangi texnologiyalarni o‘rganish kabi elementlar kiritilishi kerak.

3. Hamkorlik va hamjamiyat bilan ishlash: Oliy ta’lim muassasalari, sanoat, biznes, va davlat tashkilotlari bilan qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik qilish orqali raqobatbardoshligini oshirish uchun tashqi tajribaga ega bo‘lishi kerak. Soha bilan integratsiya, tashqi tashkilotlar bilan hamkorlik, ishlab chiqarish amaliyotlari va tadqiqotlarda ishtirok, yoshlarni biznes bilan bog‘lab ishlab chiqish bo‘yicha dasturlar tuzish, shuningdek, kasb-hunar o‘quv dasturlarini yangilash muhimdir.

4. Texnologiya va innovatsiyalar: Raqobatbardosh ta’lim muassasalari, yangi vaqt talablarini qondirish uchun texnologik rivojlanishni hamda innovatsiyalarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak. Virtual ta’lim vositalari, onlayn ma’lumotlar bazasi, simulyatsiya, shuningdek, xalqaro innovatsion tajriba almashish va uni tashqi hissa bilan ulashish bo‘yicha strategiyalar tuzish kerak.

5. O‘zlashtirish va yuritish boshqarmasi: Oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda, o‘zlashtirish va yuritish boshqarmasini mustahkamlash zarurdir. Bu boshqarma, kadrlarni yangilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etish, va

muassasalar o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu umumiy mohiyat va strategiyalar faqat bir necha mamlakatlar uchun noyob emas, balki har bir oliy ta’lim muassasasi uchun alohida holda ixtiyoriy ravishda tuzilgan bo‘lishi mumkin.

Ta’lim tizimi O‘zbekiston Respublikasida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. O‘zbekiston Respublikasida maktabda o‘qish majburiy hisoblanadi. Ta’lim tizimi yagona va uzluksiz bo‘lib, ta’lim turlariga ko‘ra quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim
- professional ta’lim
- oliy ta’lim
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
- maktabdan tashqari ta’lim.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi "Ta’lim to‘g‘risida" gi Qonun, shuningdek “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim umumta’lim o‘quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratilgan. Umumiy o‘rta ta’lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang‘ich ta’lim (I - IV sinflar)
- tayanch o‘rta ta’lim (V - IX sinflar)
- o‘rta ta’lim (X - XI sinflar)

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Tayanch o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o‘rta ta’lim doirasida 7- sinfdan so‘ng ta’lim oluvchilarda kasblar bo‘yicha birlamchi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha choralar amalga oshiriladi.

O‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar o‘zlashtirilishini, shuningdek ta’limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta’minlaydi.Professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish, shuningdek ta’lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Professional ta’lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo‘yicha quyidagi darajalarni o‘z ichiga oladi:

- Boshlang‘ich professional ta’lim
- O‘rta professional ta’lim
- O‘rta maxsus professional ta’lim

Boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumta’lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.O‘rta professional ta’lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim hamda boshlang‘ich professional ta’lim negizida amalga oshiriladi.

O‘rta maxsus professional ta’lim texnikumlarda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, boshlang‘ich professional va o‘rta professional ta’lim negizida davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi. Oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tashkilotlarida universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar amalga oshiriladi. Umumiy o‘rta o‘n bir yillik ta’lim, o‘rta maxsus to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik o‘rta maxsus ta’lim, boshlang‘ich professional ta’lim to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik boshlang‘ich professional ta’lim olgan shaxslar, shuningdek ushbu qonun kuchga kirguniga qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi to‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olgan shaxslar oliy ma’lumot olish huquqiga ega. Oliy ta’lim ikki bosqichga - bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Oliy ta’lim muassasalari orasida mahalliy darajada eng yuqori baholanganlari Toshkent moliya instituti va Toshkent xalqaro Vestminster Universitetidir[7].

Toshkent moliya instituti O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti tashabbusi bilan 1991-yilda tashkil etilgan. Keyinchalik 2002-yilda Vestminster universiteti Buyuk Britaniya va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “UMID” jamg‘armasi bilan hamkorlikda Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti tashkil etildi. Hozirda bu universitetlar O‘zbekistonda ham, Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham o‘z ta’lim sohasida eng yaxshi universitetlar sifatida e’tirof etilgan[8].

Oliy ta’limdan keyingi ta’limni oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli hisoblanadi[9].

Doktorantura fan doktori Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli hisoblanadi[10].

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli hisoblanadi.

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo‘nalishidagi maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.Maktabdan tashqari ta’lim bolalarga uzluksiz ta’lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste’dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma’naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan. Maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, “Barkamol avlod” bolalar maktablari, bolalar-o‘smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san’at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog‘lomlashtirish muassasalari kiradi.

Kadrlar fransuz tilidan olingan bo‘lib *cadre* shaxsiy tarkib degan manoni anglatadi va korxona, muassasa, firma, hissadorlik jamiyatlari, banklar, kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlarida malakali xodimlarning asosiy tarkibi.O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng kadrlar tayyorlash O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida amalga oshirilib, bir butun uzluksiz tizimda olib boriladi. Shaxsning kadr sifatida shakllanish bosqichiga tayyorgarlik umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylarda amalga oshiriladi. Kadrlarning asosiy kontingenti kasb-hunar kolleji, bakalavriat va magistratura orqali tayyorlanadi. Yuqori ilmiy salohiyatli, malakali Kadrlarni tayyorlash aspirantura, ordinatura, adyunktura, doktoranturada amalga oshiriladi. Mamlakatda

yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqsa. Shu maqsadda yangi o‘quv dargohlari ochildi, talabalarni rivojlangan xorijiy mamlakatlarda kasb egallashlariga keng yo‘l ochib berildi. So‘ngi yillar mobaynida oliy ta’lim va kadrlar tayyorlash sohalarini isloh qilishga oid yurtimizda bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Qabul qilingan ushbu hujjatlarda xorijiy oliy ta’lim muassasalarini tashkil etish uchun qator qulayliklar yaratildi. Natijada, yurtimizda xalqaro oliy ta’lim muassasalarini barpo etilishi davlat oliy ta’lim muassasalariga kadrlarni tayyorlashda yangi raqobat muhitini shakllantirdi, bu o‘z navbatida davlat oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish bo‘yicha yangi vazifalarni belgilab berdi[11].

O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma’naviy yangilanishini, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo‘shilishni ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda. Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo‘lib, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir. Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro‘yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ta’limni xalqarolashtirish: Mamlakatimiz ta’lim tizimi rivojiga, ayniqsa, uning dunyo standartlari darajasiga chiqishiga to‘siq bo‘layotgan omillar ham yo‘q emas. Bu kechiktirib bo‘lmaydigan jiddiy masalalar hisoblanadi.Birinchi masala davlat ta’lim standartlarining YUNESKO (Birlashgan Millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti – xalqaro hukumatlararo tashkilot) tomonidan qabul qilingan xalqaro ta’lim klassifikatsiyasi standartiga mos kelishi zarurati bilan bog‘liq. Vaholanki, bu xalqaro standartda ta’lim sohasining barcha bosqichlariga oid me’yorlar aslida qanday bo‘lishi, qay tarzda bo‘lsa, yuqori natijalarga erishish mumkinligi aniq belgilab berilgan. Bizning ta’lim tizimimizda bu me’yorlar ko‘zda tutilmagan. Holbuki, jahon tajribasiga ko‘ra, milliy ta’lim standartlari o‘z ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlariga ega bo‘lgan davlatlar tajribasiga emas, balki xalqaro ta’lim klassifikatsiyasi standartiga asoslanishi zarur. Shunda jahon standartlari talablariga javob bera oladigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoni oshadi. Dunyoning rivojlangan davlatlari qatori O‘zbekistonda ham yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida - to o‘tgan asrning oxirlarigacha 1976-yilda ishlab chiqilgan xalqaro ta’lim klassifikatsiyasi standartidan foydalanib kelindi. Biroq dunyo ta’lim tizimiga kiritilgan keyingi yangiliklar natijasida ushbu asosiy kontseptual hujjat ikki marta yangilandi[12].

Uchinchi masala shuki, bizda 1997-yili qabul qilingan ta’lim klassifikatoridan foydalanib uch yuzdan ortiq bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va olti yuzdan ortiq magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi. Bizningcha, bunday tor profilli mutaxassislarni tayyorlash tez o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob bermaydi. Qolaversa, bu iqtisodiy jihatdan davlat uchun manfaatli emas. Oliy o‘quv yurtini bitirgan tor profilli kadrlar o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ish topishi qiyin. Chunki mehnat bozorida keng profilli mutaxassislarga talab doimo yuqori. Vaholanki, jahon amaliyotida 2013-yilda ishlab chiqilgan ta’lim sohasi va mutaxassisliklar klassifikatsiyasining yangi xalqaro standarti ishlatilmoqda. Unga ko‘ra, saksonga yaqin ixtisoslashgan soha doirasida keng

profilli mutaxassis kadrlar tayyorlash ko‘zda tutilgan. Shu munosabat bilan yangi xalqaro standart asosida unga moslashgan milliy ta’lim sohasi va mutaxassisliklar klassifikatsiyamizni joriy etish hozir kadrlar tayyorlanayotgan mingga yaqin tor ixtisoslikdan qay birini tanlash kerakligini aniqlab beradi. Xalqaro standartga asosan har bir ta’lim darajasi uchun ta’lim dasturlari va ularga mos ravishda malaka talablari ishlab chiqilishi ta’lim sifatining oshishiga asos bo‘ladi. Ta’lim tizimini darajalarga ajratish esa uning uzluksizligi va ketma-ketligini ta’minlaydi. Bu tushuncha va tamoyillar xalqaro ta’lim klassifikatsiyasining asosiy vazifalaridan biridir.Ta’lim tizimimiz rivoji uchun muhim ikkinchi masala - bu mamlakatimizda xalqaro va Evropa malakalar standartiga moslashgan ta’lim malakalari klassifikatsiyasi ishlab chiqish zaruratidir. Mavjudlari eski ma’lumotlarga asoslangan bo‘lib, mamlakatimizdagi bugungi demokratik jamiyat amaliyotida foydalanib bo‘lmaydi. Yurtimizda yigirma yildan buyon oliy ta’lim bitiruvchilariga beriladigan diplomlarda kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini beradigan, xalqaro talablarga muvofiq tegishli malaka, ta’lim darajalari, xususan kasbi, ixtisosligi va boshqalar ko‘rsatilmayapti. Natijada diplomlarimiz rivojlangan davlatlar tomonidan tan olinmay kelinmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim malakalari klassifikatsiyasi joriy etish va undan foydalanish yangi ta’lim standartlarini ishlab chiqish hamda o‘quv yurtlarining ta’lim, kasbga oid dasturlarini tuzishda tayanch vazifasini o‘taydi. Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u davlatning iqtisodiy o‘sishiga hissa qo‘shadigan ta’lim tizimi bilan mehnat bozorini o‘zaro bog‘lovchi muhim vositadir.

Yana so‘nggi yillarda universitetimizda xalqarolashtirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, AQSHning Pitsburg davlat universiteti bilan hamkorlikda avtomobilsozlik ta’lim yo‘nalishida 2+2 ta’lim dasturi joriy etildi, shuningdek Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Vengriya, Polsha, Qozog‘iston va boshqa xorijiy hamkor universitetlar bilan talabalar almashinuv dasturlari yo‘lga qo‘yildi.Yoshlarimizga sifatli ta’lim berish va zamonaviy ta’lim yo‘nalishlarni ishlab chiqish bo‘yicha oliy ta’limda ko‘plab islohotlarni amalga oshirish davom ettirilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, hududiy oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish uchun markting startegiyalaridan foydalanish, kerakli SMM (Social Media Marketing - Ijtimoiy tarmoqlarda marketing) mutaxasislarni jalb qilish marketing strategiyalarini ishlab chiqish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Дихтль Е., Хершген Х. Практический маркетинг. -М.: Высшая школа.
2. Emerson Wagner Mainardes, João M. Ferreira. Creating a competitive advantage in Higher Education Institutions: proposal and test of a conceptual model.
3. Mazzarol, Tim, and Geoffrey Norman Soutar. “Sustainable Competitive Advantage for Educational Institutions: a Suggested Model.”
4. Pol Taf : The Years That Matter Most: How College Makes or Breaks Us 2019 – yil 10 – sentabr.
5. Emerging Directions in Doctoral Education 2016 – yil, 14 – bet
6. I.Tishabayeva, Z.Xatamova, N.Ibragimov, O.Xamdamova. (2023). O‘ZBEKISTON TARIXI FANLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MASALALARI. SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION, 1(7). Retrieved from http://woconferences.com/index.php/SIIME/article/view/690
7. Xamdamova O.M., Xatamova Z.N., Ibragimov N., Tishabaeva I. (2023). O‘ZBEKISTON TA’LIMIDA UZVIY BOG‘LIQLIK VA RIVOJLANTIRISH USULLARI. SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION, 1(7). Retrieved from http://woconferences.com/index.php/SIIME/article/view/689
8. Ибрагимов, Н. (2023). РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В РЕГИОНАЛЬНЫХ ВУЗАХ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ. Conference on Digital Innovation : "Modern Problems and Solutions". извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/codimpas/article/view/1091

9. Ибрагимов, Н. (2023). РОЛЬ СТРАТЕГИЧЕСКОГО ПЛАНИРОВАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНАЛЬНЫХ ВУЗОВ. Conference on Digital Innovation : "Modern Problems and Solutions". извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/codimpas/article/view/1116
10. Ибрагимов, Н. (2023). СТРАТЕГИИ МАРКЕТИНГА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНАЛЬНЫХ ВУЗОВ. Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions". извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/codimpas/article/view/1069
11. Ибрагимов, Н. (2023). УПРАВЛЕНИЕ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНАЛЬНЫХ ВУЗОВ. Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions". извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/codimpas/article/view/1068
12. Ибрагимов Наврӯзбек Кимсанбаевич, Рустамов Илхомиддин Абдуқодирович, Хатамова Зумрадхон Назиржоновна, Бурхонов Илёсхон Мухиддинович. (2023). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИ РАҚОБАТДОШЛИГИНИ БОШҚАРИШДА БИТИРУВЧИЛАРНИ ИШ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАСИ. SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION, 1(7). Retrieved from http://woconferences.com/index.php/SIIME/article/view/688
13. Ibragimov, N., & Kimsanbayev, A. (2023). DAVLATGA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI ZARURLIGI: RAQAMLASHTIRISH VA TAHDIDLAR. Research and Implementation. извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/796
14. Ibragimov N., Nabiyev I., & Abduqodirov A. (2023). IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH VA UNI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISH. Research and Implementation. извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/793
15. Ибрагимов, Н. (2023). РОЛЬ ИННОВАЦИЙ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНАЛЬНЫХ ВУЗОВ. Conference on Digital Innovation : "Modern Problems and Solutions". извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/codimpas/article/view/1067
16. Ibragimov Navro‘zbek Kimsanbaevich (2023). THE ISSUE OF EMPLOYMENT FOR GRADUATES IN IMPROVING THE MECHANISM OF COMPETITIVENESS OF REGIONAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS https://doi.org/10.5281/zenodo.8415277
17. Ibragimov, N. (2023). IMPROVING THE MECHANISMS OF MANAGING THE COMPETITIVENESS OF REGIONAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (Т. 3, Выпуск 11, сс. 5–10). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.10074074
18. Ибрагимов, Н. (2023). СТРАТЕГИИ МАРКЕТИНГА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНАЛЬНЫХ ВУЗОВ. Conference on Digital Innovation : "Modern Problems and Solutions". извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/codimpas/article/view/1069
19. Ибрагимов, Н. (2023). ИНТЕГРАЦИЯ ИНФОРМАТИКИ В УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС ВУЗА: МЕТОДЫ И ПОДХОДЫ. Conference on Digital Innovation : "Modern Problems and Solutions". извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/codimpas/article/view/1103

**UDK:338.462**

**AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARIDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY XUSUSIYATLARI**

**ФИНАНСОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАЗВИТИЯ ВНУТРЕННЕГО ТУРИЗМА В СОЕДИНЁННЫХ ШТАТАХ АМЕРИКИ**

**FINANCIAL CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF DOMESTIC TOURISM IN THE UNITED STATES OF AMERICA**

**Ravshanov To‘yli Gulmurodovich**
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi**
**tiu_1990tuyli@mail.ru**

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amerika Qo‘shma Shtatlarida ichki turizmni qo‘llab-quvvatlash uchun hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan tashkiliy mexanizmlar o‘rganilgan. Shuningdek, Amerika Qo‘shma Shtatlarida ushbu tarmoqni rivojlantirish uchun xususiy sektor tomonidan berilayotgan kreditlar tizimi tadbiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Covid-19” pandemiyasi, turizm, kreditlar, grantlar, investitsiyalar, inqiroz.

This article examines the organizational mechanisms implemented by the government to support domestic tourism in the United States of America. Also, in the United States of America, a system of loans provided by the private sector has been implemented for the development of this industry.

**Key words:** “Covid-19” pandemic, tourism, credits, grants, investments, crisis.

В данной статье рассмотрено организационные механизмы, реализуемые правительством для поддержки внутреннего туризма в Соединённых Штатах Америки. Также в Соединённых Штатах Америки для развития этой отрасли реализована система кредитов, предоставляемых частным сектором.

**Ключевые слова:** Пандемия «Covid-19», туризм, кредиты, гранты, инвестиции, кризис.

“Covid-19 ” pandemiyasi barcha turizm sohasi rivojlangan mamlakatlarga shu narsani ko‘rsatdiki, bunday inqirozlar davrida mavjud tashkilotlarni hamda ularda faoliyat olib borayotgan ish o‘rinlarini saqlash qolish muhim vazifalardan biri hisoblaniladi.

Dunyoning birinchi iqtisodiyoti hisoblangan Amerika Qo‘shma Shtatlari hukumati tomonidan ham inqiroz davrida ish o‘rinlarini saqlab qolish hamda ichki turizmni rivojlantirish borasida moliyaviy ko‘maklar hamda qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlar berilib kelinmoqda.

Ichki turizm rivojlantirishda nafaqat hukumat tomonidan subsidiyalar va grantlar berilib kelinmoqda, shuningdek xususiy sektor vakillari tomonidan ham kreditlar berish tizimi joriy qilingan.

Iqtisodchi olimlar Gebremedin hamda Frayson fikricha, inqirozlar davrida turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashda marketing, investitsiyalar hamda moliyaviy ko‘maklar muhimligi hamda siyosatchilar turizm infratuzilmasini yaxshilash orqali iqtisodiy o‘sish va turizmni rivojlantirish uchun mablag‘larni yo‘naltirishga e’tibor qaratishlari kerakligi aytib o‘tilgan.

Shuningdek, Chauxan va Mariseti tomonidan xususiy sektor investorlarining o‘z investitsiyalarini turizm va unga yondosh sohalarga kiritishi hamda ushbu investitsiyalarning biznes siklining rivojlanishiga turtki bo‘lishi hamda iqtisodiy o‘sishning jadallashishiga sabab bo‘lishini ta’kidlaganlar [8].

A.N.Norcheyev o‘zining “O‘zbekistonda Covid-19 pandemiyasining turizmga ta’sirini yumshatish yo‘llari” nomli maqolasida pandemiyadan keyingi vaqtda turizmni tezda oyoqqa turg‘azib olish, aviachipta narxlarini pasaytirish, mehmonxonalar va restoranlarda xizmat sifatini oshirish, ananaviy turistik markazlarimiz bo‘lgan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xivadagi mehmonxonalarni modernizasiya qilish emas, balki turistik resurslarga boy bo‘lgan Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax va Farg‘ona vodiysida kichik shinam 3-4 yulduzli mehmonxonalarni qurishni rag‘batlantirish kerakligi bo‘yicha ilmiy mulohazalar keltirgan [7].

Analitik va empirik tadqiqot metodologik maqolaning asosi hisoblanadi. Ishning asosiy natijalari keyingi yillarda AQShda “Covid-19” pandemiyasi sharoitida turizm sohasini rivojlantirish metodologiyasi qo‘llanilib, ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan olimlar hamda xorijiy mutaxassislarning fikrlariga tayangan holda qiyoslash, empirik tadqiqot kabi usullar orqali “Covid-19” ta’siri ostida sayohatni tashkil etish, pandemiyadan keyingi o‘sish va turizmning jonlanishi, AQShda turizm modeli va tendensiyalarini belgilash usullari taklif etilgan. Pandemiyadan keyingi davrda mamlakatimizda turizmni jonlantirishga, sohani yanada rivojlantirishga oid aniq tavsiyalar berilgan

2022-yilda AQShda ichki sayohat xarajatlari qariyb 920 milliard AQSh dollariga yetdi, bu o‘tgan yilgi jami 868 milliard AQSh dollariga ko‘p hisoblaniladi. Ichki sayohat xarajatlarining o‘sishi, 2022-yil oktyabridan 2023-yil iyuligacha bo‘lgan amerikalik katta yoshlilarning mamlakat ichkarisida sayohat qilgan ulushi ham oshishi bilan baholanmoqdqa.

O‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlarga ko‘ra, 2023-yil iyul oyida AQShning katta yoshlilarining 39 foizi so‘nggi bir oy ichida mamlakat ichkarisida sayohat qilganliklarini aytishdi.

Bundan tashqari, amerikalik kattalarning qariyb 80 foizi kelgusi 12 oy ichida dam olish uchun qandaydir ichki sayohatni rejalashtirganliklarini aytishdi.




**1-rasm. 2019-2022-yillarda AQShda ichki sayohat xarajatlari[11]**

Yuqorida keltirib o‘tilgan rasmdan ham ko‘rish mumkinki, 2022-yilda AQShda ichki sayohat xarajatlari 918 milliard AQSh dollariga yetgan. 2020-yildan buyon bu ko‘rsatkich o‘sdi, u yerda koronavirus (Covid-19) pandemiyasi sabab sayohatga qo‘yilgan cheklovlar natijasida 682 milliard AQSh dollariga tushgan. Aytish joizki, 2022-yilgi xarajatlar hali ham pandemiyadan oldingi darajaga yetmagan.

Ushbu sayohatlarni amalga oshirish uchun mahalliy turistlar uchun turli xil turistlik kartalar mahalliy turoperatorlar va turagentlar tomonidan taqdim etilib kelinmoqda.

Ushbu turistik kartalar tranzaksiya to‘lovlari hamda muddatli kredit mablag‘larini olish uchun qulay hisoblaniladi.

Bugungi kunda, AQShda xalqaro va mahalliy sayohatlarni amalga oshirish uchun quyidagi kredit kartalar turistlarga taqdim etilib kelinmoqda.

“Chase Sapphire Preferred” kartasi - xalqaro sayohatlar uchun eng qulay sayohat kartasi hisoblanadi. Chunki ushbu karta chet elga sayohat qilishda sizga kerak bo‘ladigan imtiyozlarga oid barcha qutilarni taqdim etilishi bilan ajralib turadi.

Karta muhim sayohat himoyasini ta’minlaydi va o‘rtacha $95 yillik to‘lov evaziga qimmatli mukofotlarni olish imkoniyatini beradi. Karta egalari “Ultimate Rewards” sayohat portali orqali xarid qilingan sayohat uchun har bir dollar uchun 5 ball va boshqa barcha sayohat xaridlarida 2 ball

oladi. Karta, shuningdek, chet elga sayohat qilishda juda muhim bo‘lgan qimmatli sayohat sug‘urtasi ham mijozlarga taqdim etadi.

“Sapphire Preferred” karta egalari sayohatni bekor qilish/to‘xtash sug‘urtasi, avtomobil ijarasining asosiy sug‘urtasi (AQSh va chet elda), kuniga 100 dollargacha yukni kechiktirish sug‘urtasi (maksimal besh kun) va sayohatni kechiktirish uchun 500 dollargacha olishadi. Ushbu himoyalar sayohat kechikishlari yoki favqulodda vaziyatlarda foydali hisoblaniladi.

**1-jadval**

**“Sapphire Preferred” kartasi bo‘yicha foiz stavkalari va to‘lov foizlari[12]**

| | |
|---|---|
| Yillik foiz stavkalari | kredit layoqati va hisob ochish vaqtida aniqlangan boshqa omillar asosidagi yillik stavkalar **21,24%** dan **29,24%** gacha |
| Naqd mablag‘lar uchun yillik foiz stavkalari | **29,99%** yillik foiz stavkasi bozorning asosiy stavkasi bo‘yicha taqdim etiladi |
| Vaqt o‘tishi bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lov: yillik stavkasi bo‘yicha jarima va uni to‘lash tartibi | **29,99%** yillik foiz stavkasi bozorning asosiy stavkasi bo‘yicha taqdim etiladi.<br>yillik stavkasi bo‘yicha jarima kamida 6 oy davomida amal qiladi. Jarima yillik stavkasi qo‘llanilgandan keyin har 6 oyda hisobingizni ko‘rib chiqiladi. Jarima yillik stavkasi o‘z vaqtida to‘lovlarni amalga oshirguningizcha qo‘llanilishida davom etadi va 6 oy davomida to‘lovlar qaytarilmaydi. |
| Foizlarni to‘lash | to‘lov muddati har bir hisob-kitob davri tugaganidan keyin kamida 25 kun o‘tgandan so‘ng amalga oshirishni boshlaydi |
| Reja to‘lovi (belgilangan moliyaviy to‘lov) | Har bir xarid summasining **1,33**% gacha bo‘lgan oylik to‘lov rejaning davomiyligi, xarid summasiga qo‘llanilishi mumkin. |
| **To‘lovlar** | |
| Yillik a’zolik badali uchun to‘lov | **$695** |
| Tranzaksiya to‘lovlari<br>-naqd pul mablag‘lari<br>- xorijiy tranzaksiya | Har bir naqd avans miqdorining **$10** yoki **5%**<br>**Mavjud emas** |
| Jarima to‘lovlari<br>- Kechikgan to‘lov uchun;<br>- Qaytarilgan to‘lov uchun | <br>**40** AQSh dollargacha**;**<br>**40** AQSh dollargacha**;** |

Ushbu turistik kartalarning yana bir o‘ziga xos xususiyatlaridan biri maxsus xizmatlardan foydalangangiz uchun mijozlarga qo‘shimcha ballar berish hamda to‘plagan ballar uchun qo‘shimcha moliyalashtirish imkoniyatining mavjudligi hisoblaniladi.

Xususan, mehmonxona xizmatlaridan foydalanganlik uchun 5 X bali turistlar tomonidan yig‘ilsa, ushbu mijozning turistik kartalariga qo‘shimcha 50 AQSh dollari to‘lab beriladi.

Amerika express korxonasining “Platinum” kartasi - aviakompaniya to‘lovlari, mehmonxonalarni bron qilish va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish kabi turistik xizmatlarni amalga oshirish nazarda tutadi hamda sayohat dasturlari uchun yillik 1500 dollardan ortiq hisob-kitob kreditlarini taqdim etadi.

“Platinum” kartasi sayohatni kafolatlash, uni kechiktirish va bekor qilish/to‘xtash sug‘urtasi bilan ta’minlash kabi xizmatlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Umuman olganda, “Amerika express” korxonasi AQShda eng ko‘p sayohatlarni amalga oshirishga yordam beruvchi tashkilotlardan biri hisoblaniladi.

Odatda, sayohatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar “American Express Travel” korxonasi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu korxonaga 1956-yilda asos solingan.

Hozirgi kunda ushbu tashkilot dunyodagi eng mashhur tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Tashkilot tomonidan taqdim etilgan statistik ma’lumnotlarga ko‘ra, 2022-yilda sayohat va ko‘ngil ochar tadbirlarni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarda 25 foizga ortgan.

Xizmat to‘lovlari va boshqa daromadlar, birinchi navbatda, karta a’zosi o‘zaro valyuta xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan valyuta bilan bog‘liq daromadlar, sayohat komissiyalari va iste’molchi sayohat biznesdan olinadigan yig‘imlar hamda qonunbuzarliklar uchun to‘lovlarning o‘sishi hisobiga oshgan.

**2-jadval**

**“Platinum” kartasi bo‘yicha foiz stavkalari va to‘lov foizlari[12]**

| | |
|---|---|
| Tavsiya etiladigan kredit miqdori | **670-850** AQSh dollari |
| Yillik foiz stavkalari | kredit layoqati va hisob ochish vaqtida aniqlangan boshqa omillar asosidagi yillik stavkalar **21,24%** dan **29,24%** gacha |
| Naqd mablag‘lar uchun yillik foiz stavkalari | **29,99%** yillik foiz stavkasi bozorning asosiy stavkasi bo‘yicha taqdim etiladi |
| Vaqt o‘tishi bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lov: yillik stavkasi bo‘yicha jarima va uni to‘lash tartibi | **29,99%** yillik foiz stavkasi bozorning asosiy stavkasi bo‘yicha taqdim etiladi.<br>yillik stavkasi bo‘yicha jarima kamida 6 oy davomida amal qiladi. Jarima yillik stavkasi qo‘llanilgandan keyin har 6 oyda hisobingizni ko‘rib chiqiladi. Jarima yillik stavkasi o‘z vaqtida to‘lovlarni amalga oshirguningizcha qo‘llanilishida davom etadi va 6 oy davomida to‘lovlar qaytarilmaydi**.** |
| Foizlarni to‘lash | to‘lov muddati har bir hisob-kitob davri tugaganidan keyin kamida 25 kun o‘tgandan so‘ng amalga oshirishni boshlaydi |
| Reja to‘lovi (belgilangan moliyaviy to‘lov) | Har bir xarid summasining **1,33**% gacha bo‘lgan oylik to‘lov rejaning davomiyligi, xarid summasiga qo‘llanilishi mumkin. |
| **To‘lovlar** | |
| Yillik a’zolik badali uchun to‘lov | **$695** |
| Tranzaksiya to‘lovlari<br>-naqd pul mablag‘lari<br>- xorijiy tranzaksiya | Har bir naqd avans miqdorining **$10** yoki **5%**<br>**Mavjud emas** |
| Jarima to‘lovlari<br>- Kechikgan to‘lov uchun;<br>- Qaytarilgan to‘lov uchun | **40** AQSh dollargacha**;**<br>**40** AQSh dollargacha**;** |

Shu o‘rinda aytish mumkinki, 2022-yilda chegirmali daromadlar 30,739 mln. AQShga, sof karta to‘lovlari 6,07 mln. AQShga, xizmat ko‘rsatish to‘lovlari va boshqa daromadlar 4,521 mln. AQShga, sof foiz daromadi 9,895 mln. AQShga ko‘paygan.

“American Express Travel” korxonasi faoliyatini har doim dunyoga mashhur bo‘lgan reyting agentliklari tomonidan baholanib kelinmoqda. Ushbu baholashda tashkilotning reytingi yuqoriligicha qolmoqda.

Bundan tashqari, AQSh hukumati tomonidan turizm va unga yondosh bo‘lgan sohalarni pandemiyadan so‘ng qo‘llab-quvvatlash maqsadida, “Koronavirusga qarshi yordam fondi”dan 150,0 mlrd. AQSh dollarini ajratishni belgilab berdi.

Ushbu mablag‘lar federal o‘lkalarga, mahalliy hokimiyatlarga hamda boshqa hukumat tashkilotlariga ularning tashabbuslariga asosan berilishi nazarda tutildi.

AQSh G‘aznachilik departamenti tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu mablag‘larni federal va mahalliy hukumatlarga o‘z xohishlaricha foydalanish shaklida ajratilishi belgilandi.

Biroq, ushbu sarf-xarajatlar quyidagi talablar asosida ishlatilishi belgilab berildi. Xususan:

I. Xarajatlar sog‘liqni saqlash bo‘yicha favqulodda vaziyat yoki Covid-19ning ikkilamchi oqibatlari, jumladan, pandemiya tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy notinchliklarga bartaraf etish doirasidagi zaruriy xarajatlar uchun ajratilishi lozim;

II. Davlat yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining 2020-yil 27-mart holatiga ko‘ra oxirgi tasdiqlangan budjetida xarajatlar hisobga olinmasligi kerak, agar ilgari hisobga olingan xarajatlar budjetdagi mablag‘lardan kutilayotgan foydalanishdan “aniq farq qiladigan” bo‘lmasligi lozim;

III. Sarf-xarajatlar 2020-yil 1-martidan 2020-yil 30-dekabrga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan bo‘lishi zarur hisoblaniladi.

AQSh G‘aznachilik departamenti tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, turizm sanoatini qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan grantlar quyidagi maqsadlarni nazarda tutishi belgilangan. Jumladan:

a. Kichik biznes subyektlariga pandemiya bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarini qoplash uchun ajratilgan grantlar;

b. Federal shtatlar hamda mahalliy hukumatlarning bino va inshootlari va turizm sanoatini reklama qilish uchun Destinatsiya marketing tashkilotlariga ajratilgan grantlar;

Umuman olganda, Destinatsiya marketing tashkilotlari mazkur olingan mablag‘larni jamoat joylarida xavfsiz turizm tajribasini ommaviylashtirish hamda o‘zlarining bizneslarini qayta tiklash borasidagi ishlarni amalga oshirish uchun ishlatilishini ko‘zda tutgan.

Bundan tashqari, Destinatsiya marketing tashkilotlariga ushbu mabalg‘larni pandemiya bilan bog‘liq bo‘lmagan uzoq muddatli hamda ana’naviy marketing kampaniyalarini amalga oshirmaslik so‘ralgan.

AQSh hukumati tomonidan pandemiya sharoitida barcha sohalarni qo‘llab-quvvatlash hamda moliyalashtirish maqsadida, “Sohalarni rivojlanish bloklari grantlari” qonuni qabul qilingan.

Ushbu qonun doirasida “Iqtisodiy rivojlantirish administratsiyasiga” 1,5 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lar koronavirusning salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun grantlar ajratilgan.

Grant miqdori loyiha yoki faoliyatning taxminiy qiymatining 80 foizigacha berilishi hamda ariza topshirilgan kundan 60 kuni ichida murojaatlar ko‘rib chiqilishi hamda ajratilishi belgilandi.

Seatl hududiy ofisiga 266,0 mln.dollar, Filadelfiya hududiy ofisiga 259,0 mln.dollar, Denver hududiy ofisiga 193,0 mln.dollar, Chikago hududiy ofisiga 225,0 mln.dollar, Austin hududiy ofisiga 236,0 mln.dollar hamda Atlanta hududiy ofisiga 248,0 mln.dollar miqdoridagi mablag‘lar berilgan.

“Sohalarni rivojlanish bloklari grantlari” qonuniga muvofiq pandemiya oqibatlarini yumshatish maqsadida, AQSh hukumati tomonidan 10,0 AQSh dollari miqdoridagi qo‘shimcha grant mablag‘lari ajratilishi belgilandi.

Mazkur grantlar quyidagi maqsadlarni amalga oshirgan transport sohasi vakillariga ajratilishi belgilangan. Xususan:

-xususiy va davlat mulki hisoblangan aeroportlarni qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar;

Moliyalashtirishning kamida 7,4 milliard dollari quyidagi formula bo‘yicha taqsimlanadi:

- 50 foizgacha bo‘lgan mablag‘lar 2018-yilgacha tashkil etilgan savdo aeroportlariga ajratiladi;
- 50 foizgacha bo‘lgan mablag‘lar 2018-yilda xizmat ko‘rsatish va kapitalning cheklanmagan zahiralarini shakllantirish yordam berish uchun katta qarzdorligi mavjud bo‘lgan aeroportlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirishi belgilab berilgan.

Bundan tashqari, umumiy aviatsiya aeroportlariga moliyaviy yordam ko‘rsatish maqsadida, AQSh hukumati tomonidan uchun kamida 100 million AQSh dollari ajratilishi ma’lum qilindi.

2018-yilning o‘zida AQShda faoliyat olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari uchun ushbu mamlakatning turizm brendini targ‘ibot qilish uchun 100,0 mln.AQSh dollari miqdorida mablag‘lar ajratilgan.

Shu bilan birga, pandemiya davrida AQSh hukumati tomonidan sayohat va turizm sohasida faoliyat olib borayotgan tadirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qancha fiskal rag‘batlantiruvchi paketlarni turli xil tashkioltlarga taqdim etgan.

Bundan tashqari, AQSh yo‘lovchi tashish aviakompaniyalariga hukumat tomonidan 50,0 mrld.AQSh dollari miqdoridagi grantlar hamda kreditlar taqdim etilgan.

Federal hukumat tomonidan shuningdek, kichik mehmonxona egalariga oylik ish haqining 250% miqdoridagi “AQSh Kichik biznes ma’muriyati kreditlari ko‘rinishidagi yordam ko‘rsatilgan.

Sayohat bo‘yicha maslahat beruvchi kompaniyalari, Destinatsiya marketing tashkilotlari hamda onlayn sayohat tashkilotlariga jami bo‘lib 25,0 mrld.AQSh dollari miqdoridagi yordamlar ko‘rsatish taklif etilgan.

Barak Obama hukumati davomida barqaror loyihalarni amalga oshirish doirasida 200,0 mln. AQSh dollari miqdoridagi grantlar ajratilishi belgilangan. So‘ngi yillarda hukumat jamg‘armalari tomonidan barqaror loyihalarni amalga oshirish uchun “Smart Grid” tashabbusi doirasida 100 tadan ortiq grantlar taqdim etilgan.

Ushbu loyihalarni moliyalashtirish uchun 3,4 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lar ajratilgan. Shu bilan birga, xususiy sektordan mazkur loyihalarni amalga oshirishish uchun 8,0 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lar jalb etish ishlari amalga oshirilgan.

Bundan tashqari, Bayden hukumati davrida 2030-yilgacha eko-friendli loyihalarni amalga oshirish uchun “Toza energiya rejasi” (Clean Energy Plan) qabul qilingan.

Bayden hukumati tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblarga ko‘ra, ushbu rejasini amalga oshirish uchun jami 320,0 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lar zarurligi ta’kidlangan.

Hukumat va jamoa agentliklaridan tashqari, xususiy savdo tashkilotlari tomonidan ham mamlakatda barqaror turizmni targ‘ibot qilish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Misol uchun, ushbu loyihalarning amalga oshirish qiymati 30,7 trln. AQSh dollari etib belgilangan bo‘lsada, shu kunga qadar 502,0 mlrd.AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalar kiritilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, pandemiya davrida Amerika Qo‘shma Shtatlari tajribasidan kelib chiqqan holda quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- ichki turizm rivojlantirish maqsadida bank kreditlarni imtiyozli shartlar asosida aholiga berish;
- turizm sohasiga xalqaro moliyaviy institutlar grant mablag‘larini jalb etish bo‘yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqish;
- hududlarning turistik salohiyatlaridan kelib chiqqan holda moliyaviy ko‘maklar ajratish tizimi tashkil qilish;
- turizm sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini o‘rganish maqsadida, xalqaro auditor tashkilotlarini jalb etish maqsadga muvofiq hisoblaniladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, turizm va unga yondosh sohalar har qanday salbiy ta’sirlarga beriluvchanligi va bunday inqirozlar davrida hukumatlar tomonidan ushbu tarmoqlardagi ish o‘rinlarini saqlab qolish uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda ko‘maklar berib borilishligi lozim hisoblaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-549-son. 2019-yil 18-iyul.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021-yil 9-fevral, PF-6165-son) Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-maydagi “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6002-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 64 b.
5. A.Xudoyorov “O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari” monografiyasi 2021-y. Toshkent.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 100-son qarori.
7. Norcheye A.N. “O‘zbekistonda COVID-19 pandemiyasining turizmga ta’sirini yumshatish yo‘llari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil 346-351 Б.
8. Chauhan va Marisetti. Sustainable Finance of the Tourism Industry in the U.S.A. 2022-y.
9. www.uzbektourism.uz
10. www.kun.uz.
11. https://www.statista.com/statistics/207075/domestic-travel-spending-in-the-us-since-2002/
12. https://www.americanexpress.com/us/credit-cards/card-application/apply/prospect/terms/platinum-card/26129-10-0#offer-terms

**УДК:332.2**

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОИЗВОДСТВА И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНО-ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ

## OROL VILOYATI SHARTLARIDA YER VA SUV RESURSLARINI ISHLAB CHIQARISH VA FOYDALANISH SAMARALIGI.

## EFFICIENCY OF PRODUCTION AND USE OF LAND AND WATER RESOURCES IN THE ARAL REGION CONDITIONS

**Убайдуллаев К.**
**доктор экономических наук, профессор.**
**Халимова Д.О.**
**соискатель Каракалпакского государственного университета**

**Аннотация**

В статье рассматривается современное состояние используемых земельных, водных ресурсов в Республике Каракалпакстан, зависимость урожайности сельхозкультур от: климатических условии; качества почв; обеспеченности оросительной сети; рационального использования водных ресурсов. В заключении даны рекомендатsiи по улучшению их использования для повышения эффективности сельскохозяйственного производства.

**Ключевые слова:** земельные и водные ресурсы; качество почвы; эффективность; урожайность; оросительный сеть; мелиоративные объекты.

Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida foydalanilayotgan yer va suv resurslarining hozirgi holati, qishloq xo‘jaligi hosildorligining quyidagilarga bog‘liqligi: iqlim sharoiti; tuproq sifati; sug‘orish tarmog‘ini ta’minlash; suv resurslaridan oqilona foydalanish. Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishda ulardan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berildi

**Kalit so‘zlar:** er va suv resurslari; tuproq sifati; samaradorlik; mahsuldorlik; sug‘orish tarmog‘i; meliorativ inshootlar.

The article discusses the current state of land and water resources used in the Republic of Karakalpakstan, the dependence of agricultural yields on: climatic conditions; soil quality; provision of irrigation network; rational use of water resources. In conclusion, recommendations are developed to improve their use to increase the efficiency of agricultural production.

**Key words:** land and water resources; soil quality; efficiency; yieldness; irrigation network; reclamation facilities.

Увеличение объема сельскохозяйственной продукции и улучшение ее качества на основе повышения эффективности использования земли, как основного средства производства, является важнейшей задачей аграрного сектора.

Объем и качество продукции, производимой в каждом сельскохозяйственном предприятии и тумане, республике зависит от размера и качества земельных угодий. Затраты на единицу продукции труда и средств, эффективность использования трудовых и материальных ресурсов производства в основном зависят от качества земли, так как, качество земли и обусловленное им различие в эффективности производства, необходимо учитывать при решении многих проблем в сельском хозяйстве. Постоянные усилия по со-хранению и рациональному использованию земельных ресурсов, как элемента natsionального богатства, а также повышение плодородия почвы урожайности сельскохозяйственных культур имеет первоочередное значение для обеспечения

продовольственными товарами региона, страны. Повышение урожайности равнозначно росту производительности труда и является наиболее реальным критерием развития в земледелии. От урожайности сельскохозяйственных культур в значительной мере зависит эффективность производства. Она также определяет состояние кормовой базы и таким образом влияет на экономику отраслей животноводства. Показатели урожайности синтезируются в производительности труда в растениеводстве, себестоимости, в производстве продукции земледелия, в том числе и кормов. Уровень себестоимости кормов, в свою очередь, влияет на себестоимость животноводческой продукции. Урожайность (через себестоимость) отражается и на рентабельности производства сельскохозяйственной продукции. Способность почвы снабжать растения элементами питания, следовательно, и обеспечивать определенный уровень урожайности зависит от наличия этих элементов в почве и от условий, которые создаются для их усвоения растениями. Наличие питательных веществ в почве может регулироваться внесением удобрений, а, усвояемость же растениями этих веществ определяется, прежде всего, физическими и агробиологическими свойствами и признаками почвы. Известно, что урожайность сельскохозяйственных культур зависит и от климата (тепло, влага, свет). Агроклиматические условия оказывают непосредственное влияние на рост и развитие растений, а также на усвояемость растениями питательных веществ. Так, например, только при достаточной температуре и влажности почв может снабжать растения доступными формами элементов питания, а растения могут потреблять эти вещества. Тепло, влага и светообеспеченность растения зависят не только от уровня этих климатических факторов, но и от свойств самой почвы, а также от состояния территории участков. Так, влагообеспеченность и теплообеспеченность растений в одних и тех же агроклиматических условиях зависит от структуры почвы, и ее влагоемкости, величины запаса влаги, цвета почвы и других территориальных признаков.

Из-за Аральского кризиса, за последние годы территория Республики Каракалпакстан усугублялась неблагоприятными экологическими условиями, и эти факторы резко повлияли на урожайность сельскохозяйственных культур. Опыт подтверждает, что от качества земли зависит себестоимость единицы материально-вещественных средств, производимых и используемых в хозяйстве: семян, удобрений и т.д. Различия в объеме, структуре и способов выполнения работ, затратой труда на единицу работ, в объеме, структуре и стоимости единицы материально-вещественных затрат в итоге приводят к неодинаковым затратам на 1 га посевов каждой культуры труда доходности и материально-вещественных средств. На землях лучшего качества выше отдача дополнительных вложений, сельскохозяйственное производство, как правило, на них ведется более интенсивно. Таким образом, различия, обусловленные качеством земли, в уровнях урожайности, ценах, затратах на единицу площади труда и материально-вещественных средств, структуре посевов, структуре сельскохозяйственных угодий и др., в свою очередь, определяют различия по всем другим показателям, характеризующим продуктивность земли и экономическую эффективность сельскохозяйственного производства.

Данные и анализ показывает о значительном влиянии качества почв на урожайность и эффективность производства. Урожайность основных культур в группах хозяйств Республики Каракалпакстан с относительно более плодородными разностями почв на 30-40 % выше, чем в хозяйствах с менее плодородными разностями почв (табл. 1.).

Из таблицы 1. видно, что качество земли оказывает существенное влияние на урожайность основных сельскохозяйственных культур, а отсюда и на общий выход валовой продукции растениеводства с единицы земельной площади. Эффективность учтенных затрат живого и овеществленного труда в стоимостном выражении растет с повышением плодородия пашни во II группе по сравнению с I на 8,2 и в III группе - на 19,2%. В III группе хозяйств с наиболее интенсивным использованием земли, выхода валовой продукции больше, а также затраты труда на 9%, издержек производства больше на 7% по сравнению с I группой хозяйств. Следовательно, имеются определенные резервы по увеличению объемов производства продукции и повышению эффективности.

**Таблица 1**

**Влияние качества пахотных орошаемых земель на экономическую эффективность производства продукции отдельных культур Республики Каракалпакстан (в %, в среднем за 2018-2022 годы)**

| Показатели | Группы хозяйств по качеству пашни, балл бонитета | | |
|---|---|---|---|
| | I | II | III |
| Число хозяйств | 18 | 15 | 12 |
| Качество пашни, баллов | 40 | 45 | 50 |
| Урожайность: хлопчатника | 100 | 108,4 | 118,6 |
| Пшеницы озимой | 100 | 109,3 | 120,8 |
| Производство валовой продукции растениеводства в расчете: на 1 га посевов | 100 | 103,2 | 119,2 |
| На 1 чел.ч. | 100 | 105 | 109 |
| На 100 сум издержек производства | 100 | 104 | 107 |
| Оплата 1 чел.дня в растениеводстве | 100 | 112,0 | 121,4 |

Общеизвестно, что эффективность орошаемых земель во многом зависит от обеспеченности их оросительной сетью, рациональным использованием водных ресурсов. Необходимо отметить, что по природно-климатическим условиям территория Республики Каракалпакстан условно делится на две зоны - Северную и Южную. В Северную зону входят административные туманы: Ходжейлинский, Шуманайский, Канликульский, Кунградский, Чимбайский, Тахтакупырский, Караузякский, Нукусский, Кегейлинский,Бозатауский, Тахиаташский, в Южную - Турткульский, Берунийский, Амударьинский, Элликкалинские туманы.Соответственно, в каждой зоне по глубине залегания уровня грунтовых вод, механическому составу почвы выделены восемь гидромодульных районов. Из них в Северной зоне объемы оросительной нормы варьируют от 2900 м$^3$. /га в VIII до 6400 м$^3$. /га в IV гидромодульных районах. Другие районы занимают промежуточное положение. При этом число поливов хлопчатника колеблется от 3 до 8 раз, а, в Южной зоне из-за высокой термической напряженности и испаряемости с водной поверхности оросительная норма в IV гидромодульном районе достигает 7500 м. куб/га, а в VIII районе составляет 3400 м. куб/га. В этой зоне количество поливов больше - от 4 до 9 раз за вегетационный период.

Отметим, что важным элементом климата являются атмосферные осадки. Территория Республики Каракалпакстан относится к экстра аридной зоне. Здесь ежегодно выпадает 80-110 мм осадков и испаряется с поверхности обрабатываемой почвы около 1300 мм влаги. Поэтому в республике нет богарного земледелия, все посевы сельскохозяйственных культур и все площади многолетних насаждений орошаются и потребляют в расчете на 1 га 10-12 тыс. м. куб воды, а такая культура как рис - более 28 тыс. м. куб (табл. 2.).

Последние данные подтверждают, что водообеспеченность из года в год снижается, а это в свою очередь ведет к снижению урожайности сельхозкультур в Республике Каракалпакстан. Действительно за последние годы наблюдается, что дефицит оросительной воды из года в год нарастает. В связи, с чем необходимо изыскать дополнительные источники воды для орошения сельскохозяйственных культур и промывки засоленных почв. В качестве их рекомендуется использовать коллекторно-дренажные воды.

**Таблица 2**

**Нормативные расходы воды за сезон на полив 1 га (тыс. куб.)**

| Культуры | Нормативы рекомендуемые | |
|---|---|---|
| | от-до | в среднем |
| Хлопчатник | 4,9-6,0 | 5,45 |
| Зерновые и колосовые | 2,8-2,9 | 2,85 |
| Кукуруза на зерно | 5,3-6,2 | 5,75 |
| Бахчевые | 3,6-3,8 | 3,70 |
| Картофель, овощи | 10,0-11,5 | 10,75 |
| Люцерна | 3,6-3,8 | 3,70 |
| Сады и виноградники | 3,7-4,3 | 3,85 |
| Приусадебные | - | 4,20 |

Усиливающей засоления орошаемой пашни, продолжается двумя путями. Первый - воздушным путем, т.е. в результате нарастающего выноса солей с обсохшей части дна Аральского моря под воздействием ветровых потоков. Второй - из-за резкого ухудшения качества речной воды, усиления ее минерализации. Если в 1960-1961-годах среднегодовой показатель минерализации Амударьинской воды составлял 0,33 г/л, то в последние годы он повысился до 1,17 - 1,2 г/л, то есть почти в четыре раза. Происходит это в основном потому, что в областях, находящихся выше по течению, увеличивается сброс в реку коллекторно-дренажных вод, сильно загрязненных различными химикатами и сельхоз отходами.

Сброс в реку сильно загрязненных вод с полей создает реальную угрозу повсеместного засоления и загрязнения почв, списанию из сельхоз оборота орошаемой пашни, на инженерное обустройство которой, уже затрачены крупные средства.

Поэтому, проблема предотвращения засоления почв, их эффективного рассоления имеет одинаково важное значение, как для повышения продуктивности земли, так и для охраны здоровья людей. Не решив этой важной проблемы, невозможно достичь повышении плодородия земель и отдачи поливного гектара. Анализ показывает, что существенное влияние на объем урожаев, и продуктивность полей оказывает рациональная эксплуатация оросительных сетей. Коэффициент полезного действия их эксплуатации в 2018-2022 составлял - 0,56-0,58. Нынешняя время проблема эффективного водопользования и оптимального размещения сельхозкультур является одной из приоритетных задач. В Республике Каракалпакстан площади орошаемых земель разбросаны небольшими массивами, часто на большом удалении друг от друга. Все это создает излишнюю протяженность каналов и значительные непроизводительные потери воды. На повышение отдачи поливного гектара решающее влияния оказывает оснащенность коллекторно-дренажными сетями, эффективность их работы. К 2020-году дренажом было обеспечено 86,1% от общей площади орошаемой площади. Крупным недостатком коллекторно-дренажной сети является и то, что к внутрихозяйственным, межхозяйственным и магистральным коллекторам зачастую "подвешены" такие площади, которые они не в состоянии обсушить из-за своей недостаточной пропускной способности.

Низкая эффективность коллекторно-дренажных сетей обусловила повышение степени засоленности орошаемых земель. Согласно мелиоративному кадастру на ноябрь 2020года почти 98% орошаемой пашни в Республике Каракалпакстан были засолены в разной степени, незасоленными оказались лишь 20,0 тыс. га, слабозасоленными - 172 тыс. га или 34%, сильнозасоленными - 51 тыс. га или 10, 0%. На состоянии засоленности земель в решающей степени сказывается нераtsiональное использование водных ресурсов, а также несоблюдение

технологических очередностей в период их промывки. При промывке сильнозасоленных земель предусмотрены водные ресурсы в объеме 6-6, 5 тыс. кубометров на 1 га, а это многими хозяйствами используется один раз дамбовыми способами, что ведет к резкому подъему грунтовых вод и выносу на поверхность солей из глубины дополнительно к тем, что там уже имелось. Чтобы достичь эффекта рассоления почвы следовало бы промывку проводить в 2-3 приема тем же объемом воды. Анализ показывает, что строительство и реконструкция ряда магистральных и межхозяйственных коллекторов неудовлетворительны и не обеспечивают полного приема воды с примыкающих к ним посевных площадей.(табл.3.). Регулярная очистка, ремонт многих внутрихозяйственных коллекторов и других необходимых работ проводятся зачастую в ограниченных объемах. Своевременная и качественная очистка коллекторов дает существенный эффект, так как обеспечивает более интенсивный отток коллекторно-дренажных вод с обслуживаемых полей.

Известно, что наиболее высокая продуктивность земли обеспечивается тогда, когда тепло, плодородие и влага обеспечены в оптимальном соотношении. В южных туманах Каракалпакстана находятся плодородные земли, достаточно тепло, а в северных районах не всегда достаточно тепло и не хватает воды.

**Таблица 3**

**Основные мелиоративные объекты в Республике Каракалпакстан и их состояние**

| Показатели | | 1990 год | | | 2022 год | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Итого | Часть требующих ремонт | Доля в% к итогу | Итого | Потребуется ремонт | Доля в% к итогу |
| 1 | Системы орошения | 4482,1 | 672,3 | 15,0 | 3868,8 | 415,7 | 10,7 |
| | Из них бетонированные - | - | - | - | 90 | - | |
| 2 | Насосные станции, всего | 104 | 21 | 20,2 | 273 | 42 | 15,4 |
| 2.1 | Из них насосные станции для орошения, шт. | 86 | 18 | 20,9 | 266 | 41 | 15,4 |
| 2.2 | Мелиоративные насосные станции, шт. | 18 | 3 | 16,6 | 7 | 1 | 14,2 |
| 3 | Наблюдательные колодцы, шт. | 2806 | 247 | 8,8 | 3583 | 555 | 15,5 |
| 4 | Открытые коллекторы, км. | 19182,4 | 5635,7 | 29,4 | 20584,8 | 5442,8 | 26,4 |
| 5 | Сеть закрытых дренажей, км. | 401,1 | - | - | 430,4 | - | - |

В северных туманах почти вся посевная площадь засолена (99,1), что требует промывных поливов. Каждый гектар обрабатываемой почвы в среднем получает по 2,6 промывных полива. При этом при близком (менее 3 м) залегании уровня минерализованных грунтовых вод имеет место сезонное накопление солей в корнеобитаемом слое почвы. При слабой засоленности урожайность растении снижается на 15-20%, при сильной - на 50%. Значительная часть земель без промывных поливов (до 5000м /га) практически не может быть эффективно использована в сельскохозяйственном производстве, так как полученная с них продукция не окупает вложенных затрат. Кроме того, значительные площади земель в силу высокого залегания грунтовых вод подвержены заболачиванию.

Поэтому, мелиоративное улучшение земель является одним из основных рычагов увеличения производства продукции. Ирригационно-мелиоративное улучшение земель предполагает строительство новой, реконструкцию существующей коллекторно-дренажной и оросительной сети, капитальную планировку и повышения водообеспеченности, а также промывку засоленных земель и высокое качество вегеtatsionных поливов.

За 2018-2022 гг. в Каракалпакстане последовательно расширяется мелиоративное строительство. Коллекторно-дренажная сеть строится на землях, как старого, так и нового

освоения. За указанный период построены и введены в эксплуататsiю межхозяйственные коллекторы обшей протяженностью более 1000 км и внутрихозяйственные в зоне выращивания растении - более 3,5 тыс., км. Мелиоративное состояние земель в Каракалпакстане обуславливает необходимость увеличение удельной протяженности дренажа. В среднем до 40-50 м/га, фактическая же она составляет 34,2 м/га, т.е. на 15,8 м/га или на 5,8 % меньше нормативной, чтобы обеспечить земли коллекторно-дренажной сетью, необходимо широком масштабе вести строительство дренажа. По расчетам специалистов, чтобы обеспечить земли Каракалпакстана, нужно дополнительно построить 3,2-6,2 тыс.км коллекторно- дренажной сети.

В республике в течение продолжительного времени использование воды, орошение ведется экстенсивным путем. При существующих технико-технологических методах орошения и экономическом механизме хозяйств используется только около 50% забираемой воды, остальная вода теряются, просачивается в землю и испаряется. Одновременно наносится большой экономический ущерб, излишняя влага ухудшает почву, ведет к ее засолению.

Поэтому, целесообразно решать вопросы об улучшении использования воды, разработать механизмы решения данной проблемы. Пути решения данной проблемы охватывают ряд взаимосвязанных вопросов. Одни из них зависят от возможностей самых сельскохозяйственных предприятий, другие требуют регулирования на государственном уровне. При этом, большое значение имеет совершенствование техники и технологии орошения. В данном аспекте важную роль играют совершенствование оросительно-обводнительных систем, внедрение автоматизации водораспределения, устройство водопроводной сети с противофилтрационными покрытиями, применением более совершенных способов орошения и.т.д.

В сложных экономических условиях Каракалпакстана мелиорация должна обеспечивать экологическое благополучие, смягчать ее негативное воздействие на окружающую среду.

В республике аграрный сектор является все ещё определяющей отраслью экономики. Чтобы роль ее не снижалась, необходимо строгое соблюдение высокой культуры агротехники, при которой только и можно достичь прогнозных урожаев, то есть получить хорошую отдачу с каждого поливного гектара. Улучшение мелиоративного состояния орошаемых земель - важное и ничем незаменимое условие агротехники и повышения эффективности поливного земледелия.

В то же время следует настойчиво искать пути сохранения и приумножения плодородия поливных угодий. Полноценное использование поливного гектара с рациональным использованием водных ресурсов, повышение урожайности сельскохозяйственных культур должно стать главной заботой каждого работника орошаемой зоны. Это является главными условиями повышения эффективности использования производственных ресурсов.

**Список использованной литературы:**

1. Абалкин Л.И. Конечные народнохозяйственные результаты. Сущность, показатели, пути повышения. М. Экономика, 1978, стр.151
2. Андрейчук В.Т. Эффективность использования производственного потенциала в сельском хозяйстве, М.Экономика, 1993г. стр. 44.

3.Раджапов Р. Р. Финансово экономические рычаги повышения эффективности сельскохозяйственного производства. Ташкент, Узбекистан, 1982 г. стр. 297.

**UDK: 336.7**

## AN’ANAVIY VA ISLOM BANKLARI FAOLIYATINING QIYOSIY TAHLILI

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТРАДИЦИОННЫХ И ИСЛАМСКИХ БАНКОВ

## COMPARATIVE ANALYSIS OF TRADITIONAL AND ISLAMIC BANKS

**Mamadieva Gulnoraxon Sayfiddinovna**
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy Universitetitayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada an’anaviy va islom banklarining asosiy farqlari va afzalliklarini tahlili, an’anaviy va islom bank tizimlarining foiz stavkalari, investitsiyalar va hujjatli operatsiyalar kabi asosiy tamoyillari, ishlash mexanizmlari to‘g‘risida so‘z boradi. Shuningdek, ularning moliyaviy operatsiyalarga yondashuvlaridagi asosiy farqlari solishtirilib mualliflik tahlili keltirilgan, amalga oshirilgan tahlillar asosida xulosa shakllantirilib, sohaga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar**: Qiyosiy tahlil, an’anaviy bank tizimi, islom bank tizimi, moliyaviy institutlar, bank mahsulotlari, shariatga rioya qilish, foyda va zararni taqsimlash, foizsiz bank xizmatlari, islomiy moliya, shariat tamoyillari.

В данной статье проводится анализ основных отличий и преимуществ традиционных и исламских банков, основных принципов и механизмов работы традиционных и исламских банковских систем, таких как процентные ставки, инвестиции и документарные операции. Также сравниваются основные различия в их подходах к финансовым операциям и представлен авторский анализ, на основе проведенного анализа формируется вывод и разрабатываются рекомендации для данной области.

**Ключевые слова**: Сравнительный анализ, традиционная банковская система, исламская банковская система, финансовые институты, банковские продукты, соблюдение шариата, распределение прибылей и убытков, беспроцентная банковская деятельность, исламские финансы, принципы шариата.

This article analyzes the main differences and advantages of traditional and Islamic banks, the basic principles and mechanisms of operation of traditional and Islamic banking systems, such as interest rates, investments and documentary transactions. The main differences in their approaches to financial transactions are also compared and the author’s analysis is presented; based on the analysis, a conclusion is drawn and recommendations for this area are developed.

**Key words**: Comparative analysis, conventional banking system, Islamic banking system, financial institutions, banking products, Shariah compliance, profit and loss sharing, interest-free banking, Islamic finance, Shariah principles.

Bank sektori butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Yillar davomida an’anaviy bank tizimlari global moliyaviy bozorda ustunlik qildi. Biroq, islomiy moliyaning paydo bo‘lishi axloqiy tamoyillarga va shariat qonunlariga rioya qilishga asoslangan muqobil iqtisodiy modelni keltirib chiqardi. Natijada an’anaviy va islom banklarining qiyosiy tahlili tadqiqotchilar, siyosatchilar va iqtisodchilar uchun qiziqarli tadqiqot sohasiga aylandi. An’anaviy bank tizimi jismoniy shaxslar, korxonalar va hukumatlarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilgan keng ko‘lamli moliyaviy xizmatlarni taklif qiluvchi foizlarga asoslangan operatsiyalarga tayanadi. Islom bank tizimi esa

aksincha adolat, foyda va zararni taqsimlash, foizlarni (ribo) ta'qiqlash va iqtisodiy tenglikni targ'ib qilish kabi asosiy tamoyillar asosida ishlaydi.

Jahon moliya tizimi turli moliyaviy institutlardan, jumladan, an'anaviy banklar va islom banklaridan iborat. Bizga ma'lumki an'anaviy banklar foizga asoslangan operatsiyalar asosida ishlaydi, islom banklari esa foizga asoslangan faoliyatni ta'qiqlovchi Islom shariati qonunlariga amal qiladi. Ushbu soxaga oid adabiyotlarni tahliliy o'rganish orqali an'anaviy va islom banklarining ishlashi, samaradorligi va risklarni boshqarishga qaratilgan solishtirma tahlilni ishlab chiqdik bu quyidagi bank operatsiyalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

**1. An'anaviy va islom bank tizimi modellari va tamoyillari.**

An'anaviy bank tizimi aksiyadorlarga yo'naltirilgan modelga amal qiladi, asosiy e'tibor daromadlilikka va aksiyadorlar qiymatini maksimal darajada oshirishga qaratilgan. Bunday banklar foiz asosida kreditlash va qarz olish bilan shug'ullanadi, an'anaviy moliyaviy mahsulotlarni taklif qiladi va global moliya tizimida keng tarqalgan bank xizmatlarini taqdim etadi. Islom bank tizimi esa manfaatdor tomonlarga yo'naltirilgan modelga amal qiladi, bunda daromadlilik ijtimoiy va axloqiy jihatlar bilan birlashtiriladi. Islom banklari amal qiladigan asosiy tamoyillar: foizlarni taqiqlash (ribo), noaniqlikdan qochish (g'orar) va ta'qiqlangan faoliyatga sarmoya kiritishni taqiqlash (harom)[1] dan iborat.

**2. Mahsulotlar va xizmatlardagi farqlar.**

Islom bank tizimi islom tamoyillariga mos keladigan alohida moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taklif etadi. Masalan, islomiy banklar kreditlar bo'yicha foizlar undirish o'rniga Mudarabah va Musharaka kabi foydani taqsimlash usullaridan foydalanadilar[2]. Islom banklari shariat tamoyillariga mos keladigan islom obligatsiyalari (sukuk) va islom sug'urtasi (Takaful) kabi muqobil mahsulotlarni ham taqdim etadi. Bundan farqli o'laroq, an'anaviy banklar birinchi navbatda foizli kreditlar, muddatli depozitlar va an'anaviy sug'urta mahsulotlarini taklif qilishi bilan islom banklaridan farq qiladi.

**3. Samaradorlik va moliyaviy barqarorlik.**

An'anaviy va islom banklari faoliyatini solishtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar turli xil natijalarni ko'rsatadi. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, islom banklari moliyaviy inqiroz davrida risklarni taqsimlash xususiyatlari va axloqiy tamoyillarga qat'iy rioya qilishlari tufayli yaxshiroq ishlaydi. Aksincha, boshqa tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, an'anaviy banklar kengroq mijozlar bazasi va keng moliyaviy mahsulotlarga ega bo'lishlari tufayli yaxshi moliyaviy ko'rsatkichlarni namoyish etadilar. Umuman olganda, adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, har ikkala turdagi banklarning faoliyati va barqarorligiga turli omillar, jumladan, bozor sharoitlari, me'yoriy-huquqiy bazalar va boshqaruv amaliyoti ta'sir qiladi[3].

**4. Risklarni boshqarish.**

Islom banklari haddan tashqari tavakkalchilikka yo'l qo'ymaslik va moliyaviy barqarorlikni rag'batlantirish uchun ishlab chiqilgan risklarni boshqarishning o'ziga xos usullariga amal qiladi. Ular shariatga rioya etilishini ta'minlash uchun sarmoyalarni sinchkovlik bilan tekshirishlari shart. Bundan tashqari, islom banklari faoliyatni nazorat qilish va axloqiy me'yorlarga rioya etilishini ta'minlash uchun shariat olimlaridan iborat kuzatuv kengashlarini ishga oladi[4]. Boshqa tomondan, an'anaviy banklar xavflarni baholash va kamaytirish uchun odatda Bazel kelishuvlariga asoslangan mustahkam risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqishga e'tibor qaratadilar. Ushbu tizimlar kredit, bozor, operatsion va likvidlik risklarini ko'rib chiqadi.

**5. Normativ-huquqiy bazalar.**

An'anaviy va islom banklari uchun me'yoriy-huquqiy bazalar turli mamlakatlarda farqlanadi. An'anaviy banklar umumiy bank qoidalariga muvofiq ishlayotgan bo'lsa-da, islom banklari shariat tamoyillariga rioya qilishni ta'minlash uchun maxsus me'yoriy-huquqiy bazalarni talab qiladi. Ko'pgina huquqiy bazalar islom banki qoidalarini o'rnatgan yoki mavjud qoidalarni islomiy moliyalashtirishga moslashtirib, islom banki operatsiyalari uchun teng sharoit va qulay muhitni ta'minlagan[5; 6].

Sanab o'tilgan faoliyat turlari an'anaviy va islom banklari o'rtasidagi farqlanuvchi xususiyatlar va operatsion xizmatlarni yaqqol ko'rsatib beradi. Ikkala turdagi banklar ham o'z mijoz

segmentlariga ega va ularga xizmat ko‘rsatadi. An’anaviy va islom banklari alohida tamoyillar, amaliyotlarga ko‘ra o‘z ish faoliyatini tashkil etadi va olib boradi.

Islom moliya xizmatlari kengashi (IFSB) ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda islom moliya sanoatining jami global aktivlari 2,88 trillion dollarga yetgan. 2020-yil holatiga ko‘ra, islomiy bank bozorining eng yaxshi beshligiga Eron, Saudiya Arabistoni, Malayziya, BAA va Turkiya kirdi. Islom bank tizimi har yili 10-12% atrofida barqaror o‘sish sur’atlarini boshdan kechirmoqda, bu esa ba’zi hududlardagi an’anaviy banklarning o‘sish sur’atlarini ortda qoldirdi[7;].

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida an’anaviy va islom bank tizimlari asosiy ko‘rsatkichlarining solishtirma jadvali (1-jadval) ishlab chiqildi:

**1-jadval**

**An’anaviy va islom bank tizimlari qiyosiy tahlili**

| № | Qiyosiy tahlil ko‘rsatkichi | An’anaviy bank tizimi | Islom bank tizimi |
|---|---|---|---|
| 1. | **Prinsiplar va asoslar** | An’anaviy bank an’anaviy foizlarga asoslangan tizimda ishlaydi. U hech qanday diniy cheklovlarsiz foyda va aksiyadorlar qiymatini maksimal darajada oshirishga qaratilgan. | Islom bank tizimi shariat qonuni tamoyillariga amal qiladi, ular foiz undirish yoki olishni (riba) hamda qimor, spirtli ichimliklar va boshqa taqiqlangan tovarlar va xizmatlar bilan bog‘liq faoliyatga jalb qilishni ta’qiqlaydi. Buning o‘rniga, islom banklari foyda va zararni taqsimlash (Mudarabah) bilan shug‘ullanadilar, bunda ular foyda va zararlarni o‘z mijozlari bilan bo‘lishadi. |
| 2. | **Mablag‘lar manbalari** | An’anaviy banklar o‘zlarining asosiy mablag‘lari sifatida mijozlar va boshqa moliya institutlarining depozitlariga tayanadilar. Ular mijozlardan foizli depozitlarni qabul qiladilar. | Islom banklari mijozlardan depozitlarni ham qabul qiladi, lekin ular Mudarabah, Musharaka va Vakala kabi islomiy shartnomalar asosida ishlaydi. Mijozlar sheriklar hisoblanadi va investitsiyalardan olingan foyda yoki daromadning bir qismini oladi. |
| 3. | **Investitsiyalar va moliyalashtirish** | An’anaviy banklar foizlar asosida kreditlar va moliyalashni ta’minlaydi, qarzlarni yaratadi. Ular axloqiy yoki ijtimoiy ta’siridan qat’i nazar, har qanday yuridik biznes yoki faoliyatni moliyalashtirishi mumkin. | Islom banklari shariat tamoyillariga mos keladigan axloqiy investit-siyalarga e’tibor qaratadi va shu bilan ijtimoiy adolatni targ‘ib qiladi. Islomiy moliyalashtirish usullariga murabaha (xarajat qo‘shimcha moliyalashtirish), ijara (lizing) va istisna (shartnoma asosidagi ishlab chiqarish) kiradi. |
| 4. | **Risklarni taqsimlash** | An’anaviy bankda risk asosan qarz oluvchi tomonidan qoplanadi. Agar qarz oluvchi qarzni to‘lamasa, yuk to‘liq qarz oluvchiga tushadi. | Islom bank tizimi bank va mijoz o‘rtasida tavakkalchilikni taqsim-lashga yordam beradi. Mudoraba va musharaka kabi usullarda foyda va zarar tomonlar o‘rtasida kelishilgan nisbatlarga ko‘ra taqsimlanadi. |
| 5. | **Faoliyatni baholovchi muhim ko‘rsatkichlar** | An’anaviy banklar, birinchi navbatda, aktivlar rentabelligi (ROA), o‘z kapitalining rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi (NIM) va xarajatlarning daromadga nisbati (CIR) kabi moliyaviy ko‘rsatkichlarga e’tibor berishadi | Moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkich-laridan tashqari, islom banklari o‘z investitsiyalarining atrof-muhitga, jamiyatga va umumiy ijtimoiy mas’uliyatga ta’siri kabi ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkich-larini ham hisobga oladi. |

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan an’anaviy va islom banklarining qiyosiy tahlili ikki moliyaviy tizim o‘rtasidagi bir qancha muhim farqlarni yoritib beradi.

Ikkala tizimning ham afzalliklari va cheklovlari mavjud bo‘lsa-da, islom banki shariat qonunlari tamoyillariga mos keladigan o‘ziga xos yondashuvni taklif qilishi bilan farqlanadi. Qiyosiy tahlil o‘zgaruvchan bozor talablari va muammolarini hal qilish uchun islom bankchiligida doimiy innovatsiyalar zarurligini ta’kidlaydi. Islom banklariga shariat tamoyillariga mos keladigan yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish uchun tadqiqot va ishlanmalar faoliyatiga sarmoya kiritish tavsiya etiladi. Bu esa kengroq mijozlar bazasini jalb qilish va jahon bozorida islom banklarining raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida xulosa qilish mumkinki, islom banklari foizga asoslangan kreditlashdan ko‘ra, asosiy e’tiborni aktivlar bilan ta’minlangan bitimlar va foydani taqsimlash tartibiga qaratib, xavf-xatardan qochadigan yondashuvni qo‘llaydi. Ushbu yondashuv iqtisodiy tanazzulga chidamli. Shu bilan birga, islom banklari jamiyatga foyda keltirish va axloqiy investitsiya amaliyotlarini targ‘ib qilish orqali katta ijtimoiy mas’uliyatni namoyish etadi. Biroq, an’anaviy banklar hali ham yaxshi tashkil etilgan infratuzilmasi va xalqaro investorlar orasida keng tarqalganligi tufayli jahon moliya tizimida hukmronlik qilmoqda. An’anaviy banklar o‘zining operatsiyalarini amalga oshirish uslubi tufayli yuqori darajadagi tavakkalchilik va o‘zgaruvchanlikga asoslangan, islom banki esa islom moliya huquqi - shariatda mavjud biznes axloqi tamoyillari ko‘ra ishlaydi shu sababli ham bu bank turi an’anaviyga nisbatan barqarorroqdir.

Islom banklari faoliyati sanoqli islomiy davlatlar tizimida qo‘llanilganligi sababli ularning ish strukturasi Yevropa mamlakatlari axolisiga notanish shu sababli ham ularga bo‘lgan talab ko‘rsatkichi pastroq. Islom bank tizimi faoliyati, ish mexanizmi, kengroq tushuntirilsa undan foydalanuvchilarning sonini ortishiga yordam beradi. Islom bank tizimining avfzalliklari bilan bir qatorda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan masalalar va tadbirlar ham mavjud bo‘lib eng asosiylaridan biri bu - normativ-huquqiy bazani kuchaytirish. Islom bank tizimini yanada rivojlantirishda quyidagilarni amalga oshirish yaxshi samara beradi:

– Nazorat qiluvchi organlarga islom banki operatsiyalariga, jumladan, risklarni boshqarish, kapitalning etarliligi va boshqaruv masalalariga maxsus moslashtirilgan keng qamrovli yo‘riqnomalar va standartlarni ishlab chiqish;
– An’anaviy va islom banklari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish;
– Innovatsiyalarni rag‘batlantirish;

Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish orqali islom bank tizimlarining barqarorligi va ishonchliligini oshirishga, an’anaviy banklar islom banklari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini o‘rganishlariga, islom banki mahsulotlarini taklif qilish yoki qo‘shma korxonalar tashkil etishga yordam beradi. Bu nafaqat ularning mahsulot takliflarini diversifikatsiya qiladi, balki g‘oyalar va ilg‘or tajribalarni oshirishgaimkoniyat yaratadi. An’anaviy banklar uchun islom banklarining foyda va zararlarni taqsimlash va aktivlar bilan ta’minlangan moliyalashtirish kabi o‘ziga xos xususiyatlari va amaliyotlaridan o‘rganish imkoniyati taqdim etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Bourne, R., va Skaife, H. "Islom va an’anaviy bank tizimi: Jahon moliyaviy inqirozining oqibatlari". Journal of International Financial Markets, Institutions & Money 23.1 (2013): 180-197.
2. Laeven, L. va Levine, R. "Bank boshqaruvi, tartibga solish va tavakkalchilik". Journal of Financial Economics 93.2 (2009): 259-275.
3. Hassan, M. K. va Lyuis, M. K. Islom bank ishi bo‘yicha qo‘llanma. Edvard Elgar nashriyoti, 2007.
4. Kassim, S. H. va Majid, M. S. A. "Malayziyada islom bankining samaradorligi va raqobati". Islom iqtisodiyoti tadqiqotlari 11.1 (2003): 31-56.
5. Xaron, S. va Ahmad, N. "An’anaviy foiz stavkalari va foyda darajasining Malayziyadagi islom bank tizimiga qo‘yilgan mablag‘larga ta’siri". Xalqaro ijtimoiy iqtisod jurnali 28.3/4/5 (2001): 419-439.
6. Bek, H. va Demirgüç-Kunt, A. "Bugungi kunda bank nazorati: O‘tmishdan saboqlar". Jahon banki tadqiqot xulosasi 15.2 (2000): 147-169.
7. https://www.ifsb.org/

**UDK:338.46**

## OLIY TA’LIM TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLARNING TA’LIM TIZIMIGA TA’SIRI (DAVLAT VA NODAVLAT OTMLAR NUQTAI NAZARIDA)

## IMPACT OF THE REFORMS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM ON THE EDUCATIONAL SYSTEM (FROM THE POINT OF VIEW OF STATE AND NON-STATE INSTITUTIONS)

## ВЛИЯНИЕ РЕФОРМ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НА СИСТЕМУ ОБРАЗОВАНИЯ (С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ И НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ)

**Gafurov Anvar**
**Alfraganus university Iqtisodiyot kafedra mudiri, PhD dotsent**

**Annotatsiya**

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar turli sohalarning turli darajada ta’sir ko‘rsatishda amalga oshirilib kelinmoqda. O‘z navbatida ushbu islohotlar nafaqat iqtisodiy sohada shuningdek ijtimoiy sohada ham amalga oshirilib borilmoqda, ushbu ijtimoiy islohotlar esa ta’limdan boshlanib bormoqda.

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan barcha davlat hamda nodavlat Oliy ta’lim muassasa(OTM)larining faoliyatining tahliliga qaratilgan bo‘lib, ushbu tahlilning amlaga oshirishdan asosiy maqsad hozirgi kundagi olib borilayotgan islohatlarning qay darajada mavjud muammoni yechimi sifatida yondashilayotganini ko‘rsatishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu maqolada respublika davlat, nodavlat va xususiy OTMlar soni, ularda tahsil olayotgan talabalar hamda ushbu OTMlarda faoliyat yuritayotgan prof-o‘qituvchilar tahlili yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat, nodavlat, xorijiy, talaba, oliy ta’lim muassasasi, islohot, o‘qituvchi

Реформы, которые проводятся в нашей республике, проводятся с разным уровнем влияния в разных отраслях. В свою очередь, эти реформы проводятся не только в экономической сфере, но и в социальной сфере, и эти социальные реформы начинаются с образования.

В данной статье основное внимание уделяется анализу деятельности всех государственных и негосударственных высших учебных заведений (ВУЗов), действующих в Республике Узбекистан. Основная цель данного анализа – показать, как текущие реформы рассматриваются как решение существующей проблемы. Также в данной статье проводится анализ количества государственных, негосударственных и частных высших учебных заведений республики, обучающихся в них студентов и профессоров, работающих в этих высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** государственный, негосударственный, иностранный, студент, вуз, реформа, преподаватель.

The reforms that are being carried out in our republic are being carried out with different levels of influence in different sectors. In turn, these reforms are being carried out not only in the economic sphere, but also in the social sphere, and these social reforms are starting from education.

This article focuses on the analysis of the activities of all state and non-state Higher Education Institutions (HEIs) operating in the Republic of Uzbekistan. The main goal of this analysis is to show how the current reforms are being approached as a solution to the existing problem. Also, this article covers the analysis of the number of state, non-state and private higher education institutions

of the republic, the students studying in them, and the professors working in these higher education institutions.

**Key words**: state, non-state, foreign, student, higher education institution, reform, teacher.

Hozirgi kunda ta’lim sohasidagi islohotlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning muhim ko‘rsatkichlaridan bo‘lib hisoblanadi. Shu sababdan ham yurtumizdan amalga oshirilayotgan Yangi O‘zbekistoning dastlabki islohotlari ijtimoiy sohada hususan ta’limda amalga oshrish boshlandi. Jumladan, yangi 70ga yaqin maktablari qurilishi, maktabgacham qamrovni 27 foizdan 70 foizga yetkazilgani, oliy ta’lim muassasalarga qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshgani yaqol misol tariqasida ko‘rishimiz mumkin. Shu bois ham yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlagandek “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir” [1]. Shu munosabat bilan 2023 yilga “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” nomi ham bejisga berilmadi.

Shuningdek, 2019-yilda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish” konsepsiyasi, 2022-yilda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, 2023-yilda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda 2023-yilda “O‘zbekiston-2030” strategiyasi va boshqa ko‘plab normativ hujjatlarda ta’lim to‘g‘risidagi islohotlar asosiy mezon sifatida qabul qilingan.

Agarda statistik ma’lumotlar bo‘yicha raqamlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, O‘zbekistonda bir farzand uchun o‘rtacha 18 909 AQSh dollar qiymatida davlat harajat qilayotgan vaqtda, uning qaytimi 77 291 AQSh dollari yoki salkam 4 barobar ko‘pdir. Ushbu ko‘rsatkich Japan farzandi uchun 182 103 AQSh dollari qiymatida bo‘lib, uning qaytimi esa 2 176 818 AQSh dollari yoki salkam 12 barobar ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).




**1-rasm. Bir talabaga to‘liq ta’lim sikliga investitsiyalar va qo‘shilgan qiymat ko‘rinishidagi daromadi (ming, AQSh dollari)**

Manba: Buyuk Kelajak ma’lumotlari asosida

AQSh davlatida bir fuqaro uchun 231 263 AQSh dollari sarf etilib, ushbu invistitsiya qaytimi 3,1 mln AQSh dollari yoki 13 barobar ko‘p qiymatida qaytishi hisob qilinganini ko‘rishimiz mumkin. Malayziya davlatida esa ushbu harajat 44,2 ming AQSh dollarida sarflanib, qaytimi esa 647,3 ming AQSh dollari yoki 15 barobar ko‘p qaytishini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi o‘rinda Janubiy Korea davlatida bir furaqosini ta’lim siklida ta’lim olishi uchun 130,8 ming AQSh dollari qiymatida invistitsiya qilinsa, ushbu invistitsiya qaytimi 17 barobar ko‘p 2,1 mln. AQSh dollarida qaytishini ko‘rishimiz mumkin.

Endi, OTMlarni boshqarishning quyidagi modellar asosida shakllantiriladi.

1-model. Ta’limda davlat ishtirokining yuqori darajasi

Davlat tomonidan xizmatlar ko‘rsatish, soliq tushumlari hisobidan moliyalashtirish. Xususiy sektor faqat aholining badavlat qatlamlari ehtiyojlarini qoplaydi.

| Afzalligi | Kamchiligi |
|---|---|
| Aholining kam ta’minlangan guruhlari uchun xalq ta’limining yuqori darajada mavjudligi | Ta’lim sifati soliq tushumlari miqdoriga bog‘liq |
| | Past sifatli xizmatlar ko‘rsatishning yuqori xavflari, ayniqsa davlat va oliy ta’lim muassasalarida |
| | tizimning innovatsion rivojlanishining past darajasi |

Natijasi: Sifatli ta’limning universal qamrovi faqat yetarli soliq tushumlari mavjud bo‘lgandagina amalga oshiriladi.

Qo‘llangan davlatlar: Germaniya va Avstriya

2-model. Aralash model

Aholining kam ta’minlangan qatlamlari uchun davlat ta’minotini qo‘llab-quvvatlagan holda xususiy xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarni rivojlantirish orqali ta’lim sohasida xususiy sektorni rivojlantirish hamda fan va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish

| Afzalligi | Kamchiligi |
|---|---|
| Ta’lim tizimining yuqori darajada foydalanish imkoniyati | Xususiy sektor rivojlanishining past darajasi |
| Ta’limning barcha bosqichlarida yagona sifat | Xususiy moliya institutlari rivojlanishining past darajasi |

Natijasi: Aholining barcha qatlamlari uchun ta’limni yuqori sifat bilan keng qamroviga erishish imkoniyati

Qo‘llangan davlatlar: Braziliya va Kanada

3-model. Xususiy o‘yinchilarning ishtiroki yuqori

Ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish butunlay xususiy kompaniyalarga topshirilgan, moliyalashtirish xususiy tashkilotlar yoki fuqarolarning mustaqil to‘lovlari orqali amalga oshiriladi, davlat yordami faqat xarajatlarni qo‘shma moliyalashtirish mexanizmlari orqali kam ta’minlangan guruhlarga beriladi.

| Afzalligi | Kamchiligi |
|---|---|
| Yuqori sifatli ta’lim xizmatlari | Ta’lim xizmatlarining cheklangan qamrovi |
| | Ta’limning yuqori narxi |

Natijasi: Kambag‘allar orasida ta’lim darajasi past bo‘ladi, lekin yuqori sifatli.

Qo‘llangan davlatlar: Buyuk Britaniya va Yaponiya

Horijlik tadqiqotchilar Richard Murnane va Richard Nelson o‘zlarining “Improving the Performance of the Education Sector: The Valuable, Challenging, and Limited Role of Random Assignment Evaluations” [3] maqolasida ta’lim tizimi, undagi boshqaruv haqida o‘z izlanishlarida tadqiqotlar olib borishgan bo‘lib, ular asosan ta’lim sifati hamda uning ijobiy oqibatlari haqida qarashlarini yoritishgan. Giancarlo Corsi o‘zining “Education Reform as a Global Phenomenon” [4] nomli maqolasida ta’lim sohasidagi reformalarning salbiy va ijobiy oqibatlarni yoritgan. Joseph Zajda esa “Discourses of globalisation and higher education reforms” [5] nomli izlanishda globallashuvning oqibatlari haqida o‘z qarashlari bilan o‘rtoqlashgan. Ushbu maqola ma’lumotlari turli xil davlat vazirliklari va idoralaridan olingan ikkilamchi ma’lumotlar, shuningdek, statistik hisobot va hujjatlar tahliliga asoslanadi. Ma’lumotlar tahlili seminarlar, fokus-guruh muhokamalari

va ish beruvchilar bilan ekspert so‘rovnomalar asosida to‘ldirildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024 yil 1 yanvar xolatidagi ma’lumotga ko‘ra, hozirgi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan OTM soni 223 tani tashkil etib, shundan 121 ta davlat, 74 ta nodavlat va 28 ta xorijiy ta’lim muassasalari faoliyat yuritib kelmoqda (4-rasm).




**4-rasm. O‘zbekistondagi OTMlar soni mulkiy shakliga ko‘ra**

Manba: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumoti

Respublikamizda tahsil olib kelayotgan soni 1,3 mln.ni tashkil etib. Ushbu talabalarning 992 231 nafari yoki jamiga talabalaga nisbatan 74 foizi 121 ta davlat OTMlarida, 310 649 nafari yoki jamiga nisbatan 23 foizi 74 ta nodavlat OTMlarda va 34 573 nafari yoki jamiga nisbatan 3 foizi 28ta xorijiy OTMlarda tahsil olib kelishmoqda(1-jadval).

**1-jadval**

**Mulkiy shakliga ko‘ra OTMlarda talabalar soni**

| | Mulkiy shakli | Talabalar soni | Jamiga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|
| 1. | Davlat | 992231 | 74 |
| 2. | Nodavlat | 310649 | 23 |
| 3. | Xorijiy | 34573 | 3 |
| **Jami** | | **1 337 453** | |

Manba: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumoti

Vazirlik ma’lumotiga ko‘ra eng ko‘p talabalar soni bo‘yicha O‘zbekiston Milliy universiteti 34 633 nafar talaba bilan yakka peshqadamlikda bormoqda, ikkinchi o‘rinda esa Farg‘ona davlat universiteti (29 784), uchinchi o‘rinda esa Qoraqalpoq davlat universiteti (29201) dir (2-jadval).

**2-jadval**

**Top-10 davlat OTMlar orasida eng ko‘p talabalar soni**

| | OTM nomi | TALABALAR SONI |
|---|---|---|
| 1. | O‘zbekiston Milliy universiteti | 34633 |
| 2. | Farg‘ona davlat universiteti | 29784 |
| 3. | Qoraqalpoq davlat universiteti | 29201 |
| 4. | Urganch davlat universiteti | 28487 |
| 5. | Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti | 24166 |
| 6. | Namangan davlat universiteti | 24020 |
| 7. | Toshkent davlat pedagogika universiteti | 23006 |
| 8. | Chirchiq davlat pedagogika universiteti | 22814 |
| 9. | O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti | 22455 |
| 10. | Termiz davlat universiteti | 22387 |

Manba: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumoti

Keyingi o‘rinda Urganch davlat universitetida 28 487 nafar talabalar tahsil olayotgan dargoh Urganch davlat universitetidir. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida esa talabalar soni 24 166ni

tashkil etib 5-o‘rinni egallamoqda. Namangan davlat univeristetida talabalar soni Toshkent davlat iqtisodiyot universitetidan 146 nafarga kam bo‘lib, keying 6-o‘rini egallamoqda. Toshkent davlat pedagogika universitetida tahsil olayotgan talabalar soni 23006 nafarni tashkil etib, Namangan davlat univeristetidan salkam 1 014 nafarga kamligini ko‘rishimiz mumkin. Tahlilimizning keying jihati, nodavlat OTMlar orasida eng ko‘p talabalarga ega bo‘lgan dargohlar haqida boradi. Statistik ma’lumotga ko‘ra, Toshkent amaliy fanlar univeristetida 27 138 nafar talaba tahsil olayotganni ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ko‘rsatkich bilan nodavlat OTMlar orasida eng ko‘p talabalar soniga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin (3-jadval).

**3-jadval**

**Top-10 nodavlat OTMlar orasida eng ko‘p talabalar soni**

| | OTM nomi | TALABALAR SONI |
|---|---|---|
| 1. | Toshkent amaliy fanlar universiteti | 27138 |
| 2. | Termiz iqtisodiyot va servis universiteti | 18209 |
| 3. | ALFRAGANUS UNIVERSITY | 16982 |
| 4. | Osiyo xalqaro universiteti | 15091 |
| 5. | Toshkent kimyo xalqaro universiteti | 13037 |
| 6. | Iqtisodiyot va pedagogika universiteti | 12440 |
| 7. | ISFT instituti | 11206 |
| 8. | Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti | 10125 |
| 9. | Renessans ta’lim universiteti | 10083 |
| 10. | Navoiy innovatsiyalar universiteti | 9811 |

Manba: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumoti

Termiz iqtisodiyot va servis universitetida tahsil olayotgan talabalar soni 18 209 nafarni tashkil etib, Toshkent amaliy fanlar universitetidan 8 929 nafarga kamligini ko‘rishimiz mumkin. Uchinchi o‘rinda Alfraganus university bo‘lib, unda 16 982 nafar tashkil etib, Termiz iqtisodiyot va servis univeristetidan 1 227 nafar kamligini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi Osiyo xalqaro universitetida 15 091 nafar tashkil etib, Alfraganus universitydan 1 891 nafar talabalaga kamligini ko‘rishimiz mumkin. Tahlilimizning keyingi jihati bu O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy OTMlarda o‘qiyotgan talabalar soni bo‘yicha ko‘rib chiqamiz. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Singapur Menejmentni rivojlantirish institutida 5 555 nafar talaba tahsil olib kelayotgani ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchi raqam bilan, Vebster universitetining ta’lim dasturlarini amalga oshirish markazida 4 744 nafar talaba tahsil olib, Singapur Menejmentni rivojlantirish institutiga nisbatan 811 nafar talabaga kamligini ko‘rishimiz mumkin (4-jadval).

**4-jadval**

**Top-10 xorijiy OTMlar orasida eng ko‘p talabalar soni**

| | OTM nomi | TALABALAR SONI |
|---|---|---|
| 1. | Toshkent shahridagi Singapur Menejmentni rivojlantirish instituti | 5555 |
| 2. | Toshkent shahridagi Vebster universitetining ta’lim dasturlarini amalga oshirish markazi | 4744 |
| 3. | Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti | 4710 |
| 4. | Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti | 2739 |
| 5. | Toshkent shahridagi Puchon universiteti | 1818 |
| 6. | Toshkent shahridagi Inha Universiteti | 1689 |
| 7. | Toshkent shahridagi Belarus-O’zbekiston qo’shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti | 1582 |
| 8. | Toshkent shahridagi Adju universiteti | 1465 |
| 9. | Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali | 1122 |
| 10 | MEI milliy tadqiqot universiteti Federal davlat byudjeti oliy ta’lim muassasasining Toshkent filiali | 1013 |

Manba: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumoti

Toshkent Xalqaro Vestminster Universitetida tahsil olayotgan talabalar 4 710 nafarni tashkil etib, Vebster universitetiga nisbatan 34 nafar talabaga kamligini ko‘rishimiz mumkin. To‘rtinchi o‘rinda Turin politexnika universiteti bo‘lib, unda tahsil olayotgan talabalar soni 2 739 nafarni tashkil etib, Vestminster universitetga nisbatan 1 971 nafar talabalarga kamligini ko‘rishimiz mumkin.

Davlat oliy ta’lim muassasalari soni 121tani tashkil etib, ularda 992 231 nafar talabalar tahsil olib kelishmoqda. Endi, ularni viloyatlar kesmida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Samarqandlik talabalar davlat oliy ta’lim muassasalarida 104 833 nafari yoki davlat OTMlarda tahsil olayotgan talabalarni 11 foizini tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchi o‘rinda esa Qashqadaryo viloyati 102 186 nafar talabalar yoki jamidan 11 foizini tashkil etayotganini ko‘rishimiz mumkin (5-jadval).

**5-jadval**

**Davlat OTMlar tahsil olayotgan talabalar soni viloyatlari kesmida**

| | Hudud | Talabalar soni | Jamiga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|
| 1. | Samarqand viloyati | 104833 | 11 |
| 2. | Qashqadaryo viloyati | 102186 | 10 |
| 3. | Farg‘ona viloyati | 97637 | 10 |
| 4. | Toshkent shahri | 80196 | 8 |
| 5. | Toshkent viloyati | 77215 | 8 |
| 6. | Surxondaryo viloyati | 72611 | 7 |
| 7. | Qoraqalpog‘iston Resp | 72480 | 7 |
| 8. | Buxoro viloyati | 69536 | 7 |
| 9. | Andijon viloyati | 68102 | 7 |
| 10. | Namangan viloyati | 61068 | 6 |
| 11. | Xorazm viloyati | 59986 | 6 |
| 12. | Jizzax viloyati | 50522 | 5 |
| 13. | Navoiy viloyati | 46728 | 5 |
| 14. | Sirdaryo viloyati | 29131 | 3 |
| **Jami** | | **992 231** | |

Manba: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumoti

Farg‘ona viloyatidan 121 ta davlat OTMlarida 97 637 nafar talaba yoki jamiga nisbatan 10 foizni tashkil etib, deyarli Qashqadaryo viloyati bilan bir foiz ko‘rsatkichda ekanligini ko‘rsatmoqda. Davlat OTMlarida tahsil olayotgan jami talabalarga nisbati Toshkent shahri va viloyatida bir xil 8 foizdan bo‘lib, talabalar soniga nisbatan esa 80 196 va 77 215 nafardan to‘g‘ri kelmoqda. Surxondaryo viloyati (72 611), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (72 480), Buxoro viloyati (69 536) va Andijon viloyati (68 102)lari ko‘rsatkichlari bilan, jami davlat OTMlarda tahsil olayotgan talabalarga nisbati 7 foizdan ekanligini ko‘rsatmoqda. Statistik ma’lumotlarimizda, jami 121ta davlat OTMlarida eng kam talabalar soni Sirdaryo viloyatiga 29 131 nafar bilan yoki jamiga nisbatan 3 foizni tashkil etmoqda.

Vazirlikning statistik ma’lumotiga ko‘ra, hozirda 74ta nodavlat OTMlar mavjud bo‘lib, ularda jami 310 649 nafar talaba ta’lim olishmoqda. Ushbu OTMlarda tahsil olayotgan talabalarni viloyat kesmida tahlilni amalga oshiradigan bo‘lsak, Toshkent viloyatlik talabalarning 43 166 nafarni tashkil etib, jamiga nisbatan 14 foizni tashkil etmoqda. Ikkinchi o‘rinda esa, Toshkent viloyati hissasiga to‘g‘ri kelib, ularda 40 920 nafarni yoki jamiga nisbatan 13 foizni tashkil etadi. Keyingi viloyatimiz Qashqadaryo bo‘lib, unda 38 ming nafarni tashkil etib, jamiga nisbatan 12 foizdir (6-jadval).

**6-jadval**

**Nodavlat OTMlar tahsil olayotgan talabalar soni viloyatlari kesmida**

| | Hudud | Talabalar soni | Jamiga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|
| 1. | Toshkent viloyati | 43166 | 14 |
| 2. | Toshkent shahri | 40920 | 13 |
| 3. | Qashqadaryo viloyati | 38000 | 12 |
| 4. | Surxondaryo viloyati | 27901 | 9 |
| 5. | Buxoro viloyati | 25660 | 8 |
| 6. | Farg‘ona viloyati | 22931 | 7 |
| 7. | Xorazm viloyati | 19981 | 6 |
| 8. | Samarqand viloyati | 18439 | 6 |
| 9. | Namangan viloyati | 17987 | 6 |
| 10. | Andijon viloyati | 14085 | 5 |
| 11. | Jizzax viloyati | 11413 | 4 |
| 12. | Navoiy viloyati | 10830 | 3 |
| 13. | Sirdaryo viloyati | 10246 | 3 |
| 14. | Qoraqalpog‘iston Resp | 9090 | 3 |
| | **Jami** | **310 649** | |

Manba: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumoti

Surxondaryolik talabalar nodavlat OTMlarda 27 901 nafarni yoki jamiga nisbatan 9 foizni tashkil etib, 4-o‘rinda turganini ko‘rishimiz mumkin. Xorazm viloyati (19 981), Samarqand viloyati (18 439) va Namangan viloyati (17 987) nafar talabalar bilan jamiga nisbatan solishtirilganda 6 foizini tashkil etmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida jami 310 649 talabaga nisbatan 3 foizdan to‘g‘ri kelmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan xorijiy OTMlar soni 28ta bo‘lib, ularda tahsil olayotgan jami talabalar soni 34 573 nafarni tashkil etadi. Ushbu jami talabalarning 51 foizi yoki 17 593 nafari Toshkent shahriga to‘g‘ri kelishi bilan birinchi o‘rinda ekanligini ko‘rsatmoqda. Ikkinchi o‘rinda Toshkent viloyati hissasiga 4 415 nafar talabalar yoki jamiga nisbatan 13 foiz bilan to‘g‘ri kelmoqda (7-jadval).

**7-jadval**

**Xorijiy OTMlar tahsil olayotgan talabalar soni viloyatlari kesmida**

| | Hudud | Talabalar soni | Jamiga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|
| 1. | Toshkent shahri | 17593 | 51 |
| 2. | Toshkent viloyati | 4415 | 13 |
| 3. | Andijon viloyati | 2029 | 6 |
| 4. | Samarqand viloyati | 1456 | 4 |
| 5. | Qashqadaryo viloyati | 1313 | 4 |
| 6. | Farg‘ona viloyati | 1268 | 4 |
| 7. | Buxoro viloyati | 1100 | 3 |
| 8. | Jizzax viloyati | 1087 | 3 |
| 9. | Xorazm viloyati | 890 | 3 |
| 10. | Navoiy viloyati | 812 | 2 |
| 11. | Qoraqalpog‘iston Resp | 725 | 2 |
| 12. | Namangan viloyati | 663 | 2 |
| 13. | Surxondaryo viloyati | 657 | 2 |
| 14. | Sirdaryo viloyati | 565 | 2 |
| | **Jami** | **34 573** | |

Manba: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumoti

Andijon viloyati 2 029nafar talabalar respublikamizdagi xorijiy OTMlarda tahsil olishib, jamiga nisbatan 6 foizni tashkil etmoqda. Samarqand (1 456), Qashqadaryo (1 313) va Farg‘ona (1 268) viloyatlaridan xorijiy OTMlarda tahsil olayotgan talabalar soni jamiga nisbatan 4 foizdan to‘g‘ri kelmoqda. Buxoro (1100), Jizzax (1087) va Xorazm (890) viloyatlaridan xorijiy OTMlarda tahsil olayotgan talabalar soni jamiga nisbatan 3 foizdan to‘g‘ri kelmoqda. Qolgan hudud (Navoiy, Namangan, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi)larga 2 foizdan to‘g‘ri kelmoqda.

Respublikamizda 121ta davlat OTMlarida 992 231 nafar talabalar tahsil olib kelishmoqda. Ushbu talabalarga 36 490 nafar professor-o‘qituvchilar ta’lim berib kelishmoqda. Har bir davlat OTMlariga o‘rtacha 302 nafar professor-o‘qituvchilar to‘g‘ri kelmoqda. Davlat OTMlarida 29 ming o‘qituvchilar unvonsiz bo‘lib, ular 80 foizni tashkil etadi (8-jadval).

**8-jadval**

**Davlat OTMlarida faoliyat yuritayotgan o‘qituchilar soni unvon bo‘yicha**

| | Unvoni bo‘yicha | soni | Jamiga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|
| 1. | Unvonsiz | 29079 | 80 |
| 2. | Dotsent | 5607 | 15 |
| 3. | Professor | 1428 | 4 |
| 4. | Katta ilmiy xodim | 376 | 1 |
| **Jami** | | **36 490** | |

Manba: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumoti

Davlat OTMlarida “dotsent” unvoniga ega bo‘lganlar soni 5 607 nafarni tashkil etib, jami faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilarga nisbatan 15 foizini tashkil etmoqda. “Professor” ilmiy unvonga ega bo‘lganlari soni 1428 nafarni yoki davlat OTMlarida faoliyat yuritayotganlarga nisbatan 4 foizni tashkil etadi. “Katta ilmiy xodim” unvoniga ega o‘qituvchilar soni 376 nafar bo‘lib, jamiga nisbatan 1 foizni tashkil etadi.

Respublikamizda 74 ta nodavlat OTMlarida 310 649 nafar talabalar tahsil olib kelishmoqda. Ushbu talabalarga 4334 nafar professor-o‘qituvchilar ta’lim berib kelishmoqda. Har bir davlat OTMlariga o‘rtacha 59 nafar professor-o‘qituvchilar to‘g‘ri kelmoqda. Nodavlat OTMlarida 3,6 ming o‘qituvchilar unvonsiz bo‘lib, ular 84 foizni tashkil etadi (9-jadval).

**9-jadval**

**Davlat OTMlarida faoliyat yuritayotgan o‘qituchilar soni unvon bo‘yicha**

| | Unvoni bo‘yicha | soni | Jamiga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|
| 1. | Unvonsiz | 3624 | 84 |
| 2. | Dotsent | 546 | 13 |
| 3. | Professor | 114 | 3 |
| 4. | Katta ilmiy xodim | 50 | 1 |
| **Jami** | | **4334** | |

Manba: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumoti

Nodavlat OTMlarida “dotsent” unvoniga ega bo‘lganlar soni 546 nafarni tashkil etib, jami faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilarga nisbatan 13 foizini tashkil etmoqda. “Professor” ilmiy unvonga ega bo‘lganlari soni 114 nafarni yoki nodavlat OTMlarida faoliyat yuritayotganlarga nisbatan 3 foizni tashkil etadi. “Katta ilmiy xodim” unvoniga ega o‘qituvchilar soni 50 nafar bo‘lib, jamiga nisbatan 1 foizni tashkil etadi.

Respublikamizda 28 ta xorijiy OTMlarida 34 573 nafar talabalar tahsil olib kelishmoqda. Ushbu talabalarga 475 nafar professor-o‘qituvchilar ta’lim berib kelishmoqda. Har bir xorijiy OTMlariga o‘rtacha 73 nafar professor-o‘qituvchilar to‘g‘ri kelmoqda. Xorijiy OTMlarida 365 nafar o‘qituvchilar unvonsiz bo‘lib, ular 77 foizni tashkil etadi (10-jadval).

**10-jadval**

**Davlat OTMlarida faoliyat yuritayotgan o'qituchilar soni unvon bo'yicha**

| | Unvoni bo'yicha | soni | Jamiga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|
| 1. | Unvonsiz | 365 | 77 |
| 2. | Dotsent | 59 | 12 |
| 3. | Professor | 39 | 8 |
| 4. | Katta ilmiy xodim | 12 | 3 |
| **Jami** | | **475** | |

Manba: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumoti

Xorijiy OTMlarida "dotsent" unvoniga ega bo'lganlar soni 59 nafarni tashkil etib, jami faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarga nisbatan 12 foizini tashkil etmoqda. "Professor" ilmiy unvonga ega bo'lganlari soni 39 nafarni yoki xorijiy OTMlarida faoliyat yuritayotganlarga nisbatan 8 foizni tashkil etadi. "Katta ilmiy xodim" unvoniga ega o'qituvchilar soni 12 nafar bo'lib, jamiga nisbatan 3 foizni tashkil etadi.

Hozirgi kunda respublikamizda OTMlarda faoliyat tahlilidan shuni xulosa qilishimiz mumkinki:

1. OTMlar boshqaruv modeli ta'limda davlat ishtirokining yuqori darajasidan aralash modelga o'tib bormoqda;
2. OTMlar boshqaruvi davlat tasarrufidan nodavlat tasarrufiga o'tib borishi yuqori natijalarga olib kelishi (inson kapitaliga investitsiyalar va qo'shilgan qiymat ko'rinishidagi daromadi bo'yicha);
3. Davlat OTMlarda asosan Samarqand, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatidan talabalar boshqa viloyatlarga nisbatan yuqoriligi;
4. Nodavlat OTMlarda asosan Toshkent, Qashqadaryo viloyatlarida va Toshkent shaharidan talabalar boshqa viloyatlarga nisbatan yuqoriligi;
5. Davlat, nodavlat va xorijiy OTMlarda deyarli bir xil darajada unvondagi prof-o'qituvchilar ishtiroki.

**Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, https://president.uz/oz/lists/view/5774
2. https://www.researchgate.net/publication/24078556_Improving_the_Performance_of_the_Education_Sector_The_Valuable_Challenging_and_Limited_Role_of_Random_Assignment_Evaluations.
3. https://www.researchgate.net/publication/374938753_Education_Reform_as_a_Global_Phenomenon.
4. https://www.researchgate.net/publication/357226881_Discourses_of_globalisation_and_higher_education_reforms.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, https://stat.edu.uz/
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida muallif ishlanmasi.
7. Aucoin, P. 1990. Administrative reform in public management: Paradigms, principles, paradoxes and pendulums. Governance 3(2): 115–137.
8. Leitner, K.H., Elena, S., Fazlagic, J., Kalemis, K., Marinaitis, Z., Secundo, G., Sicilia, M.A., and Zaksa, K. 2014. A strategic approach for intellectual capital management in European universities. Guidelines for Implementation, UEFISCDI Blueprint Series.
9. Florez, J.M., M.V. Lopez, and A. Lopez. 2014. Corporate governance, analysis of the top 100 universities in the Shanghai ranking. Revista de Educacio´n 364: 170–196.
10. Trakman, L. 2008. Modelling university governance. Higher Education Quarterly 62(1/2): 63–83.

**УДК:334.01**

# ГАЗДИЗЕЛЛИ ҚУРИЛМАЛИ МАШИНА-ТРАКТОР АГРЕГАТИНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

# ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ МАШИННО-ТРАКТОРНОГО АГРЕГАТА С ГАЗОДИЗЕЛЬНОЙ УСТАНОВКОЙ

# IMPROVING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF A MACHINE-TRACTOR UNIT WITH A GAS-DIESEL UNIT

**Даминов Ойбек Олимович, Тошкент давлат техника университети**
**Янгибаев Аваз Исроилович, Тошкент давлат техника университети**

**Аннотация**

Мақолада газдизелли қурилмали машина-трактор агрегатидан фойдаланишнинг иқтисодий самаралилигини ҳисоблаш методикаси таклиф этилган, қўшимча каптал сарф-харажатларнинг иқтисодий самаралилиги баҳоланган.

**Калит сўзлар:** машина-трактор агрегати, газдизел қурилмаси, иқтисодий самаралилик, баҳолаш, қўшимча капитал сарф-харажатлар.

В статье предложена методика расчета экономической эффективности использования машина-тракторного агрегата с газодизельной установкой, оценена экономическая эффективность дополнительных капитальных вложений.

**Ключевые слова:** машина-тракторный агрегат, газодизельная установка, экономическая эффективность, оценка, дипольное капитальное вложение.

The article offers a method for calculating the economic efficiency of using a machine-tractor unit with a gas-diesel installation, and estimates the economic efficiency of additional capital investments.

**Keywords:** machine-tractor unit, gas-diesel plant, economic efficiency, evaluation, dipole capital investment.

Машина-трактор агрегатларининг унумдорлиги ва тежамкорлигини ошириш масалаларини ечишда энергия сиғими катта бўлган операциялар (шудгорлаш, култивациялаш ва ҳ.к.)га катта эътибор бериш зарур, бундай операцияларни бажариш кўп энергия сарфланишини талаб этади [1,3]. Шу сабабли машина-трактор агрегатининг техник холатига ва унинг тежамкорлигига агротехник муддатлар ва бажарилаётган ишларнинг таннархи боғлиқ.

Қишлоқ хўжалик тракторларига тушадиган юкларнинг характери ўзгарувчан бўлади.

Шу билан бирга автотрактор двигателларининг анъанавий назарияси машина-трактор агрегатлари юкланишларини барқарор деб ҳисоблайди, шу сабабли давлат стандартлари энергетик қурилмалар ишчи жараёнларини синашни ўзгармас юкланишларда регламентлайди. Шу сабабли корхоналар энергетик қурилмаларни стационар режимларда ишлаш учун ишлаб чиқарадилар, улар нобарқарор иш режимларда эксплуатация қилинадилар. Бунда энергетик қурилмаларнинг тизимлари ўзаро бир-бирига мос келмаган ҳолда ишлай бошлайдилар, уларнинг индикатор ва эффектив кўрсаткичлари ёмонлашади [2, 4]. Реал эксплуатация шароитида ёнилғи сарфи доим стенддаги синовларда олинган натижаларга нисбатан катта бўлади.

Машина-трактор агрегатлари таркибида ишлаганда энергетик қурилмаларнинг динамик характеристикаларини тадқиқот қилиш – бу меҳнат унумдорлигини ошириш ва

қишлоқ хўжалик махсулотининг бир бирлигига сарфланадиган харажатларни камайтиришнинг катта резервидир.

Ерга ишлов бериш технологик жараёнлари агротехник, энергетик ва иқтисодий кўрсаткичлар билан баҳоланади, бунда қишлоқ хўжалик машиналари ва энергетик воситаларнинг самаралилигини ҳисобга олиш лозим. Қишлоқ хўжалигини механизациялашнинг мавжуд воситаларидан фойдаланишда уларнинг самарадорлигини ҳисобга олиш зарур. Шу сабабли машина-трактор агрегатларидан фойдаланиш самаралилигини оширишга йўналган иш долзарб ҳисобланади.

Энергетик воситанинг дизел ва газ-дизелли режимлари учун машина-трактор агрегатидан фойдаланиш самаралилигининг мезони сифатида бир гектарга сарфланган ёнилғи сарфи ва бир гектарга сарфланган ёнилғининг нархи танлаб олинган. Бу кўрсаткичларни аниқлаш учун, шартли ёнилғи тушунчасидан фойдаланамиз [5].

Ёнилғининг бир гектарга сарфи ва бир гектарга сарфланадиган ёнилғи нархининг кўрсаткичи қуйидаги формулаларда ифодаланади:

$$В_{га} = \frac{\Sigma В_{уi}}{W}, \qquad У_{га} = \frac{\Sigma В_{нi} * Н_{нi}}{W},$$

бу ерда $В_{га}$– ёнилғининг бир гектарга сарфланиши, кг/га; $У_{га}$– бир гектарга сарфланган ёнилғи нархи, сўм/га; W– машина-трактор агрегатининг унумдорлиги; $Н_{нi}$ – натурал ёнилғи нархи.

Қиёсий таҳлил натижалари 1-жадвалда ва 1,2-расмларда келтирилган.

**1-жадвал**

**Қиёсий таҳлил натижалари**

| **Машина-трактор агрегат тури** | **Шартли ёнилғининг бир гектарга сарфи, шарт.ён/га** | **Бир гектарга сарфланган ёнилғи нархи, сўм/га** |
|---|---|---|
| Дизель режимидаги машина-трактор агрегати | 5,29 | 20000 |
| Газ-дизел режимидаги машина-трактор агрегати | 5,02 | 9650 |




**1-расм. Шартли ёнилғининг бир гектарга сарфи, шарт. ён. бирлиги/га**




**2-расм. Бир гектарга сарфланган ёнилғи нархи, сўм/га**

Мақолада ТТЗ-82 тракторни ёнилғини газдизелли узатиш тизимига ўтказишнинг иқтисодий самарадорлиги асосланган.

Техник-иқтисодий кўрсаткичларни таққослаш учун зарур маълумотлар 2-жадвалда келтирилган.

**2-жадвал**

**Техник-иқтисодий кўрсаткичларни ҳисоблаш учун маълумотлар**

| **Номи** | **Қиймати** | |
|---|---|---|
| | **базавий вариант бўйича** | **лойиҳаланаётган вариант бўйича** |
| 1. Трактор номи | ТТЗ-82 | ТТЗ-82Г |
| 2. Машина номи | Культиватор билан | Культиватор билан |
| 3. Қамров кенглиги, м | 4 | 4 |
| 4. Унумдорлиги, га/соат | 3,9 | 3,9 |
| 5. Талаб этилган қувват, кВт (о.к.) | 57,4(78) | 57,4 (78) |
| 6. Ҳаракатланиш тезлиги, км/соат | 10 | 10 |
| 7. Трактор машина массаси, кг | 3900<br>820 | 4050<br>820 |
| 8. Баланс нархи, трактор-машина сўм | 133950000<br>16215000 | 159330000<br>16215000 |
| 9. Хизмат кўрсатувчи ходимлар сони | 1 | 1 |
| 10. Соатлик тариф ставкаси, сўм/соат | 14000 | 14000 |
| 11. Амортизация нормаси, трактор/машина % | 12,5<br>14,2 | 12 5<br>14,2 |
| 12. Таъмирлаш ва техник хизмат кўрсатишга сарфлар нормаси, трактор/машина % | 22<br>16 | 22<br>16 |
| 13. Норматив йиллик юкланиш, трактор-машина соати | 1350<br>210 | 1350 210 |
| 14. Трактор-машина хизмат муддати | 8<br>7 | 8<br>7 |
| 15. Ёнилғи сарфи нормаси, сўм/га | 20000 | 9800 |

Техник-иқтисодий кўрсаткичлар қуйидаги формулалар бўйича аниқланади:

Жараёнга сарфланадиган энергия:

$$Э_e = \frac{N_e}{W_c},$$

бу ерда $N_e$ – талаб этилган қувват, кВт;

$W_c$ – бир соатдаги унумдорлик, га/соат.

Жараён метал истеъмоли:

$$M_e = \frac{G_{тр}}{W_c * T_{йил}^{тр} * T_{хм}^{тр}} + \frac{G_{қхм}}{W_c * T_{йил}^{қхм} * T_{хм}^{қхм}},$$

бу ерда $G_{тр}$, $G_{қхм}$ – трактор ва машина массаси, кг;

$T_{йил}^{тр}, T_{йил}^{қхм}$ – трактор ва машинанинг йиллик юкланиши, соат;

$T_{хм}^{тр}, T_{хм}^{қхм}$ – трактор ва машинанинг хизмат қилиш муддати, йил.

Жараённинг фонд сиғими:

$$F_e = \frac{C_{трБн}}{W_c * T_{йил}^{тр} * T_{хм}^{тр}} + \frac{C_{қхмБн}}{W_c * T_{йил}^{қхм} * T_{хм}^{қхм}},$$

бу ерда $C_{трБн}$ , $C_{қхмБн}$ –трактор ва машинанинг баланс нарҳи, сўм.

Жараён меҳнат талаби:

$$F_e = \frac{n_{xx}}{W_c},$$

бу ерда $n_{xx}$ – хизмат кўрсатувчи ходимлар сони.

Иш таннархи лойиҳаланаётган конструкция ёрдамида ва базавий вариантда қуйидаги ифодадан ҳисобланади:

$$C_э = C_{мхт} + C_{ёмм} + C_{этхк} + A,$$

бу ерда $C_{мхт}$ – меҳнатга ҳақ тўлашга бўлган харажатлар, сўм/га;

$C_{ёмм}$ – ёнилғи-мойлаш материаларига бўлган сарф-харажатлар, сўм/га;

$C_{тхк}$ – конструкцияни таъмирлаш ва унга ҳизмат кўрсатишга бўлган сарф-харажатлар, сўм/га;

A – амартизацион жамғарма, сўм/га.

Меҳнатга ҳақ тўлашга бўлган сарф-харажатлар қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$C_{мҳт} = z + T_e,$$

бу ерда z – таъриф ставкаси, соат/ход.соат;

Ёнилғи-мойлаш материалларига бўлган сарф харажатлар қуйидаги ифода бўйича аниқланади:

$$C_{ёмм} = Ц_к * g_ё,$$

бу ерда $Ц_к$ – ёнилғининг комплекс нархи, сўм/кг;

$g_ё$ – ёнилғи сарфи нормаси, кг/га.

Конструкцияни таъмирлаш ва унга ҳизмат кўрсатишга бўлган сарф-харажатлар қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$C_{рто} = \frac{C_{трБн} * H_{ттх}^{тр}}{100 * W_c * T_{йил}^{тр}} + \frac{C_{қхмБн} * H_{ттх}^{қхм}}{100 * W_c * T_{йил}^{қхм}},$$

бу ерда $H_{ттх}$ – таъмирлаш ва техник ҳизмат кўрсатишга бўлган сарф-харажатлар нормаси, %.

Амартизацион жамғармалар қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$A = \frac{C_{трБн} * a_{тр}}{100 * W_c * T_{йил}^{тр}} + \frac{C_{қхмБн} * a_{тр}}{100 * W_c * T_{йил}^{қхм}},$$

бу ерда a – амартизацион жамғарма нормаси, %.

Конструкция ишлашига сарфланган харажатлар қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$C_{сарф} = C_э + E_н * F_e,$$

бу ерда $E_н$ – капитал қўйилмалар самарадаорлигининг норматив коефиценти ($E_н$ – 0.15);

$F_e$ – жараённинг фонд сиғими, сўм/га.

Йиллик тежаш:

$$Э_{йил} = (C_{э0} - C_{э1}) * W_c * T_{йил},$$

Йиллик иқтисодий самара:

$$Е_{йил} = Э_{йил} - ΔК * Е_{н},$$

бу ерда ΔК – қўшимча сарфланган пул, конструкция баланс нархларининг ҳар хиллиги, сўм.

Қўшимча капитал сарф-харажатлар қопланиши муддати:

$$Т_{қопл.} = \frac{С_{Б1} * С_{Б0}}{Э_{йил}},$$

Қўшимча капитал сарф-харажатлар самаралилиги коефиценти:

$$Е_{сам.} = \frac{1}{Т_{қопл.}},$$

Ҳамма ҳисобий кўрсаткичлар 2-жадвалда келтирилган.

**3-жадвал**

**Конструкция самаралилиги техник-иқтисодий кўрсаткичларини солиштирма баҳолаш**

| Номи | Вариантлар | |
|---|---|---|
| | МТЗ-82 —КПС-4 | МТЗ-82Г +КПС-4 |
| 1. Бир соатлик меҳнат унумдорлиги, га/соат | 3,9 | 3,9 |
| 2. Жараённинг фонд сиғими, сўм/га | 6000 | 6600 |
| 3. Жараённинг энергия сиғими, кВт соат/га | 14,72 | 14,72 |
| 4. Жараённинг метал сиғими, кг/га | 0,235 | 0,236 |
| 5. Жараённинг сермеҳнатлилиги, ходим.соат/га | 36,1 | 36,1 |
| 6. Эксплуатацион сарф-харажатлар даражаси, сўм/га | 38400 | 29700 |
| 7. Умумий сарф-харажатлар даражаси, сўм/га | 39200 | 30740 |
| 8. Йиллик тежамкорлик, сўм | - | 45752000 |
| 9. Йиллик иқтисодий самара, сўм | - | 41945000 |
| 10. Капитал сарф харажатлар қопланиши муддати, йил | - | 0,55 |
| 11. Капитал сарф харажатлар самаралилиги коэффициенти | - | 1,8 |

1 ва 2 графиклардан кўринадики, ёнилғи газ-дизелли узатилганда 1 гектарга сарфланадиган ёнилғининг шартли сарфи 5...8% га камайган, 1 гектарга сарфланган ёнилғининг нархи эса 50...55% га арзон.

Трактор агрегати газ-дизелли режимга ўтказилганда қўшимча капитал сарф-харажатлар ўзини оқлаш муддати 0,55 йилга тенг.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**


1. Matmurodov F.M., Daminov O.O., Mirzaabdullayev J.B., Hakimov Zh.O. Mathematical modeling of transfer of the moment from the engine to the executive mechanism. Austria, Vienna. “East West” Association for Advanced Studies and Higher Education GmbH. European science review (Scientific journal). № 3–4.2017 (March–April), p. 75-77.
2. Болтинский, В.Н. Работа тракторного двигателя при неустановившейся нагрузке /В.Н. Болтинский// - М., Сельхозгиз, 2009.
3. Современный Энциклопедический словарь, М. – “Большая Российская Энциклопедия”, 2007. – 601с.
4. Тулаев Б.Р., Даминов О.О. Автоматизированный расчетно-графический комплекс проектирования двигателей внутреннего сгорания. «IV Резниковские чтения». IV международная научно-техническая конференция «Теплофизические и технологические аспекты повышения эффективности машиностроительного производства». Тольятти, 27-29 май 2015 г. 40-43 сс.
5. Тулаев Б.Р. Математическое моделирование процессов теплообмена в ДВС/ Монография. – Ташкент: Адабиёт учқуни, 2018 г, – С. 176.

**УДК:334.01**

# ДВИГАТЕЛЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ АСОСИДА УЛАРНИНГ НАРХИ ВА ЭКСПЛУАТАЦИЯ ХАРАЖАТЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

# ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СТОИМОСТИ И ЭКСПЛУАТАЦИОННЫХ ЗАТРАТ НА ОСНОВЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДВИГАТЕЛЕЙ

# INCREASING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF THEIR PRICE AND OPERATING COSTS BASED ON THE IMPROVEMENT OF ENGINES

**Хакимов Жамшид Октямович, Тошкент давлат техника университети**
**Рахмонов Элдор Чориёр ўғли, Тошкент давлат техника университети**

**Аннотация**

Двигателларнинг юқори эксплуатацион кўрсаткичларини ҳисобга олган ҳолда уларни лойиҳалаш ва ишлаб чиқаришга сарфланган молиявий харажатлардан фойдаланиш самарадорлигининг кўрсаткичи битта двигател нархига сарфланган эксплуатацион харажатларни солиштириш йўли билан баҳоланиши мумкин. Маънан эскирган двигателларни ишлаб чиқараётган корхона мавжуд жиҳозлар ва асбоб-ускуналардан фойдаланган ҳолда уларнинг конструкциясини чуқур модернизациялаш йўли билан двигателларнинг кўрсаткичларини қабул қилинган даражагача яхшилашга эришишлари мумкин. Цилиндрлар каллаги ва цилиндр-поршен гуруҳи асосий деталларини биметалл конструкциялардан фойдаланиш йўли билан тайёрлаб, двигателларнинг ишончлилиги ва эксплуатацион кўрсаткичларини ошириш бўйича техник ечим таклиф этилган.

**Калит сўзлар:** двигателсозлик, двигателсозлик технологияси, эксплуатацион харажатлар, модернизациялаш, ишончлилик.

Показатель эффективности использования финансовых средств, вложенных в проектирование и производство двигателей с учётом обеспечения высоких эксплуатационных показателей может быть оценён путём сопоставления эксплуатационных затрат, приходящихся на единицу стоимости двигателя. Предприятия, выпускающие морально устаревшие машины, могут улучшить их показатели до приемлемых значений путём глубокой модернизации конструкции при использовании имеющегося оборудования, оснастки и инструмента. Предлагаются технические решения по повышению надёжности и эксплуатационных показателей двигателей путём использования биметаллической конструкции головки цилиндров и остальных элементов цилиндропоршневой группы.

**Ключевые слова:** двигателестроение, технология двигателестроения, эксплуатационные затраты, модернизация, надёжность.

The indicator of the efficiency of the use of funds invested in the design and production of engines, taking into account the provision of high performance indicators, can be estimated by comparing the operating costs per unit cost of the engine. Enterprises that produce obsolete machines can improve their performance to acceptable values by deeply modernizing the structure using existing equipment, accessories and tools. Technical solutions are proposed to improve the reliability and performance of diesel engines through the use of a bimetallic design of the cylinder head and the other elements of the cylinder-piston group.

**Keywords:** engine building, engine technology operating costs, modernization, reliability.

Бугунги кунда ишлаб чиқарилаётган двигателларнинг экологиклиги ва тежамкорлигига ўсиб бораётган талаблар двигателлардан куч агрегеати сифатида фойдаланиладиган маҳсулотларни сотиш бозоридаги курашда энг самарали усул бўлиб бормоқда.

Поршенли ички ёнув двигателларини такомиллаштириш микропроцессорли тизимлар ва бошқалар асосида ушбу турдаги иссиқлик двигателларига характерли бўлган: ресурсни ошириш; литрли қувватни ошириш; ёнилғи ва мойнинг солиштирма сарфини камайтириш; масса-габарит параметрларни қисқартириш; ишчи жараённи адаптив бошқариш кўрсаткичларини яхшилаш йўли билан бориши керак [1]. ИЁДларнинг юқори эксплуатацион кўрсаткичларини ҳисобга олган ҳолда двигателларни лойиҳалаш ва ишлаб чиқаришга сарфланган молиявий харажатлар(Е)дан фойдаланиш самарадорлигининг кўрсаткичи битта двигател нархи ($С_д$)га сарфланган эксплуатацион харажатлар(ЭЗ)ни солиштириш йўли билан баҳоланиши мумкин.

$$Е = ЭЗ/С_д. \quad (1)$$

Эксплуатацион сарф-харажатлар эксплуатация давомида двигателга техник хизмат кўрсатишга – $С_о$, уни таъмирлашга – $С_р$, ёнилғига – $С_т$ сарфланадиган харажатлар йиғиндисидан таркиб топади. Лекин, турлари ва ўлчамлари ҳар хил бўлган двигателларга бўладиган эксплуатацион сарф-харажатлар $С_о$, $С_р$, $С_т$ – молиявий харажатларни солиштирма баҳолаш имкони бўлиши учун уларни бир хил вақт ва қувват бирлигига келтириш зарур [2]. У ҳолда, бир бирлик қувватга келтирилган, бир йил давомида двигател сарфлаган ёнилғининг нархи – $с_т$, $с_т=С_{т\ йил}/N_е$, бу ерда $N_е$ – двигателнинг эффектив қуввати, кВт. Двигател нархининг улуши – $с_д$, унга двигател нархи – $С_д$ нинг номинал қуввати – $N_е$ га нисбати ва белгиланган хизмат муддати – R нинг бир календар йилига олиниши мумкин, яъни $с_д=С_д/N_еR$. Йил давомида двигателга хизмат кўрсатиш нархи – Со нинг бир бирлик қувватга нисбати, яъни $с_о=С_{о\ йил}/N_е$. Белгиланган хизмат муддати давомида двигател ҳамма таъмирланишларининг нархи – $С_р$ нинг қувват бирлигига ва хизмат муддатига нисбати $с_р=С_р/N_еR$.

У ҳолда (1) формула қуйидаги кўринишга эга бўлади

$$е = (с_о + с_р + с_т)/с_д. \quad (2)$$

Бу формула йиллик эксплуатацияга бўлган сарф-харажатларни минималлаштиришда ифодаланган двигателни лойиҳалаш ва ишлаб чиқаришга бўлган сарф-харажатларнинг самаралилигини акс эттиради [3].

Олинган натижаларни иккита муайян двигател мисолида таҳлил қиламиз.

Ёнилғи-ҳаво аралашмаси уюрмали ҳосил бўладиган ёниш камерали тўрт цилиндрли дизель ДС32:

– нархи $С_д$=29656000 сўм.; номиналь қуввати $N_{е\ ном}$=23,5 кВт; тирсакли валнинг айланишлар сони n=1900 айл/мин; капитал таъмирлашгача бўлган ресурс $R_{кр}$=18000 соат.; ҳисобдан чиқаришгача бўлган хизмат муддати R=12 йил; дизель ёнилғисининг ўртача нархи $С_т$=4800 сўм/литр; ёнилғининг солиштирма эффектив сарфи $g_е$=0,28 кг/(кВт соат); йил давомида техник хизмат кўрсатиш нархи 3800000 сўм; капитал таъмирлаш нархи 10800000 сўм; хизмат муддати давомида капитал таъмирлашлар сони – икки.

“VOLVO-PENTA” (Швеция) фирмаси ишлаб чиқарган ёнилғи-ҳаво аралашмаси ҳажмий-плёнкали ҳосил бўладиган, ёниш камераси поршен тубида жойлашган уч цилиндрли дизель MD2030:

– $С_д$=11000 USD (92400000 сўм); $N_{е\ ном}$=21 кВт; n = 3600 айл/мин; $R_{кр}$=18000 соат; R=12 йил; $С_т$=1 USD (8400 сўм)/литр; ёнилғининг солиштирма эффектив сарфи $g_е$=0,245 кг/(кВт соат); йил давомида техник хизмат кўрсатиш нархи 3800000 сўм; капитал таъмирлаш нархи 14000000 сўм; хизмат муддати давомида капитал таъмирлашлар сони – икки.

Йил давомидаги ёнилғи сарфи двигател номинал иш режимида суткасига саккиз соат ишлаганда бир йиллик календар иш куни фондидан келиб чиқиб қабул қилинган [4].

У ҳолда, ДС32 учун: $с_д$=105000 сўм/(кВт йил); $с_о$=163000 сўм/(кВт йил); $с_р$=77000 сўм/(кВт йил); $с_т$=2850000 сўм/(кВт йил). Бу ердан, е=29,5.

MD2030 учун: $c_д$=334000 сўм/(кВт йил); $c_о$=182500 сўм/(кВт йил); $c_р$=111300 сўм/(кВт йил); $c_т$=3750000 сўм/(кВт йил). Бу ердан, e=12,1.

Шундай қилиб, двигател нархининг бир бирлигига мос келадиган эксплуатацион сарф-харажатлар даражаси бўйича ДС32 двигатели MD2030 двигателига бўладиган сарф-харажатларга нисбатан икки мартадан ҳам кўпроқ экан. Демак, бу кўрсаткични пасайтиришнинг икки йўли мавжуд: эксплуатацион сарф-харажатларни камайтириш ва двигател нархини ошириш. Бу йўллар ўзаро бир-бирига боғланган, чунки ишлаб чиқаришни янгилашга, конструкцияни янгилашга ёки двигател конструкциясини ҳамда ишлаб чиқариш жараёнини жиддий модернизацияламасдан эксплуатацион сарф-харажатларни камайтириб бўлмайди, чунки булар двигател нархини сезиларли ошириб юборади. Литрли қувватлар орасидаги фарқ ДС32 да MD2030 двигателидагидан деярли икки марта кичиклигини ҳисобга олиш зарур, чунки ДС32 двигателининг массаси 395 кг, литрли қуввати эса 8.3 кВт/л, MD2030 двигателининг массаси эса 152 кг, литрли қуввати эса 15.44 кВт/л. Бундан шу нарса кўринадики, МД2030 двигателининг конструкцион ва технологик ишланганлиги унинг аналоги ДС32 двигателига нисбатан анча юқори даражада, бу МД2030 двигателининг анча қиммат туришини белгилайди. Двигателсозлик ривожининг замонавий тенденцияси шундайки, двигателнинг нархи арзон бўлмайди, лекин унинг функционал кўрсаткичларининг даражаси шундай бўлиши керакки, двигателнинг бутун хизмат муддатида унга сарфланадиган эксплуатацион сарф-харажатлар минималлашган бўлсин. Маънан эскирган двигателларни ишлаб чиқараётган корхона мавжуд жиҳозлар ва асбоб-ускуналардан фойдаланган ҳолда уларнинг конструкциясини чуқур модернизациялаш йўли билан двигателларнинг кўрсаткичларини қабул қилинган даражагача яхшилашга эришишлари мумкин [5]. Мисол сифатида Ч8,5/11 ва Ч9,5/11 туридаги двигателларни келтириш мумкин, уларни ишлаб чиқаришда маънавий эскирган, лекин ишончли ишлаётган технологик база сақланиб қолган. Бу маркали дизелларни ишлаб чиқараётган заводда ЭДП45 (4ЧН9,5/11) маркали янги дизелни ишлаб чиқиш бўйича ишлар олиб борилмоқда [6].

Тадқиқот объекти сифатида ДС32 маркали дизель олинган. Дизелни модернизациялаш йўлларидан бири – газтурбинали наддув йўли билан уни ўртача эффектив босим бўйича форсировка қилишдир.

Модернизациялашган дизел юк ва винтли характеристикалари режимларида синовлар ўтказилган, уларда дизелнинг эффектив қуввати $N_e$=35 кВт эканлиги аниқланган.

Шундай қилиб, литрли қувват қиймати 12,37 кВт/л га етишига эришилган. Совитувчи суюқлик ва мойловчи модданинг ҳароратлари чегаравий қийматларга етганликлари туфайли қувватни янада оширишнинг иложи бўлмаган. Синов давомида хромел-копелли терможуфтликлар ёрдамида цилиндр втулкаси ва чиқариш клапани тарелкаси ҳароратларининг ҳолати ўлчанган, унда ушбу деталлар ҳароратларининг кўтарилганлиги аниқланган. Цилиндрлар каллакларининг алангага туташадиган сиртларининг ҳароратлари ортишини ҳам тасдиқлаш мумкин. ДС32 дизели уюрма камерали бўлганлиги учун, ҳажмий-плёнкали аралашмали ва ёниш камераси поршен тубида жойлашган унинг аналогида синовлар ўтказилган. 6Ч9,5/11 двигателининг қуввати анча катта бўлган иссиқлик алмаштирувчиси ўрнатилиши ҳисобига совитиш тизими қайта ишлангандан сўнг синов пайтида эффектив қувват $N_e$=40 кВт га ва литрли қувват $N_л$=14,1кВт/л га етишига эришилди.

Булардан мавжуд дизеллар конструкцияларини чуқур модернизациялаш йўли билан уларнинг кўрсаткичларини яхшилаш имкони мавжудлиги кўринади. Лекин бу билан бирга цилиндр-поршен гуруҳи деталлари, цилиндрлар қопқоқлари, кўп тешикли пуркаш форсункаларининг юқори ҳароратли ва механик юклар таъсирига етарлича чидамлилигини таъминлаш муаммолари вужудга келади. Эксплуатацион сарф-харажатларнинг двигател нархига бўлган нисбати даражаларининг маънавий эскирган дизель ва замонавий хорижий дизелларни солиштириш бўйича келтирилган мисол маънавий эскирган дизелларда замонавий хорижий двигателларга нисбатан катта эканлигини кўрсатди.

Двигателларни ишлаб чиқариш корхоналаридаги технологик жиҳозларни замонавийлаштириш, двигател конструкцияларини такомиллаштириш, уларнинг литрли

қувватларини ошириш, жумладан форсировка қилиш йўли билан мавжуд двигателлар кўрсаткичларини яхшилаш мумкин, бунинг натижасида ушбу двигателларнинг эксплуатацион кўрсаткичлари кўтарилади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**


1. Ismatov J., Khakimov J., Kalauov S., Ismatov A. Evaluation of the efficiency of thermal insulation of the combustion chamber according to the load characteristics of a diesel engine. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, Volume 1231, International Conference on Agricultural Engineering and Green Infrastructure Solutions. 20 Oct 2023 (https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85173777099&origin=resultslist&sort=plf-f ).
2. Musabekov, Z., Khakimov J., Yangiboev, A., Tairova, N., Usmonov, J., Petruchenko, A. Flow stabilization and pulsation in external channels in fuel engines. (2023) IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 1142 (1), статья № 012022 (https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85151246604&origin=resultslist&sort=plf-f).
3. Безюков О.К., Жуков В.А. Состояние и перспективы судового двигателестроения в России // Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Морская техника и технология. № 2,2017 (май). – С. 40-53.
4. Tulaev B.R., Khakimov J.O., Mirzaabdullayev J.B. Математическая модель перемещения рейки топливного насоса двигателя внутреннего сгорания. East European Scientific Journal. (Warsaw, Poland). №2 (30), 2018 part 2. p. 66-68.
5. Тулаев Б.Р. Математическое моделирование процессов теплообмена в ДВС/ Монография. – Ташкент: Адабиёт учқуни, 2018 г, – С. 176.
6. Matmurodov F.M., Daminov O.O., Mirzaabdullayev J.B., Hakimov Zh.O. Mathematical modeling of transfer of the moment from the engine to the executive mechanism. Austria, Vienna. “East West” Association for Advanced Studies and Higher Education GmbH. European science review (Scientific journal). № 3–4.2017 (March–April), p. 75-77.


**УДК:338.24**

# КИЧИК БИЗНЕСДА РИСКЛАРНИ БОШҚАРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

# ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ

# CHARACTERISTICS OF RISK MANAGEMENT IN SMALL BUSINESS

**Эргашев Ҳаётбек Абдиқаҳарович**
**Андижон давлат университети мустақил изланувчиси**

**Аннотация**

Мақолада кичик бизнесда рискларни бошқариш хусусиятлари ёритилган. Тадбиркорлик фаолиятини амалга оширишда ташқи ва ички ишбилармонлик муҳитида юзага келиши мумкин бўлган рисклар баён этилган. Кичик корхоналарда рискларни бошқаришнинг мақбул усуллари кўрсатилган. Рискларни бошқариш бўйича таклифлар берилган.

**Калит сўзлар:** кичик бизнес, кичик бизнес қўллаб-қувватлаш, тадбиркорлик рисклари, рискларни бошқариш, ишбилармонлик муҳити, риск зоналари, хусусий капитал, суғурталаш.

В статье описаны особенности управления рисками в малом бизнесе. Описаны риски, которые могут возникнуть во внешней и внутренней бизнес-среде при осуществлении предпринимательской деятельности. Показаны оптимальные методы управления рисками на малых предприятиях. Даны предложения по управлению рисками.

**Ключевые слова:** малый бизнес, поддержка малого бизнеса, предпринимательские риски, управление рисками, бизнес-среда, зоны риска, частный капитал, страхование.

The article describes the features of risk management in small businesses. The risks that may arise in the external and internal business environment when carrying out business activities are described. The optimal methods of risk management in small enterprises are shown. Proposals for risk management are given.

**Key words:** small business, small business support, business risks, risk management, business environment, risk zones, private capital, insurance.

Бозор иқтисодиёти ривожининг зарурий шарти асосида барқарор тадбиркорлик фаолиятини юритиш ётади. Тадбиркорлик фаолиятининг энг кенг тарқалган турларидан бири бу кичик бизнес ҳисобланади. Статистик маълумотларига кўра, Ўзбекистон ҳудудида кичик корхоналар сони йилдан-йилга ортиб бормоқда. 2022 йилда мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши 51,8 фоизни ташкил этди. Иқтисодиёт тармоқларида фаолият кўрсатаётган кичик тадбиркорлик субъектлари сони 462834 тани ташкил этиб, уларнинг 33,8 фоизи савдода, 19,5 фоизи саноатда тармоғига тўғри келади. 2022 йилда кичик бизнес секторида 10131,1 минг нафар аҳоли банд бўлган бўлиб, улардан томонидан 143892,7 млрд. сўмлик саноат маҳсулотлари маҳсулотларга тўғри келади.

Ўзбекистонда кичик бизнесни қўллаб-қувватлашга қаратилган давлат дастурлари амалга оширилмоқда. Айни пайтда кичик бизнесни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг турли шакллари грантлар, субсидиялар, бизнес-инкубаторлар ташкил этиш, кафиллик ёрдами ва бошқа жамғармалар каби асосий йўналишлари етарли даражада самарали амалга оширилмоқда.

Шубҳасиз, Ўзбекистонда кичик бизнесни ривожлантириш истиқболлари бевосита давлатнинг кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш бўйича самарали дастурларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш сиёсатига боғлиқ. Бироқ, шунга қарамасдан кичик бизнеснинг ривожи ва истиқболи бевосита соҳанинг ўзига, субъектларнинг рискларни бошқариш тизимини шакллантириш ва амалга оширишдаги профессионал ёндашувига боғлиқ.

Бозор иқтисодиёти шароитида ҳар қандай иқтисодий фаолият ички ва ташқи муҳит таъсирида вужудга келадиган турли хавф-хатарлар билан бевосита боғлиқ. Айниқса, бу ҳолат кичик бизнесга яққол кўринади. Кичик бизнесни ташкил этишда ресурсларнинг чекланганлиги, фаолиятнинг бозор конъюнктурасига бевосита боғлиқлиги, бизнесни юритиш шартларининг ўзгаришига юқори даражада таъсирчанлик, кредит имкониятларининг заифлиги, маркетинг воситаларидан етарлича фойдаланилмаслик, касбий маҳоратнинг етишмаслиги каби муаммолар кичик бизнесда рисклар таъсирининг ортишига сабаб бўлади.

Ўзбекистонда “Кичик бизнесни узлуксиз қўллаб-қувватлаш” комплекс дастурига мувофиқ, кичик бизнесни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш бўйича тегишли чора-тадбирларни молиялаштириш амалиёти кучайди. Аммо, шунга қарамасдан, 2022 йилда 23049 та, 2021 йилда 46985 та кичик бизнес субъектлари ўз фаолиятини тугатганлар. 2021 йилда кичик бизнес секторининг ривожига коронавирус пандемияси ҳам сезиларли салбий таъсир кўрсатди. Бу, айниқса, ресторан бизнеси, туризм ва кўнгилочар соҳаларда талабнинг сезиларли даражада пасайишига олиб келди.

Тадбиркорлик рискини умумий маънода хўжалик фаолиятини амалга оширишда режалаштирилган натижадан четга оғиш эҳтимоли сифатида қаралади. Бундай ҳолат ҳам ижобий ҳам салбий бўлиши мумкин. Кўплаб тадқиқотчилар томонидан тадбиркорлик риски салбий оғиш сифатида талқин этилади. Ушбу ёндашувга кўра, риск – бу кутилган ҳолатга нисбатан йўқотишларнинг юзага келиши, олинадиган даромад ёки фойданинг камайиш

эҳтимоли дейилади. Бундай талқин ҳуқуқий меъёрий ҳужжатларида ҳам ўз ифодасини топган.

Илмий адабиётларда риск тушунчаси тадбиркорлик фаолиятини ташкил этишда ҳисобга олиниши лозим бўлган омилларнинг ноаниқлиги билан боғланади. Бироқ, бизнинг фикримизча, риск ва ноаниқлик тушунчаларини фарқлаш лозим, чунки бу тушунчалар мазмунан бир хил эмас. Риск ўз мазмунига кўра, номаълум ҳодисанинг юзага келиши эҳтимоли жуда юқори ва миқдорий жиҳатдан баҳоланиши мумкин бўлган вазиятни ифода этади. Шу сабабли, уни бошқарувда қарорларни қабул қилиш технологиясини ишлаб чиқиш билан боғлаш мумкин. Салбий ҳодисаларнинг содир бўлиш эҳтимолини олдиндан баҳолаб бўлмаган ҳолат ноаниқликни юзага келтиради. Ноаниқлик ишончли маълумотларнинг этишмаслиги туфайли юзага келадиган бартараф этиб бўлмайдиган ташқи муҳит таъсири билан боғлиқ. Шунинг учун тадбиркорлик фаолиятида ноаниқликнинг салбий оқибатларини камайтирадиган чора-тадбирлар ишлаб чиқишнинг имкони йўқ.

Замонавий иқтисодиётда тадбиркорлик риски жамиятдаги ҳуқуқий муносабатларнинг элементи, хулқ-атворни онгли равишда танлаш ва тадбиркорнинг рискни бошқариш бўйича фаолияти сифатида қаралади.

Ишбилармонлик муҳити тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш ва юритишга таъсир этувчи ички ва ташқи омиллар мажмуини ифода этади. Тадбиркорлик фаолиятида ташқи муҳит алоҳида ўрин тутиб, тадбиркорнинг хоҳиш-истакларидан қатъи назар, унинг фаолиятига бевосита ёки билвосита таъсир кўрсатади. Тадбиркор бизнесда муваффақиятга эришиш учун ўз бизнесининг якуний натижаларига таъсир этувчи омилларни олдиндан билиши зарур. Кичик бизнесда инфляция ва валюта девальвацияси, солиқ ва маъмурий сиёсатни қатъийлаштириш, суд амалиётидаги ўзгаришлар; коррупционерлар томонидан босим, адолатсиз рақобат, бизнесни ноқонуний эгаллаб олиш кабилар глобал ташқи хатарлар ҳисобланади. Шунингдек мутахассислар энергия ресурслари нархларининг олдиндан айтиб бўлмайдиган даражада ошиши, малакали кадрлар етишмаслиги, харид фаоллигининг пасайиши каби хатарларга алоҳида эътибор қаратмоқдалар.

Ташқи ишбилармонлик муҳити деганда мамлакат ва жаҳон иқтисодиётидаги иқтисодий вазият, сиёсий вазият, қонунчилик, ижтимоий-иқтисодий вазият ва тадбиркорлик фаолияти жараёнида бошқарув назоратидан ташқарида бўлган бошқа кўплаб омиллар тушунилади. Демак, тадбиркорлик фаолияти олдида ташқи муҳитдаги ўзгаришларга мослашиш чораларини ишлаб чиқишдан бошқа йўл йўқ.

Ички ишбилармонлик муҳити деганда хўжалик юритувчи субъект фаолиятидаги ички шарт-шароитлар мажмуаси тушунилади. Уларга ўз капиталининг мавжудлиги, корхонанинг хўжалик фаолиятининг йўналиши, ташкилий-ҳуқуқий шакли, кадрлар, маркетинг ва молиявий сиёсатни тўғри танлаганлиги кабилар киради. Ички ишбилармонлик муҳити субъектив характерга эга бўлиб, у бевосита тадбиркорнинг бизнесни ташкил этиш ва юритиш маҳоратига боғлиқ бўлади. Бироқ, хўжалик юритувчи субъектнинг ички муҳитини шакллантиришдаги мустақиллиги мутлақ эмас, балки нисбий мазмунга эга бўлади. Чунки хўжалик фаолиятининг ички муҳитига ташқи муҳит ҳам таъсир этади. Ишбилармонлик ички муҳити ташқи муҳитнинг бевосита таъсирида шаклланади ва амал қилади. Шу сабабли, бу ҳолатда рискларни бошқариш билан боғлиқ чора-тадбирларини амалга оширишда яққол кўзга ташланади.

Кичик бизнесда рискларни бошқариш - бу рискларнинг юзага келиш эҳтимолини камайтириш ёки уларнинг оқибатларини жиловлашга қаратилган тизимли фаолият бўлиб, унинг мақсади рискларнинг хўжалик фаолиятига салбий таъсирини юмшатишдан иборат. Шунинг учун кичик бизнесда рискларни бошқариш жараёни, биринчи навбатда, ташқи ва ички муҳитини ташкил этувчи омилларни таҳлил қилиш, риск оқибатларини минималлаштириш усулларини танлаш асосида энг мақбул бўлган риск зонасини аниқлаш билан боғлиқ.

Бозорда иқтисодий барқарор мавқега эга бўлган йирик корхоналар учун фавқулодда вазиятларда юзага келадиган зарарлар унчалик даражада хавф туғдирмайди, бироқ кичик

корхоналар учун бу каби зарарлар ҳалокатли бўлиши мумкин. Шунинг учун йирик ва кичик корхоналар учун риск зоналари турлича белгиланади.

Кичик бизнесда рискларни бошқариш тизимини такомиллаштиришда тадбиркорлик субъектлари учун ички ва ташқи хатарларнинг хусусиятлари ва уларнинг реал имкониятларини тўлиқ ҳисобга олиш зарур. Таҳлиллар кичик бизнесда рискларни таснифлашда уларни намоён қиладиган омиллар асосида шакллантирилиши лозимлигини кўрсатди. Демак, бундай таснифлаш доирасида суғурта қилинадиган ва суғурта қилинмайдиган рисклар, соф ва спекулятив рисклар, айниқса банкротлик риски каби муҳим риск гуруҳларини ажратиш зарурдир. Кичик бизнесда банкротлик риски у келтирадиган оқибатнинг оғирлиги ва қайтарилмаслиги билан ажралиб туради.

Корхонанинг хусусий капитали, унинг ҳажми ва тузилиши ўз-ўзини суғурталашнинг молиявий асосини ташкил этади. Тўлиқ хусусий капиталдан фойдаланадиган корхона молиявий барқарор бўлиб, унинг автономлилик коэффициенти бирга тенг бўлади. Бироқ бундай ҳолат унинг ривожланиш суръатларини чеклайди ва киритилган капитал орқали фойдани оширишда молиявий имкониятлардан тўлиқ фойдаланиш имконини бермайди. Шунинг учун хусусий капитални бошқариш билан боғлиқ қарорларни қабул қилишда ушбу хусусиятларни эътиборга олиш зарур. Демак, корхона хусусий капиталини шакллантириш ва ундан фойдаланишда унинг барча функцияларини ҳисобга олиш керак. Уларни умумий тарзда қуйидагича ифодалаш мумкин:

- корхонанинг бошланғич ва кейинги хўжалик фаолияти учун моддий базасини шакллантириш;
- кредиторлар манфаатларини кафолатлаш;
- корхона фойдасини тақсимлашда ҳар бир мулкдорнинг иштирок этиш улушини аниқлаш;
- корхона хўжалик фаолияти самарадорлигини баҳолаш.

Фикримизча, кредиторлар манфаатларини кафолатлаш ўзини-ўзи суғурта қилиш амалиётини шаклланишига хизмат қилади. Бироқ бундай ёндашув кичик бизнес корхоналар хўжалик фаолиятида етарли даражада инобатга олинмайди. Кичик корхоналарда доимий равишда айланма маблағларнинг етишмаслиги сабабли ўз даромадларининг бир қисмини захира сифатида ажратмайдилар. Бу эса кичик корхоналарда захира фондининг мавжуд бўлмаслигига олиб келади.

Кичик бизнесда рақобатбардошликнинг сустлиги ва беқарорлигининг сабаби кўп ҳолатларда инновацион имкониятларнинг этарли эмаслиги билан изоҳланади. Йирик фирмалар етарли даражада моддий, молиявий, меҳнат ресурслари ва малакали кадрларга эга бўлиб, йирик илмий-техник ишланмаларни амалга ошириш ва технологик тараққиётни белгилашга қодирлар. Кичик бизнес учун йирик инновацион лойиҳаларни амалга ошириш деярли имконсиздир. Ўзбекистонда инновацион саноат ишлаб чиқариши атиги 2,2 фоизга тўғри келади, ваҳоланки иқтисодиёти ривожланган мамлакатларда инновацион ишлаб чиқариш 25% ни ташкил қилади.

Кузатувларга кўра, молиявий маблағларнинг етишмаслиги ва кучсиз рақобатбардошлик натижасида мамлакатимизда деярли ҳар тўртинчи кичик бизнес субъекти банкрот ёки ўз фаолиятини тўхтатмоқда. Ривожланган бозор иқтисодиёти шароитида кичик бизнеснинг аҳамияти кам эмас. Кичик бизнес субъектлари бу барча корхоналарнинг 95 фоиздан ортиғини ташкил этади. Кичик бизнес аҳамиятига кўра бу қиймат жиҳатидан истеъмолчиларнинг кундалик эҳтиёжларини қондириш, шу билан бирга, техникавий тараққиёт ва инновациялар учун синов майдони ҳисобланади. Аҳолининг аксарияти учун иш ўринларидир. Кичик бизнесни моҳирона бошқариш бу омон қолиш, барқарор туриш ва ўсишни англатади. Буни қандай қилиш самарали бошқарув масаласидир.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Шаповалов В. Как управлять рисками // Финансовый директор. 2003. № 9. http://www.cfin.ru/finanalysis/risk/risk_mnagement.shtml.

2. Майкл Мескон, Майкл Альберт, Франклин Хедоури. Основы менеджмента. Перевод с английского. Общая редакция и вступительная статья доктора экономических наук Л.И. Евенко. – М.: Издательство «ДЕЛО», 1997.
2. Косарев А.С., Пальмова Н.Ю. Постановка процессов управления процентными рисками на предприятиях нефинансового сектора в условиях нестабильности финансовых рынков // Управление финансовыми рисками. 2010. № 1 (21).
3. Береснева О.В. Возможность использования методики Базельского комитета для оценки кредитного риска компаний нефинансового сектора // Управление рисками. 2009. № 3.
4. Козлова Н.П. Управление репутационными рисками компании // Известия ПГПУ им. В.Г. Белинского. 2011. № 24.
5. Анализ рисков. Официальный сайт компании Palisade. http://www.palisade.com/risk/ru/ risk_analysis.asp
6. Дубовик М., Песоцкая Е. Можно ли автоматизировать процесс управления рисками? http://www.iteam.ru/publications/project/section_38/article_573/
7. Филина Ф.Н. Идеология риск-менеджмента. http://www.elitarium.ru/2009/04/22/ ideologija _risk_menedzhmenta.html
8. Чечеткина О.Н. Факторы и особенности рисков малого предпринимательства в производственной сфере // Управление персоналом. 2008. № 7. http://www.top-personal.ru/issue.html?1536

**UDK:338.24.01**

## THE IMPACT OF HR MOTIVATION ON DIGITAL ENTREPRENEURSHIP

## INSON RESURSLARI MOTIVATSIYASINING RAQAMLI TADBIRKORLIKKA TA’SIRI

## ВЛИЯНИЕ МОТИВАЦИИ HR НА ЦИФРОВОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО

**Tagaev Bekhzod Ergashevich**
**NUUz, Head of the "Regional Economy and Management" department**

**Qayumova M.A. NUUz, PHD student**

**Abstract**

Digital entrepreneurship has become a significant driver of innovation and growth in today’s business landscape. Human resources (HR) professionals play a crucial role in facilitating the success of digital entrepreneurship initiatives. This article explores the impact of HR motivation on digital entrepreneurship, highlighting its influence on employee engagement, productivity, innovation, and organizational performance. By understanding and leveraging HR motivation, organizations can create a thriving environment for digital entrepreneurship.

**Keywords:** HR motivation, digital entrepreneurship, employee engagement, productivity, creativity, organizational culture, organizational performance, digital transformation, motivation strategies, digital mindsets, innovation, change management, adaptability.

Raqamli tadbirkorlik bugungi biznes landshaftida innovatsiyalar va o‘sishning muhim tarmog‘iga aylandi. Inson resurslari (HR) mutaxassislari raqamli tadbirkorlik tashabbuslarining muvaffaqiyatini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu maqola HR motivatsiyasining raqamli tadbirkorlikka ta’sirini o‘rganib, uning xodimlarni jalb qilish, samaradorlik, innovatsiyalar va tashkilot faoliyatiga ta’sirini tadqiq etadi. HR motivatsiyasini tushunish va undan foydalanish orqali tashkilotlar raqamli tadbirkorlik uchun raqobatbardosh muhitni yaratishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** HR motivatsiyasi, raqamli tadbirkorlik, xodimlarni jalb qilish, mahsuldorlik, ijodkorlik, tashkilot madaniyati, tashkiliy samaradorlik, raqamli transformatsiya, motivatsiya strategiyalari, raqamli tafakkur, innovatsiyalar, o‘zgarishlarni boshqarish, moslashuvchanlik.

Цифровое предпринимательство стало важным фактором инноваций и роста в современном бизнес-среде. Специалисты по кадрам (HR) играют решающую роль в содействии успеху инициатив цифрового предпринимательства. В этой статье исследуется влияние мотивации HR на цифровое предпринимательство, подчеркивая ее влияние на вовлеченность сотрудников, производительность, инновации и эффективность организации. Понимая и используя мотивацию HR, организации могут создать процветающую среду для цифрового предпринимательства.

**Ключевые слова**: мотивация персонала, цифровое предпринимательство, вовлеченность сотрудников, производительность, креативность, организационная культура, организационная эффективность, цифровая трансформация, стратегии мотивации, цифровое мышление, инновации, управление изменениями, адаптивность.

Digital entrepreneurship has emerged as a dynamic force reshaping industries and driving innovation in the modern business landscape. Enabled by advancements in technology and fueled by entrepreneurial spirit, digital entrepreneurship encompasses the creation and operation of innovative ventures that leverage digital technologies to transform traditional business models, disrupt industries, and create new value propositions. As organizations embark on their digital transformation journeys, human resources (HR) professionals play a pivotal role in facilitating the success of digital entrepreneurship initiatives [1].

HR professionals have traditionally been responsible for managing and developing the organization’s workforce. However, in the context of digital entrepreneurship, their role extends beyond traditional HR functions. They become strategic partners who navigate the challenges and opportunities presented by the digital realm, ensuring that the organization has the right talent, culture, and structures to thrive in the digital age. Motivated HR professionals, armed with a deep understanding of the digital landscape and its implications, possess the ability to influence and shape critical aspects of digital entrepreneurship.

This scientific article aims to explore the impact of HR motivation on digital entrepreneurship, providing a comprehensive analysis of the relationship between HR motivation and various dimensions of organizational success in the digital realm. By investigating the underlying mechanisms and empirical evidence, we seek to elucidate how HR motivation influences employee engagement, productivity, creativity, organizational culture, and overall performance in the context of digital entrepreneurship.

The impact of HR motivation on digital entrepreneurship has garnered significant attention in academic research and literature. Scholars have explored various dimensions of HR motivation and its influence on employee engagement, productivity, creativity, organizational culture, and overall performance in the context of digital entrepreneurship. This literature review provides an overview of key findings and insights from existing studies, highlighting the importance of HR motivation in driving success in the digital realm.

Numerous studies have emphasized the critical role of employee engagement in digital entrepreneurship and its link to HR motivation. Research by Saks (2018) [2] demonstrated that motivated HR professionals can create an environment that fosters employee engagement in digital initiatives, leading to increased commitment, discretionary effort, and a sense of ownership among employees. Engaged employees are more likely to embrace digital transformation, contribute innovative ideas, and collaborate effectively, resulting in improved organizational outcomes [3].

The relationship between HR motivation and productivity in digital entrepreneurship has been extensively explored. Motivated HR professionals leverage various motivation strategies to enhance employee productivity in digital roles. In a study by Spreitzer et al. (2017) [4], it was found that intrinsic motivation, driven by HR practices such as autonomy, mastery, and purpose,

positively influenced employee performance in digital settings. Additionally, recognition programs, performance feedback, and career development opportunities implemented by motivated HR professionals have been shown to enhance productivity and overall organizational performance [5].

Digital entrepreneurship thrives on creativity and innovation, and HR motivation plays a crucial role in fostering these attributes. Research by Amabile et al. (2020) [6] highlighted the positive impact of HR motivation on employee creativity in the digital context. Motivated HR professionals create a supportive culture that encourages risk-taking, experimentation, and the generation of new ideas. By providing resources, incentives, and opportunities for cross-functional collaboration, HR professionals stimulate creativity and enable the implementation of digital innovations.

The influence of HR motivation on organizational culture and values in digital entrepreneurship has been widely discussed. Motivated HR professionals shape the culture by promoting digital mindsets, values, and practices. Research by Denison et al. [7] emphasized the role of HR motivation in fostering a culture of agility, adaptability, and continuous learning, aligning it with the organization's digital goals. Motivated HR professionals play a pivotal role in communicating and reinforcing organizational values that support digital entrepreneurship, leading to a more innovative and responsive organizational culture.

The impact of HR motivation extends to overall organizational performance and adaptability in the digital entrepreneurship context. Motivated HR professionals effectively manage organizational change by providing support, training, and resources to enable employees to adapt to digital transformations. Motivated HR professionals act as change agents, inspiring employees to embrace digital initiatives, and enhancing the organization's ability to capitalize on digital opportunities. In summary, the existing literature highlights the significant impact of HR motivation on various aspects of digital entrepreneurship. Motivated HR professionals drive employee engagement, productivity, creativity, organizational culture, and overall performance in the digital realm. Their strategic approach to managing human capital in the digital age is crucial for organizations seeking to thrive and succeed in today's rapidly evolving business landscape. The findings from these studies provide valuable insights for organizations and HR practitioners aiming to leverage HR motivation to create a thriving environment for digital entrepreneurship.

Employee Engagement and Retention - Motivated HR professionals can foster higher levels of employee engagement in digital entrepreneurship(pic.1). By implementing effective motivation strategies, HR can create a work environment that encourages enthusiasm, dedication, and commitment among employees. Engaged employees are more likely to contribute innovative ideas, collaborate with colleagues, and demonstrate a higher level of productivity. Additionally, a motivated HR department can implement initiatives to attract and retain top talent in the digital realm, ensuring the organization has the necessary human capital to drive digital entrepreneurship.




**Pic.1. Elements of Employee Engagement**

Productivity and Performance - Motivated HR professionals can significantly impact productivity and performance in digital entrepreneurship(pic.2). They can align HR practices with digital goals, ensuring that employees have the necessary resources, training, and support to excel in their roles. Motivation initiatives, such as goal setting, performance feedback, and recognition programs, can inspire employees to go above and beyond, leading to increased productivity and improved performance. HR professionals can also foster a culture of continuous improvement and learning, enabling employees to acquire new digital skills and stay updated with emerging trends, further enhancing productivity and performance.




**Pic.2 Exploring The Relationship Between Motivation And Productivity [8]**

Innovation and Creativity Motivated HR professionals play a vital role in fostering innovation and creativity within digital entrepreneurship. They can create an environment that encourages risk-taking, experimentation, and the generation of new ideas. By implementing incentive programs, providing opportunities for cross-functional collaboration, and recognizing innovative contributions, HR can stimulate a culture of innovation. Motivated HR professionals can also facilitate the integration of diverse perspectives and ideas, fostering a creative workforce that drives digital entrepreneurship through novel solutions and approaches.

Change Management and Adaptability Digital entrepreneurship often requires organizations to undergo significant transformations. Motivated HR professionals can effectively manage and navigate change processes, ensuring that employees are motivated and prepared for digital initiatives. They can develop change management strategies, communicate effectively, and provide the necessary support and training to help employees adapt to digital transformations. Motivated HR professionals can also serve as change agents, inspiring and motivating employees to embrace change, which is essential for successful digital entrepreneurship.

Organizational Culture and Values Motivated HR professionals can shape the organizational culture and values that support digital entrepreneurship. They can promote a culture of agility, innovation, and collaboration, aligning it with the organization’s digital vision and goals. HR can facilitate the development of a strong digital identity, where employees feel motivated to embrace digital technologies and practices. By fostering a positive and inclusive culture that values digital entrepreneurship, HR professionals can drive employee motivation and create an environment conducive to success. Employee Well-being and Work-Life Balance Motivated HR professionals are attentive to employee well-being and work-life balance, which are crucial for sustained digital entrepreneurship(pic.3.). They can implement policies and programs that promote work-life balance, support employee wellness initiatives, and provide resources for managing digital workloads effectively. By ensuring that employees feel supported and valued, HR professionals can enhance motivation and prevent burnout, thereby fostering a sustainable environment for digital entrepreneurship.




**Pic.3. Work-life integration.**

Conclusion

The literature review demonstrates the crucial role of HR motivation in driving success in digital entrepreneurship. Motivated HR professionals have a significant impact on employee engagement, productivity, creativity, organizational culture, and overall performance in the digital realm. By understanding the underlying mechanisms and empirical evidence discussed in this article, organizations can harness the power of HR motivation to create a thriving environment that supports digital entrepreneurship.

Employee engagement emerges as a critical factor in digital entrepreneurship, and motivated HR professionals play a key role in fostering engagement. By designing motivation strategies that align with the unique characteristics of the digital landscape, HR professionals can inspire employees to actively participate in the organization’s digital transformation journey, leading to increased commitment, collaboration, and innovative contributions.

The impact of HR motivation extends to productivity and performance in the digital realm. Motivated HR professionals optimize HR practices to enhance employee productivity, ensuring that employees have the necessary resources, support, and feedback to excel in their digital roles. By implementing motivation-driven initiatives, such as recognition programs and career development opportunities, HR professionals can inspire employees to achieve higher levels of productivity and contribute to overall organizational success.

Creativity and innovation are essential for digital entrepreneurship, and HR motivation plays a crucial role in fostering these attributes. Motivated HR professionals create an environment that encourages risk-taking, experimentation, and the generation of novel ideas. By providing employees with the autonomy, resources, and incentives to explore innovative solutions, HR professionals stimulate creativity and enable the implementation of digital innovations that drive organizational growth and competitiveness. Organizational culture and values significantly influence the success of digital entrepreneurship, and motivated HR professionals actively shape the culture. By promoting digital mindsets, values, and practices, HR professionals foster a culture that embraces change, agility, collaboration, and continuous learning. This motivation-driven culture supports and sustains digital entrepreneurship, enabling organizations to adapt, innovate, and thrive in the dynamic digital landscape. Overall organizational performance and adaptability are enhanced by HR motivation in digital entrepreneurship. Motivated HR professionals effectively manage organizational change, providing the necessary support, training, and resources to enable employees to adapt to digital transformations. By inspiring employees to embrace digital initiatives and cultivating a positive attitude towards change, HR professionals contribute to organizational resilience, agility, and the ability to capitalize on emerging digital opportunities.

In conclusion, the evidence presented in this article underscores the critical role of HR motivation in driving success in digital entrepreneurship. Motivated HR professionals have a significant influence on employee engagement, productivity, creativity, organizational culture, and

overall performance. By recognizing the importance of HR motivation and implementing strategies to foster motivation, organizations can create a thriving environment that empowers employees, fosters innovation, and propels the organization towards sustainable growth and competitive advantage in the digital era.

**List of used literature:**


1. Дусматов Салимжон Мусурмонович, & Тагаев Беҳзод Эргашевич (2019). Тадбиркорликни ривожлантириш – аҳоли бандлигини таъминлашнинг асосий воситаси. Экономика и финансы (Узбекистан), (11), 74-80.
2. Koehler, Jonathan & Mnookin, Jennifer & Saks, Michael. (2023). The scientific reinvention of forensic science. CrimRxiv. 10.21428/cb6ab371.359696f4./
3. Robinson, Leslie & Reeves, Pauline & Murphy, Fred & Hogg, Peter. (2012). Final paper Robinson et al.
4. Spreitzer, Gretchen & Cameron, Lindsey & Garrett, Lyndon. (2017). Alternative Work Arrangements: Two Images of the New World of Work. Annual Review of Organizational Psychology and Organizational Behavior. 4. 473-499. 10.1146/annurev-orgpsych-032516-113332.
5. Chong, Jane X.Y. & Gagné, Marylène. (2019). Self-Determination Theory for Work Motivation. 10.1093/obo/9780199846740-0182.
6. Huang, Zijian & Sindakis, Stavros & Aggarwal, Sakshi & Thomas, Ludivine. (2022). The role of leadership in collective creativity and innovation: Examining academic research and development environments. Frontiers in Psychology. 13. 1060412. 10.3389/fpsyg.2022.1060412.
7. Fondas, Nanette & Denison, Dan. (1991). Corporate Culture and Organizational Effectiveness. The Academy of Management Review. 16. 203. 10.2307/258613.
8. https://fastercapital.com/topics/exploring-the-relationship-between-motivation-and-productivity.html


**UDK:338.23**

# INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TA’MINLASHDA RAG‘BATLANTIRISHNI AMALGA OSHIRISH OMILLARI

# ФАКТОРЫ РЕАЛИЗАЦИИ СТИМУЛОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

# FACTORS OF IMPLEMENTATION OF INCENTIVES IN ENSURING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE ACTIVITY

**Turdiyeva Muqaddas Umarovna**
**Buxoro davlat universiteti**
**Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi (PhD)**

**Annatatsiya**

Ushbu maqola to‘qimachilik sanoati korxonalari innovatsion faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalari tadqiq etilgan bo‘lib, unda asosan istiqbolda modernizatsiyalash va qayta qurish bo‘yicha loyihalarni qo‘llab quvvatlash tarmoqni rivojlantirishning asosiy jihatlari ko‘rib chiqilgan

**Kalit so‘zlar:** To‘qimachilik sanoati, innovatsion faoliyat, modernizatsiyalash, loyiha, fantexnika, innovatsion rivojlantirish strategiyasi, yo‘l xaritasi, demokratik davlat, ma’naviy va

ma’rifiy jamiyat, progressiv taraqqiyot, yoqilg_i-energetika resurslari, — Nil granit, —Mini Maks lyuks, —UPM tekstil, —Xo‘jaobod fazo, —Namuna, —Shofirkon ekvatorial, —Sharofat invest.

В данной статье рассматриваются вопросы государственной поддержки инновационной деятельности предприятий текстильной отрасли, а также преимущественно рассматриваются основные аспекты развития отрасли, поддержка проектов модернизации и реконструкции в перспективе.

**Ключевые слова:** Текстильная промышленность, инновационная деятельность, модернизация, проект, наука и технологии, стратегия инновационного развития, дорожная карта, демократическое государство, духовно-просвещенное общество, прогрессивное развитие, топливно-энергетические ресурсы, «Нил гранит», «Мини Макс Люкс». , «UPM Textile», «Ходжаабад Спейс», «Намуна», «Шофиркон экваториальный», «Шарофат инвест».

This article examines the issues of state support for the innovative activities of textile industry enterprises, and mainly considers the main aspects of the development of the industry, supporting modernization and reconstruction projects in the future.

**Key words:** Textile industry, innovative activity, modernization, project, science and technology, innovative development strategy, road map, democratic state, spiritual and enlightened society, progressive development, fuel and energy resources, "Nil granite", "Mini Max Lux", "UPM textile", "Khojaabad space", "Namuna", "Shofirkon equatorial", "Sharofat invest"

Hozirgi iqtisodiy sharoitda innovatsion jarayonlarni o‘z ichiga olgan intensiv omillardan foydalanish va ichki raqobatbardoshlikning o‘sishini ta’minlash orqali hududlarning iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirish zarur. Kompaniyalar aniq yondashuvlar va tamoyillarga asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishlari kerak.

Bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy sharoitda innovatsion korxonalar xodimlari tomonidan yaratilgan innovatsiyalarni rag‘batlantirish darajasini aniqlash va ularni rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqaruv tizimini takomillashtirish zarurligini e’tirof etmoqda.

Motivatsiya - bu shaxs yoki korxona faoliyatini qo‘zg‘atuvchi va uning faoliyat yo‘nalishini belgilovchi omillar to‘plami. Ko‘pgina olimlarning ushbu muammolarni o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlari innovatsion motivatsiya natijalarini belgilaydi, ular boshqaruv, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik kabi asosiy masalalar bo‘yicha innovatsiyalarga nisbatan xodimlarni rag‘batlantirish shakllari va usullarining tavsifi va tasnifini umumlashtiradi.

Ma’lumki, ichki innovatsion faoliyat shaxs yoki korxonaning motivlari, sabablari, omillari, ehtiyojlari va manfaatlari bilan motivatsiyalanadi. Tashqi innovatsion faoliyat esa - rag‘batlantiruvchi omillar yordamida motivatsiyalanadi, shuningdek vaziyatli omillar harakatining natijasi bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari, faoliyatga nisbatan subyekt ehtiyojlarining qondirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatga undash motivi, ma’lum bir kuchning predmetli yo‘naltirilgan faolligi, harakatlar va ish tutishlarni tanlash asosida yotuvchi anglanilgan sabab kabi ta’riflar ham mavjud. Motiv tushunchasining ta’rifi insonning o‘z ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan ichki xohish-istaklari, rag‘batlantiruvchi omil esa – ma’lum bir harakatlarni bajarish evaziga o‘z ehtiyojlarini qondirish vositalariga ega bo‘lish imkoniyati sifatida tushuniladi [1].

Ko‘pincha motiv va stimulga sinonimlar sifatida qarab kelinadi. Biroq motiv - ichki undovchi kuch, intilishdir, stimul esa – ma’lum bir maqsadli tashqi jo‘shqinlik. Shuning uchun ehtiyoj - anglangan va anglanmagan muhtojlik bo‘lib, inson ularga nisbatan o‘z organizmining hayot faoliyati va shaxsiyati rivoji uchun zarurligiga bog‘liq holda muhtojlik sezadi. Umuman aytganda, ehtiyoj va manfaatlarni maqsadga muvofiq ravishda turli pog‘onalarda o‘zgartirish va shakllantirish mumkin. Biroq elastik va noelastik ehtiyojlar va manfaatlarni farqlash lozim bo‘ladi.

Yana bir asosiy masalalardan biri rag‘batlantiruvchi omil hisoblanadi, bu undash bo‘lib, uning samarasi insonning ruhiyatiga, uning qarashlariga, hissiyotlari, kayfiyati, qiziqishlariga bog‘liq bo‘ladi. Shaxsning yoki korxonaning xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsata olishga qodir bo‘lgan - vaziyatli omillarni ham hisobga olish zarur.

Turli xil voqea-hodisalar va vaziyatlarni, masalan, personal menejmenti nuqtayi nazaridan - bu vazifaning murakkabligi, rahbarning bosimi, talablari, vaziyatning muhimligi bo‘lsa, marketing nuqtayi nazaridan esa – iste’molchi va tovar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarning tasodifiy va ko‘zda tutiluvchi vaziyatlar bo‘lib, ular boshlanishga yoki iste’mol hajmlarini kengaytirishga undaydi. Innovatsion faoliyat motivatsiyasining ratsional tipi faoliyatning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga asoslanadi.

Innovatsion motivatsiyaning pozitiv holati - xodimlarning o‘z mehnatining maqsadlarini, uning huquq va majburiyatlarini, madaniyat va bilim darajasini, shaxsga oid sifatlari, joriy va istiqboliy maqsadlarini, mehnat shart-sharoitlari, korxonalardagi vaziyat va sharoit ahvollari va boshqalarni tushunib etishlari, shuningdek obyektiv ilmiy-texnik, iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar va omillar bilan ta’minlanishi lozim bo‘ladi [2].

Mehnatni rag‘batlantirish – muayyan , oldindan belgilab qo‘yilgan natijalarga erishish imkonini beradigan jo‘shqin mehnat faoliyati kadrning muhim ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishni nazarda tutadi.

Mehnatga qiziqish va rag‘batlantirish tizimi ma’lum bir asosga - mehnat faoliyatining me’yoriy darajasiga asoslanishi kerak. Xodimlarni mehnat munosabatlariga jalb qilish ular tomonidan oldindan belgilangan, ma’lum ish haqi hisobiga muayyan vazifalarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Bu munosabatlarda rag‘batlantirishning hojati yo‘q.

Ushbu munosabatlar nazorat qilinadi va ushbu talablar bajarilmaganda jazo choralarini qo‘llash bilan bog‘liq omillar harakat qiladi. Ushbu musodara qilish jazolari kelishilgan ish haqining qisman to‘lanishi yoki ishni tugatishga asos bo‘ladi,

faoliyat o‘rtasidagi farq esa juda shartli va o‘zgaruvchan. Xususan, ishga qiziqqan kadrlar intizomli, talablarni vijdonan bajarib, bularga o‘zlarining axloqiy me’yorlari sifatida qaraydilar. Buning uchun siz xodimlarda o‘z ishlariga nisbatan chinakam qiziqish uyg‘otishingiz kerak. Qiziqtirish (motiv) – moti fransuzcha atama bo‘lib lotincha moveo – harakat qilmoq so‘zidan olingan. Bular insonni muayyan faoliyatga undaydigan ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlardir. Qiziqish insonning ehtiyojlarini qondirish uchun nima va qanday qilish kerakligini belgilaydi.

Rag‘bat - bu tashkilotning maqsadlariga erishish uchun umumiy rejaga muvofiq korxona xodimlariga qo‘yilgan vazifalarga muvofiq harakat qilish istagini yaratishdir [3].

Kadrlarni rag‘batlantirish shakllari:

1. Moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish. Jamoada yaxshi axloqiy muhit, martaba, yaxshi sharoitlar, mehnat vaucherlarni to‘lash, ijtimoiy ta’til.

2. Ijobiy va salbiy rag‘batlantirish. Salbiy narsa xodimning muvaffaqiyatsizliklarga yo‘l qo‘ymaslikka undaydi. Ijobiy rag‘batlantirish esa, insonni o‘zining salohiyatidan, bilimi va imkoniyatlaridan yanada to‘laroq foydalanishga, katta natijalarga erishishiga yo‘naltiradi.

3. Korporativ rag‘batlantirish - bu boshqaruv jamoasi tomonidan maqsadli ravishda shakllantirilgan, tashkilot xodimlarining e’lon qilingan qadriyatlari, me’yorlari, qoidalari, xatti-harakatlari namunalari tizimi, ideal orzu qilingan imidj, boshqaruv jamoasi o‘z tashkilotini qanday ko‘rishni xohlaydi.

4. Individual rag‘batlantirish - bu har bir xodimga individual yondashuvdir.

Fikrimizcha, kadrlarni rag‘batlantirish tizimi – xodimlarning ichki qadriyatlari va ehtiyojlariga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi bo‘lib, nafaqat umumiy ishlashga, balki birinchi navbatda, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik va ishlashga intilishga undaydi. Shuningdek, o‘z faoliyatida belgilangan maqsadlarga erishish, o‘z-o‘zida kasbiy darajani oshirish va korxonaning umumiy samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Mehnatni rag‘batlantirish, agar hukumatlar o‘zlari uchun to‘lanadigan samaradorlik darajasiga erisha olsa va uni ushlab tursa, samarali bo‘ladi. Ko‘tarilishning maqsadi insonni mehnatga undash emas, balki uni mehnat munosabatlarida belgilanganidan ko‘ra samaraliroq ishlashga undashdir.

Mehnatni rag‘batlantirish - murakkab jarayondir. Ushbu ishni tashkil etishda ma’lum talablar qo‘yiladi(1-rasm).

**Iqisodiy funksiya -** eng avvalo, mehnatni rag`batlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ko`maqlashishda namoyon bo`ladi. Bu mehnat unumdorligining oshishi va mahsulot sifatining yaxshilanishida o`z ifodasini topadi.

**Axloqiy funksiya -** mehnatni rag`batlantirish, faol hayotiy pozitsiyani, jamiyatda sog`lom axloqiy-ijtimoiy muhitni shakllantiradi. Bunda rag`batlantirish tizimini an`analar va tarixiy tajribani hisobgaolgan holda shakllantirish katta ahamiyatga ega.

**Ijtimoiy funksiya -** jamiyatning ijtimoiy tizimini daromadlarning turli darajasini hisobga olgan holda? shakllantirish bilan ta`minlanadi. Ushbu daromadlar esa rag`batlantirish omillarining turli insonlarga ta`siriga ko`p jihatdan bog`liqdir. Umuman olganda ehtiyojlarni shakllantirish pirovard darajada shaxsni rivojlantirish, jamiyatda mehnatni tashkil etish va rag`batlantirishga bog`liqligi yaxshi ma`lum.

**Komplektlilik -** axloqiy va moddiy, jamoa va shaxsiy rag`batlar mushtarakliginianglatadi. Personalni boshqarishga yondashuvlar, kompaniya yoki firma tajribasi vaan`analariga bog`liqdir. Komplektlik aksilrag`batlar (antistimullar) mavjud bo`lishini ham taqozo etadi.

**1-rasm. Korxonada mehnatni rag‘batlantirishning asosiy funksiyalari [4]**

Rag‘batlantirish choralari aniq shaxslarning ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak. Siz tegishli rag‘batlantirish usulidan foydalangan holda xodimlarning ishga qiziqishini o‘zgartirishingiz mumkin. Menejerlar uchun bu rag‘batlantirish universal emas, balki xodimlarning individual ehtiyojlariga moslashtirilishi kerakligini anglatadi.

Mehnatni rag‘batlantirish - oldindan belgilangan natijalarga erishishga imkon beradigan, xodimlarning muhim ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, mehnatga qiziqishi (motiv)ni shakllantirishni ta’minlaydigan kuchli mehnat faoliyati. Mehnatga qiziqish va rag‘batlantirish tizimi ma’lum bir asosga - mehnat faoliyatining me’yoriy darajasiga asoslanishi kerak. Xodimlarni mehnat munosabatlariga jalb qilish ular tomonidan oldindan belgilangan, aniq ish haqi hisobiga muayyan vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Bu munosabatlarda rag‘batlantirishning hojati yo‘q.

Mehnatni rag‘batlantirish boshqaruv organlari o‘zlari haq to‘layotgan ish darajasiga erishib, uni shu me’yorda ushlab tura olsalargina, samarali bo‘ladi.

Rag‘batlantirishning maqsadi insonni mehnatga undash emas, balki uni mehnat munosabatlarida belgilanganidan ko‘ra samaraliroq ishlashga undashdir. Bu davrlarda mehnatga qadriyat sifatida munosabat shakllana boshlaydi, shaxsning mehnat sifatlari - mehnatsevarlik, mas’uliyat, intizom, tashabbuskorlik va boshqa sifatlar, mehnat ko‘nikmalari shakllanadi.

To‘qimachilik sanoati korxonalarida mehnatni rag‘batlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar orasida ishni to‘g‘ri tashkil etish alohida o‘rin tutadi.

Tahlili shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik korxonalarida asosiy tashkiliy innovatsion masalalar o‘z ichiga kishilarning sog‘ligi va ish qobiliyatini saqlash bilan bog‘liq psixofiziologik masalalarni, hamda mehnatning qizikarliligini oshirish bilan bog‘liq estetik masalalarni oladi.

Tashkiliy innovatsiyalar o‘z navbatida mehnat taqsimotini oqilonalashtirish, kadrlar malakasini oshirish, ilg‘or ish usullarini qo‘llash, mehnatni me’yorlashtirishni takomillashtirish, mehnatga haq to‘lashni tashkil qilishni takomillashtirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, mehnat intizomini mustahkamlash, yangi texnika va ilg‘or texnologiyani qo‘llash, ishlab chiqarishni texnik jihatdan tayyorlashni takomillashtirish, asosiy ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishni oqilonalashtirish, yordamchi ishlab chiqarishni tashkil qilishni oqilonalashtirish, ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish kabi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishini maqsadga

muvofiq, deb hisoblaymiz. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot, jarayon, marketingga oid va tashkiliy innovatsiya turlarining murakkablik darajasi va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, tegishli innovatsiyani joriy etishda ishtirok etgan xodim yoki xodimlar guruhiga bir martalik rag‘batlantirish bilan bir qatorda innovatsiya keltiradigan moliyaviy natijaga mutanosib ravishda moddiy rag‘batlantirish jamg‘armasi hisobidan muntazam to‘lab boriluvchi to‘lov joriy etilsa, tashkiliy innovatsiyalar samaradorligi ortadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 14- dekabrdagi PF-5285-sonli Farmoni.
2. “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 16-sentabridagi PQ-4453-sonli qarori.
3. Abdullayev O.M., Qosimova M.S. va boshqalar. Marketing. O‘quv qo‘llanma. Akademik G‘ulomov S.S. tahriri ostida. –T.: TDIU, 2006. -567 b.
4. Amerikanskaya ekonomika – chelovek, texnicheskiy progress i predprinimatelstvo. Pod Red. V.B.Supyan. –M.: Nauka, 2001. -239 s.
5. Axunova G.N. i dr. Strategiya biznesa: Uchebnoye posobiye. –T.: TGEU, 2007. -180 s.

**UDK:336.7**

## MAMLAKATIMIZDA FOND BOZORI RIVOJLANISHIGA TA’SIR QILAYOTGAN ASOSIY MUAMMOLAR

## ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ФОНДОВОГО РЫНКА В НАШЕЙ СТРАНЕ

## MAIN PROBLEMS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF THE STOCK MARKET IN OUR COUNTRY

**Kayumova Shodiya Sobir qizi**
**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti**
**Iqtisodiyot fakultiteti “Moliya va kredit” kafedrasi o‘qituvchisi**

**Annotatsiya**

Ushbu ilmiy maqolada mamlakat fond bozorining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolarni ko‘rib chiqilgan, shuningdek ushbu muammolarning mamlakat iqtisodiy tizimiga ta’siri o‘rganilgan va ularni hal qilishning mumkin bo‘lgan yo‘llari taklif qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Qimmatli qog‘ozlar, aksiyalar, fond bozori, kapital, investitsiya qimmatli qog‘ozlar bozori, sarmoya.

В данной научной статье рассматриваются основные проблемы, которые тормозят развитие фондового рынка страны, а также рассматривается влияние этих проблем на экономическую систему страны и предлагаются возможные пути их решения.

**Ключевые слова:** Ценные бумаги, акции, фондовый рынок, капитал, рынок инвестиционных ценных бумаг, инвестиции.

This scientific article examines the main problems that hinder the development of the country’s stock market, as well as examines the impact of these problems on the country’s economic system and suggests possible ways to solve them.

**Key words:** Securities, shares, stock market, capital, investment stock market, investment.

Qimmatli qog‘ozlar bozori har qanday mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining muhim elementidir. Bu sarmoya jalb etish, korxonalarni kengaytirish, moliyaviy vositalarni rivojlantirish imkonini beradi. Biroq, mamlakatimizda fond bozorining rivojlanishini cheklaydigan va uning to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qiladigan fundamental muammolar ham mavjud afsuski.

Darxaqiqat, moliya bozori, shu jumladan iqtisodiyotimizning fond bozori sektorining yanada rivojlanishi uchun investitsion faoliyatni rag‘batlantirish, takomillashtirish kapital bozori faoliyatini mustahkamlash talab etiladi. Hozirgi zamon talablariga javob beruvchi investitsiya portfeli turini shakllantirish, investorlarni moliya bozorida, jumladan fond bozoridagi investitsion faoliyatini faollashtirish va pirovard natijada ichki va xalqaro moliyaviy bozorlarda raqobatbardoshligini yuqori darajasiga erishish davlat tomonidan fond bozorida portfelli investorlar faoliyati tizimini isloh qilishning strategik maqsadi hisoblanadi.

O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishdagi muammolarga oid adabiyotlarni ko‘rib chiqish moliya va investitsiyalar sohasidagi tadqiqotchilar, ekspertlar va amaliyotchilar uchun ushbu mavzuning qiziqishi va muhimligini ko‘rsatadi. Quyida O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozoridagi muammolar va qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishning asosiy jihatlari va istiqbollarini aks ettiruvchi ba’zi muhim ishlar haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

“O‘zbekiston fond bozorining uzoq muddatli rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar” (G.A.Rakimova, 2016 y.) – bu asarida muallif O‘zbekiston fond bozorining uzoq muddatli rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganadi. . Ichki va tashqi omillar, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozorini samarali rivojlantirish uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan asosiy muammolar ko‘rib chiqiladi.

“O‘zbekiston fond bozorida investitsiya faoliyati: holati, muammolari, istiqbollari” (M.M.Yusupov, 2017) – bu asarida muallif O‘zbekiston fond bozoridagi investitsiya faoliyatining holati va muammolarini tahlil qiladi. Asosiy e’tibor mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishini cheklovchi sabab va omillarni tahlil qilish, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya faoliyatini rivojlantirish istiqbollarini o‘rganishga qaratilgan.

I.L.Butikovning fikricha: (2014) “Bugungi kun nuqtai nazari bilan qaraganda, banklar va dillerlarning qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha bo‘linishida uchta asosiy sababni ko‘rish mumkin. Birinchidan, qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishni kafolatlash bo‘yicha banklarni biznesga kiritish o‘ta xatarli (risk) tuyuladi. Ikkinchidan, ahvol tashvishli bo‘lib, anderrayter sifatida banklarning roli to‘g‘ridanto‘g‘ri manfaatlar to‘qnashuvida tashvishli holatga olib keladi. Uchinchidan esa, tashvishli hol asosan moliya sohasidagi kontsentratsiyaning o‘sib borayotganligini aks ettiradi”

Umuman olganda, mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar bozoridagi muammolarni o‘rganish va ularni hal etish usullari, shuningdek rivojlantirish istiqbollariga bag‘ishlangan adabiyotlarni ko‘rib chiqish ushbu muammoning ilmiy jamoatchilik va tadbirkorlik muhitidagi qiziqishi va ahamiyatini aks ettiradi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston kapital bozori hajmining YaIMga nisbati ko‘rsatkichi sezilarli darajada past ekanligi (1 foizga ham etmaydi), bir tomondan, bu sohani isloh qilish naqadar dolzarbligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotni barqaror sur’atlarda o‘sishini rag‘batlantirish uchun foydalanilmagan salohiyat yuqori ekanligidan dalolat beradi. Xalqaro amaliyot ko‘rsatishicha, xorijiy investorlar tomonidan investitsiya kiritiladigan maqsadli mamlakatni aniqlashda mazkur mamlakatdagi boshqaruv sifati muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, korporativ boshqaruv sifati yuqori bo‘lgan mamlakat investorlari investitsiya kiritishda boshqaruv sifatiga hal qiluvchi omil sifatida qaraydi. Ayni paytda, korporativ boshqaruv rivojlanmagan davlat investorlari uchun investitsiya kiritish maqsad qilingan davlatdagi korporativ boshqaruv darajasi ahamiyatsiz bo‘lishi ham mumkin. O‘z navbatida, institutsional investor orqali investitsiya qilishning qator afzalliklarini qayd etish o‘rinlidir. Jumladan: oqilona diversifikatsiya orqali investitsiyalarni professional boshqarish. Bunday boshqaruvga resurslarini topshirgan investor bu investitsiya bo‘yicha uddaburon mutaxassislar bilan ishlayotganligiga amin bo‘lishi mumkin; institutsional investorlar ko‘pgina xususiy investorlarning qo‘yilmalariga qaraganda yuqori miqdorda buyurtma bergan holda ish olib borishlari sababli ular ko‘proq strategik

imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, ular uchun birja va birjadan tashqari operatsiyalarni amalga oshirish uchun komission to‘lovlar sezilarli darajada kamayadi.




**1-rasm. Fond bozorini rivojlantirish yo‘nalishlari**

Xalqaro amaliyotda fond bozori likvidliligi va bank sektorining taraqqiy etganlik darajasi iqtisodiy o‘sishga ta’sir qiluvchi muhim omillardan ekanligi aniqlangan60. Fikrimizcha, fond bozori uzoq muddatli investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi muhim endogen omil vazifasini o‘taydi. Bank kreditlari esa nisbatan qisqa muddatli oraliqda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda sezilarli ijobiy ta’sirga ega. Bugungi kunda iqtisodchi olimlar tomonidan fond bozorini rivojlantirishning bir qancha yo‘nalishlari taklif etilgan. Xususan, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada rivojlantirish yo‘nalishlari tadqiq etilgan (1-rasm).

Xorijiy institutsional investorlarni jalb qilishda milliy xo‘jalik sub’ektlarining hisob va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy etishlari, shaffoflik va axborot ochiqligini ta’minlash, korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etishni yanada takomillashtirish, institutsional investorlarning boshqaruvdagi ishtiroki orqali milliy kompaniyalar aksiyadorlik kapitali qiymatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish talab etiladi. O‘zbekistonda jadal rivojlanayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar hamda amalga oshirilayotgan davlat rivojlanish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri milliy fond bozorini rivojlantirish orqali iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilish va aholining investitsiyalardan daromad olish manbalarini yaratishdan iborat. Davlatning makroiqtisodiy siyosati talablariga fond bozori qay darajada javob berishi va qimmatli qog‘ozlar bozori orqali investitsiya kiritish qanchalik samara berishiga e’tibor qaratish muhimdir. Fond bozorini rivojlantirish yo‘nalishlarini shakllantirish jarayonida ikki ustuvor masala echimiga alohida e’tibor qaratiladi. Birinchidan, fond bozorini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarning echimiga, ikkinchidan O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarning, ya’ni kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, fond bozorini rivojlantirish yo‘nalishlarini makro va mikroiqtisodiy darajada amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘lib, makroiqtisodiy darajadagi bosqichda asosiy e’tibor quyidagilarga qaratilishi zarur. Jumladan, 2019 yil «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» Davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 29 aprelidagi 4300-sonli «Respublika iqtisodiyotiga

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qororida «qator kimyo va neft-gaz sanoati, mashinasozlik sohasidagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, bank-sug‘urta tashkilotlari ustav kapitallaridagi davlat aksiyalar (ulushlar) paketlarini sotish, mahalliy va xorijiy fond birjalarida IPO (SPO) bo‘yicha emissiyalarni joylashtirish uchun jalb qilinadigan investitsiya vositachilari, maslahatchilari, shu jumladan, xorijiy maslahatchilarning ko‘rsatadigan xizmatlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun tayyor investitsiya takliflarini ishlab chiqish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan»

Bugungi kunda kapital bozorini yanada rivojlantirish, raqobat muhitini shakllantirish va fond bozori likvidligini oshirishni rag‘batlantirish bilan bog‘liq o‘z echimini kutayotgan bir qator dolzarb muammolar va kamchiliklar mavjud, jumladan:

- kapital bozorini rivojlantirish sohasida davlatning strategik rejalashtirish tizimi mavjud emas;
- erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlarning mamlakat YaIM hajmiga nisbatan ulushi past (0,41 foiz);
- fond bozorida amalga oshirilayotgan bitimlarning yuqori qismi (birjadagi hajmlarning 70 foizidan ortig‘i) davlat ishtirokidagi korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda;
- qimmatli qog‘ozlar bozorining likvidligi past, davlat qimmatli qog‘ozlari ikkilamchi bozorini rivojlantirish zaruriyati mavjud, amaliyotga joriy etilgan moliyaviy mahsulotlar turlari etarli emas, davlat aksiya paketlari «bitta aksiya bitta lot» tamoyili asosida sotilishi sust va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning qimmatli qog‘ozlar bozorida mablag‘ jalb qilishga bo‘lgan qiziqishi past;
- kapital bozoriga uzoq muddatli moliyaviy resurslarga ega yirik institutsional investorlarni jalb qilish bo‘yicha ishlar sust olib borilmoqda;
- bozor infratuzilmasi zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimlari bilan etarli darajada ta’minlanmagan, shuningdek, ushbu sohada mahalliy tizimlarning imkoniyatlaridan samarasiz foydalanilmoqda;
- mintaqaviy darajada kapital bozori infratuzilmasi mutlaqo rivojlanmagan;
- kapital bozori sohasida bozor kapitallashuvini oshirish choralarini faol ravishda ilgari surish va amalga oshirishga imkon beradigan yuqori malakali mutaxassislar etishmaydi;
- sohani nomutanosib tartibga solishni nazarda tutuvchi hamda zamonaviy bozor talablariga va xalqaro standartlarga javob bermaydigan huquqiy hujjatlar ko‘p;
- korporativ munosabatlar zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilmagan.

Bugungi kunda eksportni rivojlantirish bu investitsion faoliyatni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan davlatning umumiy iqtisodiy siyosatining ajralmas bir qismidir.Yuqoridagi muammolarni bartaraf etilishi iqtisodiyot mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o‘z vaqtida boshlangan, chuqur o‘ylangan va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan ishlarni yo‘lga qo‘yish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va natijada mamlakat aholisining turmush darajisini ko‘tarilishi va daromadlarini oshishiga olib keladi.

Moliya bozorlarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rnini oshirish uchun samarali tartibga solish tizimi o‘rnatilishi lozim. Moliya bozorini tartibga soluvchi organlar ishtirokchilar va investorlarning firibgarlik va manipulyatsiyadan aziyat chekmasligini ta’minlashga e’tibor qaratadi. Shuningdek, regulyatorlar bozorlarning samarali ishlashini va bozor ishtirokchilarining bozor yaxlitligiga ishonchlarini ta’minlashga e’tibor qaratadi. Likvidlilik, keng qamrovdagi ishtirokchilar hamda ishonchli ma’lumotlarning mavjudligi moliya bozorlarining samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi.

Ushbu faktorlarni moliya bozorlarida yuzaga keltirish, ishtirokchilar faoliyatini mavjud xalqaro standardlarga moslashtirish mamlakatimizda moliya bozorini rivojlantirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. “O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishi: muammolar va istiqbollar” (A.I.Hayraddinov, 2019)
2. “O‘zbekiston fond bozorining uzoq muddatli rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar” (G.A.Rakimova, 2016 y.)
3. “O‘zbekiston fond bozorida investitsiya faoliyati: holati, muammolari, istiqbollari” (M.M.Yusupov, 2017)
4. Sh.M.Mirziyoyev. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.07.02.2017 PF-494
5. https://dutyfree58.ru/uz/kak-rabotaet-fondovyi-rynok-mehanizm-rabotyrynka-akcii
6. https://dutyfree58.ru/uz/kak-rabotaet-fondovyi-rynok-mehanizm-rabotyrynka-akcii

**UDK:338.46**

## XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI KORXONALARINING RESURS SALOHIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH

## СТРАТЕГИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ РЕСУРСНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СФЕРЫ УСЛУГ

## STRATEGIC MANAGEMENT OF RESOURCE COMPETENCE OF SERVICE FIELD ENTERPRISES

**Alimova Dildora Damirovna**
**tayanch doktorant BuxMTI**

**Annotatsiya**

Maqolada korxonaning resurs salohiyatining iqtisodiy mohiyati, uni baholashning asosiy mezonlari ko‘rib chiqiladi. Tarmoq va faoliyat sohasidan qat’i nazar, korxonaning muvaffaqiyatli ishlashining eng muhim omillaridan biri bu uning resurs salohiyatini rivojlantirish va samarali boshqarishdir. Hozirgi vaqtda xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarning resurs salohiyatini aniqlashning yagona metodologiyasi mavjud emas.

**Kalit so‘zlar:** resurs salohiyati, resurs salohiyati vositalari, ishlab chiqarish resurslari, innovatsion resurslar, moliyaviy resurslar.

В статье рассматривается экономическая сущность ресурсного потенциала предприятия, основные критерии его оценки. Одним из наиболее важных факторов успешного функционирования предприятия независимо от отрасли и сферы деятельности выступает развитие и эффективное управление его ресурсным потенциалом. В настоящее время нет единой методологии определения ресурсного потенциала предприятий сферы услуг.

**Ключевые слова**: ресурсный потенциал, инструменты ресурсного потенциала, производственные ресурсы, инновационные ресурсы, финансовые ресурсы.

The article examines the economic nature of the enterprise’s resource potential, the main criteria for its assessment. Regardless of the network and field of activity, one of the most important factors of the successful operation of the enterprise is the development and effective management of its resource potential. Currently, there is no single methodology for determining the resource potential of enterprises in the service sector.

**Key words:** resource potential, resource potential tools, production resources, innovative resources, financial resources.

Qattiq raqobat kurashi, dunyodagi beqaror siyosiy va iqtisodiy vaziyatning zamonaviy sharoitida tashkilotning barcha resurslaridan foydalanish zarurati birinchi o‘ringa chiqadi. Tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli olib borish va kichik korxonalarning ishlab chiqarish funktsiyasini samarali amalga oshirishning asosiy sharti ularda mavjud bo‘lgan barcha resurslardan oqilona foydalanishdir. Bunda, uning keyingi o‘sishi uchun imkoniyatlarni aniqlash ham muhim rol o‘ynaydi, ya’ni talabgir bo‘lmagan resurslarni aniqlash va ularni kelgusida korxonalar va iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonlariga kiritish strategik vazifadir. Shunday qilib, resurs salohiyatini rivojlantirish har qanday korxonaning birlamchi asosiy vazifasidir.

Hozirgi vaqtda resurs salohiyatini aniqlashning yagona metodologiyasi mavjud emas. Iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida ko‘pincha resurs salohiyati unsurlaridan foydalanish samaradorligini aks ettiruvchi individual ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. Bizning fikrimizcha, ushbu sohadagi bir qator muammolarni hal qilish, katta muvaffaqiyatlarga erishish va raqobatdosh ustunliklarga erishishga imkon beradigan yagona yondashuvni aniqlash juda muhimdir.

Tadqiqotning nazariy asosi sifatida zamonaviy mualliflarning "xizmat ko‘rsatish sohasining resurs salohiyati» kategoriyasini tahlil qilish masalalari bo‘yicha ilmiy ishlari xizmat qildi. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining resurs salohiyatini aniqlashga bo‘lgan yondashuvlar va uni shakllantirishning nazariy asoslarini o‘rganish jarayonida quyidagi umumiy ilmiy usullardan foydalanilgan: tavsif, qiyosiy tahlil, dialektika, umumlashtirish usuli, sintez, grafik usul, murakkablik va izchillik.

Korxonalarning resurs salohiyatini strategik boshqarishga kompleks yondashuv korxonaning potentsial imkoniyatlarini uning raqobat ustunliklariga aylantirishga yordam beradi.

Resurs salohiyati – bu tashkilotning mavjud bo‘lgan resurslaridan foydalanish va korxona foydalanmaydigan, ammo tashqi muhitda mavjud bo‘lgan va kelajakda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan resurslardan foydalanish imkoniyatlaridir.

L.G.Burilovning izohlashicha «biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish – bu korxonaning imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanishga asoslangan oqilona boshqaruv natijasidir. Binobarin, biznesning rivojlanishi korxonada tegishli salohiyat mavjudligiga bog‘liq. Strategik menejment doirasida asosiy e’tibor kompaniya ichidagi resurslar va vakolatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak, bu esa korxonaga raqobatchilar oldida ustunlikni qo‘lga kiritishga imkon beradi. [1]

A. S. Danilova korxonaning salohiyatini kompaniyaning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning mavjud zaxiralari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi, ular boshqaruvning ichki mexanizmiga, xususan, o‘z resurs salohiyatini shakllantirish va undan foydalanish mexanizmiga kiritilgan [2].

Strategik boshqaruv tashkilot salohiyatining tashqi va ichki muhiti bilan oqilona muvozanatini o‘rnatish orqali tashkilotning kelajakda omon qolishini ta’minlash uchun zarurdir [3].

Salohiyatni strategik boshqarish – bu resurslarni safarbar qilish, to‘plash, taqsimlash, shuningdek resurslardan samarali va oqilona foydalanishga va korxona faoliyatidagi xavfni kamaytirishga qaratilgan rejalashtirish, nazorat qilish, monitoring va boshqa jarayonlarni amalga oshirishning kompleks jarayoni» [4].

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarning resurs salohiyatini boshqarish bir qator holatlarga bog‘liq.

Zamonaviy sharoitda, bozorda raqobatning kuchayishi bilan, yangi texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan, xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari rahbariyati raqobatbardosh pozitsiyalarni saqlab qolish va mustahkamlash va bozor ulushini oshirish uchun biznesni rivojlantirish strategiyalarini asoslash va ishlab chiqishga e’tiborni kuchaytiradi. Bunday strategiyalarni amalga oshirishning muvaffaqiyati tashkilotning ichki va tashqi muhitining bir qator elementlariga va birinchi navbatda xizmat ko‘rsatish korxonalarining resurs salohiyatiga bog‘liq.

Korxona muvaffaqiyatining omili bo‘lib samarali boshqaruv hisoblanadi. Hozirgi vaqtda xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining resurs salohiyatini boshqarishni takomillashtirishga ilmiy asoslangan usullar va yondashuvlar yetishmayapti. Amaliyot zamonaviy yuqori raqobli bozor

sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan yagona usullarni yaratishni talab qiladi.

Kadrlar salohiyati alohida o‘rganiladi. Resurs salohiyatini yaxlit tuzilma sifatida boshqarishda ushbu salohiyatning ustuvor unsurlarini, korxonaning raqobatbardoshligini tezda oshirishga yordam beradigan unsurlarining o‘zaro aloqalarini ta’kidlash muhimdir. Kadrlar resursining xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarning resurs salohiyatining boshqa tarkibiy qismlariga ustuvor ta’sirini hisobga olgan holda resurs salohiyatini o‘rganish kerak.

Korxonaning resurs salohiyatini baholashning mavjud instrumentlari bu korxona samaradorligini tavsiflovchi alohida ko‘rsatkichlardir. Asosiy mezonlar bo‘lib samaradorlik (natijaning xarajatlar bilan nisbati), taqqoslash (korxona faoliyatining erishilgan ko‘rsatkichlarining raqobatchi firmalarning o‘rta tarmoq, me’yoriy ko‘rsatkichlari bilan nisbati), barqarorlik (tashqi va ichki omillar ta’siri ostida korxonaning iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtirish).

Resurs salohiyatini to‘liq baholash uchun uning keng qamrovli va tizimli baholanishini ta’minlash kerak. Kompleks yondashuv korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini har tomonlama baholashni o‘z ichiga oladi. Tizimli yondashuv korxonani tashqi va ichki muhit omillari ta’sirida bo‘lgan murakkab o‘zgaruvchan tizim sifatida ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi.

Kompleks tizimli yondashuv obyektlarni ko‘plab ichki va tashqi aloqalarga ega bo‘lgan, alohida elementlardan tashkil topgan murakkab iqtisodiy tizimlar sifatida o‘rganishga asoslangan. Tizimli yondashuv iqtisodiy obyektni chuqurroq o‘rganishga, u haqida to‘liqroq tasavvurga ega bo‘lishga, ushbu obyektning alohida qismlari o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga imkon beradi. Zamonaviy tizimli yondashuvining xususiyatlari - dinamiklik, o‘zaro ta’sir, tizim elementlarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro aloqasi, komplekslik, yaxlitlik, bo‘ysunish, yetakchi bo‘g‘inni ajratib ko‘rsatish. Iqtisodiy tahlilda tizimli yondashuv iqtisodiy muammolarni hal qilishning ilmiy asoslangan, samarali variantlarini ishlab chiqishga imkon beradi, bu esa eng maqbul boshqaruv qarorlarini tanlashga asos bo‘ladi.

Yuqorida tavsiflangan tahlilga bo‘lgan tizimli yondashuv boshqa yondashuvlarga nisbatan sezilarli afzalliklarga ega: u tadqiqotning murakkabligi va maqsadga muvofiqligini; ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning zaxiralarini topishning uslubiy asoslangan sxemasini; xo‘jalik yuritish natijalarini obyektiv baholashni; tahlil va uning xulosalarining operativligini, samaradorligini, asosliligini, aniqligini ta’minlaydi. Ideal holda, ushbu usul barcha korxonalar (kompaniyalar) tomonidan kelajakda korxonani samarali rivojlantirish uchun "to‘g‘ri yo‘nalishga" yo‘naltirilgan foydalanilmagan resurslarni aniqlash uchun ishlatilishi kerak.

Korxonaning resurs salohiyati uning tarkibiy qismlari orqali tahlil qilinadi.




**1-rasm. Korxonaning resurs salohiyatini tahlil qilish sxemasi**

Tahlil jarayoni korxonaning holati to‘g‘risida moliyaviy-iqtisodiy ma’lumotlarni to‘plashdan boshlanadi. Korxonaning asosiy maqsadlari, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning boshlang‘ich va yakuniy xususiyatlari aniqlanadi.

Keyin korxona salohiyatidan foydalanishning haqiqiy darajasini hisoblash taklif etiladi. Buning uchun quyidagilar kerak:

- har bir tarkibiy qism uchun ko‘rsatkichlar to‘plamini tanlash, ularning hozirgi holatini to‘liq aks ettirish, korxonaning haqiqiy holatining ixcham modelini yaratish;
- har bir tarkibiy qism uchun ularning qiymatlarini (eng katta va eng kichik) belgilash orqali nazorat ko‘rsatkichlar tizimini aniqlash (shartli etalon modelni yaratish). Korxonaning mansubligi, kreditlash tamoyillari, mablag‘ manbalarining mavjud tuzilishi, mablag‘ aylanmasi, obro‘si, moliyaviy siyosat turi (tajovuzkor, konservativ) va boshqa holatlarni hisobga olish kerak;
- taqqoslash uchun qabul qilingan guruhlarning har biri uchun korxona salohiyatining iqtisodiy raqobatbardoshligining individual darajasini o‘lchash.

Yakuniy bosqichda korxonaning resurs salohiyatidan foydalanish darajasi baholanadi, zaxiralar va yo‘qotishlar aniqlanadi. Zarur bo‘lganda, raqobatbardoshlikni oshirish strategiyasi ishlab chiqiladi.

Korxonalarning resurs salohiyatini baholashda quyidagi harakatlar ketma-ketligi taklif etiladi:

- korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari modelini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladigan maqsadni belgilash;
- ma’lumotlarni (buxgalteriya, bozor, statistik, hisobot) to‘plash va qayta ishlash;
- xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxona resurslarini va ularni shakllanish manbalarini baholash;
- xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligini baholash;
- xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalarining omilli tahlili;
- olingan natijalarni oldingi davr ko‘rsatkichlari, tarmoq o‘rtacha ko‘rsatkichlari, raqobatchilar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash;
- o‘tkazilgan tahlil natijalarini rasmiylashtirish, xulosalar yozish;
- korxonani rivojlantirish zaxiralarini aniqlash;
- korxonaning resurs salohiyatini tahlil qilish natijalari bo‘yicha taklifni ishlab chiqish;
- korxonaning resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar monitoringi.

Korxonaning barqaror rivojlanishi uning resurs salohiyatidan foydalanish darajasi va samaradorligiga bog‘liq. Uni o‘lchash orqali korxonani boshqarish samaradorligini baholash mumkin.

Korxonaning resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari to‘plamini o‘rganish tadbirkorlik faoliyati samaradorligini pasaytiradigan salbiy omillar va sabablarni aniqlash va uni oshirish uchun zaxiralarni aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Shunday qilib, bitta indikator asosida tashkilotning resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholash uni to‘liq tavsiflashga qodir emas, shuning uchun korxonaning resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholash va aniqlashning ko‘plab kontsepsiyalaridan foydalanish zarur.

Tadqiqot mantig‘iga muvofiq bir qator xulosalar chiqaramiz.

Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining resurs salohiyatini samarali amalga oshirishga yordam beradigan quyidagi chora-tadbirlarni taklif etamiz:

1) mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi korxonaning resurs salohiyatini shakllantirishda asosiy oriyentir bo‘lishi kerak;

2) mavjud resurslardan samarali foydalanish va aylanmaga yangi resurslarni joriy etish maqsadida har bir alohida korxonaning imkoniyatlarini doimiy tizimli monitoring qilish;

3) jalb qilingan va passiv resurslarni o‘z vaqtida yangilab borish uchun siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy prognozlash vositalaridan maksimal darajada foydalanish;

4) uzluksiz ta’lim tizimini vaqt muammolariga javob beradigan va dunyo miqyosida vakolatli bo‘lgan mutaxassislarni shakllantirish manbai sifatida ommalashtirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Богомолова Е. В., Толстых Т. Н. Идентификация потенциала конкурентоспособности предпринимательских структур как резерва // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. 2011. No 12-1. С. 58–69.
2. Шатрова А.П. Проблемы современной экономики, N 3(31) [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.m-economy.ru/art.php3? artid=26301
3. Смагин Б. И. Методика оценки ресурсного потенциала в аграрном производстве // Достижения науки и техники АПК. 2003. No 2. С. 43–45.
4. Шатрова А. П. Алгоритм внедрения методики оценки ресурсного потенциала предприятия сферы услуг // Проблемы современной экономики. 2011. No 3. С. 392–395.
5. Свободин В. А. Вопросы определения и эффективности производственного потенциала // АПК: экономика, управление. 1991. No 3. С. 27–30.
6. Асхабалиев И. Ч. Формирование ресурсного потенциала платных услуг в регионах // Российское предпринимательство. 2008. № 7. С. 122–125.
7. Madraximova, G. (2023). SANOAT KORXONALARIDA RESURSLAR SALOHIYATINI IQTISODIY BAHOLASH ASOSLARI. *Iqtisodiyot Va ta’lim*, *24*(3), 380–384. https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1151
8. Ускова С.И. Экономический потенциал предприятия как основа предпринимательской деятельности [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.science-bsea.narod.ru/2006/ekonom_2006_2/uskova_ekonom.htm
9. Святохо Н.В. Теоретические аспекты понятия "ресурсный потенциал" / Н.В. Святохо // Культура народов Причерноморья. – 2019. – No161. – С. 139–144.
10. Рущак, М.Ю. Многоаспектность понятий «экономический и ресурсный потенциал» предприятия, их взаимосвязь / М.Ю. Рущак, Н.В. Данькив // Научный вестник Ужгородского университета. Экономика. – 2012. – Вып. 36. – С. 182-186.
11. Морозова, Л.Э. Экспертные методы и технологии комплексной оценки экономического и инновационного потенциала предприятий / Л.Э Морозова, О.А. Бортник, И.С. Кравчук. – М., 2009. – 81 с.
12. O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasining konsepsiyasi. https://static.norma.uz/official_texts/Концепция-Развития-Узбекистана-UZB.pdf
13. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi
14. Бердникова Л. Ф. Ресурсный потенциал организации: понятие и структура// Вектор науки ТГУ/ - 2011. -№ (15). - С. 201-203.
15. Хамидуллин, Ф.Ф. Методы оценки эффективного использования ресурсного потенциала предприятия / Ф.Ф. Хамидуллин, А.Р. Давлетшина. Вестник ТИСБИ. 2013. No 4. С. 100–108.
16. Разиньков, П.И. Ресурсы предприятия: оценка формирования и анализ использования / П.И. Разиньков, О.П. Разинькова, Тверь, Издатель- ство ТвГТУ, 2016. 304 с.
17. Межуева Е.Н. Ресурсный потенциал организации сферы услуг: методические подходы к оценке и управлению (на примере ЖКХ) // Риск. – 2014. –№ 1. – С.237-244.

**UDK:338.3**

**KLASTERLARNI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI**

**МЕХАНИЗМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ КЛАСТЕРОВ**

**A MECHANISM FOR IMPROVING THE ORGANIZATION OF CLUSTERS**

**Абдуллоев Аслиддин Жунайдуллаевич**
**Бухоро давлат унверситет “Иқтисодиёт” кафедраси мудири профессори и.ф.ф.д.**

**Annotatsiya**

Maqolada klasterlarni tashkil etishni takomillashtirish mexanizmini shakllantirish bilan bog‘liq normativ-huquqiy, tashkiliy-texnologik, moliyaviy-iqtisodiy va boshqa masalalar ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Qishloq xo‘jaligi, strategiya, kredit, shartnoma, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi, eksport, agroklaster.

В статье рассматриваются нормативно-правовые, организационные, технологические, финансово-экономические и другие вопросы, связанные с формированием механизма совершенствования организации кластеров.

**Ключевые слова:** Сельское хозяйство, Стратегия, кредит, контракт, многопрофильная фермерское хозяйство, экспорт, агрокластер.

The article discusses regulatory, organizational, technological, financial, economic and other issues related to the formation of a mechanism for improving the organization of clusters.

**Keywords:** Agriculture, Strategy, credit, contract, multidisciplinary farm, export, agro cluster.

Davlatimiz rahbarining 2019 yil 23 oktabrdagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi qabul qilindi. Unga muvofiq, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida meva-sabzavot klasterlari tashkil etilmoqda. 2019 yil 11 dekabrda bu borada Prezident qarori qabul qilinib, barcha tashkiliy-huquqiy asoslar yaratib berildi. Klasterlar tomonidan qayta ishlash, saqlash va quritish bo‘yicha 430 ming tonna qo‘shimcha quvvatlarni ishga tushirish yuzasidan 96 ta loyiha rejalashtirilgan. Shuningdek, 6 ming gektarda intensiv bog‘va 8 ming gektarga yaqin maydonda uzumzor barpo qilish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqilgan. Joriy yilda 410 million dollarlik mahsulotlar eksporti mo‘ljallangan.

Ammo O‘zbekistonda yana paxta klasterlari tizimini o‘zgartirishga qaror qilingan. Amaldagi paxta klasterlari samarasiz ishlamoqda. Tahlillarga ko‘ra, 2023 yil 41 ta paxta-to‘qimachilik klasterida hosil 40 sentnerdan, 9 tasida esa 30 sentnerdan kam bo‘lgan. Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida unumdorlik pastligi va yuqori tannarxi tufayli rentabellik 10-11 foizdan oshmagan. Bundan tashqari, ijobiy ham tajriba mavjud. Masalan, Navoiy viloyatidagi "Navbahor" klasterida yangi xorijiy paxta navi gektariga o‘rtacha 70 sentnerdan ortiq hosil beradi, uning tannarxi Jizzax viloyatiga nisbatan qariyb ikki baravar past. Endi klasterlarda paxta urug‘ini ishlab chiqarishga yangi yondashuvlar qo‘llaniladi. Masalan, har bir viloyatning bonitet ballari past bo‘lgan, suvdan foydalanish imkoniyati yetarli bo‘lmagan va hosildorlik 30 dan kam bo‘lgan tumanlaridan birida hosildorligi 70-80 sentnerdan ortiq paxta urug‘ini olib kirishga ruxsat beriladi. Shuningdek, urug‘chilik institutlari tomonidan ishlab chiqilgan yangi yuqori mahsuldor navlarni almashtirish orqali 30 sentnerdan kam hosil beradigan navlarni ekish to‘xtatiladi.

Sohadagi yana bir dolzarb masala-ba’zi klasterlar va fermerlar o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblar intizomining buzilishi natijasida 122 ta klaster qishloq xo‘jaligi Jamg‘armasi va fermerlardan qarzdordir, ayniqsa 6 ta klasterga imtiyozli kreditlar berilgan, garchi ular ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lmasa ham.

Shundan kelib chiqib, klasterlarni tashkil etishning yangi tizimini joriy etish, ularning fermerlar bilan o‘zaro munosabatlarini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Bundan buyon yangi tashkil etilgan klasterlarga moliyaviy ko‘rsatkichlar, ishlab chiqarish quvvatlari va texnikalarning yetarliligi talablari qo‘yiladi, ular ochiq tanlov asosida tanlanadi. Ular kamida ikki bosqichli qayta ishlashga ega bo‘lishi kerak.

Fermerlar bir hudud ichida istalgan klaster bilan fyuchers shartnomalarini tuzishlari mumkin bo‘ladi. Shuningdek, ular hosilning bir qismini fyuchersdan tashqari birja orqali sotishlari mumkin. Bundan tashqari, kelgusi yil hosili uchun paxta yetishtirishga 60 foizlik avans ko‘rinishidagi imtiyozli kreditlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri agrar soxagalarga beriladi. Klasterlar esa yetishtirilgan paxtani sotib olish va hosil yig‘ish uchun mablag‘ ajratish hisobiga moliyalashtiriladi. Alohida mablag‘lar chuqur qayta ishlash uchun ajratiladi.

Asosan klasterlar va fermer xo‘jaliklarini moliyalashtirishning yangi tartibini belgilash, ular o‘rtasidagi debitorlik va kreditorlik qarzlarini hal etish yuzasidan yangi tartib ishlab chiqish mexanizimini takomillashtirish  lozim. Klasterlar xalqaro moliyaviy standartlarga o‘tkazish zarur. Taxminlarga ko‘ra, bu yilgi paxta hosilini to‘liq qayta ishlash natijasida 2024 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9,6 milliard dollarga, eksport esa 4,5 milliard dollarga yetishi mumkin. Xalqaro moliya tashkilotlaridan jalb qilingan mablag‘lardan to‘liq foydalanilmayapti.

Ushbu mablag‘lar 20-25 yilga jalb qilingan bo‘lsa-da, banklar ularni tadbirkorlarga 5-7 yilga ajratmoqda. Kredit berish uchun loyihalarni ko‘rib chiqish muddati bir yilgacha davom etmoqda. Foydalanish yo‘nalishlari cheklanganligi sababli, ushbu resurslar tadbirkorlar uchun unchalik qiziq emas.

Shu sababli, ushbu resurslar banklar uchun ham, tadbirkorlar uchun ham jozibador shartlarda taqsimlanishi zarurligini Prezidentimiz  ta’kidlab o‘tganlar [1].

Qishloq xo‘jaligi loyihalari uchun kreditlar muddati uch yillik imtiyozli davr bilan 15 yilgacha uzaytirilishi va ularni ko‘rib chiqish 2 oygacha qisqartirilishi to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Prezidentimiz Qishloq xo‘jaligi vazirligiga klasterlar faoliyatini tashkil qilish, xorijiy ekspertlar xulosasi asosida ekinlarni samarali joylashtirish, zarur urug‘lik va ko‘chatlarni hozirdan tayyorlash, Moliya vazirligiga klasterlarni aylanma mablag‘lar bilan ta’minlash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Shu sabab, “O‘zbekoziqovqatxolding” kompaniyasi klasterlarga yangi bozorlar topish va eksport qilishda doimiy ravishda amaliy yordam berib borilmoqda.

Umuman olganda, paxtachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirish, paxta va g‘alla yetishtirishda davlat rejasini bosqichma-bosqich bekor qilish lozimligi raxbarimiz tomonidan aytib o‘tildi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalardan biri ham agrar sohani rivojlantirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minlashdagi innovatsion g‘oyalardan biri – aholining farovonligi, turmush darajasi va sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan muhim xo‘jalik yuritish sub’ekti bo‘lgan klasterlar tizimini mamalakatda keng joriy etib, qishloq xo‘jaligini yuqori natijalarga olib chiqishdan iborat.

Respublikamizda to‘qimachilikka ixtisoslashgan klasterlarga paxta yer maydonlari ajratib berish orqali to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratish natijasida klasterlarga ajratilgan yerlar paxta ekini uchun ajartilgan qishloq xo‘jalik yerlarining 52 foizini tashkil etmoqda. Bu esa paxta xom ashyosini qayta ishlash sohasi rivojlanishiga olib keldi. Natijada mustaqillikning dastlabki yillarida yetishtirilgan paxta tolasining atigi 6-7 foizini qayta ishlagan bo‘lsak, bugungi kunda kamida 80 foizini qayta ishlashga imkoniyat yara- tildi.

Qishloq xo‘jaligida yuqori samaradorlikka erishish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni to‘liq qayta ishlash uchun klaster tizimi o‘z natijasini beradi.

Mustaqillikka erishgandan hozirgi kunga qadar mamlakatimizda qishloq xo‘jalik sohasini rivojlantirish bir qancha muammolar va qiyinchiliklar natijasida qo‘zlangan natija bermayotganligi hamda yetishtirilgan meva-sabzavot va poliz mahsulotlarining 35,0 foizigacha bo‘lgan qismining nes-nobud bo‘lish holatlari kuzatilgan [2].

Buning asosiy sababi o‘rganilganda, qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan ushbu turdagi mahsulotlarni saqlash, tashish jarayonida, ayniqsa qayta ishlash tizimi korxonalarining yetarli emasligi, ularni moddiy-texnika bazasining ma’naviy eskirganligi kabi muammolar salbiy ta’sirini o‘tkazgan.

Agroklaster tizimini rivojlantirish nafaqat paxtachilik bilan bog‘liq yengil sanoat sohasi, balki oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sohasi korxonalari, qurilish materiallari, farmasevtika sohalarini ham rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2019 yil 12 sentabr kuni yil yakuni bo‘yicha o‘tkazgan yig‘ilish ma’ruzasida belgilangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishish, paxta-to‘qimachilik sohasida klasterlarni joriy etishni jadallashtirish «shuning uchun klasterlar faoliyatiga har tomonlama yordam berishimiz zarur.

Paxtachilikda qishloq xo‘jaligining kelajagi, uning iqtisodiy samaradorligi klasterlar bilan bog‘liq. Klasterlar agrar sohani jadal rivojlantirishning “lokomotivi” bo‘lishi kerak» [3], deb ta’kidlagan. Shunday ekan, kelajakda bu tizimga qishloq xo‘jaligining asosiy muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim, deb hisoblaymiz hamda agroklasterlar davlat va xalq manfaaatlarini hisobga olgan holda quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- agroklasterlarda ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, mintaqaning ichki extiyojlarini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta’minlash uchun yangi tarmoqlarni rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligi va qayta ishlashning o‘zaro bog‘liqligini yaxshilash, klaster a’zolarining kooperatsion aloqalarini rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida innovatsiyalarni qo‘llashni rag‘batlantirish, raqobatbardosh ishlab chiqarish muhitini yaratish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini ilgari surish mexanizmlarini takomillashtirish;
- ishlab chiqariladigan xom ashyo eksportining o‘rniga yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulotlar eksportiga o‘tish;
- agrosanoat majmuasining investitsion jozibadorligini oshirish;
- qishloq joylarida qishloq xo‘jaligi bo‘yicha kasbiy malakaga ega bo‘lganlar kasblarining nufuzini oshirish:
- qishloq joylarida sanoat korxonalarini qurish va yangi zamonaviy ish o‘rinlarini yaratish hisobiga aholi bandligini ta’minlash;
- kadrlarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha ishlarni tashkil etish;
- qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan va qayta ishlangan mahsulotlar assortimentini oshirishdan iborat.

Shu sabab Prezidentning 2023 yil 12 dekabrdagi «Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-205-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, 2024 yil hosilidan boshlab:

- paxta xomashyosini yetishtiruvchi xo‘jaliklar va klasterlar o‘rtasida paxta xomashyosini yetkazib berish bo‘yicha fyuchers shartnomalari tuproq hosildorligi normativlari doirasida O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasining «paxta xomashyosi seksiyasi»da har bir hudud bo‘yicha alohida o‘tkaziladigan savdolar natijalariga ko‘ra tuziladi;
- fyuchers shartnomasiga muvofiq yetkazib berilishi lozim bo‘lgan hajmdan ortiqcha yetishtirilgan, shuningdek, klaster bilan fyuchers shartnomasi tuzmagan holda, o‘z mablag‘lari, shu jumladan jalb qilingan mablag‘lari va tijorat kreditlari hisobiga yetishtirilgan paxta xomashyosi yetishtiruvchilar tomonidan birja orqali tadbirkorlik sub’ektlariga sotiladi yoki (va) qayta ishlanadi. Bunda:

❖ fyuchers shartnomasi bo‘yicha ortiqcha yetishtirilgan paxta xomashyosi fyuchers shartnomasi tuzilgan klasterga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotilishi mumkin;

❖ paxta xomashyosini qayta ishlashdan olingan paxta tolasi va ikkilamchi mahsulotlar (chigit, lint va o‘lik paxta) to‘liq hajmda birja orqali sotiladi.

Paxta hosilini sotib olish va sotish bo‘yicha yangi tizimning shaffofligini, to‘laqonli va adolatli ishlab ketishini hamda paxta xomashyosini yetishtiruvchilar manfaatdorligini ta’minlash bo‘yicha respublika shtabi tarkibi tasdiqlandi. Uning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- paxta xomashyosini yetishtirish, saqlash, realizatsiya qilish va paxta xomashyosi yetishtirilishini moliyalashtirish ustidan nazorat mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;
- paxta xomashyosi, paxta tolasi va ikkilamchi mahsulotlarni birja savdolariga chiqarish ishlarini tashkil etish;
- paxta xomashyosi, paxta tolasi va ikkilamchi mahsulotlarni birja savdolariga chiqarish hamda to‘lovlarning amalga oshirilishi ustidan kunlik nazorat o‘rnatish;
- paxta xomashyosi, paxta tolasi va ikkilamchi mahsulotlarni sotib olish va sotish bo‘yicha yangi tizimning shaffofligini, to‘laqonli va adolatli ishlab ketishini hamda paxta xomashyosini yetishtiruvchilar manfaatdorligini ta’minlash.

Moliyalashtirishning yangi tartibi. 2024 yil hosilidan boshlab paxta xomashyosini yetishtirish, paxta yig‘im-terimi va xaridini Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining kredit resurslari hisobidan moliyalashtirish tartibi joriy etilmoqda. Xususan:

- fyuchers shartnomasi tuzgan yetishtiruvchi va urug‘chilik sub’ektlariga har yili 1 oktabrdan boshlab, paxta xomashyosi yetishtirish uchun – paxta xomashyosi qiymatining 60 foizigacha yillik 10 foizda (shundan, bank marjasi 2 foiz) 14 oyga, shu jumladan 12 oylik imtiyozli davr bilan kredit ajratiladi;
- klasterlarga kreditlar ajratiladi:

**1-jadval**

**Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining kredit resurslari hisobidan moliyalashtirish tartibi**

| | Hajmi (paxta xom ashyosi qiymatining) | Stavka (shundan, bank marjasi 2 foiz) | Muddat (oy) | Imtiyozli davr (oy) | Qaytarish shartlari |
|---|---|---|---|---|---|
| Paxta xomashyosi xaridi bo‘yicha yakuniy hisob-kitob uchun | 80 foizigacha | yillik 10 foiz | 10 | 6 | oxirgi 4 oy davomida teng ulushlarda |
| Ijara huquqi mavjud bo‘lgan yer uchastkasida paxta xomashyosi yetishtirish uchun | 60 foizigacha | yillik 10 foiz | 24 | 18 | oxirgi 6 oy davomida teng ulushlarda |
| Ijara huquqi mavjud bo‘lgan yer uchastkasida yetishtiriladigan paxta xomashyosining yig‘im-terimi uchun | 60 foizigacha | yillik 10 foiz | 12 | 3 | oxirgi 9 oy davomida teng ulushlarda |

- fyuchers shartnomasiga asosan yetishtiruvchilardan qabul qilingan paxta xomashyosi uchun to‘lovlarning 80 foizi paxta xomashyosi qabul qilib olingan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan, qolgan qismi moliya yilining 31 dekabr kuniga qadar amalga oshiriladi;
- ajratilgan kredit mablag‘lari hisobidan agrotexnik tadbirlar doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar), shu jumladan moddiy resurslar yetkazib beruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchilar yetishtiruvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi;

- yetishtiruvchilar, klasterlar va urug‘chilik sub’ektlari kredit buyurtmalarini Qishloq xo‘jaligi vazirligining «Agroplatforma” axborot tizimi orqali elektron shaklda taqdim etadi.

Klasterlarni tashkil etish mexanizmi o‘zgaradi. Klasterlarni tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun talablar va yangilangan tartib joriy etilmoqda. Xususan, talabgor:

- to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (ip kalavasi, trikotaj mato, gazlama, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish, bo‘yash) quvvatlarining kamida ikkita bosqichini yo‘lga qo‘ygan bo‘lishi;
- O‘zbekiston hududida ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyat yuritayotgan, tugatilish bosqichida bo‘lmagan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilmagan va «yomon» kredit tarixiga ega bo‘lmagan hamda murojaat sanasida kredit (lizing, bank kafolati, akkreditiv) va soliqlardan muddati o‘tgan qarzdorligi mavjud bo‘lmagan bo‘lishi shart.

Bunda klaster faoliyatini tashkil etish istagida bo‘lgan talabgorlar ochiq va shaffof onlayn tanlov asosida tanlab olinadi. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi esa tugatildi. Qishloq xo‘jaligi vazirligi klasterlar reestrini yuritadi va uni o‘zining rasmiy veb-saytida doimiy ravishda e’lon qilib boradi.

Paxta xom-ashyosini hisobga olish takomillashtiriladi. Klasterlar va boshqa to‘qimachilik korxonalari tomonidan paxta xomashyosi to‘liq elektron tarozi orqali qabul qilinadi hamda ishlab chiqarilgan paxta tolasini avtomatlashgan majburiy hisobga olish tizimi joriy qilinadi. Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘lari, paxta, texnik chigit va qayta ishlashdan olingan mahsulotlarning muvofiqligini baholash organlarida texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash hamda metrologiya sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi yuzasidan bir yilda bir marta O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan davlat nazorati amalga oshiriladi.

2024 yil 1 mayga qadar elektron tarozi orqali qabul qilingan paxta xomashyosi va ishlab chiqarilgan paxta tolasini avtomatlashgan majburiy hisobga olish tizimini joriy qilish va uni «Agroplatforma» axborot tizimiga integratsiya qilish rejalashtirilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi vazirligiga Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda «O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari» uyushmasi bilan birgalikda 2024 yil 1 yanvardan boshlab:

- klasterlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish;
- klasterlarga nufuzli xalqaro auditorlik tashkilotlarini jalb qilgan holda ular faoliyati samaradorligi va moliyaviy ko‘rsatkichlarini mustaqil tashqi auditdan o‘tkazish topshirildi.

Klasterlarga qabul qilib olingan paxta hosili uchun elektron hisobvaraq-fakturada ko‘rsatilgan QQS summasini klasterlar tomonidan qishloq xo‘jaligi korxonalariga (fermer xo‘jaliklari) paxta hosili uchun to‘langan to‘lovga mutanosib miqdorda hisobga olishga ruxsat etiladi. Klasterlarda qishloq xo‘jaligi korxonalari (fermer xo‘jaliklari) tomonidan yetishtirilgan paxta xomashyosini shartnomada belgilangan narxlarda sotib olish va o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan yakuniy hisob-kitobning 20 foizini moliya yilining 31 dekabriga qadar amalga oshirish majburiyati saqlab qolinishi nazarda tutilgan.

Xulosa qilib shuni ta’kilash lozimki, qishloq xo‘jaligining kelajagi, uning iqtisodiy samaradorligi klasterlar bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Bu esa klasterlarni shakllantirish bilan bog‘liq normativ-huquqiy, tashkiliy-texnologik, moliyaviy-iqtisodiy va boshqa masalalarning ilmiy-uslubiy va iqtisodiy yechimlarini topish dalolat beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 25 yanvardagi «paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 53sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoev 2019 yil 12 sentabr kuni davlat budjetiga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni to‘liq bajarish, 9 oy va yil yakuni bo‘yicha belgilangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishish, paxtato‘qimachilik sohasida klasterlarni joriy etishni jadallashtirish masalalari bo‘yicha o‘tkazgan yig‘ilish ma’lumotlari.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-4453- sonli qarori
4. Тохчуков Р.Р. предпринимательский агропромышленный кластер: теоретические основы создания и функционирования в системе АПК. // Современные научные исследования: электронный научный журнал, 19 апреля 2012 г., рубрика: «Экономика».

http://www.batafsil. uz.
http:www.lex.uz
www.review.uz №9 (248,249) 2020.

**УДК:336.767.3**

## ЎЗБЕКИСТОНДА ЛОЙИҲАЛАРНИ САМАРАЛИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ИСЛОМИЙ КАПИТАЛ БОЗОРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

## FORMATION OF THE ISLAMIC CAPITAL MARKET THAT PROVIDES EFFICIENT FINANCING OF PROJECTS IN UZBEKISTAN

## ФОРМИРОВАНИЕ ИСЛАМСКОГО РЫНКА КАПИТАЛА, ОБЕСПЕЧИВАЮЩЕГО ЭФФЕКТИВНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ ПРОЕКТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Сайдирасулов Л.А.** ТДИУ таянч докторанти

**Аннотация**

Янги Ўзбекистон тараққиёти шароити учун мақбул бўлувчи исломий молия моделини танлаш ва жорий қилиш асосида турли лойиҳаларни исломий капитал бозори ёрдамида молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланишни таъминлашнинг зарурати ва долзарблиги асослаб берилган. Ушбу шароитда юзага келган муаммолар аниқланган.

Ноисломий давлатларда бешта исломий мазҳаб (Шариат мактаби) қоидалари асосида жорий қилинган исломий капитал бозорлари орқали лойиҳаларни самарали молиялаштириш имкониятларидан фойдаланиш даражасини тизимли тадқиқ этиш ва баҳолаш методи ҳамда Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида амалга ошириладиган турли лойиҳаларни амалга оширилишида исломий капитал бозорининг молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланиш йўллари берилган.

**Kalit so‘zlar**: исломий капитал бозори, лойиҳаларни молиялаштириш, ноисломий давлатлар, мазҳаблар, дуалистик модель, макрорегулятор.

На основании выбора и внедрения модели исламского финансирования, приемлемой для условий развития Нового Узбекистана, обоснована актуальность и необходимость обеспечения эффективного использования возможностей финансирования различных проектов с помощью исламского рынка капитала. Выявлены проблемы, возникшие в данных условиях. Даны метод системного исследования и оценки уровня использования возможностей эффективного финансирования проектов через исламские рынки капитала, внедренные на основе правил пяти исламских масхабов (школ Шариата) в неисламских странах, а также пути эффективного использования финансовых возможностей исламского рынка капитала при реализации различных проектов в контексте развития Нового Узбекистана.

**Ключевые слова**: исламский рынок капитала, финансирование проектов, неисламские государства, масхабы, дуалистическая модель, макрорегулятор.

Based on the selection and implementation of the Islamic finance model, which is acceptable for the conditions of the development of new Uzbekistan, the need and urgency of ensuring the effective use of financing opportunities for various projects with the help of the Islamic capital market is justified. The problems that have arisen in this situation have been identified. The following are given: method of systematic research and evaluation of the level of use of the possibilities of effective financing of projects through the Islamic capital markets introduced on the basis of the rules of the five Islamic sects (Sharia school) in non-Islamic countries; Ways to effectively use the financing opportunities of the Islamic capital market in the implementation of various projects that will be implemented in the context of the development of the new Uzbekistan.

**Key words**: Islamic capital market, project financing, non-Islamic states, sects, dualistic model, macro regulator.

Ҳозиргача юқори ишончлилик ва барқарор ривожланиш кўрсаткичларини намоён этиб келаётган исломий молиялаштириш тизими [1] кўпчилик ривожланган ва ривожланаётган ноисломий давлатларда самарали жорий қилиниб, унинг имкониятларидан самарали фойдаланиш оммалашиб бормоқда. Бунга жаҳонда содир бўлган молиявий инқирозлар шароитида исломий молия бозори (шу жумладан уни таркибига кирувчи капитал бозори) орқали молиялаштириш инструментлари ва ҳизматлари асосида ишлаган молия-банк институтлари мазкур инқирозлардан кам йўқотишлар билан чиққани ҳам муҳим аргумент бўлди [13]. [2] Зеро жаҳон молиявий бозорининг исломий капитал бозори сектори ҳозирда 10,7 фоиз ўсиш суръатларини кўрсатган, шу жумладан исломий капитал бозори 26,9 фоизга ўсган бўлиб, жаҳон исломий молия активлари индустрияси умумий ҳажмининг 30,9 фоизини ташкил қилган, бунда исломий Fin Tech транзакциялари ҳажми 49 млрд. АҚШ долларидан ортган бўлиб, 2025 йилда исломий Fin Tech транзакциялари ҳажми 128 млрд. АҚШ долларига етиши прогноз қилинмоқда [6-10]. [3] Ушбу тенденциялар сабабли, исломий молия (шу жумладан исломий молиявий бозор ва унинг капитал бозори) кўпчилик ноисломий давлатларда самарали жорий қилинган бўлиб, мазкур мамлакатларда турли (инвестиция, инфратузилмавий, ижтимоий ва кичик бизнес каби турлардаги) лойиҳаларни самарали молиялаштиришни таъминловчи исломий капитал бозорини шакллантириб ривожлантириш борасидаги илғор тажрибасидан Янги Ўзбекистоннинг иқтисодий тараққиёти шароитида [1-5] (“Ўзбекистон-2030” стратегияси [1] контекстида) самарали фойдаланиш зарурати вужудга келган.

Дунёда исломий молия бозори (шу жумладан унинг капитал бозори) ва унга боғлиқ молиялаштириш тизимини (секоторини, сегментини) ноисломий давлатлар молиявий бозори ривожланишида унга ёндош (муқобил) бозор тизими сифатида самарали жорий қилишнинг назарий-методологик асослари ва амалий механизмларини такомиллаштириш негизида бундай мамлакатларда иқтисодиётни ривожлантириш, исломий эътиқодга эга аҳолиси қатлами ва бизнес субъектлари молиявий фаолиятига қулай шароитлар яратиш бўйича тадқиқотларга аолоҳида эътибор қаратилмоқда. Бинобарин, исломий капитал бозорини самарали жорий қилиш асосида исломий молиялаштириш ва инвестициялар кўламини янада ошириш йўли билан мамлакатда аҳоли турмуш даражасини яхшилаш, инфляцияни жиловлаш, иш ўринларини ошириш, иқтисодий ўсиш суръатларини ошириш, инсон капиталини ривожлантириш, инновацияларни амалиётга кенг жорий қилиш, иқтисодиётда рақобат муҳитини кучайтириш имкониятларини беради.

Мамлакатимизда “Ўзбекистон-2030” стратегияси [1] доирасида кенг қамровли ислоҳотлар изчил амалга оширилмоқда, мамлакатда қулай бизнес ва инвестиция муҳитлари яратилмоқда. Бунда мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг ўрта ва узоқ муддатли истиқболларида аниқ мақсадалар ва вазифалар белгиланган бўлиб, уларни амалга оширилишида Ислом тараққиёт банки гуруҳи, Араб мувофиқлаштириш гуруҳи жамғармалари, Саудия Арабистони, Бирлашган Араб Амирликлари ва бошқа исломий давлатлар ва уларнинг компаниялари фаол иштирок этмоқда. Лекин, Ўзбекистонда исломий молия-банк тизими шаклланмаганлиги сабабли, нуфузли халқаро ташкилотлар экспертлари

[11; 30-32] ва анъанавий банклар ҳам Ўзбекистонда исломий молияни, шу жумладан исломий капитал бозорини шакллантириш ва яшил суқуқ чиқаришни [11], самарали жорий қилиш асосида миллий молия-кредит соҳасида ҳалол ва шаффоф рақобат юзага келиши, натижада мамлакатга исломий капитал бозори орқали ҳар йили 10 млрд. АҚШ долларигача инвестициялар жалб қилишга [30; 31] ва улар диверсификациясига олиб келиши ҳақида ўз фикрларини билдирганлар. Шу муносабат билан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 декабрь куни Олий Мажлисга мурожаатномасида [4] ва 2023 йилдаги тадбиркорлар билан очиқ мулоқотида [2; 5] Ўзбекистонда исломий молияни (шу жумладан исломий молиявий бозор ва унинг капитал бозорини) шакллантириш ва тегишли ҳуқуқий базани яратиш зарурлиги ва бунга Ислом тараққиёт банки ҳамда бошқа халқаро молия ташкилотлари экспертлари ва етук иқтисодчи олимларни жалб этилиши, улар томонидан тегишли тадқиқотлар ўтказилиши таъкидланган эди.

Айтилганлар Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида амалга ошириладиган турли лойиҳаларни самарали молиялаштириш учун исломий молияни жорий қилиш ва унинг таркибида исломий капитал бозорини шакллантириш муҳим аҳамиятга эга долзарб муаммолигини тасдиқламоқда. Бу эса, ўз навбатида, жаҳондаги ноисломий давлатларда лойиҳаларни исломий капитал бозори орқали молиялаштиришни мавжуд мазҳаблар (Шариат мактаблари – Суннийларга мансуб Ҳанафий (Имом Аъзам), Шофеъий, Моликий, Ҳанбалий мактаблар ҳамда Шияларга мансуб Жаъфарий мактаби) қоидалари бўйича амалга ошириш амалиётининг самарадорлик даражасини таҳлилий баҳолаш асосида Янги Ўзбекистон тараққиёти шароити учун мақбул бўлувчи исломий капитал бозори моделини танлаш ва жорий қилиш, бундай модель асосида мамлактимиздаги турли лойиҳаларни исломий молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланишни таъминлаш муаммоси ечимига қаратилган тизимли тадқиқотлар ўтказишнинг долзарблигини белгиламоқда.

Шундай қилиб, мазкур тадқиқотнинг мақсади – жаҳондаги ноисломий давлатларда жорий қилинган исломий капитал бозори орқали лойиҳаларни самарали молиялаштиришни мавжуд мазҳаблар (Шариат мактаблари) қоидалари бўйича амалга ошириш амалиётининг самарадорлик даражасини таҳлилий баҳолаш асосида Янги Ўзбекистон тараққиёти шароити учун мақбул бўлувчи исломий капитал бозори моделини танлаш ва жорий қилиш, бунинг асосида турли лойиҳаларни мазкур модель ёрдамида молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланишни таъминловчи назарий таклифлар ва амалий тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

Бунда тадқиқотнинг объектлари сифатида жаҳондаги нослоний давлатларда ва Янги Ўзбекистонда ушбу мамлакатлардаги анъанавий молия бозорига ёндош (муқобил) бўлган исломий капитал бозори сифатида фаолият юритаётган исломий молиялаштириш тизимлари қаралган.

Тадқиқотнинг предмети – Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида исломий капитал бозорини шакллантириш асосида турли лойиҳаларни исломий молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланишнинг назарий-методологик базиси, ташкилий ва ҳуқуқий механизмлари, уларни амалга ошириш жараёнларида вужудга келувчи иқтисодий, ҳуқуқий, молиявий муносабатлар, улар ривожини шакллантирувчи омиллар ҳисобланади.

Тадқиқотнинг методологик асоси бўлиб жаҳон молиявий бозорининг умумий муаммолари ва концепцияларига, шу жумладан ноисломий ва исломий капитал бозорлари хусусиятлари ва ривожланишининг фундаментал асосларига, ҳамда ноисломий давлатларда исломий молиявий бозорни жорий қилиши ва унинг ёрдамида турли лойиҳаларни исломий молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланиш бўйича мавжуд қарашлар, назарий-методологик базис ва жаҳон амалиётига бағишланган илмий ишлар хизмат қилади.

Тадқиқотни амалга оширишда тизимли ёндашув, уни қўлловчи ижтимоий-иқтисодий системология, молия-кредит системологияси, исломий молия ва исломий капитал бозори орқали самарали молиялаштиришнинг методик инструментарийси, маълумотларни гуруҳлаш ва статистик қайта ишлаш усуллари, таққослаш, корреляция ва регрессия, тадқиқот

натижаларини баён қилиш, молиявий таҳлил, самарадорликни баҳолаш, прогнозлаш, тенденциялар экстрополяцияси, эксперт таҳлил методлари ва бошқа усуллар қўлланилган.

Ушбу методология қўлланилишига асосланган тадқиқот логикаси қуйидагидан иборат:

-ноисломий давлатларда исломий капитал бозорини жорий қилиш ва унинг ёрдамида турли лойиҳаларни исломий молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланиш бўйича мавжуд илмий манбаларда келтирилган қарашлар, назарий-методологик базис ва жаҳон амалиёти обзорини таҳлил қилиш асосида Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида амалга ошириладиган лойиҳаларни самарали молиялаштириш имконини берувчи исломий капитал бозорининг назарий ва методик инструментарийсини асослаш;

-ноисломий давлатларда лойиҳаларни исломий капитал бозори орқали самарали молиялаштиришни мавжуд мазҳаблар (Шариат мактаблари – Суннийларга мансуб Ҳанафий (Имом Аъзам), Шофеъий, Моликий, Ҳанбалий мактаблар ҳамда Шияларга мансуб Жаъфарий мактаби) қоидалари бўйича амалга ошириш амалиётининг самарадорлик даражасини таҳлилий баҳолаш;

-ушбу таҳлилий баҳолаш асосида Янги Ўзбекистон тараққиёти шароити учун мақбул бўлувчи исломий капитал бозори моделини танлаш ва жорий қилиш масаласи ечимига эришиш воситаларини аниқлаш;

-бундай исломий капитал бозори моделини Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида шакллантириш асосида унинг ёрдамида лойиҳаларини исломий молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланиш йўлларини аниқлаш.

Иқтисодчи олимлар томонидан исломий капитал бозори орқали лойиҳаларни самарали молиялаштириш бўйича олиб борилган илмий изланишлар таҳлили шуни кўрсатдики, рақамлашган замонавий исломий капитал бозорлари ва уларни ноисломий давлатларда ёндош (муқобил) бозор тизими (сегменти, сектори) сифатида шакллантирилиши ҳамда бундай тизим орқали турли лойиҳаларни самарали исломий молиялаштиришнинг фундаментал (теологик) ва назарий-методологик асослари, илғор жаҳон амалиёти механизмлари халқаро ва Ўзбекистондаги нашрларда чоп этилган адабиётларда тўлиқ ифодасини топмаган.

Исломий капитал бозори орқали молиялаштириш соҳасини сўнгги йилларда хорижий олимлар кенг қизиқиш билан ўрганиб келишмоқда. Уларнинг илмий-амалий ишларига юксак баҳо бериш мумкин. Бу ишлар ҳанузгача ўз кучини сақламоқда. Лекин буларнинг барчаси ривожланган ва прогрессив ривожланаётган ҳамда исломий мамлакатлардаги исломий молия шароитига мос бўлиб, Янги Ўзбекистон тараққиёти шароити хусусиятларини тўла ифодалай олмайди. Шундай бўлсада, ушбу ишлардаги назарий қарашлар, илмий таклиф ва амалий тавсиялардан Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида фойдаланиш билан боғлиқ муаммолар ечимида фойдалидир. Бунда чет эл мамлакатлари олимлари жумласига Ahmed H., Asutay M., Wilson R. [13], Salman S.A. [14], Al-Jarhi M.A. [15], Alzahrani M. [16], Arshed N., Yasmin S., Gulzar M. [17], Ercanbrach J. [18] каби ва бошқа олимлар. МДҲ мамлакатлари олимларидан Беккин Р.И. [19], Байдаулет Е. [20], Чокаев Б. [21], Зарипов И.А. [22] ва шулар каби бошқаларни киритиш мумкин. Уларнинг илмий ишлари ҳозирги кунда муҳим аҳамиятга эга. Ўзбекистонлик иқтисодчи олимларидан Шоҳаъзамий Ш.Ш. [23; 29], Хасанов Х.В. [30; 31], Тўхлиев Н., Имомназаров Ж.М. [32; 33], Жўраев Б.Ю. [34], Абдуллаев Р.В., Дусанов С.М. [35], Аброров С.З. [36], Абдуллаев А., Жулиана Ж., Бекимбетова Г. [37] ва бошқаларнинг ишлари аҳамиятли бўлиб, улар исломий молия-банк соҳасининг жаҳон тажрибасини ўрганишган ва Ўзбекистон учун фойдали таклифлар ва тавсиялар ишлаб чиқишган. Лекин ҳозирги кунда ҳам ноисломий давлатларда исломий капитал бозори моделини қўллаш амалиётининг самарадорлик даражасини тизимли тадқиқ этиш асосида Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида исломий капитал бозорини самарали жорий қилиш асосида исломий молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланишнинг илмий ва амалий жиҳатлари муаммолигича қолмоқда. Зеро амалга оширилган библиографик таҳлил натижалари Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида, шу жумладан бундаги турли лойиҳаларни молиялаштиришда исломий капитал бозори моделини самарали жорий қилиш

масаласида илмий изланишлар олиб борилиши асосида ушбу муаммонинг назарий-методологик ва амалий ечимига эришиш зарурлигини кўрсатмоқда.

Исломий давлатларда барқарор ривожланаётган исломий молия-банк тизими ва уни ноисломий давлатларда самарали жорий этилиши тажрибаси, бундай тизимнинг исломий капитал бозори орқали турли лойиҳаларни исломий молиялаштиришнинг фундаментал ва методологик базиси, механизмларини таҳлили асосида мавжуд мазҳаблар (Шариат мактаблари – Суннийларга мансуб Ҳанафий (Имом Аъзам), Шофеъий, Моликий, Ҳанбалий мактаблар ҳамда Шияларга мансуб Жаъфарий мактаби) 1-расмда келтирилган шаклда уларга мансуб давлатлар бўйича таснифланиши мумкин.




**1-расм. Шариат мактабларини давлатлар бўйича таснифланиши**

Республикада амалга оширилаётган самарали макроиқтисодий сиёсат доирасида Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида исломий молияга, айниқса унинг таркибидаги капитал бозори орқали молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланиш асосида [3] турли лойиҳаларни молиялаштиришга қизиқиш сезиларли даражада кучайгани сабабли, ушбу соҳада илмий изланишлар олиб бориш ҳамда амалий ишлар фаолллашган. Лекин, Янги Ўзбекистон бизнеси ва аҳолиси молиявий фаолияти ва бизнес лойиҳалари ривожланишида исломий молиялаштиришнинг пайдо бўлишига ҳуқуқий-меъёрий базанинг йўқлиги ва унга асосланган исломий молия-банк (шу жумладан исломий капитал бозори), солиқ ва бошқарув инфратузилмасининг мавжуд эмаслиги, айниқса бизнес ва аҳоли орасида исломий молиялаштиришга алоқадор молиявий саводхонликнинг пастлиги халақит бермоқда. Ушбу муаммолар билан бир қаторга миллий молиявий бозорнинг ривожланмаганлиги муаммосини [12; 24-29] ҳам қўшиш лозим. Ҳусусан, миллий молиявий бозор ҳолатининг таҳлилидан қуйидагиларни кўриш мумкин: ҳозирда молиявий бозор майда қисмларга бўлинган ҳолда бир нечта регуляторлар [4] томонидан алоҳида тартибга солинади, натижада ушбу бозор ҳанузгача ривожланмасдан Янги Ўзбекистон иқтисодиётининг молиявий ресурсларга ва инвестицияларга бўлган талабини етарлича қондирмай келмоқда. Шу сабабли, иқтисодиётнинг молиявий чуқурлиги 2019-2023 йилларда 18,3 фоиздан 21,2 фоизгача, капитал бозорининг ЯИМга нисбатан капитализация даражаси 2017-2023 йилларда 8 фоиздан 22 фоизгача, капитал бозори иштирокчиларининг инвестициялари суммасидан транзакцион ҳаражатлари 8 фоиздан 10 фоизгача бўлган. Зеро миллий капитал бозорида сукуқ ва “яшил” сукуқ сегментини шакллантириш учун имкониятлар мавжуд [11; 36]. Айтилган муаммонинг ечими сифатида Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида исломий молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланиш учун исломий молия-банк

тизимини (сегменти, секторини) қамровчи яхлит миллий молиявий бозорни шакллантириш ва уни комплекс тартибга солиш макрорегулятори концепциясини [23-29] амалга ошириш мақсадга мувофиқ.

Мавжуд муаммоларга қарамасдан, Ўзбекистонда 2019 йилда биринчи «Ўзаро» исломий суғурта компанияси ўз фаолиятини бошлаган. Фақат Ўзбекистонда эмас, балки МДҲ давлатлари ичида биринчилардан бўлган электрон-Мурабаха (Мурабаха савдо битими асосидаги молиявий маҳсулот) платформаси ишлаб чиқилган. IsBF (Islamic Business and Finance) номли биринчи Исломий молия масалалари билан шуғулланувчи компания (асосий фаолияти ушбу соҳада консалтинг хизматлари кўрсатиш) ташкил этилган, исломий молия соҳасида аҳоли саводхонлигини ошириш мақсадида “Ислом молияси” Telegram саҳифаси ва веб сайти ишга туширилган. Таиба Лизинг ва Ал-Мулк Капитал каби лизинг компаниялари эса кичик ва ўрта бизнес вакилларига Ислом тамойиллари асосидаги ижара маҳсулотлари тақдим қилишни давом эттирмоқда. Шунингдек, таълим соҳасида ҳам сезиларли ишлар амалга оширилди. Ўзбекистонда Исломий молия бўйича бир нечта тренинглар ўтказилган, ўзбек тилида Исломий молияга оид китоблар нашр этилган, иқтисодиёт йўналишидаги баъзи олий таълим муассасаларида исломий молия фани ўқитилмоқда.

Юқорида берилган таҳлил асосида Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида Ислом динига мансуб Ҳанафий (Имом Аъзам мазҳаби) мактаби қоидалари бўйича эътиқод қилувчи ҳалқнинг ва бизнес субъектларининг турли лойиҳаларини исломий молия бозори (шу жумладан унинг капитал бозори) орқали самарали молиялаштирилишига бўлган талаблари устувор равишда инобатга олиниши ва бунда мавжуд исломий назарий ва методик инструментарий жорий қилиниши мақсадга мувофиқ деб айтиш мумкин. Бунда жаҳондаги ноисломий давлатларда лойиҳаларни жорий қилинган исломий молия бозори (шу жумладан унинг капитал бозори) орқали молиялаштиришни мавжуд мазҳаблар (Шариат мактаблари) қоидалари бўйича амалга ошириш амалиётининг самарадорлик даражасини таҳлилий баҳолаш масаласи ечимини топиш зарур. Ушбу масаланинг ечими мақсадида [29] исломий капитал бозорининг молиялаштириш имкониятларидан ноисломий иқтисодиётлар ривожланишида фойдаланиш даражасини бешта турдаги исломий мазҳабга мос фаолият моделига ва уларнинг ҳар бирини мос равишда капитал бозори (шу жумладан фондлар ва бошқа молиявий воситачилар) ва финтех (рақамли молия технологиялари) сегментларига (шу жумладан кўрсатилган сегментлар ҳолатини ифодаловчи тегишли кўрсаткичлар гуруҳларига ҳам) ажратиб тизимли тадқиқ этиш ёндашувини таклиф этиш мумкин. Ушбу ёндашувнинг услубий асосини ноисломий давлатларда турли лойиҳаларни исломий мазҳаблар (Шариат мактаблари) қоидалари асосида исломий капитал бозорининг молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланиш даражасини тизимли тадқиқ этиш ва баҳолаш методи ташкил этади.

Таклиф қилинган янги метод ноисломий давлатларда турли лойиҳаларни бешта турдаги исломий мазҳаблар бўйича жорий қилинган исломий капитал бозорининг молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланиш даражасини комплекс баҳолашнинг интеграл ва хусусий (сегментар) мезонларни қўллайди. Бундай мезонлар негизида ноисломий давлатларда лойиҳаларни жорий қилинган исломий капитал бозорининг молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланиш даражасини бешта турдаги исломий мазҳабга мос фаолият моделларига мансуб давлатлар гуруҳлари ва уларнинг ҳар бирига мос келувчи исломий капитал бозори ҳолатини ифодаловчи тегишли кўрсаткичларни улар учун эталон деб қабул қилинган кўрсаткичларга нисбатан комплекс баҳолаш ётади. Бунда эталон кўрсаткичларнинг миқдорлари бўлиб бешта турдаги исломий мазҳабга мос фаолият моделларига мансуб давлатлар гуруҳлари ва уларнинг ҳар бирига мос келувчи исломий капитал бозори модели ҳолатини ифодаловчи кўрсаткичларнинг миқдорлари хизмат қилади. Берилган ёндашув ёрдамида бажарилган ноисломий давлатлар капитал бозорларининг молиялаштириш имкониятларини тизимли таҳлили асосида Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида турли лойиҳаларни бешта турдаги исломий мазҳаблар бўйича молиялаштиришни самарали таъминловчи миллий капитал бозорига ёндош (муқобил) бўлувчи алоҳида рақамли

исломий капитал бозори майдончасининг моделини жорий қилиш мақсадга мувофиқ. Шу билан бирга, исломий капитал бозори моделининг самарали фаолияти учун Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида турли лойиҳаларни бешта турдаги исломий мазҳаблар ва анъанавий принцип бўйича молиялаштирувчи ички ва хорижий институтлар учун тенг имкониятлар, қулай бизнес муҳити ва мазкур бозорда жамғармаларни (S) самарали инвестицияларга (I) айланиши учун зарур бўлган (S-I)-муҳитни яратиш концепцияси лозим.

Бундай концепцияни ишлаб чиқилиши ва амалга оширилиши учун проф. Ш.Шоҳаъзамийнинг тегишли таклиф ва тавсияларига [23-29] асосланиш мақсадга мувофиқ.

Юқорида берилган таклифларни Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида амалга оширилиши:

- республика учун мақбул бўлувчи исломий молия (шу жумладан исломий молиявий бозор ва унинг капитал бозори) моделини танлаш ва жорий қилиш масаласи ечимига эришиш;
- бундай исломий молия моделини Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида жорий қилиши асосида унинг ёрдамида лойиҳаларни исломий молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланиш йўлларини аниқлаш имконини беради.

Умуман олганда, ушбу тадқиқот натижалари Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида, шу жумладан бундаги турли лойиҳаларни молиялаштиришда исломий молияни (шу жумладан исломий молиявий бозор ва унинг капитал бозорини) самарали жорий қилиш стратегияси ва тегишли қонун ҳужжатлари лойиҳаларида, Ўзбекистонда исломий молияни ёндош (муқобил) тизим сифатида шакллантириш билан боғлиқ давлат сиёсатини ишлаб чиқишда қўлланилиши мумкин.

Хулоса ўрнида қуйидагиларни келтириш мумкин.

Янги Ўзбекистоннинг тараққиёти йўлида исломий молияни (шу жумладан исломий молиявий бозор ва унинг капитал бозорини) самарали жорий қилиш муаммосига давлат раҳбари Ш.М. Мирзиёевнинг алоҳида эътибор қаратаётгани мазкур мавзудаги тадқиқотнинг долзарблиги ва зарурлигини белгилайди. Чунки бу муаммонинг самарали ечимига эришиш натижасида мамлакат иқтисодиёти учун янги имкониятлар яратилишига олиб келади. Зеро ушбу контекстда Янги Ўзбекистонда турли лойиҳаларни исломий капитал бозорининг молиялаштириш имкониятларидан самарали фойдаланиш масаласи ўз ечимини топади. Бу эса мамлакатга ҳар йили 10 млрд. АҚШ долларигача инвестициялар жалб қилишга [30; 31] ва улар диверсификациясига олиб келиши ҳақидаги экспертларнинг фикрлари рўёбга чиқишини таъминлаши мумкин.

Янги Ўзбекистоннинг тараққиёти шароитида исломий молияни жорий этиш учун анъанавий ва унга ёндош (муқобил) ислом молиясини (шу жумладан исломий молиявий бозор ва унинг капитал бозорини) ўзида самарали мужассамлаштирувчи дуалистик моделдан фойдаланиш яхши натижа бериши мумкин. Зеро бундай дуалистик моделда бизнес ва молиявий институтлар фаолияти учун муносиб ҳуқуқий механизм ва рақобат муҳити ҳамда қулай бизнес ва инвестиция муҳитлари яратилади, ушбу институтлар мижозларида икки тизим ўртасида танлов имконияти пайдо бўлади, уларнинг ислом қоидалари талаби бўйича эҳтиёжи қондирилади, янги молиявий маҳсулотлар ва технологиялар ишлаб чиқилади, Янги Ўзбекистоннинг исломий ва ноисломий давлатлар ҳамжамияти олдидаги нуфузи ортади, натижада миллий иқтисодиёт тараққиётида ички ва чет эллик инвесторлар учун тенг имкониятлар вужудга келиб, уларнинг иштироки фаоллашади, инфляция, коррупция ва яширин иқтисодиёт жиловланади.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-158-сонли Фармони.

2. “Ўзбекистон Республикаси Президентининг тадбиркорлар билан “2023 йилдаги очиқ мулоқотида белгиланган вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2023 йил 4 сентябрдаги ПҚ-292-сонли қарори;
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 мартдаги “Ислом тараққиёт банки гуруҳи ва Араб мувофиқлаштириш гуруҳи жамғармалари билан шерикликни янада кенгайтириш ва чуқурлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4224-сон Қарори;
4. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 декабрь куни 2020 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга мурожаатномаси (https://kun.uz/99414458);
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг тадбиркорлар билан 2023 йилдаги очиқ мулоқоти (https://kun.uz/);
6. IFSB – Исломий молиявий индустриянинг барқарорлиги тўғрисидаги ҳисобот (IFSI) 2021 [https://www.ifsb.org/download.php?id=6106&lang=English& pg=/index.php];
7. DinarStandard & Ellipses – Глобал исломий финтех-ҳисобот 2021 [https://www.salaamgateway.com/specialcoverage/islamic-fintech-2021];
8. ICD-REFINITIV – Исломий молиянинг ривожланиши тўғрисидаги ҳисобот 2020 [https://icd-ps.org/uploads/files/ICD-Refinitiv%20IFDI%20Report% 202020160 7502893_2100.pdf];
9. Qardus нашрининг таҳлилий маълумотлари (https://www.qardus.com/news/ the-islamic-financial-services-industry-statistics#:~: text=Currently%2C%20the%20 Islamic%20finance%20sector,over%202.7%20 trillion%20USD%20globally);
10. https://www.refinitiv.com/en/resources/special-report/islamic-finance-development-report; https://alhudacibe.com/pressrelease142.php#;
11. Отчет ПРООН «Предварительное технико-экономическое обоснование выпуска «зеленого» сукук в Республике Узбекистан»//UNDP, 2021 (www.uz.undp.org).
12. Аналитическая записка ИМРИ при Кабинете министров Республики Узбекистан «Анализ реализации мер, принимаемых министерствами и ведомствами по поддержке рынка капитала и используемых на нём механизмов», 2023 г., www.imrs.uz.
13. Ahmed, H., Asutay, M., & Wilson, R. (2013). Reflecting on Islamic banking and financial crisis: Risks, reputation and stability. Islamic Banking and Financial Crisis: Reputation, Stability and Risks. Edinburgh University Press.
14. Salman Syed Ali. Islamic Capital Market Products:Developments and Challenges.Islamic Development Bank Group Islamic research and Training Institute.1425 H/2005 year. 92-p.
15. Al-Jarhi, M. A. (2017). An economic theory of Islamic finance. ISRA International Journal of Islamic Finance, 9(2), 117-132.
16. Alzahrani, M. (2019). Islamic corporate finance, financial markets, and institutions: An overview. Journal of Corporate Finance, 1-5. Retrieved from https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0929119918308691
17. Arshed, N., Yasmin, S., & Gulzar, M. (2020). Islamic financing portfolio and its comparative growth potential. Islamic banking and finance review, 60-91. doi:10.32350/ibfr.2020.07.04
18. Ercanbrack, J. (2020). The Standardization of Islamic Financial Law: Lawmaking in Modern Financial Markets. The American Journal of Comparative Law, 67(4), 825–860. doi:10.1093/ajcl/avz010
19. Беккин Р.И. и др. Исламские финансы в современном мире. Москва, Умма, 2004.-283 с.
20. Байдаулет Е.А. Исломий молия асослари.-Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019.-432 б.
21. Чокаев Б. Исламские финансы: возможности для российской экономики. Вопросы экономики. 2015. № 6. С. 106—127.
22. Зарипов И.А. Исламские финансы как стратегический ориентир развития России. https://cyberleninka.ru/.
23. Шоҳаъзамий Ш.Ш. Тизимли молия инжиниринги. Монография. .-Т.: Fan va texnologiya, 2012.-796 б.

24. Шохаъзамий Ш.Ш. Трактат о смарт цифровой республике. Монография. -Т.: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020.-352 с.
25. Шохаъзамий Ш.Ш. Системное развитие рынка ценных бумаг в регулятивной взаимосвязи с реальной экономикой. Монография.-Т.: Fan va texnologiya, 2012.-448 с.
26. Шохаъзамий Ш.Ш. Финансометрика: основы теории и применение. Монография.-Т.: Iqtisod-moliya, 2013.-464 с.
27. Шохаъзамий Ш.Ш. Формирование стратегии развития финансового рынка Нового Узбекистана в контексте глобальной цифровой экосистемы//“Ҳудудий ривожланиш: тенденциялар, хатарлар ва стратегиялаш” мавзусида халқаро илмий-амалий конференция материаллари, 2024 йил 10 февраль, ЎзМУ. – б.63-71.
28. Shoha’zamiy Sh.Sh. Zamonaviy moliyaviy bozorning talqini va nazariy-metodologik asoslari// The first of the international Silk Road and Beyond Congress Series (SIRCON 2022) was organized under the theme of “Belt and Road: Opportunities and Challenges” full text book on October 4-7, 2022 in Uzbekistan.). Necmettin Erbakan Üniversitesi Yayınları: 175. -p. 313-349. www.neuyayin.com
29. Шоҳаъзамий Ш.Ш., Сайдирасулов Л.А., Абдул Жалил Махама. Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида исломий молияни самарали жорий қилиш: тенденция ва муаммолар, ечимлар // “Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” Ilmiy-uslubiy jurnal, № 1, 2024. – b.
30. Ислом тараққиёт банкининг Ўзбекистондаги вакили Х.Хасанов фикри (https://www.spot.uz/ru/2019/04/15/idb/).
31. Хасанов Х.Ш. Ўзбекистон Республикасида исломий молиялаштириш // Исломий молия асослари (китобнинг 5-қисми, 13 боби). –Т.: O‘zbekiston, 2019, 11 б (401-411).
32. Imamnazarov, J. (2020). Landscaping analysis of Islamic finance instruments in Uzbekistan. UNDP. https://undp.org//2020/
33. Имомназаров Ж.М. Ислом молия тизими имкониятларидан Ўзбекистон иқтисодиётида фойдаланишнинг назарий асосларини такомиллаштириш// PhD диссертацияси автореферати, ТДИУ, 2023.-70 б.
34. Жўраев Б.Ю. Ўзбекистонда ислом молиясини жорий қилиш зарурати ва уни ривожлантириш имкониятлари // PhD диссертацияси автореферати, НДУ, 2023.-70 б.
35. Абдуллаев Р.В., Дусанов С.М. Ислом иқтисодиётида молиявий муносабатлар. – Т.: Тошкент ислом университети, 2007.-104 б.
36. Аброров С.Ж. Ўзбекистонда сукук-исломий қимматли қоғозларни жорий этиш истиқболлари//PhD диссертацияси автореферати, ТДИУ, 2020.-70 б.
37. Abdullaev, A., Juliana, J., & Bekimbetova, G. (2023). Investigating the Feasibility of Islamic Finance in Uzbekistan: Survey Results. Review of Islamic Economics and Finance, 16(1). Retrieved from https://ejournal.upi.edu/index.php/rief/article/view/57013.

УДК:330.3

# ИННОВАЦИИ КАК ОСНОВА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЯ)

# INNOVATSIYA MILLIY IQTISODIYOTNI BARQARAR RIVOJLANISH ASOSI (Xitoy misolida)

# INNOVATION AS THE BASIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY (THE EXAMPLE OF CHINA)

**Мирзамахмудова Мадина**
**Старший преподаватель кафедры Макроэкономика**
**Экономического факультета НУУз.**
**Чунлианг Хаситиер**
**магистрант 2-курса**

**Аннотация**

В статье изучены сущность и значимость инновации, инновационная система Китая, а также сопоставляются национальные инновационные системы развитых стран. Анализируются расходы Китая на НИОКР, этапы инновационного развития и географическая структура инновационной конвергенции.

**Ключевые слова:** конкуренция, инновация, инновационные системы, ВВП, затраты на НИОКР, национальные инновационные системы

Maqolada innovatsiyaning mohiyati va ahamiyati, Xitoyning innovatsion tizimi ko'rib chiqiladi, shuningdek rivojlangan mamlakatlarning milliy innovatsion tizimlari taqqoslanadi. Xitoyning ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlari, innovatsiyalarni rivojlantirish bosqichlari va innovatsiyalar yaqinlashuvining geografik tuzilishi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** raqobat, innovatsiyalar, innovatsion tizimlar, YaIM, ilmiy-tadqiqot xarajatlari, milliy innovatsion tizimlar

The article examines the essence and significance of innovation, the innovation system of China, and also compares the national innovation systems of developed countries. China's R&D expenditures, stages of innovation development, and geographic structure of innovation convergence are analyzed.

**Key words:** competition, innovation, innovation systems, GDP, R&D costs, national innovation systems

С политикой открытых дверей, начавшейся в 1979 г., связывают новый этап развития Китая: развитие национальной экономики, ориентированной на открытый рынок и свободную торговлю. То есть плановое развитие китайской экономики перешло на этап рыночного функционирования экономики страны.

Согласно теории американского экономиста Майкла Юджина Портера, автора работы «Международная конкуренция. Конкурентные преимущества стран», - экономика государства «…претерпевает 4 этапа развития: развитие на основе факторов производства, развитие на основе инвестиций, развитие на основе инноваций, развитие на основе создания богатства»[1].

Китайская экономика, ориентированная на инвестиции и экспорт, прошла первых два этапа, сформулированных Портером. Следующий этап – развитие на основе инноваций.

Применяя подобную модель, Китаю удалось на протяжении длительного времени «производить и поставлять огромное разнообразие товаров куда угодно, по самой низкой цене»[2].

Финансовый кризис 2008–2010 гг., охвативший все страны мира, продемонстрировал, что экономика Китая во многом зависит от устойчивого экономического развития стран-партнеров, поскольку сокращение покупательной способности со стороны стран-партнеров приводит к падению спроса на товары, произведенные в Китае. Поэтому этап перехода на развитие экономики, основанной на инновациях, для Китая своевременно обоснован.

Инновации как в экономическом, так и в технологическом секторе экономики государства призваны стимулировать переход к «…экономике, опирающейся на наукоемкие отрасли, высокий уровень образования». Это позволит стране избежать зависимости от внешних рынков[3].

Для всестороннего изучения и анализа инновационных систем на государственном уровне Р. Нельсоном[4], М. Шапер[5] и Б. Лундваллом[6] был предложен метод, суть которого состоит в подходе к инновации как к «…ключевому фактору экономического роста и долгосрочного сближения разных экономических систем»[7]. Такой подход «…демонстрирует определенную связь между затратами факторов производства и ВВП». Доля затрат на НИОКР в ВВП возрастает, что демонстрирует устойчивую позитивную динамику (рис. 1).

По данным Государственного статистического управления страны расходы на научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы (НИОКР) в Китае в 2022 году увеличились на 10,1% и превысили 3 трлн юаней ($456 млрд). С корректировкой на инфляцию они выросли на 7,7%. Это превышает целевой показатель ежегодного прироста расходов на НИОКР на 7%, установленный на период 14-й пятилетки (2021-2025 гг.), отметил статистик ГСУ Чжан Цилун, слова которого приводит агентство «Синьхуа». Доля затрат на НИОКР в 2022 году достигла рекордных 2,54% от ВВП по сравнению с 2,43% от ВВП годом ранее[8].




**Рис. 1. Расходы Китая на НИОКР (в процентах от ВВП)[8]**

Для усиления своих позиций на мировом уровне Китаю целесообразно поднимать качество внедряемых инноваций, усиливать эффект от их внедрения в различных областях национальной экономики.

До начала осуществления политики открытых дверей в Китае проводимые НИОКР в исследовательских институтах были отделены от промышленности. Последующие реформы должны были объединить науку с производством и способствовать проведению изысканий, имеющих производственный потенциал. В настоящее время в Китае государственный сектор вовлечен в инновационный процесс – государство опосредованно через сеть государственных банков и государственных предприятий устанавливает свое

представительство в инновационной сфере. Частные предприятия заняты в основном в прикладных исследованиях или используют уже готовые зарубежные разработки[10].

Национальные инновационные системы США и Китая объединяет поддержка со стороны государства инновационной деятельности частных фирм. При этом в Китае финансирование НИОКР осуществляется государством; частный капитал в этом не принимает участия. В США правительство более существенно финансирует фундаментальные исследования, чем в Китае. В Китае большое внимание уделяется инновациям, ориентированным на промышленное производство. В США несколько иной подход – инновационное развитие технологий происходит без формирования устойчивой системы их производственной поддержки в рамках национальной инновационной системы. В Китае инновационный цикл по внедрению нового продукта непродолжительный, в качестве эталонного стандарта используют подход Stage-Gate[3]. Необходимо отметить, что в регионах страны применяется большое количество моделей организации инновационных систем. Государством узаконено развитие 14 свободных экономических зон, как лабораторий по внедрению инновационной политики.

В 5-летнем плане Китая (2016–2020 гг.) инновации выступали основным стимулом экономического роста. В связи с этим были сформулированы следующие задачи:

- ✓ обеспечить расходы на НИОКР до 2,5% национального ВВП;
- ✓ увеличить количество зарегистрированных патентов на 10 000 человек до 12;
- ✓ отдача наукоемких отраслей в экономическом росте страны должна составлять не менее 60%.

Цели и задачи, намеченные страной на период 2016-2020 гг., были успешно выполнены.

Решение поставленных задач стало возможным исключительно благодаря государственной поддержке новых технических исследований, повышению уровня защищенности объектов интеллектуальной собственности, внедрению передовых технологий, решению экологических проблем. К основным технологическим интересам Китая относятся биотехнология, искусственный интеллект, квантовые исчисления, робототехника, блокчейн. Часть этих технологий вызывает определенный интерес у Министерства обороны США. На современном этапе китайские компании являются лидерами в области технологии для мобильных сетей 5G, бытовой электроники и высокоскоростных перевозок.

В планах Китая стать «…лидером в области технологий искусственного интеллекта»[11], технологий наукоемких производств 6-го технологического уклада, что в будущем позволит сформировать новые отрасли.

Новый план развития Китая на период 2021–2025 гг. предоставит больше возможностей для развития как страны, так и всего мира. Китай ожидает крупные прорывы в основных областях ключевых технологий и стремится занять в области инноваций одну из первых позиций в мире к 2035 г. В докладе макроисследовательской группы Huatai Securities отмечается, что опора на собственные силы и возможности для развития технологий впервые в истории была поднята до такого уровня, что делает ее областью, которая обеспечит важную основу для развития и национальной безопасности.

Преимущество Китая перед Западом – его масштабный внутренний рынок, после насыщения которого появится возможность выхода на глобальные рынки сбыта.

По мнению академика РАН С. Глазьева, «…современный механизм глобальных экономических отношений определяется системой мирохозяйственных укладов, которые в свою очередь тесно связаны с технологическими укладами… смена мирохозяйственных укладов обусловлена сменой укладов технологических»[12].

Требует внимания также тот факт, что за последнее время значительно вырос объем инвестиций Китая в венчурный капитал. По мнению экспертов, в 2019 г. объем китайских инвестиций в венчурный капитал сравним с инвестициями США. Венчурные фирмы Китая

рассматривают инвестиции в робототехнику, автономные транспортные средства и биотехнологии.

Современный кризис, вызванный COVID-19, сказался на инновационной сфере в тот период, когда расходы на НИОКР в мировой экономике превышали темпы роста мирового ВВП. Венчурный капитал и использование объектов интеллектуальной собственности достигли рекордно высокого уровня. Ввиду того, что инновации имеют важнейшее значение для развития национальных стратегий экономического развития, они пострадают незначительно. Ведущим компаниям для того, чтобы сохранить конкурентоспособность в будущем отказываться от НИОКР опрометчиво. Крупные компании, ведущие научные разработки в области информационных технологий, обладают достаточным резервом денежных средств. Кроме того, развитие цифровых технологий также будет ориентировано на внедрение инноваций.

В настоящее время заметно усилился интерес к разработкам в области медицины и здравоохранения. Поэтому рост расходов на проведение научно-изыскательных мероприятий можно прогнозировать в фармацевтической отрасли и биотехнологии.

Таким отраслям экономики, как транспорт, необходимо проявлять заинтересованность в разработках, связанных с новыми источниками энергии, в том числе, источниками чистой энергии.

Последствия мирового кризиса, вызванного вспышкой COVID-19, должны стать толчком для развития таких направлений экономики, как туризм, образование и розничная торговля. Вполне возможно, что подъем экономики Китая окажется самым значимым событием последних десятилетий.

Иностранные инвесторы серьезно заинтересованы не только в традиционной отрасли торговли, в которой КНР является мировым лидером, но и в таких высокотехнологичных отраслях, как научные исследования и техническое обслуживание, а также передача данных, компьютерное обслуживание и разработка программного обеспечения.

В случае, когда Китаю не удавалось договориться о покупке нужных технологий, КНР прибегала к «заимствованию» технологий (не всегда официальному и законному) и промышленному шпионажу, который заключается в форме недобросовестной конкуренции, при которой осуществляется незаконное получение, использование, разглашение информации, составляющей коммерческую тайну с целью получения преимуществ при осуществлении предпринимательской деятельности, то есть с целью получения материальной выгоды.

Учитывая вышеизложенное, можно проследить этапы инновационного развития Китая, которые представлены на рис. 2.




**Рис. 2. Этапы инновационного развития Китая**

Источник: Составлено авторами

Согласно рисунку 2, после образования КНР было пройдено 4 этапа инновационного развития, а именно: подготовительный этап который стартовал в начале 1950-х годов и завершился в 1979 году; начальный этап инновационного развития – с 1979 года, когда было подписано соглашение о научно-техническом сотрудничестве между КНР и США по 1990-е годы, когда активное развитие получила стратегия «Доступ к рынку в обмен на технологии», было подписано соглашение о научно-техническом сотрудничестве Китая и Российской Федерации в 1992 году, а также КНР и ЕС – в 1998 г.

Этап совместного развития технологий (конец 1990-х-2000 гг.) ознаменован подписанием Планов научно-технического сотрудничества КНР и стран мира, а также началом проведения Диалогов по инновациям. Современный этап развития инновационной сферы Китая получил название «самостоятельное развитие инноваций» и активно проявил себя в 2015 году, когда стартовала реализация Программы «Сделано в Китае – 2025 год», предполагающая укрепление высокотехнологичного производства внутри КНР.

Учитывая этапы инновационного развития страны, можно проследить географическую структуру внешней инновационной конвергенции КНР, представленную на рис. 3.




**Рис. 3. Географическая структура инновационной конвергенция Китая**

Источник: Составлено авторами

Рассматривая взаимодействие КНР и Японии в научно-технической сфере, необходимо выделить такой канал инновационной конвергенции, как инновационное взаимодействие.

Активное развитие данный канал инновационной конвергенции получил недавно. Так, в 2018 г. во время визита в КНР Премьер-министра Японии Синдзо Абэ, лидеры двух стран отметили необходимость создания нового формата диалога для инновационной области и сферы интеллектуальной собственности, а в апреле 2019 г. в Пекине прошел Первый диалог по инновационному сотрудничеству между Китаем и Японией. Темы, которые обсуждались в ходе Диалога, включали в себя: гармонизацию стандартов зарядных устройств нового поколения для электроавтомобилей, осуществление взаимодействия между умными городами, защиту коммерческой тайны, а также борьбу с пиратской продукцией. Также стороны обменялись мнениями по вопросам обмена и научного сотрудничества между университетами и исследовательскими институтами двух стран [13].

При взаимодействии Китая и стран Центральной Азии (Казахстана, Киргизии, Таджикистана, Туркменистана и Узбекистана), Африки и АСЕАН основным каналом инновационной конвергенции является инновационное взаимодействие путем проведения диалогов и конференций на высоком уровне. Например, в октябре 2017 г. в Ашхабаде впервые прошел Форум по науке, технологиям и инновациям Китая и Туркмении, в ходе которого китайская сторона отметила, что готова углубить взаимодействие с Туркменией в области науки, технологий и инноваций в рамках реализации инициативы по созданию «Одного пояса – одного пути», развить научно-технологическое взаимодействие между

учреждениями, университетами и предприятиями, а также усилить обмен между молодыми научными сотрудниками и инженерами. Президент Академии наук Туркменистана в свою очередь отметил, что надеется на дальнейшее плодотворное сотрудничество с Китаем в таких областях, как нанотехнологии, биомедицина, сейсмология и возобновляемые источники энергии [14].

Таким образом, Китай, реализуя инновационное взаимодействие со странами мира активно следует каналам инновационной конвергенции, при этом при сотрудничестве с некоторыми странами мира КНР использует сразу все каналы, а с другими – лишь несколько. Более того, со временем один канал инновационной конвергенции может заменяться другим, что было продемонстрировано на ярком примере США. Далее необходимо проследить, какие факторы способствуют активному развитию инновационной конвергенции Китая.

**Список использованной литературы**

1. Птицын П., Плесецкий А. Взгляды военно-политического руководства США и Китая на применение искусственного интеллекта в военной сфере // Зарубежное военное обозрение. – 2019. – № 1. – с. 11-15
2. Глазьев С., Чистилин Д. Куда пойдет Россия? (анализ предложенных программ социально-экономического развития страны) // Российский экономический журнал. – 2017. – № 4. – с. 36-48
3. Zhu H., Euchner J. The Evolution of Cina’s Innovation capability // Research-Technology Management. – 2018. – № 61 (3). – p. 11-15
4. Nelson R. National System of Innovation: a Comparative Analysis. – New York: Oxford University Press, 1993. 541 p.
5. Schaaper M. Measuring China’s Innovation System: National Specificities and International Comparisons // STI Working Paper. – 2009. – № 1. – DOI: https://doi.org/10.1787/227277262447
6. Lundvall B., Johnson B., Andersen E. Dalum B. Bational systems of Production, Innovation and Competence Building // Research Policy. – 2002. – № 31 (2). – p. 213-231
7. Solow R. Technical Change and the Aggregate Production Function // Review of Economic and Statistics – 1957. – № 39. – p. 312-320
8. Китай – затраты на НИОКР, % ВВП https://ru.knoema.com/atlas/%d0%9a%d0%b8%d1%82%d0%b0%d0%b9/%d0%97%d0%b0%d1%82%d1%80%d0%b0%d1%82%d1%8b-%d0%bd%d0%b0-%d0%9d%d0%98%d0%9e%d0%9a%d0%a0-percent-%d0%92%d0%92%d0%9f
9. КНР увеличила затраты на НИКР на 10 % https://www.interfax.ru/world/921303
10. Xue L., Forbes N. Will China Become a Science and Technology Superpower by 2020? An Assessment based on a National Innovation System Framework, Innovations: Technology, Governance, Globalization, 2006, № 1 (4), pp. 111-126
11. Freeman C. The National System of Innovation in historical perspective // Cambridge Journal of Economics. – 1995. – № 19 (1). – p. 5-24
12. Глазьев С.Ю. О неравномерности современного экономического роста как процесса развития и смены технологических укладов // Социологий. – 2013. – № 4. – с. 42-52
13. First Japan-China Innovation Cooperation Dialogue Held // Ministry o Economy, Trade and Industry. – 2019.
14. The Embassy of PRC in New Zealand http://nz.china-embassy.gov.cn/

**УДК:330.3**

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИҚТИСОДИЁТНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

# IMPROVING MECHANISMS FOR INNOVATIVE ECONOMIC DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

**Файзуллаев Жонибек Негматуллаевич**
**ЎзМУ, “Макроиқтисодиёт” кафедраси**
**таянч докторанти, “Alfraganus University”**
**нодавлат университети “Молия”**
**кафедраси катта ўқитувчиси**

**Аннотация**

Ушбу мақолада ҳукумат сиёсати, тадқиқот ва ишланмалар ташаббуслари, тадбиркорлик экотизимлари ва таълим ислоҳотлари каби инновацияларни ва инновацион ривожланишни рағбатлантириш механизмларини таҳлил қилиш орқали инновацион фаолият учун қулай муҳитни қандай яратиши мумкинлигини ўрганилган ва Ўзбекистонда ушбу механизмларни такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари бўйича илмий таклифлар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** Инновациялар, иқтисодиётнинг инновацион ривожланиши, инновацион сиёсат, тадқиқот ва ишланмалар, инновацион инфратузлима субъектлари, интеллектуал мулк ҳуқуқи, венчур молиялаштириш, технопарклар.

В данной статье рассматривается, как государственная политика, инициативы в области исследований и разработок, предпринимательские экосистемы могут создать благоприятную среду для инноваций, путем анализа механизмов, которые способствуют инновациям и инновационному развитию. Разработаны научные предложения по приоритетным направлениям совершенствование этих механизмов в Узбекистане.

**Ключевые слова:** Инновации, инновационное развитие экономики, инновационная политика, научные исследования и разработки, субъекты инновационной инфраструктуры, права интеллектуальной собственности, венчурное финансирование, технопарки.

This article examines how public policies, research and development initiatives, and entrepreneurial ecosystems can create an enabling environment for innovation by analyzing the mechanisms that promote innovation and innovative development. Scientific proposals have been developed on priority areas for improving these mechanisms in Uzbekistan.

**Key words:** Innovation, innovative economic development, innovation policy, scientific research and development, subjects of innovation infrastructure, intellectual property rights, venture financing, technology parks.

Инновациялар глобал миқёсда иқтисодий ўсиш ва рақобатбардошликни оширишда ҳал қилувчи рол ўйнайди. Инновациялар иқтисодий тараққиёт омили сифатида ресурслар самарадорлиги, меҳнат унумдорлиги ва рақобатбардошликни ошириш асосида барқарор ривожланишга ёрдам беради. Бугунги кунда жаҳоннинг ривожланган етакчи ва ривожланаётган йирик мамлакатларида давлат, бизнес ва илмий-тадқиқот доиралари томонидан инновацияларни иқтисодий ўсишнинг асосий омили сифатида илгари суриш борасидаги чора-тадбирлар ва илмий изланишлар кучайтирилмоқда. Ўзбекистонда ҳам иқтисодиётни инновацион ривожлантиришга қаратилган давлат стратегиялари ишлаб

чиқилди ва амалга оширилмоқда. Лекин мамлакатимизда ушбу йўналишда, жумладан, иқтисодиётни инновацион ривожлантиуришнинг самарали механизмларини жорий этиш ва уларни такомиллаштириш қаратилган илмий тадқиқотлар етарли даражада амалга оширилмаган.

Иқтисодий ривожланишнинг инновацион механизмлари инновацияларга асосланган иқтисодий ўсишни ва барқарор иқтисодий ривожланишни таъминлаш ва рағбатлантиришга қаратилган стратегия, ташаббус ва дастаклар мажмуини ўз ичига олади. Илмий-тадқиқот ва ишланмаларга инвестициялаш, давлат грантлари ва субсидияларини ажратиш, инновациялар учун солиқ имтиёзлари бериш, венчур капитали орқали молиялаштиришни кенгайтириш, инновацион фаолият экотизимини ривожлантириш, технологиялар трансфери дастурлари, ишлаб чиқариш ва академия ҳамкорлигини таъминлаш, интеллектуал мулкни ҳимоя қилиш чора-тадбирларини ушбу механизмлар қаторига қўшиш мумкин. Ушбу механизмлар инновацияларни рағбатлантириш, инновацион тадбиркорликни ривожлантириш ва янги ғоялар ва технологияларни тижоратлаштиришга кўмаклашиш асосида иқтисодий рақобатбардошлик ва тараққиётни оширишга ёрдам беради.

Давлат инновацион фаолиятнинг илмий ғоядан инновацион маҳсулот ишлаб чиқаришгача бўлган барча босқичларида ҳуқуқий-институционал асослар, солиқ имтиёзлари ва стратегик инвестициялар механизмларини жорий этиш орқали иқтисодиёт тармоқ ва соҳаларида инновацияларни рағбатлантириши мумкин.

Давлат томонидан корхоналарнинг илмий-тадқиқот ва ишланмаларга харажатлари учун солиқ имтиёзлари ёки чегирмалар берилиши инновацион ишланмалар таннархини пасайтиради ва корхоналарни илмий-тадқиқот ишларига инвестиция киритишларини рағбатлантиради. Давлатнинг грантлар, субсидиялар ёки паст фоизли кредитлар шаклидаги тўғридан-тўғри молиявий қўллаб-қувватлаш механизмлари корхоналар учун, жумладан ресурслари чекланган кичик корхоналар учун инновацияларни ишлаб чиқиш ва ишлаб чиқариш жараёнига жорий этишларини осонлаштиради.

Ушбу шаклдаги механизмларнинг алоҳида шакли бўлган инновацион ваучерлар корхоналарга давлат томонидан белгиланган қийматда берилиб, улардан фақат инновациялар ва технологияларни ўзлаштириш, жорий этиш ва ривожлантириш билан боғлиқ бўлган махсус хизматлар ёки тажрибаларни сотиб олиш учун фойдаланиш мумкин бўлади. Инновацион ваучерлар ёрдамида олиниши мумкин бўлган хизматлар тадқиқот ва ишланмалар фаолияти, технологияларни узатиш, маҳсулотни синовдан ўтказиш, бозор тадқиқотлари, интеллектуал мулк бўйича маслаҳатлар ёки инновацион кўникмаларни шакллантириш хизматларини ўз ичига олиши мумкин.

Давлат томонидан интеллектуал мулк ҳуқуқларини таъминлаш ва кучли ҳимоя қилиш инноваторларнинг ўз ихтироларидан бошқаларнинг рухсатсиз нусха кўчиришлари ёки мулк ҳуқуқларининг бузилишидан қўрқмасдан фойда олиш имкониятини таъминлаш орқали инновацион фаолиятни рағбатлантиришда муҳим ўрин тутади.

Илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишланмаларига инвестициялар киритиш технологик ютуқлар ва ишланмаларни рағбатлантириш орқали инновацияларнинг ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади. Ушбу механизм давлат, корхоналар ва академик ташкилотлар (олий ўқув юртлари, илмий-тадқиқот ташкилотлари) маблағлари ҳисобига амалга оширилиши мумкин. ИТТКИга инвестицияларни давлат томонидан молиялаштирилишини соғлиқни сақлаш, қайта тикланувчи энергетика ва ахборот технологиялари каби устувор йўналишларда фундаментал ва амалий тадқиқотларни қўллаб-қувватлаш учун ҳукумат томонидан ажратилган маблағлар ажратилиши билан тавсифлаш мумкин. Давлатнинг ИТТКИ лойиҳаларини академик ташкилотлар ва ишлаб чиқариш корхоналари билан ҳамкорликда молиялаштириши илмий-технологик ишланмаларни транферсфер қилиш ва тижоратлаштириш жараёнларини соддалаштириши ва жадаллаштириши мумкин.

Корхоналарнинг инновацион фаоллиятини ошириш ва ИТТКИга инвестицияларни рағбатлантириш бўйича ривожланган мамлакатлар тажрибасида турли механизмлардан фойдаланилади (1-расм).

Илмий-тақдқиқот ва ишлаб чиқариш субъектлари ҳамкорлиги олий ўқув юртлари ва илмий-тадқиқот ташкилотларининг ИТТКИ лойиҳаларини ишлаб чиқариш корхоналари билан биргаликда амалга ошириши бўлиб, ушбу механизм илмий-тақдқиқот ва ишлаб чиқариш субъектлари ўртасида тажриба, ресурс ва интеллектуал мулк алмашуви ҳисобига тижоратлаштириш салоҳияти юқори инновацион ишланмаларни яратилишига олиб келади.




**1-расм. ИҲТТ мамлакатларида инновацион фаолиятни рағбатлантириш механизмлари, ташаббуслар сони, 2021 йил ([1] асосида тузилди).**

Инновацион тадбиркорлик экотизимларини ривожлантириш инновацион ғояларни ишаб чиқариш ва бизнес жараёнларига самарали жорий қилишда муҳим рол ўйнайди. Инкубаторлар, акселераторлар, венчур фондлари ва қўллаб-қувватловчи меъёрий-ҳуқуқий асосларни ўз ичига олган инновацион тадбиркорлик экотизими стартап корхоналарни фаолиятини рағбатлантиради ва инновацион тадбиркорликни ривожлантиришга имкон беради.

Инновацион тадбиркорлик экотизими таркибий элементларидан бири молиявий қўлаб-қувватлаш субъектлари ҳисобланади. Бошланғич молиявий ресурслар, “фаришта” инвестициялар, венчур капитали ва бошқа молиявий имкониятларининг мавжудлиги стартап лойиҳалардан инновацион маҳсулот ва хизматларни ишлаб чиқишга эришишда ҳал қилувчи рол ўйнайди. Жаҳон интеллектуал мулк ташкилоти маълумотларига кўра 2022 йилда жаҳонда венчур капитали битимлари сонининг ўсиш тенденцияси сақланиб қолди ва 23 000 дан ортиқ битимлар тузилди (бу 2021 йилга нисбатан 17.6%га кўп). Венчур капиталига киритилган инвестициялар ҳажми эса 2021 йилдаги 2 баравардан кўп ўсишдан кейин 2022 йилда ўтган йилга нисбатан 37.8%га пасайиб, 380 млрд. АҚШ долларни ташкил этди (2021 йилда 610 млрд. АҚШ доллари). Венчур капитали битимлари сони ошиши шароитида венчур капиталига инвестициялар қийматининг пасайиши венчур капитали битимлари ўртача қийматининг 2021 йилдаги 31 млн. АҚШ долларидан 2022 йилда 16 млн. АҚШ долларигача камайишига олиб келди (2-расм).




венчур битимлари сони
ўсиш сурати, ўтган йилга нисбатан %да

венчур инвестициялар қиймати, млрд. АҚШ долл.
ўсиш сурати, ўтган йилга нисбатан %да

**2-расм. Венчур капитали битимлари сони ва уларга киритилган инвестициялар қиймати ([2] асосида тузилди).**

Инновацион инкубаторлар, акселераторлар, ҳамкорлик платформалари билимлар алмашинуви, малака ошириш ва инновацион бизнесни йўлга қўйиш жараёнларини осонлаштиради ва стартапларнинг муваффақиятга эришиш имкониятларини оширади.

Тадбиркорлик ва инновациялар борасидаги соддалаштирилган тартибга солиш жараёнлари, қулай бизнес муҳити ва қўлаб-кувватловчи ҳуқуқий асосларнинг мавжудлиги инновацион фаолиятни амалга ошириш борасидаги тўсиқларни бартараф этади ва риск даражасини пасайтиради.

Иқтисодиётни инновацион ривожлантиришнинг самарали механизмлари қаторига инновацион технопарклар ва кластерларни ҳам қўшиш мумкин. Бугунги кунда инновацион технопарклар ва кластерлар миллий инновация тизимлари инфратузилмасининг самарали таркибий қисмини ташкил этмоқда. Илмий-тадқиқот марказлари, стартап бизнес инкубаторлар ва акселераторлар каби инновацион инфратузилма субъектларини ўзида мужассамлаштирувчи инновацион технопарклар ва кластерлар тадқиқотчилар, тадбиркорлар ва инвесторлар ўртасида билимларнинг тарқалишига, улар ўртасидаги ҳамкорликнинг ривожланишига имкон беради.

Жаҳон интеллектуал мулк ташкилоти маълумотларига кўра 2023 йил ҳолатига кўра Хитой ва АҚШ жаҳоннинг етакчи 100 кластерлари таркибига кирувчи энг кўп кластерларга (мос равишда 24та ва 21та) эга мамлакатлар ҳисобланади, улардан кейинги ўринда Германия (9та) туради. Япония, Канада, Ҳиндистон ва Жанубий Корея каби мамлакатларнинг 4тадан кластерлари топ 100таликдан жой олган. Хитой кластерлари фан ва технологиялар ишлаб чиқариш бўйича энг юқори ўсиш суратига эгадир. Япониянинг Токио-Ёкоҳама кластери дунёда инновацион фаолият натижалари бўйича энг юқори кўрсаткичларга эга етакчи фан ва технологиялар кластери ҳисобланади. Кейинги ўринларда Шэньчжэнь-Гонконг-Гуанчжоу (Хитой), Сеул (Жанубий Корея), Пекин ва Шанхай–Сучжоу (Хитой) кластерлари туради [2].

Ўзбекистонда иқтисодий ислоҳотларнинг чуқурлашуви шароитида иқтисодиётни инновацион ривожлантириш усутувор йўналишлардан бири сифатида белгиланди. Бу борада 2019-2021 йиллар ва 2022-2026 йиллар учун мўлжалланган алоҳида стратегиялар ишлаб чиқилди. Ушбу стратегияларда инновацион ривожланиш механизмларини такомиллаштириш бўйича бир қатор аниқ вазифалар белгиланиб, амалга ошириб келинмоқда. Жумладан, Ўзбекистонда 2006 йилдан бошлаб амалда бўлган олимлар ташаббуси билан шакллантириладиган лойиҳаларга асосланган эски самарасиз грант тизими ўрнига 2018 йилдан бошлаб рақобатга асосланган, иқтисодиёт тармоқлари эҳтиёжларига йўналтирилган илмий-тадқиқот ишларига давлат буюртмаси механизми жорий этилди. Эски тартибда илмий

лойиҳаларга грант ажратиш бўйича танловлар лойиҳа турига қараб 2 йилдан 5 йилгача даврийликда ўтказилган бўлса, 2018 йилдан ҳар йили ўтказила бошланди. Илгари молиялаштириш ҳажмини олимлар белгилаган бўлса, эндиликда давлат буюртмаси доирасида аниқ ҳисоб-китоблар асосида белгиланмоқда. Ўртача бир лойиҳани молиялаштириш ҳажми 850 млн. сўмгача кўтарилди (илгари 150 млн. сўм). Ажратилган маблағларнинг камида 40%ини моддий-техник базани мустаҳкамлашга йўналтириш, лойиҳанинг якуний натижаси сифатида аниқ маҳсулот ёки технология яратиш талаби белгиланди.

Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Инновацион ривожланиш агентлиги томонидан 2019-2021 йилларда жами 90 та стартап лойиҳа танлов асосида молиялаштирилган. Ушбу стартап лойиҳалар амалга оширилиши натижасида 674 та янги иш ўринлари яратилди. Шунингдек, ҳар бир вилоятда биттадан ташкил этилган инновацион туманларда муаммоларни ечимига қаратилган 13,1 млрд сўмга тенг 22 та стартап лойиҳа давлат грантлари ҳисобидан молиялаштирилган [3].

Юқори технологияли тадбиркорлик лойиҳалар-стартапларни биргаликда молиялаштириш учун ташкил қилинадиган венчур фондлар, венчур фондлардан биргаликда молиялаштириладиган юқори технологияли лойиҳалар-стартаплар, илмий-тадқиқот муассасалари, лойиҳа-конструкторлик бюролари, инновацион марказлар ўзларининг янги технологияларини тадбиркорларга сотишдан (фойдаланишга беришдан) олинган даромадлар бўйича, янги технологияларни маҳаллий тадбиркорлик субъектларига трансфер қилувчи ташкилотлар бу фаолиятдан олинган даромадлари бўйича 2018-2022 йиллар давомида ягона ижтимоий тўловдан бошқа барча турдаги солиқ ва мажбурий тўловлардан озод қилинди [4].

Бугунги кундаги амалда бўлган солиқ имтиёзлари ҳудудларда ташкил этилаётган инновацион туманлардаги технопарклар резидентлари учун тақдим этилмоқда. Ўзбекистонда солиқ имтиёзларини жорий этишда фақат махсус технопарклар резидентлари билан чекланиб қолмасдан, мамлакатимиздаги барча корхоналарнинг илмий-инновацион фаоллиги ва салоҳиятини ошириш, инновацион фаолиятини ривожлантириш, шунингдек ушбу мақсадларда уларнинг хусусий капитал қўйилмалари ҳажмини ошириш мақсадида солиқ ставкасини ёки солиқ базасини камайтирувчи солиқ имтиёзларини жорий этиш зарур.

Бугунги кунда мамлакатимизда инновацион ривожланишнинг яна бир муҳим механизми ҳисобланган саноқли венчур фондлари, жумладан бир давлат (UzVC) ва икки хусусий (MOST Ventures, SEMURG VC) венчур фондлари, шунингдек бир корпоратив (UZCARD Ventures) венчур фонди фаолият кўрсатмоқда. Улар томонидан бугунги кунга қадар 18 та стартап лойиҳаларини молиялаштирилиши амалга оширилди [5].

Ўзбекистонда инновацион технопарклар ва уларнинг таркибидаги корхоналар сони сезиларли даражада ошиб бормоқда. Лекин резидент корхоналарнинг ишлаб чиқариш, экспорт ва инвестиция кўрсаткичлари ҳажми паст суратларда ўсмоқда (1-жадвал). Ушбу ҳолат инновацион ислоҳотларнинг дастлабки босқичи учун хос бўлиб, технопарклар бўйича меъёрий-ҳуқуқий базанинг ривожланмаганлиги ва технопарклар фаолиятининг етарли даражада рақамлаштирилмаганлиги каби омиллар ҳисобига келиб чиқмоқда.

**1-жадвал**

**Ўзбекистонда технопаркларнинг асосий фаолият кўрсаткичлари[6]**

| Кўрстакичлар | 2019 й. | 2020 й. | 2021 й. | 2022 й. |
|---|---|---|---|---|
| Умумий сони, йил охирига | 3 | 10 | 7 | 21 |
| Таркибидаги корхоналар сони, йил охирига | 49 | 484 | 56 | 1077 |
| Ишлаб чиқарилган товар ва хизматлар ҳажми, млрд. сўм | 202,9 | 252,2 | 494,5 | 427,2 |
| Экспорт қилинган товар ва хизматлар ҳажми, млрд. сўм | 60,8 | 46,6 | 97,4 | 139,6 |
| Асосий капиталга инвестициялар, млрд. сўм | 9,1 | 67,7 | 17,5 | 156,4 |

Ўзбекистонда инновацион технопаркларнинг ишлаб чиқариш, инвестиция ва экспорт кўрсаткичлари ҳажмини юқори суратларда ўсишини таъминлаш учун бу борадаги ҳуқуқий-меъёрий базани такомиллаштириш, инновацион технопарклар таркибида юқори технологияли ва фан сиғимкор маҳсулот ишлаб чиқарувчи резидентлар сонини ошириб бориш, иқтисодий фаолиятнинг муайян йўналишларига ихтисослашган турли шакллардаги технопарклар ташкил этиш зарур.

Ўзбекистонда сўнги йилларда олий таълим муассасалари, инновацион технопарклар, саноат корхоналари ва давлат ташкилотлари ҳузурида бир нечта инновацион марказ ва акселераторлар ташкил этилиб, уларнинг сони ортиб бормоқда. Мамлакатимизда инновацион марказлар ва акселераторлар фаолиятини янада кенгайтириш имкониятларига бу борадаги зарур инфратузилманинг етарли ривожланмаганлиги, ахборотлар олиш даражасининг пастлиги ва молиявий ресурслардан фойдаланиш имкониятларининг чекланганлиги каби омиллар салбий таъсир кўрсатмоқда.

Иқтисодиётни инновацион ривожлантириш механизмлари самарали амал қилиши учун ушбу механизмлардан инновацион жараёнларнинг муайян босқичларида тўғри фойдаланиш муҳимдир. Инновацион жараёнларнинг турли босқичлари учун 2-жадвалда келтирилган механизмлар тизимини қўллаш зарур.

**2-жадвал**

**Инновацион жараёнларнинг турли босқичлари учун механизмлар**

| Инновацион жараён босқичлари | Инновацион механизм ва дастаклар |
|---|---|
| ИТТКИ босқичи | Илмий тадқиқот грантлари, кадрлар тайёрлаш ва уларни малакасини ошириш бўйича стипендиялар |
| Таништирув-тақдимот босқичи | Давлат харидлари, таништирув грантлари дастурлари, бизнес-инкубаторлар |
| Тижоратлашув олди босқичи | Венчур капитали, солиқ имтиёзлари ва субсидиялар, давлат харидлари, инновацион парклар, акселераторлар |
| Тижоратлаштириш босқичи | Солиқ имтиёзлари ва субсидиялар, савдо имтиёзлари, имтиёзли кредитлар, фаолиятни кенгайтириш хизматлари |
| Экспортни қўллаб-қувватлаш босқичи | Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар (ТТХИ), консалтинг хизматлари ва бошқарув малакасини ошириш учун субсидиялар |
| Глобаллашув босқичи | Миллий бренд ташаббуслари, жаҳон бозорига чиқиш, глобал ишлаб чиқариш тармоқларига интеграциялашув, экспорт бўйича солиқ, бож ва кредит имтиёзлари |

Ўзбекистонда инновацион ривожланиш механизмларини такомиллаштиришда давлат, олий таълим ва илмий тадқиқот ташкилотлари ва ишлаб чиқариш корхоналари ўртасидаги уч томонлама муносабатларнинг самарали ўрнатилиши учун қулай институционал шароитлар ва бизнес муҳитини яратиш зарур.

Инновациялар иқтисодий ривожланишнинг ҳаракатлантирувчи кучи бўлиб, миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини оширади ва барқарор ўсишни таъминлайди. Ҳукумат сиёсати, тадқиқот ва ишланмалар ташаббуслари, инновацион фаолият экотизимлари каби самарали механизмлардан фойдаланиш орқали давлатлар инновациялар учун қулай муҳит яратиши мумкин. Бироқ, ушбу механизмларнинг ҳеч бири алоҳида ҳолда мамлакатнинг инновацион салоҳиятини оширишда тўлақонли кутилган натижани бермаслиги мумкин. Шу сабабли ушбу механизмларни жорий қилишда уларнинг муайян бир турини ёки бир нечтасини танлаш мамлакатдаги мавжуд ижтимоий-иқтисодий шароитларга, инновацион фаолиятни амалга оширишни тартибга солиш ҳолати, миллий иқтисодиётнинг мавжуд илмий-техник салоҳиятига боғлиқдир. Шунингдек, инновацияларга асосланган барқарор иқтисодий ўсишга эришиш давлат, бизнес, илмий доиралар ва фуқаролик жамияти ўртасида доимий саъй-ҳаракатлар ва ҳамкорликни талаб қилади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. OECD (2021), OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2021: Times of Crisis and Opportunity, OECD Publishing, Paris, https://doi.org/10.1787/75f79015-en.
2. World Intellectual Property Organization (WIPO) (2023). Global Innovation Index 2023: Innovation in the face of uncertainty. Geneva: WIPO. DOI:10.34667/tind.48220.
3. Стартаплар. Инновацион ривожланиш агентлиги. Электрон ресурс: https://innovation.gov.uz/info/startaplar.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 январдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5308-сон Фармони.
5. Венчур молиялаштириш. Инновацион ривожланиш агентлиги. Электрон ресурс: https://mininnovation.uz/oz/static/venchur-moliyalashtirish.
6. Пресс-релизлар. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги (https://stat.uz/uz/default/press-relizlar).

**UDK:330.3**

Страхования в странах Европейского союза характеризуется высоким уровнем интеграции. Географическая близость стран, единая политика и развитые транспортные коммуникации стали основными драйверами интеграционного процесса между внутренними рынками страхования данных стран. Также необходимо отметить то, что у большинства крупных страховых компаний имеются дочерние компании, филиалы или отделы, разбросанные по всей Европе. Это позволяет им оказывать специфические для определенных стран виды страхования. В то же время, средние и мелкие страховые компании не имели такой привилегии в силу нехватки финансовых ресурсов, что сильно замедляло их развитие. Однако, после создания единого страхового пространства в Европейском союзе во второй половине 50-х годов прошлого столетия даже более мелкие страховые организации получили возможность предоставлять свои услуги в других странах.

Социальная ориентированность экономик многих европейских стран оказывает влияние на страховой сектор. Государственная социальная политика стран ЕС базируется на необходимых для граждан видов страхования, примерами которых могут послужить

медицинское страхование, пенсионное страхование, страхование от безработицы и др. Социальные страховые программы, как страхование от несчастных случаев и страхование от инвалидности, направлены на обеспечение финансовой защиты в случае трудностей, связанных с здоровьем. Социально уязвимые слои населения многих стран ЕС кроме пособий, субсидий и других выплат, получают пакет страховых продуктов, в который входят необходимые для них виды.

Одним из ярких представителей стран ЕС по развитию страхового рынка является Германия. Страховой рынок страны характеризуется рядом значимых особенностей:

–Существует тесная взаимосвязь между страховым бизнесом и крупным промышленным капиталом, что проявляется в широком распространении взаимного участия в капитале и управлении предприятием;

–Страховой сектор подвергается строгому контролю со стороны государства;

–Существенным аспектом немецкого страхового рынка является практика банкострахования (банкоссюренс), когда страховые организации, помимо осуществления страховой деятельности, также предоставляют банковские услуги в своих торговых точках. С помощью такого подхода банки и страховые компании объединяются и создают крупные тресты.

В другой стране Европейского Союза – Швейцарский страховой сектор включает в себя пять сегментов: кэптивные страховые организации, страхование жизни, дополнительное медицинское обеспечение, перестрахование и страхование гражданской ответственности, последнее является наиболее значимым. Страховые предприятия в 2021 году собрали страховые премии в размере более 225 миллиардов швейцарских франков, примерно 76% из которых поступили из-за рубежа. Капиталоемкая отрасль играет существенную роль в экономическом кругообороте как налогоплательщик и инвестор. Объем инвестиций в Швейцарии от данной отрасли в 2021 году составил почти 574 миллиарда франков[4].

Япония также является одним из ключевых участников мирового рынка страхования и имеет свои особенности развития. Одной из специфических черт является так называемая «конвойная система», при которой правительство государства управляло развитием участников рынка на основе установления одинаковых темпов развития. Однако, в 1996 году после пересмотра закона «О страховании» данный режим был отменен и произошла либерализация рынка.

Японские компании, специализирующиеся на страховании жизни, занимают ключевое положение, являясь крупнейшими акционерами как частных, так и государственных предприятий. Их влияние также ощущается в области кредитования, и в последние годы они активно расширяют свою деятельность на страховые рынки других стран, таких как США и Канада. Одним из факторов, обуславливающих доминирование компаний по страхованию жизни, является отсутствие в Японии долгое время системы социального страхования и обеспечения. В связи с этим большинство населения вынуждено обращаться за страховкой к подобным компаниям.

Деятельность страховых организаций в Японии строго регулируется государством. Изменение ставок страховых премий требует согласования с министерством финансов. Конкуренция между страховыми компаниями ограничена из-за отсутствия страховых брокеров. Система страхования включает в себя обширную сеть отделений и агентов, их число в крупных компаниях достигает нескольких десятков тысяч.

Несмотря на различия в развитии страховых рынков стран, можно выделить общую тенденцию развития в нынешнее время для многих стран. Данной объединяющей характеристикой служит применение новых технологий в страховом секторе, а также осуществление продажи с помощью сети Интернет.

На сегодняшний день, в особенности после пандемии COVID-19, происходит расширение применение электронной коммерции. Этот метод оформления страховых полисов обладает рядом преимуществ, направленных на удобство пользователей. Онлайн-страхование становится важным инструментом не только в развитых странах, но и во многих

развивающихся, что положительно влияет на темпы роста данной отрасли экономики и повышает уровень заинтересованности населения в страховых продуктах.

Новые технологические решения в страховой сфере становятся значимым инструментом в урегулировании убытков и предотвращении случаев страхового мошенничества. Прогрессивные страховые компании, такие как китайская страховая группа PingAn, активно внедряют технологии искусственного интеллекта и анализа больших данных для борьбы с мошенничеством в медицинском страховании. Кроме того, данные технологии помогают страховщикам определять потребности индивидуальных клиентов, определять приемлимые страховые ставки на основе их истории и производить анализ для создания новых видов страхования.

Постепенно технологии блокчейна также находят свое применение в этой области. К примеру, ведущая компания в сфере информационных технологий, Alipay, запустила пилотный проект по обработке страховых претензий через мобильное приложение. Такие проекты дают возможность сократить затраты ресурсов страховщиков, что приводит к снижению ставок страховых продуктов и повышает вовлеченность населения.

Таким образом, рынки страхования в разных странах отличаются имеющейся структурой, нормативно-правовой базой, а также системой контроля. Эти различия обусловлены не только особенностями экономической системы и социокультурными факторами, но и влиянием государственной политики в сфере финансов и страхования.

Необходимо отметить то, что на сегодняшний день имеется общая тенденция развития мирового страхового рынка, наблюдаемая во всех странах с развитым страховым сектором, которая заключается в широком применении новейших технологий с целью снижения затрат ресурсов и времени, а также предотвращения определенных нелегальных и мошеннических действий лиц для получения выплат и компенсаций. Такой подход становится важным шагом для дальнейшего развития рынка страховых услуг, создавая возможности для более обширного охвата населения услугами страхования и повышение гибкости при предоставлении страховых продуктов.

Кроме того, разнообразие в использовании новых технологий, таких как искусственный интеллект, анализ данных и блокчейн, является результатом стремления компаний к повышению эффективности и конкурентоспособности на рынке. Все эти факторы формируют уникальное окружение для развития страховых рынков, что требует от компаний гибкости и адаптивности под разнообразные и быстроменяющиеся условия.

**Список использованной литературы**

1. Отчет sigma 3/2023 - World insurance. – Swiss Re Institute [Электронный ресурс].
2. Катаргин С. Расширение бизнеса в другие страны. Что страховать? – Forbes Council. – 2020.
3. National Economy Witnessed Momentum of Recovery with Solid Progress in High-quality Development in 2023 [Электронный ресурс].
4. Банки и страховые компании // URL: https://www.eda.admin.ch/aboutswitzerland/ru/home/wirtschaft/finanzplatz/banken-und-versicherungen.html.

**UDK:338.24**

## NEFT VA GAZ KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TASHKILLASHTIRISH

## ОРГАНИЗАЦИЯ МЕХАНИЗМОВ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НЕФТИ И ГАЗА

## ORGANIZATION OF CORPORATE MANAGEMENT MECHANISMS IN OIL AND GAS ENTERPRISES

**Ilmiy rahbar TDTU professori R.R.Xusainov**
**TDTU 1-kurs magistiri D.Tashpo‘latov**

### Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi sanoatining yetakchi tarmoqlaridan bo‘lgan neft va gaz korxonalarining tashkiliy tuzilishi, korporativ boshqaruvining faoliyati, boshqaruvga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillari va ularning faoliyatini yaqin kelajakda yaxshilash uchun ko‘rsatmalar, bosqichlar va yo‘nalishlar ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** korporativ boshqaruv, boshqaruvning vazifalari, samarali boshqaruv, samarali boshqaruv tamoyillari, moliyaviy ahvol, loyihalarni moliyalashtirish, moliyalashtirish manbayi, neft va gaz korxonalari, samarali boshqaruv tamoyillari, boshqaruvning umumiy tuzilmasi.

В данной статье рассмотрены организационная структура предприятий нефтегазовой отрасли, входящих в число ведущих отраслей промышленности Республики Узбекистан, деятельность корпоративного управления, внутренние и внешние факторы, влияющие на управление, а также инструкции, этапы и направления совершенствования их деятельности. деятельность в ближайшем будущем.

**Ключевые слова:** корпоративное управление, задачи управления, эффективное управление, принципы эффективного управления, финансовое положение, финансирование проектов, источник финансирования, предприятия нефтегазовой отрасли, общая структура управления.

In this state review, the organizational structure of oil and gas industry enterprises, which are among the leading real industries of the Republic of Uzbekistan, the activities of corporate governance, internal and external factors influencing management, as well as instructions, guidelines and directions for improving ix activities. activities in the near future.

**Key words:** corporate management, tasks of management, effective management, principles of effective management, financial situation, project financing, source of financing, oil and gas enterprises, principles of effective management, general structure of management.

Jahonda iqtisodiy va texnologik taraqqiyoting yangi bosqichi sifatida namoyon bo‘lgan innovatsion inqilob sharoitida neft va gaz sanoati ishlab chiqarish samaradorligini innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra (2020-y.) “Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60 foizga yetishi, aynan innovatsion yangiliklarni sanoat tarmoqlariga keng qo‘llash va samarali foydalanish hisobiga yaratilmoqda”[1] . Bugungi kunda jahonda sanoat ishlab chiqarish rivojlanish tendensiyalariga ko‘ra, jumladan neft va gaz sanoatini resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardoshlikni ustuvor darajada innovatsion va raqamli texnologiyalar, ishlab chiqarishni optimal tashkil qilish, mehnat unumdorligini oshirish, munosib ish joylarini tashkil qilish asosida rivojlantirish dolzarb muammolar sifatida qaratilmoqda.

Jahonda sanoat korxonalarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash asosida samaradorlik oshirishda belgilangan parametrlarga ko‘ra ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab

chiqish (takomillashtirish), raqamli texnologiyalar, jumladan «big data» (ulkan ma’lumotlar) va «artificial intelligence» (sun’iy intellekt)ni soha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘llashning uslubiy-dasturiy asoslarini taokmillashtirish kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlarga alohida e’tibor qratilmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida neft va gaz ishlab chiqarish bo‘yinlarining texnik-texnologik jihatdan uyg‘un sxemasiga ko‘ra samaradorligini oshirish, sun’iy intellekt hisobiga raqamlashtirish texnologiyalarini takomillashtirish, sohada mehnatni ratsional tashkil qilish kabi mavzular yo‘nalishidagi tadqiqotlar ustuvor darajada bajarilmoqda. Yangilanib borayotgan O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarish tarmog‘ini jadal sur’atlar bilan sifat jihatdan rivojlantirish, ishlab chiqarishga innovatsion yangiliklar va texnologiyalarni keng qo‘llagan holda texnik-texnologik darajasini ilg‘or jahon amliyotiga muvofiqlashtirish kabi yo‘nalishlarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. «... Iqtisodiyotning barcha sohalarini innovatsiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Yangi O‘zbekiston iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o‘tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda...» . Bu borada ishlab chiqarish bo‘g‘inlari, jumladan siquv kompressor stansiyalari faoliyatini dastuiy integratsiyalashning uslubiy asoslarini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini raqamli infratuzilmalarni muqobillashtirish, mehnat unumdorligiga ko‘ra ishlab chiqarishning istiqbolda rivojlantirish bo‘yicha tavsilarni asoslash kabi yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tishining dastlabki davrlarida, korporativ boshqaruvning ba’zi jihatlari M. Xamidulin, I. Butikov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Bugungi kunda korporativ boshqaruvga doir ilmiy ishlar va izlanishlar dartjasi salmoqli darajada oshmoqda va o‘rganish xamda tadbiq qilish ko‘lami kengaymoqda. Jumladan, I. Qurbonov, A.Obidov, Z. Ashurov, V. Kotov kabilar zamonaviy korporativ boshqaruvni tashkil etish mexanzmiga doir ishlar olib bormoqdalar.

Mamlakatimizda sanoat korxonalarini to‘g’ri va samarali boshqarishga doir ilmiy fanlar tarixiy ildizlarga asoslangan holda barqaror rivojlanishni va o‘zgarishni boshidan kechirmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida T.P. Karpova, O.E. Nikolayeva, T.V Shishkovalar tomonidan ushbu sohaga oid ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Korporativ boshqaruv bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olim A.Berlining tadqiqotlarida korporatsiyalarni boshqarishda strategiyani tanlash va korxona menejmentini rivojlantirish, investitsion faoliyatni boshqarish masalalari tadqiq etilgan. Mahalliy iqtisodchi olimlardan S.S.Gulyamov, D.N.Rahimova, N.M.Rasulov, M.S.Saidov, D.X,Suyunovlarning tadqiqot ishlari korporativ boshqaruv jarayonlarini ilmiy-nazariy asoslarini yaratishga qaratilgan. Ularning ilmiy izlanishlarida, mulk shakllari transformatsiyasi, korporativ boshqarish modellarini mukammallashtirish, aksiyadorlik korxonalarnir ivojlantirish jarayonidagi masalalarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, A.A.Xashimovning tadqiqotlarida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish sharoitida korporativ tuzilmalarni boshqarishni rivojlantirishning ilmiy-metodologik jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan. R.I.Yaushevning ilmiyizlanishlari integratsion korporativ tuzilmalar va ta’sischilar kapitalida davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish muammolariga bag‘ishlangan. M.B.Xamidulin fond bozorini rivojlanishi, aksiyadorlik jamiyatlarida Kuzatuv kengashining roli va ahamiyati masalalari ustida fikr yuritgan. O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarini xususiylashtirish masalalari B.Yu.Xodiyev,B.B.Berkinov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.

Jahonda sanoat korxonalarida korporativ boshqaruvga bo‘lgan munosabat XX asrning 90-yillaridan yanada ortib, bu korxonalarda samarali korporativ tuzilmalarni shakllantirishga turli darajalarda taraqqiy etgan davlatlar alohida e’tibor qarata boshladilar. Bu davrga kelib, korporativ boshqaruv tamoyillari joriy etilib, xalqaro global transmilliy korporatsiyalar tashkil topdi,

korporativ boshqaruv modellari joriy etildi[5]. Negaki, olimlar resurslar cheklangan va texnikaning karrasiga rivojlanayotgan bir sharoitda sanoatda to‘g’ri tashkil etilmagan boshqaruv bilan uzoq muddatli barqarorlikka erishib bo‘lmasligini tushunib yetishdi. Xususan, jahon amaliyotida korporativ boshqaruv tizimining o‘ziga xos bir-biridan ajralib turadigan 3 ta turi: ingliz-amerika, germaniya va yapon modellari keng qo‘llanib kelinmoqda[2].

O‘zbekistonda zamonaviy sanoat korxonasining korporativ boshqaruv tizimida bir qator o‘zgartirish va yangiliklar kiritilgan bo‘lib, buni esa “Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish” UShK korxonasi misolida ko‘rib chiqamiz.

Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi O‘zbekistonda neft va gaz sohasida yetakchi ishlab chiqarish korxonalaridan hisoblanadi. Boshqarma 1980-yil tashkil etilgan bo‘lib, 40 yildan ortiq vaqt mobaynida gaz qazib chjiqarish, gaz, gaz kondensati va tabiiy gaz tayyorlash va qayta ishlash bilan shug’ullanib kelmoqda.

Sho‘rtan neft va gaz qazib olish boshqarmasi davlat ahamiyatiga ega korxonalardan biri, ishlab chiqarish sanoat giganti bo‘lib, 1219 gektar maydonni egallaydi. Kompaniya mahsulotlariga quyidagilar kiradi: tabiiy gaz (26,9%), gaz kondensati (27,7%), suyultirilgan gaz (30,1%), oltingugurt (1,54%)[3].

“Sho‘rtanneftgaz” UShK “O‘zbekneftgaz” MXKning “O‘zneftgazqazibchikarish” Akstioner Kompaniyasining strukturaviy bo‘linmasi xisoblanadi. Korxonaning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat: neft va gaz qazib chiqarish, Sho‘rtan konlar guruhi, Chigil konlar guruhi, QK MChJ “LUKOYL-Uzbekistan Opereyting Kompanii”, QK MChJ “Gissarneftegaz” tomonidan qazib olinayotgan gazni qayta ishlash, suyultirilgan gaz va unsuriy oltingugurt ishlab chiqarish. “Sho‘rtanneftegaz” UShK O‘zbekistonda turbodetander yordamida past xaroratli kondensastiyani ajratish texnologiyasini qo‘llagan birinchi korxona bo‘lgan. Korxonada dunyodagi eng katta gaz tozalash qurilmasi ishlatiladi. Korxona Respublika gazining 25,2 foizini, gaz kondensatining 20,8 foizini, suyultirilgan gaz maxsulotining taxminan 23,9 foizini etkazib beradi. Tabiiy gazning asosiy xaridori “Uztransgaz” AK hisoblanadi. Neft konlaridan qazib olinayotgan neft va dastlabki tayyoorlovdan o‘tgan kondensat “Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi” UK ga yuboriladi. Suyultirilgan gaz maxsulotining ichki bozordagi asosiy xaridori xususiy gaz quyish shaxobchalari xisoblanadi, bundan tashqari, axoliga suyultirilgan gazni tarqatish “Uztransgaz” AK ning xududiy korxonalari orqali amalga oshiriladi. “Sho‘rtanneftgaz” UShK gazni tayyoorlash va qayta ishlash, saqlash va yuklash bo'yicha bir necha tashkilotlarga xizmat ko‘rsatadi, ularning ichida KQ MChJ «Gissarneftegaz» , KQ MChJ «Shurtangazmaxsulot», MChJ «LUKOYL Uzbekistan Opereyting Kompani» MChJ «Uz GazOyl». 2021- yilda korxonada ISO 9001 SMT bo‘yicha audit o‘tkazilgan va shu tizim bo‘yicha sertifikat olingan. Mexnat muxofazasi, sanoat va yong'in xavfsizligini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida 2020- yildan boshlab OHSAS 18001:1999 standarti asosida mexnat xavfsizligi va sog'lik menedjmenti tizimi tatbiq etilgan[4].

Kelajakda, sarmoya dasturlariga asosan quyidagilar amalga oshirilishi kutilmoqda:

-sho‘rtan konidan gaz qazib chiqarishni DKS-2 navbati yordamida ko‘paytirish;

-gazning ichki extiyojlarga ketayotgan xajmini gaz xaydovchi agregatlarda issiqlikni utilizastiya qilish xisobiga kamaytirish;

-neft konlarida past bosimli gazlarni utilizastiya qilish;

Bugungi kunda korporativ boshqaruv sharoitida modernizatsiyalash jarayonlarining nisbatan samarali amalga oshirilishiga imkon yaratuvchi omillar mavjud: 1.Modernizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish uchun taqozo etiluvchi katta hajmdagi moliyaviy mablag‘larni jamlash va safarbar etish imkoniyati. 2.Eskirgan texnika va texnologiyani zamonaviy, yangi ishlab chiqarish vositalari bilan bosqichma-bosqich almashtirib borish da korporativ tuzilmaning ichki ishlab chiqarish va texnologik aloqalaridan foydalanish. 3.Tayyor mahsulot ishlab chiqarishning ko‘p bosqichli texnologik jarayonlariga ega bo‘lgan korporativ tuzilmalarda diversifikatsiyalash imkoniyatlarining kengligi. 4.Ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash va boshqaruv uslublarining yangi turlarini yaratuvchi ilmiy laboratoriyalar va tajriba konstruktorlik ishlarini moliyalashtirish va ular faoliyatini ta’minlash imkoniyatlarining kengligi va hokazolar. Shuningdek, xo‘jalik faoliyatini korporativ tashkil etish va boshqarishning keng imkoniyatlari

korporatsiyalarning ustunliklaridan foydalanishga asoslanib, ularni tuzishning ko‘plab variantlaridan foydalangan holda firmalararo munosabatlarni modellashtirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Don Tapskott. Evolving towards a Homogenous Society: The Risk of the New Digital Economy. ttps://www.fortinet.com/blog/industry-trends/evolving-towards-a-hoogenous-socienty-the-risk-of-the-new-digital-economy.html
2. Alimova, G. A. (2020). Foreign Experience In Indexing The Amount Of Pensions. *The* American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(11), 472-477.
3. Maxmudova, N. J. (2020). Theoretical foundations of risk management in large corporate structures. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 83-88.
4. Raxmatova M.G, Abdullayeva D. Korxonalarning innovatsion faoliyatini bohqarish samaradorligini oshirish. // Iqtisodiyot va ta’lim (jurnal).2016. №5.
5. Umarov, I. Y. (2020). Innovative activity of the food industry of Uzbekistan. Экономика и социум, 7, 74.
6. Umarov, I. Y., & Yusupova, M. Features of digital innovation management in business. In World science: problems and innovations collection of articles of the XX-XI International Scientific and Practical Conference: at (Vol. 4).

**UDK:334.027**

## ANDIJON VILOYATIDA SANOATNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

## ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ

## FACTORS AFFECTING INDUSTRIAL DEVELOPMENT IN ANDIJAN REGION

**Sattikulova Gulnora Axmadxonovna** –
Andijon mashinasozlik instituti —
Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi,
email: sattikulova_g@mail.ru

**Annotatsiya**

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarishiga ta’sir etuvchi omillar yoritib berilgan. Viloyat hududlarida sanoat rivojlanishi o‘rganilib taxlil qilingan. Hudud salohiyatidan kelib chiqib rivojlantirish yo‘nalishlari taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** hudud sanoati, sanoat ishlab chiqarish tarkibi, hudud sanoatining ixtisoslashuvi, ichki imkoniyat va zaxiralar

В статье освещены экономические тенденции и факторы, влияющие на развитие промышленности в Андижанской области Республики Узбекистан, основанные на весе промышленного производства и региональной специализации. В ходе развития региона отрасль изучалась и анализировалась. На основе доходов региона предложены направления развития.

**Ключевые слова:** региональная промышленность, промышленное производство, региональная промышленная специализация, внутренние возможности и возможности.

The article highlights economic trends and factors influencing the development of industry in the Andijan region of the Republic of Uzbekistan. During the development of the region, the

industry was studied and analyzed. Based on the region's income, development directions are proposed.

**Key words:** regional industry, industrial production, regional industrial specialization, internal capabilities and capabilities.

Andijon viloyatini kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish: har bir hududning tabiiy, mineral xomashyo, sanoat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta’minlash; hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko‘lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo‘li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish, yangi sanoat korxonalari va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish; sanoatni jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish, sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish [3].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda bugungi kunda hukumatimiz tomonidan O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishni “Harakatlar strategiyasi”da birinchidan sanoat tarmog‘ini rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘lsa, ikkinchi tomondan mazkur tarmoqni jadal rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash muhim yo‘nalish sifatida qayd etilgan. Yangi taraqqiyot siyosatida ham 22 maqsadan sanoatni rivojlantirish masalalari keltirib o‘tilgan [1].

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Andijon viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘sishini ta’minlashga quyidagi omillar xizmat qildi:

1. Tarkibiy o‘zgarishlar, modernizatsiya va yuqori texnologiyali muhim ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishni tezlashtirishga yo‘naltirilgan faol investitsiya siyosati.

2. Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish darajasini bosqichma-bosqich kengaytirilishi va yangi sanoat mahsulotlarining o‘zlashtirilishi.

3. Mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvatlash va tijorat banklari tomonidan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun texnologik uskunalar xarid qilish va aylanma kapitalni to‘ldirish maqsadlarida kreditlarning ajratilishi [2, 8].

Hududlarda sanoatni barqaror rivojlantirishning muhim omillaridan biri bu - hududlarning qulay geografik joylashuvi bo‘lib, mazkur omillar majmuasi hududning raqobat ustunligi va strategik imkoniyatlarini belgilab beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Andijon viloyatida tabiiy va mineral xomashyo zahiralari hamda ulardan foydalanish quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

- tabiiy va mineral - xom ashyo zaxiralari yirik konlarda to‘plangan bo‘lib, ularni qazib olingan joyning o‘zidayoq kompleks qayta ishlash imkoniyati bor;
- foydali qazilmalarning ko‘pgina turlari tarkibidagi foydali kompanentlar yuqori darajada bo‘libgina qolmay, katta miqdorda yo‘ldosh elementlarga ham ega;
- ko‘pgina foydali qazilma konlari yaxshi o‘zlashtirilgan, aholi zich yashaydigan mintaqalarda joylashgan. Ular transport yo‘llariga va hududlar o‘rtasida resurslarni tashish vositalariga, shu jumladan suyuq va gaz holatidagi foydali qazilmalar uchun quvur transportiga ega;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzulma sohalari uchun malakali kadrlar tayyorlaydigan oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari tizimi mavjud[5].

Hududiy sanoatning rivojlanishini ifoda etuvchi eng muhim indikatorlardan biri bu- YAHMning industrializatsiya darajasi bo‘lib, viloyat YAHM tuzilmasidagi tarkibiy o‘zgarishlar shuni ko‘ratadiki, mazkur tuzilmada sanoatning ulushi keyingi yillarda pasayib borish tendensiyasi bilan xarakterlanadi. Xususan, mazkur tuzilmada 2020-2022 yillar oralig‘ida Andijon viloyati sanoatining ulushi YAHM tarkibida o‘sib borish tendensiyasini ifoda etmoqda (1-jadvalga qarang).

Jadval ma’lumotlariga qaraganda Andijon viloyati YAHMda sanoatning ulushi 2020 yilda 21,9 foiz, 2021 yilda 19,5 foiz, 2022 yilda esa 22,4 foizga oshgan. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 2022 yilga nisbatan 2020 yilda 147,3 foizga yoki 2021 yilga nisbatan 144,5 foizga oshgan.

Ikkinchi tomondan, Andijon viloyati umumiy sanoatida qayta ishlashning ulushi (mazkur

tarmoqning umumiy sanoatdagi ulushi 47,4 foiz) respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan juda yuqori hisoblanadi. Shuning uchun mazkur shaharga qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va faol ravishda investitsiyalarni jalb qilish tavsiya etiladi [3,4,5,7].

**1-jadval**

**Andijon viloyati YAHMda sanoat ulushining o‘zgarishi, dinamikasi[8]**

| **Ko‘rsatkichlar** | **mlrd.so‘m** | | | **2022 yil nisbatan foiz hisobida** | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **2020 yil** | **2021 yil** | **2022 yil** | **2020 yilga** | **2021 yilga** |
| **I. Yalpi hududiy mahsulot, jami** | **38008,5** | **43332,5** | **54464,0** | **143,3** | **125,7** |
| | **100%** | **100%** | **100%** | X | X |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 1755,9 | 1211,9 | 2255,5 | 128,5 | 186,1 |
| | 4,6 | 2,8 | 4,1 | X | X |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **36252,6** | **42120,6** | **52208,5** | **144,0** | **124,0** |
| | 95,4 | 97,2 | 95,9 | X | X |
| **Qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi** | **15485,1** | **18232,0** | **21544,9** | **139,1** | **118,2** |
| | 40,7 | 42,1 | 39,6 | X | X |
| **Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)** | **10332,2** | **10904,7** | **15135,1** | **146,5** | **138,8** |
| | 27,2 | 25,2 | 27,8 | X | X |
| sanoat | 8289,3 | 8450,2 | 12208,8 | 147,3 | 144,5 |
| | 21,8 | 19,5 | 22,4 | X | X |
| qurilish | 2042,9 | 2454,5 | 2926,3 | 143,2 | 119,2 |
| | 5,4 | 5,7 | 5,4 | X | X |
| **Xizmatlar** | **10435,3** | **12983,9** | **15528,5** | **148,8** | **119,6** |
| | 27,5 | 30,0 | 28,5 | X | X |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar | 2239,7 | 2767,7 | 3383,9 | 151,1 | 122,3 |
| | 5,9 | 6,4 | 6,2 | X | X |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1852,0 | 2210,3 | 2608,4 | 140,8 | 118,0 |
| | 4,9 | 5,1 | 4,8 | X | X |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 6343,6 | 8005,9 | 9536,2 | 150,3 | 119,1 |
| | 16,7 | 18,5 | 17,5 | X | X |

Hozirgi kunda shaharda quyidagi asosiy turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi (2-jadvalga qarang).

Jadval ma’lumotiga ko‘ra, iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 1607,1 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining 3,8 % ni ) tashkil etdi. 2022 yilda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari mahsulotlari o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 103,8 % ga ko‘paygan. Bundan ko‘rinib turibdiki, 2022 yilga nisbatan 2020 yilda 121,8 foizga, 2022 yilga nisbatan 2021 yilda 115,8 foizga teng bo‘lgan. Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 906,6 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 2,1% ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda 2022 yilda suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ga ko‘paygan. 2022 yilda 2020 yilga nisbatan 2,5 martaga, 2017 yilga nisbatan 171,3 foizga teng bo‘lgan [3,4,5].

2022 yilda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqaradigan mahsulotlar xajmi 38737,8 mlrd. so‘mni va o‘tgan yiliga nisbatan 108,0 % o‘sish sur’atini tashkil etdi. O‘z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,4 % ga, mebel ishlab chiqarish 11,1 % ga kamaygan bo‘lsa, tamaki mahsulotlari hajmi 2,0 % barobariga, tekstil mahsulotlari 16,1 % ga, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va

preparatlari 7,6 % ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish 88,7 % ga oshganligini kuzatish mumkin. Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmog‘ining ulushi 4,9 % ni, o‘rta-yuqori texnologiyali 23,8 %, o‘rta-quyi texnologiyali 34,9 %, quyi texnologiyali 36,4 % ni tashkil etdi.

**2-jadval**

**Andijon viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (mlrd.so‘m)**

| Ko‘rsatkichlar | 2020 yil | 2021 yil | 2022 yil | 2022 yil nisbatan foiz hisobida | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | 2020 yilga | 2021 yilga |
| Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi | 22573,3 | 28310,2 | 42600,9 | 188,7 | 150,5 |
| Qayta ishlash sanoati | 20746,1 | 26274,7 | 38737,8 | 186,7 | 147,4 |
| *shundan:* | | | | | |
| Oziq- ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki | 5238,9 | 6059,0 | 6882,9 | 131,4 | 113,6 |
| To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish | 1116,3 | 2909,8 | 3231,7 | 289,5 | 111,1 |
| Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlari, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish | 1226,7 | 1949,5 | 2096,9 | 170,9 | 107,6 |
| Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 758,0 | 1154,7 | 1203,5 | 158,8 | 104,2 |
| Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 123,4 | 144,1 | 133,1 | 107,9 | 92,4 |
| Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 486,2 | 3164,3 | 3974,3 | 817,4 | 125,6 |
| Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish | 621,6 | 1041,7 | 1054,1 | 169,6 | 101,2 |
| Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish | 1200,9 | 1243,8 | 2049,3 | 170,6 | 164,8 |
| Metallurgiya sanoati | 1396,6 | 2559,5 | 5007,0 | 3,6 marta | 1,95 marta |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hamda mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | 722,8 | 2613,1 | 1690,6 | 2,3 marta | 64,7 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | 1319,9 | 1388,1 | 1607,1 | 121,8 | 115,8 |
| Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | 361,3 | 529,3 | 906,5 | 2,5 marta | 171,3 |
| Iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish | 10794,2 | 12870,8 | 19927,5 | 184,6 | 154,8 |
| *shu jumladan:* | | | | | |
| oziq-ovqat tovarlari | 4614,3 | 5751,7 | 6106,8 | 132,3 | 106,2 |
| nooziq-ovqat tovarlari | 5731,1 | 6605,5 | 13186,4 | 2,3 marta | 2,0 marta |

Biroq, mazkur tarmoqlar “texnologiyaning murakkabligi” nuqtai nazaridan quyi bo‘lgan sanoat tarmoqlari sirasiga kirishini inobatga oladigan bo‘lsak, u holda viloyat iqtisodiyotining jahon integratsiyasiga chiqishida mazkur tarmoqlar orqali yo‘l topishning imkoniyat darajasi cheklangan hisoblanadi. Shuning uchun, viloyat iqtisodiyotda texnik taraqqiyotni ta’minlovchi sanoat

tarmoqlari, ya’ni: elektrotexnika mashinasozligi, farmatsevtika va kimyo sanoati tarmoqlarini rivojlantirish, bandlik hamda investitsiya bo‘yicha sanoatning tarmoq tuzilmalarida mazkur tarmoqlarning ulushini keskin oshirishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 8,0 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 3,8 % ga va suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 2,3 % ga o‘sishi hisoblandi[4,5].

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida to‘g‘ri kelib, 70,1 % ni, shuningdek, Andijon shahariga 4,8 % ni, Paxtaobod tumani 1,6 % ni, Xo‘jaobod tumanida 5,9 % ni hamda Baliqchi tumani 2,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat (143,1 %) ga ko‘paygan. Yuqori darajada o‘sish ko‘rsatkichi Asaka (147,2 %), Marhamat (125,0 %), Paxtaobod (144,5 %), Jalaquduq (193,5 %), Baliqchi (178,2 %), tumanlarida hamda Izboskan tumanida (178,8 %) ni qayd etildi[6].

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi o‘tgan yilning tegishli davriga 3,8 marta, boshqa sanoati faoliyati esa 6,6 % ga oshirish zarurligi ishlab chiqilgan.

Sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,4 % ga, mebel ishlab chiqarish 11,1 % ga kamaygan bo‘lsa, tamaki mahsulotlari hajmi 2,0 % barobariga, tekstil mahsulotlari 16,1 % ga, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari 7,6 % ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish 88,7 % ga oshirish zarur [4].

Shahar iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuv darajasini ko‘tarish, ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasini kengaytirish, YAHM, eksport kabi ko‘rsatkichlarda alohida tarmoq mahsuloti yoki mahsulot guruhining ustunlik qilishiga barham berish;

Tashqi bozorlardagi konyunktura o‘zgarishlariga kam ta’sirchan bo‘lgan tarmoqlar va sohalarning YAHM va bandlikdagi ulushining yuqori bo‘lishini ta’minlash, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi, shuningdek, eksport qiluvchi korxona va tarmoqlarning xom ashyo va butlovchi qismlar bilan ta’minlanishida mahalliy korxonalar ulushining ustunligiga erishish [5];

Yuqori texnologiyalar va zamonaviy texnika bilan bilan qurollangan, arzon va sifatli, tashqi bozorda bemalol raqobatga kirisha oladigan sanoat tarmoqlarining sanoat ishlab chiqarishi ko‘rsatkichlaridagi ulushini oshirish, konyunktura o‘zgarishlariga tez mosshlashuvchan, kapital sig‘imi past bo‘lgan soha va tarmoqlarning yalpi iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi salmog‘ini oshirishga erishish yo‘nalishlarida olib borish zarur.

Andijon viloyatida ishlab chiqilishi lozim bo‘lgan hududiy sanoat dasturida quyidagi takliflar[7]:

-shaharda foydalanilmayotgan zahira va imkoniyatlar hamda xom ashyo va resurslarga boy mavjud manbalardan oqilona foydalanish;

-tarmoqlarning hudud bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanishini ta’minlash;

-mavjud sanoat korxonalarining to‘la quvvatda ishlatish, bo‘sh turgan bino va inshootlarda ishlab chiqarishni tashkil etish;

-ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hamda mavjud xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish;

-yangi ish o‘rinlarini tashkil etish orqali aholi bandlik darajasini oshirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2022 yil 29 dekabr, 3 b.
2. O‘zbekistonning yillik statistik to‘plami 2022. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy statistik to‘plami. T.: 2023. 220 - b.;
3. O‘zbekiston sanoati 2019. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy statistik to‘plami. Toshkent. 2020. 20 - b.

4. O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy statistik to‘plami. Toshkent. 2023.
5. Respublika hududlarini 2022 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo‘yicha tuman va shaharlar hokimlarining o‘quv seminari taqdimot materiallari. T.: 2023.
6. Lavopa, A., and Szirmai, A., (2012). Industrialization, Employment and Poverty, UNU-MERIT Working Paper Series 2012-081. Maastricht, The Netherlands: United Nations University, Maastricht Economic and Social Research Institute on Innovation and Technology.
7. Maludakxan S., Akhmadkhonovna S. G. Distinctive Features of the Development of Industrial Production //Telematique. – 2023. – Т. 22. – №. 01. – С. 663-667
8. http://qashstat.uz/page/uz-UZ/qashqadaryo-viloyati-bo-yicha-ikkinolnolnol-ikkinolbirolti-yillar-makroiqtisodiy-ko-rsatkichlar-tahlili.

**УДК:338.22**

## ИҚТИСОДИЙ ИНҚИРОЗ ШАРОИТИДА АҲОЛИНИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯЛАШ ҲОЛАТИНИНГ ТАҲЛИЛИ ВА МАНЗИЛЛИЛИГИНИ КУЧАЙТИРИШ ЧОРАЛАРИ

## МЕРЫ ПО УСИЛЕНИЮ АНАЛИЗА И АДРЕСНОСТИ СОСТОЯНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКОГО КРИЗИСА

## MEASURES TO STRENGTHEN THE ANALYSIS AND TARGETTING OF THE STATE OF SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION DURING THE ECONOMIC CRISIS

**Абдуллаева Шахноза Еркиновна**
**PhD, "International School of Finance, Technology and Sciences"**
**E-mail: shakhnoza_abdullayeva@list.ru**

### Аннотация

Мақолада иқтисодий инқироз шароитида аҳолини ижтимоий ҳимоялаш ҳолатининг таҳлили ва манзиллилигини кучайтириш чоралари кўриб чиқилган бўлиб, унда ушбу йўналишдаги ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларда содир бўлаётган муаммолар ва давлат томонидан амалга оширилаётган сиёсати ёритилган. Муаллиф томонидан иқтисодий инқирозлар шароитида аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишни янада ривожлантириш йўллари, ҳамда давлат бюджети даромадларининг асосий йўналишларни молиялаштириш бўйича таклифлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** ижтимоий сиёсат, ижтимоий ёрдам, COVID-19, иқтисодий ўсиш, аҳолининг яшаш даражаси, ижтимоий дастурлар, индексация, Жаҳон банки, Халқаро валюта фонди, Осиё тараққиёт банки, бюджет даромадлари, бюджет харажатлари.

В статье анализируется состояние социальной защиты и меры по усилению адресности населения в условиях экономического кризиса, освещаются проблемы социально-экономических изменений в этой сфере и проводимая государством политика. Автор предлагает пути дальнейшего развития социальной защиты в условиях экономического кризиса, а также финансирования основных направлений доходов государственного бюджета.

**Ключевые слова:** социальная политика, социальная помощь, COVID-19, экономический рост, уровень жизни, социальные программы, индексация, Всемирный банк,

Международный валютный фонд, Азиатский банк развития, доходы бюджета, расходы бюджета.

The article analyzes the state of social protection in the context of the economic crisis and measures to strengthen the targeting, which highlights the problems of socio-economic change in this area and the policy pursued by the state. The author offers ways to further develop social protection in times of economic crisis, as well as to finance the main areas of state budget revenues.

**Keywords:** social policy, social assistance, COVID-19, economic growth, living standards, social programs, indexation, World Bank, International Monetary Fund, Asian Development Bank, budget revenues, budget expenditures.

COVID-19 пандемияси Ўзбекистонда мавжуд ижтимоий ҳимоя тизимини синовдан ўтказувчи восита бўлди. Ушбу инқироз соҳада изчил ислоҳотларни ўтказиш лозимлигини кўрсатди. COVID-19 инқирози деярли 2020 йилда ЯИМ ўсишини тўхтатди. Пандемиянинг иқтисодий, ижтимоий ва соғлиқни сақлаш соҳасидаги оқибатларини юмшатиш учун ҳукумат инқирозга қарши сиёсат чораларини кўрмоқда.

Ушбу чора-тадбирлар вирусни жиловлаш, инсонлар ҳаётини ҳимоя қилиш ва ислоҳотларни изчил давом эттиришга қаратилган. Пандемиянинг иқтисодий таъсирини юмшатиш бўйича ҳукуматнинг ҳаракатлари соғлиқни сақлаш ва ижтимоий ёрдам тизимлари, фирмаларга молиявий кўмак учун катта миқдорда қўшимча харажатларни ўз ичига олади. Жаҳон банки, Халқаро валюта фонди, Осиё тараққиёт банки ва икки томонлама донорларни ўз ичига олган халқаро молиявий кўмак инқироздан келиб чиққан ҳолда молиялаштириш эҳтиёжларини қоплашга йўналтирилди.

2020 йил мартидан бошлаб жаҳон иқтисодиёти қатори глобал COVID-19 пандемияси Марказий Осиё мамлакатлари, шу жумладан, Ўзбекистонга ҳам салбий таъсир кўрсатмоқда. Пандемия ва иқтисодий инқироз бутун дунё бўйлаб миллий соғлиқни сақлаш тизимларига, давлат секторларига, ишбилармонлик фаолиятига, истеъмолга, халқаро савдо ва инвестицияларга таъсир кўрсатмоқда. Масалан, Ўзбекистонда карантин даврида иқтисодий фаолликнинг энг катта пасайиши апрел ойининг биринчи ўн кунлигида содир бўлди, товар биржаларидаги савдолар ҳажми ўртача 30 фоизга пасайди ва баъзи товарларни сотиш 80 фоизгача пасайди. 2020 йилнинг 1 ва 27 апрел кунлари мамлакатда март ойининг шу даврига нисбатан жами пул тушумлари 45 фоизга камайди, шу билан бирга маҳсулот сотишдан тушадиган даромадлар 31 фоизга ва пуллик хизматлардан тушумлар деярли 2,7 бараварга камайди[2]. Бундай шароитда Ўзбекистон коронавирус пандемияси ва глобал иқтисодий инқирознинг иқтисодий ўсишга таъсирини юмшатиш бўйича муайян чораларни кўрмоқда.

Инқирозга қарши жамғарма пандемиянинг мамлакат иқтисодиётига салбий таъсирини юмшатиш бўйича биринчи иқтисодий қадам бўлди. 2020 йил 17 июнь ҳолатига кўра Жамғарма даромади 7,44 трлн. сўмни ташкил этди. Ушбу жамғарма умумий миқдорининг 74,4 фоизи 17 июнга қадар шаклланган эди. Улардан 7,32 триллион сўми халқаро молия институтларининг маблағлари, 123,5 миллиард сўми давлат бюджетидан йўналтирилди ва харажатларнинг умумий ҳажми 3,3 триллион сўмни ташкил этди[2].

Иккинчидан, Давлат бюджети ва Инқирозга қарши жамғармани халқаро молия институтларининг ва бошқа манбаларнинг имтиёзли кредитлари ҳисобидан молиялаштиришни таъминлаш учун, бундан кейин ҳам ташқи қарз маблағларини жалб қилиш бўйича тадбирларни амалга ошириш режалаштирилган. Шундай қилиб, Ўзбекистон глобал коронавирус пандемиясининг салбий оқибатларига қарши кураш чораларини кўриш учун грантлар ва узоқ муддатли имтиёзли молиялаштиришни жалб қилиш бўйича Йўл харитасини тасдиқлади. Ўтган йилнинг апрел ойида Ўзбекистонда умумий қиймати 3 миллиард доллардан ортиқ бўлган узоқ муддатли имтиёзли кредитлар ва грантларни жалб қилиш бўйича дастлабки келишувларга эришилди. Ушбу маблағлар Иқтисодий ривожланиш банки, Осиё тараққиёт банки, Жаҳон банки, Осиё инфратузилма инвестиция банки, Европа инвестиция банки, Европа тикланиш ва тараққиёт банки, Франция тараққиёт агентлиги

томонидан ажратилади. Шунингдек, Бирлашган Араб Амирликлари ҳукумати, Европа Иттифоқи, Корея ҳукумати ва халқаро ташкилотларнинг грантларини жалб қилиш режалаштирилган[3].

Учинчидан, 2020 йилги Давлат бюджети параметрларини оптималлаштириш бўйича чоралар кўрилди[3].

Бюджет даромадлари асосан қуйидаги йўналишларни молиялаштиришга йўналтирилди:

- Коронавирус инфекцияси тарқалишининг олдини олиш бўйича чора-тадбирлар, шу жумладан дори воситалари ва тиббий буюмлар сотиб олиш, тиббиёт муассасаларини қуриш, реконструкция қилиш, таъмирлаш ва жиҳозлаш;
- Давлат хизматчиларига иш ҳақи, пенсия, стипендия ва нафақаларни ўз вақтида тўлаш;
- Озиқ-овқат маҳсулотларини сотиб олиш, коммунал хизматлар учун тўловлар ва бошқа ўз вақтида бўлмаган харажатларни қоплаш;
- Республика Инқирозга қарши комиссиясининг қарори асосида бошқа тадбирлар ва харажатлар.

Тўртинчидан, иқтисодий фаолликни ошириш ва молиявий барқарорликни сақлаш бўйича аниқ чоралар кўрилди. Хусусан, апрел ойида Марказий банк базавий ставкани бир фоизга пасайтирди (16 фоиздан 15 фоизгача) ва пул-кредит сиёсати воситаларидан фаол фойдаланиш учун маблағларни назарда тутди (ойига бир триллион сўмгача)[4]. Банк, шунингдек, тижорат банкларининг мажбурий захираларга бўлган талабларини юмшатиш орқали 2,6 триллион сўмлик қўшимча ликвидли ресурслар билан таъминлаш тўғрисида қарор қабул қилди. Банк тижорат банкларига уч йилгача икки триллион сўмгача ликвидлик беришнинг махсус механизмини ҳам жорий этди. Хусусий корхоналарга берилган айланма маблағларни тўлдириш ва истеъмол бозорини энг зарур товарлар билан тўлдириш учун айланма кредитлар ажратишга қарор қилинди[5].

Ўзбекистондаги ижтимоий ҳимояга муҳтож оилаларга ёрдам кўрсатиш учун эҳтиёжмандлар тўғрисидаги маълумотлар киритилган «темир дафтар» рўйхати жорий қилинди. Рўйхат маҳалла қўмиталари раислари томонидан сектор раҳбарлари билан биргаликда шакллантирилади.

“ТЕМИР ДАФТАР” – бу оилаларни камбағалликдан чиқариш, ижтимоий аҳволи ҳамда турмуш шароити оғир бўлган, оилаларнинг доимий бандлигини ва даромад манбаи билан таъминлаш ва уларни қўллаб-қувватлаш бўйича сектор раҳбарлари томонидан алоҳида назоратга олинган оилалар қайд этиладиган “SAXOVAT.ARGOS.UZ” электрон дастури.

